

**Bexzod Sodiqovich YULDASHEV  
Satimboy Rajapovich POLVONOV  
Erkin Xoziyevich BOZOROV**

# **AMALIY YADRO FIZIKASI**



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI  
YADRO FIZIKASI INSTITUTI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**Bexzod Sodiqovich YULDASHEV  
Satimboy Rajapovich POLVONOV  
Erkin Xojiyevich BOZOROV**

**AMALIY YADRO FIZIKASI**

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi tomonidan  
oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan*

**«Donishmand ziyosi»  
Toshkent – 2020**

**UO'K 530(075)**

**KBK 22.3**

**Yu 31**

**Taqrizchilar:**

**T.M. Mo'minov** – O'zMU fizika fakulteti «Yadro fizikasi» kafedrasи professori, O'zR FA akademigi;

**M.A. Qayumov** – O'zR FA Yadro fizikasi instituti, «Siklotron radioizotoplari fizikasi va texnologiyasi laboratoriysi» katta ilmiy xodimi, fizika-matematika fanlari nomzodi;

**G.A. Qulabdullayev** – O'zR FA Yadro fizikasi instituti «Yadroviy tibbiyat» laboratoriysi mudiri, fizika-matematika fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim.

Darslik Mirzo Ulug'bek nomli O'zbekiston Milliy universiteti Kengashining kengaytirilgan yig'ilishida muhokama qilinib, chop etishga tavsiya etilgan (2017-yil 25-oktabr, № 2-son yig'ilish bayoni).

Darslikda yadro nurlanishlarining modda bilan o'zaro ta'siri, yadro nurlanishlarining tibbiyotda qo'llanishi, radioaktiv parchalanishlar, yadro reaksiyalari va ularning turlari, dozimetriya asoslari, aktivatsion tahlil, tashxis qo'yishda qo'llaniladigan radionuklidlar, pozitron emission tomografiyaning ishlash tamoyili, radioizotoplarni olish va ularning tibbiyotda qo'llanishi bayon etilgan.

Ushbu darslik amaliy yadro fizikasi sohasidagi mutaxassislar, doktorantlar va oliy o'quv yurtlari bakalavrлari hamda magistrantлari uchun mo'ljallangan.

«Amaliy yadro fizikasi» fanidan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish, mazkur mashg'ulotlarda topshiriqlarni bajarishiga doir darslik O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan o'quv rejasiga binoan tayyorlangan.

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018-yil 27-martdagи 274-sonli buyrug'iga asosan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan litsenziya berilgan nashriyotlarga nashr qilishga ruxsat berildi.**

**Ro'yxatga olish raqami 274-317.**

© B.S. Yuldashev va boshq., 2020

© «Donishmand ziyosi» nashriyoti, 2020

ISBN 978-9943-6445-8-8

## SO‘ZBOSHI

Amaliy yadro fizikasiga bag‘ishlangan mazkur darslik mualliflarning Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti fizika fakulteti «Atom yadrosi va elementar zarrachalar fizikasi, tezlashitiruvchi texnika» mutaxassisligi bo‘yicha ta’lim olayotgan talabalarga ko‘p yillar davomida o‘qilgan ma’ruzalari asosida tayyorlandi.

Ushbu darslikning ahamiyati shundaki, u o‘zbek tilida ilk bor yozilishi. Bunda amaliy yadro fizikasi fani sohasida qo‘lga kiritilgan eng so‘nggi yutuqlar to‘liq bayon etilgan. Darslikning asosiy maqsadi amaliy yadro fizikasi yutuqlarini fan va texnikada, tibbiyotda va sanoatda qo‘llanilishini yoritishdan iborat.

Darslik beshta bobdan iborat. Kirish qismida amaliy yadro fizikasining rivojlanish bosqichlari bayon etilgan. Radioaktivlik hodisasi va uning turlari, radioaktiv fon, yadro reaksiyalari va ularning turlari, yadro reaksiyalarining radioizotoplar olishda qo‘llanilishi, tibbiyotda radioizotoplarning qo‘llanilishi va imkoniyatlari birinchi va ikkinchi boblarda bayon etilgan. Zaryadlangan zarralarning modda bilan o‘zar ta’siri, elektronlarning radiatsion tormozlanishi, Vavilov-Cherenkov nurlanishi, sinxrotron nurlanishlar, zaryadlangan zarralarning kristallardan o‘tishida kanallahish hodisasi, gamma-nurlarning modda orqali o‘tishiga sodir bo‘ladigan ta’sir kabi mavzular uchinchi bobda bayon etilgan. To‘rtinchi bob alohida e’tiborga sazovor bo‘lib, bunda zamonaviy tibbiyotda yadro nurlanishlarining qo‘llanilishi, radioizotoplarning tashxis va davolashda qo‘llanilishi to‘liq yoritilgan. Zamonaviy yadro fizikaviy tahlil usullaridan biri bo‘lgan aktivatsion tahlil metodi va uning turli sohalarda qo‘llanilishining tahliliy imkoniyatlari beshinchchi bobda keltirilgan. Shuningdek, darslikda nazorat savollari, bobga oid masalalar yechimlari va mustaqil yechish uchun masalalar, glossariy va test savollari ham keltirilgan bo‘lib, bular talabalarga mazkur fanni o‘zlashtirishda yordam beradi.

Mualliflar mazkur kitob qo‘lyozmasini ko‘rib chiqib qimmatli maslahatlar bergan O‘zMU fizika fakulteti yadro fizikasi kafedrasи profesori, O‘zR FA akademigi T.M. Mo‘minovga, O‘zR FA Yadro fizikasi instituti Yadroviy tibbiyot laboratoriysi mudiri, fizika-matematika f. n., katta ilmiy xodim G‘.A. Qulabdullayevga, «Siklotron radioizotop-

lari fizikasi va texnologiyasi» laboratoriyası katta ilmiy xodimi, fizika-matematika f. n. M.A. Qayumovga o‘z minnatdorchiliklarini izhor qila-dilar.

Ushbu darslik amaliy yadro fizikasi fani bo‘yicha ilk bor o‘zbek tilida yozilgan birinchi kitob bo‘lgani uchun u ayrim kamchiliklardan holi emas.

Mualliflar kitobning keyingi nashrlarida bu kamchiliklarni tuzatishga imkon beradigan taklif va mulohazalarini yuboruvchi kitobxonlarga minnatdorchilik bildiradilar.

## KIRISH

Yadro fizikasi fani atom yadrosining tuzilishi, xususiyati va unda yuz beradigan jarayonlar haqidagi fandir. Yadro fizikasi sohasida qo'yilgan birinchi qadam 1896-yilda A. Bekkerel tomonidan radioaktivlik hodisasining kashf etilishi bo'ldi. Ushbu kashfiyotdan keyin radioaktivlik hodisasi bo'yicha ketma-ket kashfiyotlar qilindi, yangi radioaktiv izotoplar kashf etildi.

Atom yadrosi to'g'risida birinchi ma'lumot 1911-yilda E. Rezeford tomonidan taklif etilgan atomning yadro modelida berildi. Bu modelga asosan atom markazida juda kichik o'lchamli ( $\sim 10^{-12}$  sm) musbat zaryadlangan yadro va uning atrofida nisbatan katta masofada ( $\sim 10^{-8}$  sm) joylashgan elektronlardan iboratdir. Elektronning massasi juda ham kichik bo'lgani sababli, atomning deyarli butun massasi yadroda to'plangan bo'ladi. Shunday qilib, «Yadro fizikasi» fani dunyoga kelgan sanani 1911-yil deb aytish mumkin.

Yadro fizikasining keyingi rivojlanishi va uning yutuqlarini turli sohalarga qo'llash natijasida yangi fan – amaliy yadro fizikasi paydo bo'ldi.

Amaliy yadro fizikasi yadro fizikasining yutuqlarini amalda, ya'ni fan va texnikada, tibbiyotda, sanoatning turli sohalarida qo'llashdan iborat. Amaliy yadro fizikaning asosiy mohiyati shundaki, yadro fizikasining yutuqlari asosida modda, atrof-muhit obyektlari, texnologik jarayonlarning turli xususiyatlarini nazorat va tadqiq qilish uchun yadro-fizikaviy metodlar, asbob va uskunalar ishlab chiqish, yaratish va qo'llashdan iborat.

Hozirgi kunda ushbu fan jadal rivojlanib borayotgan amaliy fanlar dan biridir. U bir necha yo'naliishlarga bo'linib ketadi. Shularning ichida eng muhimlari aktivatsion tahlil, dozimetriya, nurlanishlarning moddalar bilan o'zaro ta'siri, yadro energetikasi, yadro tibbiyoti va yadro ekologiyalari hisoblanadi. Bu yo'naliishlardan tashqari mazkur fan asosida yangi yo'naliish – yadro texnologiyalari deb nomlangan yo'naliish ham vujudga keldi. Mazkur kitobda aktivatsion tahlil, dozimetriya va nurlanishlarning moddalar bilan o'zaro ta'siri yo'naliishlariga asosiy e'tibor qaratilgan. Berilgan mavzularda yadro tibbiyotiga tegishli bir qator ma'lumot va tushunchalar berib o'tilgan.

# I B O B

## RADIOAKTIVLIK HODISASI

Radioaktivlik hodisasi kashf etilganiga ham yuz yildan oshdi. Ushbu davr ichida bu hodisa har tomonlama o'rganildi, yangi xususiyatlari va turlari kashf etildi. Eng so'nggi kashf etilgan turlaridan biri bu klaster radioaktivlik yoki klaster parchalanishdir. Bu parchalanish XX asrning oxirlarida kashf etilgan bo'lib, u noyob radioaktivliliklar guruhiga kiradi. Hozirgi kunda 25 ta yadroning klaster parchalanishi tajribada aniqlangan.

Radioaktivlik ikki xil, ya'ni tabiiy va sun'iy radioaktivlikka bo'linadi. Yerda uchraydigan tabiiy radioaktivlikni ilk bor Pyer va Mariya Kyurilar tadqiq qilgan. Sun'iy radioaktivlikni yoki sun'iy radioaktiv elementlarni ilk hosil qilish imkoniyatlarini ochgan olimlar Iren va Frederik Jolio-Kyurilardir. Ular ilk bor sun'iy radioaktiv elementni sintez qilganlar. Keyinchalik bu radioaktiv izotoplar turli sohalarda keng qo'llanila boshlandi.

Keyingi vaqtarda radioaktiv izotoplar ishlab chiqarish va ularning qo'llanilish sohalari kengayib bormoqda. Ayniqsa, uni tibbiyotda qo'llanilishi va ishlab chiqarilayotgan radioaktiv izotoplar (radionuklidlar) soni va nomenklaturasi oshishida yaqqol ko'rish mumkin.

Mazkur bobda radioaktivlik, radioaktiv parchalanish qonunlari, parchalanish turlari, ichki konversiya hodisasi, Myossbauer effekti va uning qo'llanilishi hamda radioaktiv fon mavzulariga to'xtalib o'tiladi.

### 1.1-§. Radioaktivlik hodisasining umumiyligi tavsifi

Radioaktivlikning kashf etilishi atom tuzilishi haqidagi ta'limot taraqqiyotida katta ahamiyatga kasb etdi. Radioaktivlikni (lotinchadan radio – nurlanish, radius – nur va activus – ta'sirchan) 1896-yilda fransuz olimi Anri Bekkerel kashf etdi. A. Bekkerel uran metalli birikmalarini bo'lgan ruda ko'zga ko'rinxaydigan, ammo fotoplastinkaga ta'sir qiladigan nurlar chiqarishini payqdadi. Agar qorong'i uyda bir parcha uran rudasi fotoplastinka ustiga bir necha kun qo'yilib, so'ngra plastinka ochtirilsa, unda ruda parchasining tasviri tushib qolganini ko'rish


mumkin. Radioaktivlik hodisasini Bekkerel ana shu yo'l bilan topgan. Bekkerel kashfiyotidan ko'p o'tmasdan bunday ko'zga ko'rinas nurlarni boshqa moddalar ham chiqarishi aniqlangan. Barcha bunday moddalar radioaktiv moddalar deb, moddalarning bunday nurlar chiqarish xususiyati esa radioaktivlik deb atala boshlandi. Radioaktivlik hodisasi o'rganish sohasida fransuz olimlari Mariya Sklodovskaya-Kyuri va Pyer Kyurilarning xizmati katta bo'ldi. Ular bir necha tonna uran rudasini qayta ishlab, fanga ma'lum bo'lmagan metallning bir grammiga yaqin miqdorini ajratib olishgan. Bu metallning radioaktivligi uranning radioaktivligidan bir necha million marta ortiq ekanligi aniqlandi. Olimlar bu metallni radiy deb atashgan (radiy – nurli demakdir, lotincha radius – nur so'zidan olingan). Olimlar radioaktiv parchalanish jarayoniga tabiatdagi qanday kuchlar ta'sir eta oladi (uni tezlashtiradi yoki sekinlashtiradi) degan savolga javob izlay boshladilar. Izchil tekshirishlar natijalaridan ma'lum bo'ldiki, juda yuqori yoki juda past harorat, kuchli elektr va magnit maydonlari, yuqori bosim va tezlanishlar, kuchli kimyoviy reaktivlar ham radiyning parchalanish jarayoniga ta'sir eta olmasligini ko'rsatdi. Pyer va Mariya Kyurilar radiy donachasini magnit maydoniga qo'yib, bir jinsli bo'lgan radioaktiv nurlar dastasini maydon ta'sirida ikki dastaga ajralishini payqadilar. Bu dastalardan birida radioaktiv zarrachalar oldingi yo'nalishda to'g'ri chiziq bo'ylab harakatlanadi, ikkinchisida esa bir tomonga og'ib, o'z yo'lini o'zgartiradi. Nurlarning og'ish yo'nalishi va burchagiga qarab, og'uvchi nurlar manfiy zarralar oqimi ekanligiga ishonch hosil qilish mumkin. Juda sinchiklab tekshirishlar natijasi bu nurlarning elektronlar ekanligini ko'rsatdi. Uchib chiqayotgan elektronlarning tezliklari turlicha bo'lib chiqdi. Magnit maydon ta'sirida og'uvchi dastada tezliklari yorug'lik tezligiga yaqin tezlik bilan harakatlanuvchi elektronlar ham uchraydi. Radioaktiv nurlarning magnit maydonida og'maydigan qismi qanday tabiatga ega ekanligini aniqlashgina qoldi. Ingliz fizigi Ernest Rezerford bu masalani hal qilishga kirishdi. U Pyer va Mariya Kyurilar tajribasini kuchli magnit maydonida o'tkazishga ahd qiladi. E. Rezerford tajribasida radioaktiv nurlarning Pyer va Mariya Kyurilar tajribasidagi magnit maydon ta'sirida og'maydigan qismi kuchli magnit maydonda ikkita dastaga ajralishi kuzatildi. Bu dastalardan biri magnit maydon ta'sirida mutlaqo og'may, to'g'ri chiziq bo'ylab boradi,

ikkinchisi esa elektronlarning og'ish yo'nalishiga qarama-qarshi to-monga biroz og'adi. Rezerford o'z tajribasi natijalarini tahlil qilib, radioaktiv nurlarning bu qismi musbat zaryadlangan zarrachalar oqimidan iborat degan xulosaga keladi (**1.1-rasm**).

Ushbu tajribadagi nurlar dastalariga grek alifbosining dastlabki uchta harfining nomi berilgan: alfa ( $\alpha$ )-nurlar, beta ( $\beta$ )-nurlar va gamma ( $\gamma$ )-nurlar. Tajriba natijalarining tahlili shuni ko'rsatdiki, alfa-nurlar geliy atomi yadrolarining oqimi, beta-nurlar tez harakatlanayotgan elektronlar oqimi, elektr va magnit maydonida hech yoqqa og'maydigan gamma-nurlar esa elektromagnit nurlanish bo'lib, elektromagnit to'lqinlar shkalasida rentgen nurlardan keyin joylashgan.

Radioaktiv parchalanish yuz berishi uchun energetik shart bajarilishi zarur. Bunda radioaktiv parchalanayotgan yadroning massasi parchalanishda hosil bo'lgan zarralar va bo'laklarning massalari yig'indisidan katta bo'lishi shart. Bu esa radioaktivlikning yetarli bo'limgan zaruriy shartidir.

Radioaktiv parchalanish, uning sodir bo'lishi vaqtin, nurlanayotgan zarralar turi, ularning energiyasi va o'zaro uchib chiqish burchaklari bilan tavsiflanadi.



**1.1-rasm.** Tajribada nurlarning hosil bo'lishi.

Radioaktiv yadrolarning yashash vaqtleri soniyadan yillargacha bo‘lgan oraliqda yotadi. Odadta soniyadan yilgacha bo‘lgan vaqt radiotexnik usulda, soniyadan kichik vaqt esa yadroning energetik sathi kengligini o‘lchash orqali topiladi. Radioaktiv yadrolarning yashash vaqtiga, ularning parchalanishda ajralgan energiyaga bog‘liqdir. Agarda bu energiya kichik bo‘lsa, yashash vaqtiga keskin ortadi va bunda yashash vaqtiga boshlang‘ich hamda oxirgi holatdagi yadrolarning spinlari farqiga kuchli bog‘liq bo‘ladi.

Hozirgi kunda quyidagi ko‘rinishdagi parchalanishlar ma’lum:

- $\alpha$ -parchalanish ( ${}^4_2He$  yadrosi);
- $\beta$ -parchalanish ( $e^\pm, \nu_e, \bar{\nu}_e$ );
- $\gamma$ - parchalanish;
- spontan (o‘z-o‘zidan) bo‘linish;
- nuklonlar chiqishi (bitta proton yoki neytron, ikkita proton);
- klasterlarning chiqishi ( ${}^{12}C$  dan  ${}^{32}S$  gacha bo‘lgan yadrolar).

Radioaktiv parchalanish har doimo ekzotermik, ya’ni energiya ajralishi bilan yuz beradigan jarayondir. Radioaktiv parchalanishda ajralgan  $E$  energiya quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$M_i c^2 = M_f c^2 + \sum_s m_s c^2 + E, \quad (1.1)$$

bu yerda  $M_i$ ;  $M_f$ ;  $m_s$  – mos ravishda boshlang‘ich yadro, oxirgi yadro va uchib chiqayotgan zarralar massalaridir.

## 1.2-§. Radioaktiv parchalanishning asosiy qonunlari

Radioaktiv parchalanishlar statistik hodisa hisoblanadi. Muayyan radioaktiv moddadagi barcha atomlar ayni bir vaqtida parchalanmaydi. Ularning ba’zilarida bu jarayon juda qisqa vaqtida ro‘y bersa, boshqalarida esa juda uzoq vaqt davomida sodir bo‘ladi. Bundan radioaktiv parchalanish hodisasi statistik hodisa ekanligi, ya’ni noturg‘un yadro ni qachon parchalanishini oldindan aytish mumkin emasligi va bu jarayonni ehtimollik nazariyasi qonunlari asosida tushuntirilishi kelib chiqadi. Ushbu jarayonni tavsiflovchi kattaliklardan eng muhim bu vaqt birligi ichida parchalanish ehtimolligi, ya’ni parchalanish doimiysi I

hisoblanadi. Agarda  $N$  ta bir xil turg'un bo'lmagan yadrolarni olsak, u holda birlik vaqt ichida o'rtacha  $\bar{N}$  ta yadro parchalanadi. Bu kattalik aktivlik deyiladi. Aktivlik bu radioaktiv yadrolarning parchalanish tezligidir.

Xalqoro birliklar sistemasida (XBS) aktivlik birligi etib 1 soniyadagi parchalanishlar soni qabul qilingan, ya'ni 1 parchalanish/c. Bu birlik Bekkerel (Bk) deb ham aytildi.  $1 \text{ Bk} = 1 \text{ parch/c.}$  Xalqaro birliklar sistemasiga kirmaydigan quyidagi birliklar ham qo'llaniladi:

$$1 \text{ Rezerford} = 1 \text{ Rd} = 10^6 \text{ Bk};$$

$$1 \text{ Kyuri} = 1 \text{ Ku} = 3,7 \cdot 10^{10} \text{ Bk};$$

$$1 \text{ mKu} = 10^{-3} \text{ Ku};$$

$$1 \text{ mkKu} = 10^{-6} \text{ Ku.}$$

Radioaktiv parchalanish doimiysi 1, vaqtga bog'liq emas. Buning ma'nosi shuki, yadroning yoshi tushunchasi o'rniga yadroning o'rtacha yashash vaqt kattaligini ishlatish o'rinnlidir.

Agar  $dt$  vaqt ichida o'rtacha  $dN$  ta yadro parchalansa, ushbu parchalanishlar soni faqat parchalanuvchi radioaktiv yadrolar soniga bog'liq bo'ladi, ya'ni:

$$dN = -\lambda N(t) dt \quad (1.2)$$

bu yerda manfiy ishora radioaktiv yadrolarning umumiyligi sonini vaqt o'tishi bilan kamayishini ko'rsatadi.  $t = t_0 = 0$  da  $N(t_0) = N_0$  ekanligini hisobga olib (1.2) ifodani integrallaymiz va quyidagi formulani olamiz:

$$N = N_0 e^{-\lambda t}. \quad (1.3)$$

bu yerda  $N = t$  paytdagi parchalanmagan yadrolar soni,  $N_0 =$  boshlang'ich paytdagi yadrolar soni.

Bu radioaktiv parchalanish qonunining ifodasıdir. Bu ifodadan ko'rinish turibdiki, radioaktiv yadrolar soni vaqt o'tishi bilan eksponensial qonun bo'yicha kamayib boradi. Aktivlik (1.2) ga ko'ra quyidagi ko'rinishni oladi:

$$A = -\frac{dN}{dt}, \quad (1.4)$$

Demak, aktivlik bu parchalanish tezligini ifodalaydi.  $A = \lambda N$  ifodani (**1.3**) formulaga qo‘yamiz va quyidagi formulani hosil qilamiz:

$$A = A_0 e^{-\lambda t}. \quad (1.5)$$

Radioaktiv parchalanish hodisasida muhim bo‘lgan yana bir kattalik bu yarim yemirilish yoki yarim parchalanish davridir. Yarim parchalanish davri deb, radioaktiv yadrolarning yarmi parchalanishi uchun ketadigan vaqtga aytildi va  $T_{1/2}$  bilan belgilanadi. Bitta yarim parchalanish davridan so‘ng radioaktiv yadrolar soni ikki baravar kamayganligidan,  $\lambda$  va  $T_{1/2}$  orasidagi bog‘lanish quyidagicha bo‘ladi:

$$\frac{N_0}{2} = N_0 e^{-\lambda T_{1/2}},$$

$$T_{1/2} = \frac{\ln 2}{\lambda} = \frac{0,693}{\lambda} \quad (1.6)$$

Yadrolarning o‘rtacha yashashi vaqtiga:

$$\tau = \bar{t} = \int_0^{\infty} t dN(t) / \int_0^{\infty} dN(t) = N_0 \int_0^{\infty} \lambda t \exp(-\lambda t) dt / N_0 = \frac{1}{\lambda}. \quad (1.7)$$

Yuqorida keltirilgan (**1.3**) ifodaga (**1.7**) ifodani qo‘yib, quyidagi formulani olamiz:

$$N = N_0 e^{-\frac{t}{\tau}} \quad (1.8)$$

Agar  $t=f$  bo‘lsa, u holda

$$N = N_0 / e \quad (1.9)$$


Demak, yadroning o‘rtacha yashash vaqtiga davomida yadrolar soni  $e$  marta kamayadi. Radioaktiv parchalanishning eksponensial qonuni **1.2-rasmida** grafik ko‘rinishida keltirilgan.

Ayrim hollarda absolut aktivlikdan tashqari solishtirma, hajmiy va sirt aktivligi deb nomlangan kattaliklardan ham foydalaniladi.

Bir jinsli radioaktiv namunaning solishtirma aktivligi deb massa birligidagi aktivligiga aytildi:

$$A_m = \frac{A}{m}, \quad (1.10)$$

bu yerda  $A$  – radioaktiv namunaning (modda) aktivligi,  $m$  – uning massasi. Solishtirma aktivlikning o‘lchov birligi (XBsda) Bk/kg. Shuningdek,



**1.2-rasm.** Radioaktiv parchalanishning eksponensial qonuni. Bu yerda yarim parchalanish davri  $T_{1/2}$  va o'rtacha yashash vaqt  $\tau = l/l$  keltirilgan.

hosilaviy o'lchov birliklar  $Bk/g$  va sistemadan tashqari o'lchov birlik  $Ki/kg$  (yuqori aktivlikdagi manbalar uchun)lar ham qabul qilingan.

Bir jinsli suyuq va gazsimon namunalar hajmiy aktivlik bilan tafsiflanadi va u quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$A_V = \frac{A}{V}, \quad (1.11)$$

bu yerda  $A$  – radioaktiv namuna (modda) aktivligi,  $V$  – uning hajmi. Hajmiy aktivlik o'lchov birligi (XBSda)  $Bk/m^3$ . Ammo ko'p hollarda  $Bk/l$  qo'llaniladi.

Radionuklidlar bilan tekis ifloslangan (to'kilgan yoki yoyilgan) sirtning sirt aktivligi deb birlik yuzaga mos keluvchi aktivlikka aytildi:

$$A_S = \frac{A}{S}, \quad (1.12)$$

bu yerda  $A$  – sirtning  $S$  yuzasi bo'ylab tekis taqsimlangan aktivlik. Sirt aktivligining o'lchov birligi (XBSda)  $Bk/m^2$ . Shuningdek, hosilaviy o'lchov birliklar  $Bk/sm^2$  va sistemadan tashqari o'lchov birlik  $Ki/km^2$  qo'llaniladi.

Ko'p hollarda radioaktiv yadrolarning parchalanishi natijasida hosil bo'lgan ikkilamchi yadrolar ham radioaktiv bo'lishi mumkin, ya'ni

birlamchi radioaktiv yadro parchalanishi natijasida ikkilamchi yadro va bu parchalanish natijasida uchlamchi yadro va h.k. radioaktiv yadrolar hosil bo'ladi:

$$1 \rightarrow 2 \rightarrow 3 \quad (1.13)$$

Bu holda birlamchi yadrolar soni o'zgarishini  $N_1$  ikkilamchi yadrolar sonini o'zgarishini esa  $N_2$  deb belgilab olamiz va ushbu o'zgarishlarni ifodalovchi quyidagi differensial tenglamalar sistemasini hosil qilamiz:

$$\frac{dN_1}{dt} = -\lambda_1 N_1, \quad \frac{dN_2}{dt} = -\lambda_2 N_2 + \lambda_1 N_1 \quad (1.14)$$

Bu tenglamalarning ma'nosi quyidagicha: birlamchi yadroning soni uning parchalanishi hisobiga kamayadi, ikkilamchi yadroning soni ham o'zining parchalanishi hisobiga kamayadi, ammo shu bilan birga, birlamchi yadroning parchalanishi hisobiga ortadi. Bu tenglamalar sistemasini yechamiz va quyidagi ifodalarini olamiz:

$$\begin{cases} N_1(t) = N_{10} e^{-\lambda_1 t} \\ N_2(t) = N_{20} e^{-\lambda_2 t} + \frac{N_{10} \lambda_1}{\lambda_2 - \lambda_1} (e^{-\lambda_1 t} - e^{-\lambda_2 t}) \end{cases} \quad (1.15)$$

$t = 0$  da birlamchi yadroning soni  $N_{10}$  ta, ikkinchi yadroning soni esa  $N_{20} = 0$  bo'lsin, u holda (1.15) tenglamalar sistemasini quyidagi ko'rinishga keladi, ya'ni:

$$\begin{cases} N_1(t) = N_{10} e^{-\lambda_1 t} \\ N_2(t) = \frac{N_{10} \lambda_1}{\lambda_2 - \lambda_1} (e^{-\lambda_1 t} - e^{-\lambda_2 t}) \end{cases} \quad (1.16)$$

Agar esa  $N_{20}=0$  va  $T_1 >> T_2$  ( $\lambda_1 \ll \lambda_2$ ) bo'lsa,  $t \ll T_1$  vaqt uchun (1.13) ifoda quyidagi ko'rinishga keladi:

$$N_2(t) \approx \frac{\lambda_1}{\lambda_2} N_{10} (1 - e^{\lambda_2 t}) \quad (1.17)$$

Demak,  $T_1 >> T_2$  ( $\lambda_1 \ll \lambda_2$ ) bo'lgan holda radioaktiv yadrolarning parchalanish qonuni ikkilamchi yadroning parchalanish doimiysi bilan tavsiflanar ekan. Agar  $t >> T_2$  ya'ni  $\lambda_2 t >> 1$  bo'lganda (1.17) ifoda o'zining chegaraviy qiymatiga yaqinlashadi:

$$\lim_{t \rightarrow \infty} N_2(t) = \frac{\lambda_1 N_{10}}{\lambda_2} = \text{const} \quad (1.18)$$


Agar  $t > 10T$  bo'lsa, (1.18) ifoda quyidagi ko'rinishga keladi:

$$\lambda_1 N_1 = \lambda_2 N_2 . \quad (1.19)$$

Bu ifoda asriy muvozanat tenglamasi deb ataladi. Bunda vaqt birligi ichida hosil bo'layotgan ikkilamchi yadrolar soni parchalanayotgan birlamchi yadrolar soniga teng degan ma'noni beradi. Bunga misol qilib radiy parchalanishi natijasida radon hosil bo'lishi jarayonini keltirish mumkin.

### 1.3-§. Alfa-parchalanish

Og'ir yadrolarning o'z-o'zidan b-zarralar chiqarib parchalanishiga b-parchalanish hodisasi deyiladi. Alfa-parchalanishda yadroning massa soni to'rt birlikka, atom nomeri esa ikki birlikka kamayadi, ya'ni:



bu yerda  ${}^A_Z X$  – birlamchi yadro,  ${}^{A-4}_{Z-2} X$  – ikkilamchi yoki hosilaviy yadro.

Alfa-parchalanish sodir bo'lishi uchun quyidagi tengsizlik bajariliishi lozim:

$$M(A, Z) \geq M(A-4, Z-2) + M({}^4_2 He) \quad (1.21)$$

ya'ni birlamchi yadroning massasi (energiyasi)  ${}^{A-4}_{Z-2} X$  hosilaviy yadroning va b-zarra massalari yig'indisidan katta bo'lishi kerak. Alfa-parchalanishda ajralgan  $Q_\alpha$  energiya b-zarraning kinetik energiyasi va hosilaviy yadroning olgan tepki energiyasiga sarflanadi, ya'ni:

$$Q_\alpha = [M(A, Z) - M(A-4, Z-2) - M({}^4_2 He)]c^2 = T_\alpha + T_t \quad (1.22)$$

bu yerda  $T_b$  – b-zarraning kinetik energiyasi,  $T_t$  – tepki yadroning kinetik energiyasi. Bu jarayon uchun impuls saqlanish qonuni quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$\vec{P}_\alpha + \vec{P}_t = \vec{P}(A, Z) \quad (1.23)$$

bu yerda  $\vec{P}_\alpha$  – b-zarraning impulsi,  $\vec{P}_t$  – tepki yadroning impulsi. Agar parchalanayotgan yadro tinch holda turibdi deb faraz qilinsa, quyidagi tenglik o‘rinli bo‘ladi:  $|\vec{P}_\alpha| = |\vec{P}_t|$  bundan

$$T_t = T_\alpha M_\alpha / M_t \quad (1.24)$$

(1.24) ifodani (1.22) ga qo‘yamiz

$$Q_\alpha = T_\alpha \left( 1 + \frac{M_\alpha}{M_t} \right) \quad (1.25)$$

bu yerdan

$$T_\alpha = Q_\alpha \frac{M_t}{M_t + M_\alpha} \quad (1.26)$$

bu yerda  $M_t$  – tepki yadro massasi. Shunday qilib, b-parchalanish natijasida ajralib chiqadigan kinetik energiyaning asosiy qismini b-zarra olib ketadi, juda kam qismini (b-radioaktiv og‘ir yadrolarda uchun ~2% ga yaqin) ikkilamchi (hosilaviy) yadro olib ketadi.

Alfa-parchalanishning quyidagi o‘ziga xos empirik xususiyatlari mavjud:

1. Alfa-parchalanishlar faqat og‘ir yadrolarda sodir bo‘ladi. Hozirgi kunda alfa-parchalanuvchi yadrolar soni 200 dan oshadi va ular asosan  $Z > 83$  sohada kuzatiladi. Alfa-parchalanuvchi yadrolarning kichik guruhi noyob elementlar, ya’ni  $A = 140 - 160$  soha oralig‘ida ham uchraydi.

2. Alfa-parchalanuvchi yadrolarning yarim parchalanish davri juda katta diapazonda yotadi. Qo‘rg‘oshin-204 yadrosining yarim parchalanish davri  $T_{1/2} = 1,4 \cdot 10^{17}$  yil bo‘lsa, radon-215 radioaktiv yadrosining parchalanish davri esa  $T_{1/2} = 10^{-3}$  s ni tashkil qiladi. Ikkinchi tomondan b-parchalanishda chiqayotgan zarralarning energiyasi kichik diapazonda o‘zgaradi, ya’ni og‘ir yadrolar uchun 4 – 9 MeV oralig‘ida bo‘lsa, noyob elementlar sohasi uchun esa 2 – 4,5 MeV ga teng bo‘ladi.

1911-yilda Jon Mitchel Nettola va Gans Geygerlar alfa-aktiv yadro-larning yarim parchalanish davri bilan alfa-zarralar energiyasi orasidaga bog'lanishni, ya'ni Geyger – Nettola qonunini kashf qildilar. Bu qonun quyidagi ko'rinishda ifodalanadi:

$$\log T_{1/2} = C + \frac{D}{\sqrt{E_\alpha}}, \quad (1.27)$$


bu yerda  $S$ .  $D$  – doimiy kattaliklar bo'lib,  $A$  massa soniga va  $Z$  ga esa kuchsiz bog'liq. Agar logarifm o'nli va energiya MeV larda ifodalansa, u holda yuqoridagi ifodadagi  $S$  va  $D$  doimiy kattaliklar quyidagiga teng bo'ladi:

$$Z = 84 \text{ uchun } S = -50,15; D = 128,8 \text{ bo'ladi;}$$


$$Z = 90 \text{ uchun } S = -51,94; D = 139,4 \text{ bo'ladi.}$$

Geyger-Nettola qonuni juft-juft yadrolar uchun yaxshi bajariladi.

Alfa-parchalanishning sodir bo'lish jarayonini  $^{210}_{84}Po$  yadrosining b-parchalanishi misolida ko'rib chiqamiz. Poloniy-210 yadrosi quyidagi sxema bo'yicha parchalanadi:



natijada ikkilamchi yadro – qo'rg'oshin-206 hosil bo'ladi. Ushbu o'tish, moment va juftlikni o'zgarmasligi bilan xarakterlanadi, ya'ni birlamchi yadro va ikkilamchi yadrolarning asosiy holatlarining spin'i va juftliklari bir xil ( $0^+$ ). Mazkur parchalanish sxemasi va b-zarralar energetik spektri 1.3-rasmida keltirilgan bo'lib, bunda spektrning monoenergetik va diskret ekanligi yaqqol ko'rinish turibdi. Ko'p hollarda




**1.3-rasm.** Poloniy-210 yadrosining parchalanish sxemasi  
(a) va b-zarralar energetik spektri (b).

b-parchalanish natijasida hosil bo'lgan b-zarralarning kinetik energiyasi bir xil bo'ladi. Ammo ba'zi hollarda bir nechta guruh monoenergetik b-zarralar hosil bo'ladi.

Aniq o'lhashlar shuni ko'rsatdiki, yadrodan chiqayotgan b-zarralar spektri nozik strukturaga, ya'ni bir-biriga juda yaqin bo'lgan energiyalardan iborat ekan. Bitta yadroning parchalanishi vaqtida turli energiyali b-zarralarning hosil bo'lishi b-parchalanishning nozik strukturasini deyiladi.

Alfa-zarralar spektri oxirgi yadroning nafaqat asosiy holatda, balki uyg'ongan holatlarda ham hosil bo'lishi bilan bog'liq. Bu o'z navbatida kuzatilgan b-spektrlar orqali yadroning energetik holatlariga tegishli ma'lumotlarni olishga yordam beradi. *1.4-rasmida* plutoniylar  $^{239}\text{Pu}$  yadrosining b-parchalanish sxemasi (*a*) va b-spektrlar (*b*) ko'rsatilgan.

Alfa-radioaktiv yadrolar yarim parchalanish davrining keng diapazonga egaligi, shuningdek, ko'plab b-radioaktiv yadrolar uchun ushbu davrlarning katta qiymati, b-zarra, energetik qulay bo'lishiga qaramay, yadroni «darhol» tark eta olmasligi bilan tushuntiriladi. Yadroni tark etish uchun b-zarra, yadro chegarasi sohasidagi b-zarra bilan oxirgi yadroning (b-zarra chiqib ketgandan keyin qolgan yadro) o'zaro ta'sir elektrostatik potensiali va nuklonlar orasidagi tortishish kuchlari hisobiga vujudga kelgan potensial to'siqni yengib chiqib ketishi lozim.



*1.4-rasm. Plutoniylar  $^{239}\text{Pu}$  yadrosining b-parchalanish sxemasi (*a*) va b-spektrlar (*b*).*

Klassik fizika nuqtai nazaridan, b-zarracha potensial to'siqni yengib o'ta olmaydi, chunki uning kinetik energiyasi yetarli emas. Ammo kvant mexanikasi bo'yicha b-zarra potensial to'siqdan o'tib, yadrodan chiqib ketish ehtimolligi mavjud. Ushbu kvant mexanik hodisa «tunnel effekti» deb nomlanadi. To'siqning balandligi va kengligi qancha katta bo'lsa, zarraning tunnel o'tish ehtimolligi shunchalik kichik bo'ladi va yarim parchalanish davri mos ravishda katta bo'ladi. Agar potensial to'siq yo'q bo'lsa, b-zarracha yadroni yadro vaqtiga ( $\approx 10^{-21} - 10^{-23}$  s) teng bo'lgan vaqt davomida tark etgan bo'lar edi.


#### 1.4-§. Beta-parchalanish

Yadroning o'z-o'zidan elektron (pozitron) va antineytrino (neytrino) chiqarib parchalanish hodisasiga beta-parchalanish deyiladi. Beta-parchalanishda yadro massa soni o'zgarmaydi, ya'ni parchalanish natijasida izobar yadro hosil bo'ladi. Beta-parchalanishning uch xil turi mavjud bo'lib, ular quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

1.  $\beta^-$  – parchalanish.
2.  $\beta^+$  – parchalanish.
3. e-qamrash.

Ushbu  $\beta$ -parchalanishning turlari bilan alohida tanishib o'tamiz.

**$\beta^-$  – parchalanish.** Mazkur turdag'i parchalanishda yadro zaryadi bittaga ortadi, yadrodan elektron va antineytrino chiqib ketadi, ya'ni:



Beta-parchalanish nuklonlarda sodir bo'ladigan jarayon bo'lib, bunda yadro dagi neytronlardan biri protonga aylanadi. Bunda yadro dan elektron va antineytrino chiqadi:




Massa soni A va zaryadi Z bo'lgan yadro uchun  $\beta^-$ -parchalanishning energiya bo'yicha bajarilish sharti quyidagicha:

$$M(A, Z) > M(A, Z+1) + m_e, \quad (1.31)$$

Bu shartni atomlar massasi orqali ham ifodalash mumkin. Buning uchun tengsizlikning ikkala tomoniga  $Zm_e$  hadni qo'shamiz va quyidagi tengsizlikni olamiz:

$$M_{am}(A, Z) > M_{am}(A, Z+1) \quad (1.32)$$

**$\beta^+$  – parchalanish.** Bu holda yadroda protonlardan biri neytronga aylanadi va yadro zaryadi bittaga kamayadi:



Bunda yadroda pozitron va neytrino chiqadi:



$\beta^+$ -parchalanishning energetik sharti qo'yidagicha:

$$M(A, Z) > M(A, Z-1) + m_e \quad (1.35)$$

Ikkala tomoniga  $(Z+1)m_e$  hadni qo'shamiz va yadro massasidan atom massasiga o'tamiz, ya'ni:

$$\begin{aligned} M(A, Z) &> M(A, Z-1) + \\ M(A, Z) + (Z+1)m_e &> M(A, Z-1) + m_e + (Z+1)m_e \\ M(A, Z) + Zm_e + m_e &> M(A, Z-1) + Zm_e + m_e + m_e \\ M(A, Z) + Zm_e &= M_{am}(A, Z) \\ M(A, Z-1) + (Z-1)m_e &= M_{am}(A, Z-1) \end{aligned}$$

Demak,

$$M_{am}(A, Z) > M_{am}(A, Z-1) + 2m_e \quad (1.36)$$

*Elektron-qamrash.* Beta-parchalanishga  $e$ -qamrash hodisasi ham kiradi. Ko'pchilik hollarda *K-qamrash* ham deyiladi. Bunda yadro *K-qobiqdagi* bitta elektronni o'ziga yutib (qamrab) oladi va uning zar-yadi bittaga kamayadi.



Ushbu hodisada yadroda bitta proton neytronga aylanadi va yadroda neytrino chiqib ketadi, ya'ni:



*K-qamrashning* energetik sharti qo'yidagicha:

$$M(A, Z) + m_e > M(A, Z-1) \quad (1.39)$$

yoki atom massasi orqali ifodalansa:

$$M_{am}(A, Z) > M_{am}(A, Z-1) \quad (1.40)$$

Elektron-qamrash hodisasi 1936-yilda yapon olimlari Xiderik Yuka-va va Shoichi Sakata tomonidan oldindan nazariy yo'l bilan aytilgan va ikki yildan keyin tajribada amerikalik olim Luis Alvares tomonidan kashf etilgan bo'lib, unga elektron qamrash deb nom berilgan. Elektron qamrashga misol qilib,  ${}^7Be$  yadrosining elektron qamrash jarayonini keltirish mumkin. Bunga  ${}^7Be$  atomning yadrosi, atom qobig'idagi bitta elektronni o'ziga «tortib» oladi va litiy yadrosiga aylanadi. Pozitron parchalanishiga o'xshash yadro dagi protonlardan biri neytronga aylanadi:




Elektron qamrash jarayonining ehtimolligi, yadro yaqinidagi elektronlarning zichligiga bog'liq bo'lib, uning oshishi bilan elektron qamrashning ehtimolligi ham oshadi. Bundan elektron qamrashni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lган radioaktiv elementlar yadrosining o'rtacha yashash vaqtini, ular ushbu elementning sof namunasi tarkibiga kirishi yoki uning kimyoviy birikmalar tarkibiga kirishiga qarab o'zgarishi mumkin. Bu xulosa tajribada tekshirilgan va o'z tasdig'ini topgan, shu bilan birga yashash vaqtining siljishi (yoki ta'bir joiz bo'lsa yarim parchalanish davri) bunday hollarda foizning ulushlarini tashkil etadi.

Toxoku universiteti yadro fizika laboratoriyasi va Iokogama Milliy universiteti fizika fakulteti xodimlari  ${}^7Be$  yadrosida radioaktiv parchalanish tezligini oshirishga muvaffaq bo'lishdi. Ular tajribada fullerendan foydalanishdi. Fulleren haqida qisqa-

cha ma'lumot: Fullerenlar bu deyarli sferik bo'lган, o'nlab atomlardan iborat uglerod molekulalaridir (**1.5-rasm**). Birinchi 60 atomli fulleren molekulalari 1985-yilda yaratilgan. 60 atomli fulleren qirralari bu 20 ta deyarli ideal to'g'ri oltiburchak va 12 ta besh burchak. Keyinchalik 76, 78, 84, 90 va hatto bir necha yuzlab atomli fullerenlarni olishga erishildi.

Tajribada  ${}^7Be$  atomlarini fulleren ichki qismiga haydar kirgizishga erishildi. Natijada



**1.5-rasm.** O'nlab atomlardan iborat uglerod molekulalari.

berilliy yadrosi atrofidagi elektron zichligi oshdi va bu esa o‘z navbatida radioaktiv parchalanish sur’atining oshishiga olib keldi. Sof metall berilliy namunasining yarim parchalanish davri 1275 soatni tashkil qilsa, «kasirga tushgan» atomlarning yarim parchalanish davri 1264 soatga teng bo‘ldi. Vaqtlar orasidagi farqi taxminan 0,85 % ni tashkil etadi. Bir qarashda bu miqdor kam bo‘lib ko‘rinishi mumkin. Ammo bu hali boshlanishi bo‘lib, yangi molekulalarning topilishi bu jarayonlarni yanada tezlashtiradi.

Beta-parchalanishlar vaqtி  $T_{1/2}(\beta) = 0,1s - 10^{17}$  yil intervalida bo‘ladi. Alfa-parchalanish yadro kuchlari ta’sirida yuz berib, nisbatan qisqa vaqtda ( $3 \cdot 10^{-7}$  s gacha) sodir bo‘ladi. Beta-parchalanishlar kuchsiz o‘zaro ta’sir natijasida yuz berganligi va ushbu ta’sirning kichik intensivlikka ega bo‘lganligi sababli, neytronning yashash vaqtı ( $\approx 15$  min) katta bo‘ladi. Beta-parchalanishda ajralib chiqadigan energiyaga mos kelgan energiyada (0,78 MeV),  $\gamma$ -parchalanishning yuz berish vaqtı esa o‘rtacha  $10^{-12}$  s ni tashkil qiladi.

Beta-parchalanish energiyasi:


$$Q_{\beta^{\pm}} = [M(A,Z) - M(A,Z \mp 1) - m_e]c^2, \quad (1.42)$$

$$Q_e = [M(A,Z) - M(A,Z - 1) + m_e]c^2. \quad (1.43)$$

Ushbu ajralib chiqadigan energiya 18,61 keV ( ${}^3_1H \rightarrow {}^3_2He + e^- + \bar{v}_e$ ) dan 13,4 MeV ( ${}^{12}_5B \rightarrow {}^{12}_6C + e^- + \bar{v}_e$ ) gacha bo‘lgan intervalda yotadi.

Beta-parchalanishda Kulon to‘sinqing ta’sirini muhokama qilib o‘tirmasa ham bo‘ladi. U faqat yadro ichida hosil bo‘ladigan pozitron uchun mavjud. Bu yerda eng muhim, noaniqlik munosabati yadro ichida  $e^{\pm}$  uzoq qolib ketishini ta’qilashidir.

Beta parchalanishlar energiyasi uchta zarra orasida taqsimlanadi, ya’ni elektron (pozitron), antineytrino (neytrino) va qoldiq yadro. Natijada v-zarralar energiyasi b-zarralardan farqli ravishda aniq bir energiyaga ega bo‘lmaydi va ularning spektri chiziqli (diskret) bo‘lmasdan, noldan maksimal kinetik energiyagacha bo‘lgan diapazondagi uzluksiz spektrga ega bo‘ladi (**1.6-rasm**). Elektron qamrashda ikkita mahsulot hosil bo‘lib, spektri uzluklidir. **1.6-rasmida** keltirilgan neytrino spektri hisoblash yo‘li orqali olingan, shuning uchun tajriba natijalari qo‘yilmagan.



**1.6-rasm.**  $^{210}_{83}\text{Bi} \rightarrow ^{210}_{84}\text{Po} + e^- + v_e$  parchalanishda hosil bo'ladigan elektron va neytrinolarning energetik spektrlari (neytrino spektri hisoblash yo'li orqali olingan).

Beta-spektrlarning uzluksizligi 1930-yilda Paulini massasi juda ham kichik va yarim butun spinga ega bo'lgan neytral noma'lum zarra mavjudligi g'oyasiga turki berdi. Ushbu g'oyaga asosan  $\beta^\pm$ -parchalanishda energiyaning bir qismini mazkur zarra olib ketadi. Bu zarraga, 1932-yilda neytron kashf etilgandan keyin E. Fermi «neytrino» («neytroncha») deb nom beradi.

Neytrino modda bilan juda kuchsiz ta'sirlashganligi sababli uni tajribada kuzatish juda qiyin. Uning qattiq muhitdag'i yugurish yo'li  $\approx 10^{15}$  km ga teng. Faqat 1956-yildagina Raynes va Kouenlar tomonidan neytrinoning mavjudligi tajriba orqali tasdiqlandi va uning modda bilan o'zaro ta'sir kesimi  $\sigma \approx 10^{-43} \text{ sm}^2$  atrofida ekanligi baholandи.

So'nggi paytlarda tadqiqotchilar astrofizik kelib chiqishiga ega bo'lgan neytrinolariga alohida e'tibor berishmoqda, chunki ular modda bilan o'zaro kuchsiz ta'sirlashganligi tufayli, astrofizik kelib chiqadigan boshqa zarralar bilan solishtirganda eng yuqori kirish qobiliyatiga ega bo'lib, ular uzoq kosmik obyektlar haqida ma'lumot olishga imkon beradi.

## 1.5-§. Gamma-nurlanish

Gamma nurlanishlar deb yadroning o‘z-o‘zidan g-kvantlar chiqarish jarayoniga aytildi. Bu jarayonda yadro uyg‘ongan energetik sathdan belgilangan quyi energetik sathlarga o‘tadi. Ma’lumki, bunda yadroning A va Z kattaliklari o‘zgarmaydi. Gamma-nurlanish yadroning uyg‘ongan holatidagi holatlar energiyalarining ayirmasiga teng bo‘lgan diskret energiyali nurlanishlaridir. Gamma-kvantlarning nurlanishi yadroda ortiqcha energiyani chiqarishning asosiy jarayonilardan biridir. Bunda shunday shart bajarilishi kerakki, ushbu energiya nuklonlarning bog‘lanish energiyasidan oshmasligi lozim.

Gamma-kvantlar chiqishi bilan sodir bo‘ladigan o‘tishlarga radiation o‘tishlar ham deyiladi. Radiatsion o‘tishlar bir karrali, ya’ni yadro birdaniga asosiy holatga o‘tadi (**1.7-rasm**) yoki kaskad (ketma-ket) o‘tishlar sodir bo‘ladi, natijada yadrodan bir nechta g-kvantlar chiqadi.

Yadro energetik sathlarining diskret bo‘lganligi sababli g-kvantlarning spektri ham diskret bo‘ladi.

Gamma-kvant energiyasi radiatsion o‘tish sodir bo‘layotgan energetik sathlar energiyalar farqi orqali aniqlaniladi:

$$E = h\nu = E_i - E_f \quad (1.44)$$


Energiya va impulsning saqlanish qonunlariga asosan (boshlang‘ich holatda yadro tinch holda turibdi deb faraz qilinsa):

$$E = E_\gamma + T_{yad}; \quad 0 = \vec{p}_\gamma + \vec{p}_{yad}, \quad (1.45)$$


bu yerda  $T_{yad}$  va  $\vec{p}_{yad}$  – mos holda tepki yadroning kinetik energiyasi va impulsi,  $R_g$  – g-kvant impulsi. Yuqoridagi (1.45) tenglamalar sistemasi va  $T = p^2 / 2m$  formuladan quyidagi ifodani olamiz:

$$T_{yad} = \frac{E_\gamma^2}{2M_{yad}c^2} \approx \frac{E^2}{2M_{yad}c^2}. \quad (1.46)$$

Bu formula yordamida  $T_{yad}$  qiymatini baholash mumkin. Agar mas-sa soni  $A=100$  bo‘lgan yadroning uyg‘onish energiyasi  $E \approx 0,1-1$  MeV



**1.7-rasm.** Gamma-o‘tishlar sxemasi.




**1.8-rasm.**  $^{24}_{11}\text{Na}$  yadrosining v-parchalanishda hosil bo'ladigan g-nurlanish.

oralig'ida bo'lsa, tepki yadroning energiyasi  $T_{\text{yad}} = (10^{-6} \cdot 10^{-5}) E$  ga teng bo'ladi. Demak, g-kvant yadro uyg'ongan holat energiyasining juda katta qismini olib ketar ekan.

Gamma-nurlar radioaktiv parchalanishning ikkinchi darajali mahsuli hisoblanadi. Alfa yoki beta-parchalanishlar natijasida radioaktiv element o'zgaradi. Ko'pincha bunday o'zgarishdan vujudga keladigan yadrolar uyg'ongan holatda bo'ladi. Uyg'ongan yadro esa gamma-kvant chiqarib pastki energetik sathlarga yoki asosiy holatga o'tadi. Ushbu jarayonga misol qilib,  $^{24}_{11}\text{Na}$  yadrosining  $\beta^-$ -parchalanishini kelтирish mumkin (**1.8-rasm**). Natriy-24 yadrosining  $\beta^-$ -parchalanish natijasida  $^{24}_{12}\text{Mg}$  yadrosi asosan  $4^+$  holatda hosil bo'ladi. Keyin bu yadro energiyalari 2,7 MeV va 1,4 MeV bo'lgan gamma-kvant chiqarib, asosiy holatga o'tadi.

Yadrolardan chiqayotgan g-kvantlarning energiyalari 10 keV dan 5 MeV gacha bo'lgan diapazonda joylashgan bo'ladi. Bu esa gamma-nurlanishlar  $1_g$  to'lqin uzunligining  $2 \cdot 10^{-10}$  ch  $5 \cdot 10^{-14}$  m atrofidagi qiyatlariaga mos keladi.

Yadrolarning radiatsion o'tishlariga mos keladigan elektromagnit maydon nurlanishlarining ba'zi bir xususiyatlarini eslatib o'tamiz. Yadro spini  $J_i$  va juftligi  $R_i$  bo'lgan holatdan spini  $J_f$  va juftligi  $R_f$  bo'lgan holatga o'tishida g-kvant nurlangan bo'lsin (**1.9-rasm**). Elektromagnit maydon nurlanishi muayyan  $I$  multipollik bilan xarakterlanadi.



**1.9-rasm.** Yadroda radiatsion o'tishlar.

Multipolliklar elektr va magnit multipolliklarga bo'linadi. Mazkur multipollikka ega bo'lgan kvant tomonidan olib ketiladigan harakat miqdori momenti  $Ih$  ga teng bo'ladi.  $I_E$  va  $I_M$  kattaliklarning qabul qilishi mumkin bo'lgan qiymatlar to'plami harakat miqdor momenti va juftliklar bo'yicha tanlash qoidalari orqali aniqlanadi. Harakat miqdor momenti bo'yicha tanlash qoidasi quyidagicha:

$$|J_i - J_f| \leq l \leq |J_i + J_f| \quad (1.47)$$

Ikkinci tanlash qoidasiga asosan  $I_E$  elektr g-nurlanishlar momenti va  $I_M$  magnit g-nurlanishlar momentlari yadroning boshlang'ich va oxirgi holatlarining juftliklari, ya'ni  $P_i$  va  $P_f$  lar bilan quyidagi munosabatda bog'langan:

$$P_i / P_f = (-1)^{I_E} ; \quad P_i / P_f = (-1)^{I_M+1} . \quad (1.48)$$

Ushbu munosabatlardan E1-o'tish faqat turli juftlikka ega bo'lgan yadro holatlari orasida, M1-o'tish esa bir xil juftliklarga ega bo'lgan yadro holatlari orasida sodir bo'lishi mumkin ekan. Bu ikkala holda ham yadro momenti  $\Delta I = 0, \pm 1$  munosabatni qanoatlantirishi lozim ( $0 \rightarrow 0$  o'tishlardan tashqari).

Gamma-nurlanishlar xususiyatlaridan kelib chiqqan holda quyidagi xulosani qilish mumkin:  $P_i$ ,  $P_f$  va D1 kattaliklarga ega bo'lgan ikkita holat orasidagi yadro radiatsion o'tishida bosh rolni quyidagi moment va juftlik bo'yicha tanlash qoidasini qanoatlantiruvchi va eng kichik  $I_E$  va  $I_M$  qiymatli ega bo'lgan, elektr va (yoki) magnit multipollar bajaradi:

$$l = |\Delta I| \text{ va } l = |\Delta I| + 1 , \quad (1.49)$$


bulardan bittasi elektr ikkinchisi magnit multipol bo'lishi kerak.

Gamma-nurlanishlar statistik xarakterga egadir, ya'ni har bir yadro uchun gamma-kvant nurlanishining ma'lum bir ehtimolligi mavjud. Bu

ehtimollik yadroning uyg'ongan holatining o'rtacha bo'lish vaqtiga qu-yidagicha ifoda bilan bog'langan, ya'ni:  $W \approx 1/\tau_y$  (odatda  $\tau_y \approx 10^{-13} c$ ).

Ayrim hollarda radioaktiv parchalanishlar yoki yadro reaksiyalari natijasida yadrolarning izomer holatlari deb nomlangan uzoq yashovchi holatlari uyg'onishi mumkin. Izomer holatga ega bo'lgan yadrolarga izomerler deyiladi. Izomer bu neytron va protonlar soni bir xil, ammo yarim parchalanish davri har xil bo'lgan atom yadrosidir. Izomer holat-larning yashash vaqtini har xil bo'lib, ular soniyalarning ulushlaridan bir necha yillargacha bo'lishi mumkin.

Hozirgi kunda yarim parchalanish davri  $1 s$  dan ortiq bo'lgan yuzdan ortiq uyg'ongan izomer holatlar ma'lum. Izomeriya yoki izomer holatlar hosil bo'lishiga asosiy sabab, uyg'ongan va asosiy holatlarning spinlar farqining kattaligidir ( $I \geq 3$ ). Bunday izomerlar proton yoki neytronlar sonlari 50, 82 yoki 126 bo'lgan yadrolar yaqinida joylashgan bo'ladi va izomer «yadrolarini» tashkil qiladilar. Uyg'ongan izomer holat metastabil holat deb ham aytildi va ular ko'pchilik hollarda «m» indeksi bilan belgilanadi. Masalan,  $^{84m,g}\text{Sc}$  yadroda  $m$  – metastabil holat,  $g$  – asosiy holat (**1.10-rasm**).




**1.10-rasm.** Skandiy-44 yadrosining asosiy va metastabil (izomer holatlarining sathlarining sxemalari).

Skandiy-44 yadrosining izomer holatining yashash vaqtı 58,6 soat ekan. Bu yerda uyg'ongan va asosiy holatlarining spinlar farqi  $\Delta I = I_m - I_g = 4$ .

Izomer yadrolarga yana bir misol qilib, indiy-115 izotopini keltirish mumkin (**1.11-rasm**). Indiy-115 izotopining asosiy holati  $J^P = 9/2^+$  spin va juftlikka ega.

Birinchi uyg'ongan holati energiyasi 335 keV ga teng bo'lib, spin-juftligi –  $J^P = 1/2^-$ . Shuning uchun bu sathlar orasidagi o'tish M4 g-kvant chiqishi bilan sodir bo'ladi. Bu o'tish qat'iy man etilgan bo'lib, uyg'ongan holati 4,5 soat yarim parchalanish davriga ega.



**1.11-rasm.** Indiy-115 yadrosining asosiy va metastabil (izomer holatlarining) sathlarining sxemasi.

Izomer yadrolar fan va texnikada, tibbiyotda keng qo'llanilmoqda. Yadro izomerlarni yadro elektr batareyasi sifatida qo'llanilishi ham istiqbolligi hisoblanadi.

### 1.6-§. Ichki konversiya hodisasi

Uyg'ongan holatdagi yadro asosiy holatga nafaqat gamma-kvant chiqarish, balki uyg'ongan holat energiyasini atom qobig'idagi elektronlardan biriga berish yo'li bilan ham o'tishi mumkin. Bunday jarayon ichki konversiya deyiladi. Bu hodisa 1938-yilda amerikalik fizik Alvarez (Alvarez) Luis Uolter tomonidan kashf etilgan. Ichki konversiya hodisasi gamma-nurlanish bilan raqobatdagi jarayon hisoblanadi. Ichki konversiya jarayoni katta ehtimollik bilan yadroga yaqin bo'lgan elektron qobiqlarda sodir bo'ladi.

Energiya olgan elektron atomni tashlab chiqib ketish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ushbu elektronlar konversion elektronlar deyiladi. Konversion elektronlar monoenergetik bo‘lib, ularning energiyasi yadro o‘tishlar energiyasi va elektron qobiqlar turi bo‘yicha aniqlanadi. Ichki konversiya jarayoni eng katta ehtimollik bilan K-qobiqdagi elektronlar da sodir bo‘ladi. Ushbu holda:


$$T_e = E - E_K \quad (1.50)$$

bu yerda  $T_e$  – elektronlarning kinetik energiyasi,  $E_K$  – K-qobiqdagi elektronlar bog‘lanish energiyasi (yoki ionlashtirish potensiali). Agar yadro o‘tishlarida ajraladigan E energiya qiymati K-qobiqdagi elektronning bog‘lanish energiyasidan kichik bo‘lsa, bu qobiqda konversiya jarayoni energetik jihatdan mumkin bo‘lmaydi va bu jarayon L-qobiqdagi elektronlarda kuzatiladi va h.k. Yuqoridagi (1.50) ifodani umumiy holda quyidagi ko‘rinishda yozish mumkin:

$$T_e = E - E_{K,L,M,\dots}, \quad (1.51)$$

bu yerda  $E_{K,L,M,\dots}$  – elektronlarning K-, L-, M-... qobiqlardagi elektronlarning bog‘lanish energiyasi.

Konversiya virtual fotonlar bilan amalga oshadi. Bunda energiya uzatish jarayonini quyidagicha tasvirlash mumkin, ya’ni yadro virtual foton (gamma-kvant) chiqaradi va bu foton atom qobig‘idagi elektron tomonidan yutiladi. Buning natijasida elektron atomdan chiqib ketadi. Ichki konversiya jarayonining Feynman diagrammasi 1.12-rasmida tasvirlangan.



**1.12-rasm.** Ichki konversiya jarayonining Feynman diagrammasi.


Konversiya elektronlari yadrodan g-kvant chiqishi yoki chiqmasligiga bog'liq bo'lmay kuzatiladi. Ichki konversiya jarayoni xarakteristik rentgen nurlanishi yoki Oje-elektronlarining chiqishi bilan kuzatiladi. Ichki konversiya natijasida atom qobig'idan elektron chiqib ketsa, chiq-qan elektronning o'rniغا yuqori qobiqdа joylashgan elektron o'tadi, natijada xarakteristik rentgen nurlanishi hosil bo'ladi.

Ichki konversiya natijasida uyg'ongan holatga o'tib qolgan atomning uyg'onish energiyasi atom qobig'idagi tashqi elektronlarning biorotasiga berilishi va ushbu elektron atomdan chiqib ketishi mumkin, bu elektron Oje-elektron deb ataladi.

**1.13-rasmدا** namunadan chiqayotgan beta-spektri berilgan va ushbu rasmda  $^{198}\text{Hg}$  yadrosidagi 412 keV energiyali yadro o'tishlar uchun ichki konversiya elektronlarning energetik spektri keltirilgan bo'lib, bunda uluksiz beta-spektrda konversion elektronlarga mos keladigan chiziqlar yaqqol ko'rinib turibdi.

Shuningdek, bu yerda konversiya jarayoni sodir bo'layotgan elektron qobiqlar ham keltirilgan (K, L, M qobiqlar).

Gamma-nurlanish va ichki konversiya o'rtasidagi raqobat to'la ichki konversiya koeffitsienti b bilan tavsiflanadi. To'la ichki konversiya



**1.13-rasm.** Konversiya spektri  $^{198}\text{Hg}$  atom qobiq energiyalari farqiga ko'ra to'g'ri keluvchi bir necha monoxromatik spektrlar.

koeffitsienti deb ichki konversiya elektronlar sonining ( $N_e$ ) gamma-kvantlar soniga ( $N_\gamma$ ) nisbatiga aytildi:

$$\alpha = \frac{N_e}{N_\gamma} . \quad (1.52)$$

Bu koeffitsientni quyidagi ko‘rinishda ham yozish mumkin:

$$\alpha = \frac{N_e}{N_\gamma} = \alpha_K + \alpha_L + \alpha_M + \dots \quad (1.53)$$

Bu yerda  $\alpha_K = (N_e)_K / N_\gamma$  – K-qobiqdagi,  $\alpha_L$  – L-qobiqdagi,  $\alpha_M$  – M-qobiqdagi va h.k. qobiqlardagi elektronlar uchun parsial ichki konversiya koeffitsientlari deb ataladi.

Konversiya jarayoni quyidagi qonuniyatlarga bo‘ysunadi:

- o‘tish energiyasi oshishi bilan konversiya koeffitsienti kamayadi, ya’ni konversiya ehtimolligi kamayadi;
- o‘tish multipolligi oshishi bilan konversiya koeffitsienti oshadi;
- Atom nomeri  $Z$  oshishi bilan konversiya koeffitsienti oshadi;

Ichki konversiya hodisasini o‘rganish yadro sathlarining turli xarakteristikalarini (konversion elektronlar enegiyasi bo‘yicha energiyalarni, konversiya koeffitsientlari bo‘yicha harakat miqdor momentlarini va h.k.) aniqlashda katta ahamiyatga egadir.

Yadro uyg‘ongan holatdan pastki holatga gamma-kvantlar va ichki konversiya elektronlari chiqarish hodisasidan tashqari pozitron chiqarish yo‘li bilan ham o‘tishi mumkin. So‘ngra pozitron atomdagи elektron bilan to‘qnashib annigilyatsiya jarayonini sodir etadi. Agar o‘tish energiyasi  $\Delta E \geq 1,02 \text{ MeV}$  bo‘lsa mazkur jarayon sodir bo‘ladi. Ammo bu mexanizmning ehtimolligi gamma-kvant nurlanish ehtimoligining  $10^{-3}$  qismini tashkil qiladi.

### **1.7-§. Myossbauer effekti va uning qo‘llanilishi**

Yadrolarning gamma-nurlanishlari Myossbauer effekti deb nomlangan qiziq bir hodisa bilan bog‘langan. Mazkur effektni 1958-yilda nemis fizigi R. Myossbauer kashf qilgan va bu kashfiyot uchun 1960-yilda fizika bo‘yicha Nobel mukofotiga sazovor bo‘lgan. Myossbauer effekti deb gamma-kvantlarning rezonans yutilishiga aytildi. Bu effekt

yorug'lik kvantlarining atomda rezonans yutilishining yadroviy analogiyasi hisoblanadi.

Yadrodan chiqqan gamma-kvanti yadroning  $E$  uyg'onish energiyasining hammasini olib ketmaydi. Bu energiyaning bir qismi yadroning  $T_{yad}$  tepki energiyasiga sarflanadi:


$$E_{chikan} = (E - T_{yad}) < E \quad (1.54)$$

Yadroni  $E$  energiyagacha uyg'otish uchun unga energiyasi quyida-giga teng bo'lган gamma-kvant yutilishi lozim:

$$E_{yutti} = (E + T_{yad}) > E \quad (1.55)$$

sababi, energiya va impuls saqlanish qonuniga asosan gamma-kvant energiyasining bir qismi yadroning harakatlanish energiyasiga sarf bo'ladi. Natijada chiqarilgan va yutilgan gamma-kvant energiyasi  $2T_{yad}$  (tepki yadro energiyasi orqali ifodalangan) kattalikka mos tushmaydi.

Kvant fizikasi nuqtai nazaridan qaraganda har bir uyg'ongan energetik sath cheksiz nozik emas, balki u  $\Delta E$  tabiiy kenglik deb nomlangan kenglikka ega. Tabiiy kenglik  $G$  bilan belgilanadi. **1.14-rasmida** energetik sath va chiziqning tabiiy kengliklari keltirilgan. Tabiiy kenglik noaniqlik munosabati orqali aniqlanadi.



**1.14-rasm.** Uyg'ongan holat sathi va chizig'inining tabiiy kengliklari.

Rezonans yutilish shartini quyidagi ko'rinishda yozish mumkin:

$$G > 2T_{yad} \quad (1.56)$$

bu yerda

$$G = \frac{\hbar}{\tau} \quad (1.57)$$

$G$  – energetik sathning tabiiy kengligi,  $f$  – uyg'ongan holatdagi yadroning yashash vaqt.

Uyg'ongan holatda yadroning  $f$  yashash vaqt qanchalik kichik bo'lsa, uning mazkur holatdagi energiyasining noaniqligi shunchalik katta bo'ladi. Aksincha, uyg'ongan yadroning  $f$  yashash vaqt qanchalik katta bo'lsa, energiyasining qiymati shunchalik aniq va gamma-kvantning monoxromatiklik darajasi katta bo'ladi.

Misol tariqasida 129 keV energiyali uyg'ongan holatga va  $f \approx 10^{-10}$  s o'rtacha yashash vaqtiga ega bo'lgan  $^{191}\text{Ir}$  yadrosini olamiz. (1.57) formula bo'yicha mazkur energetik sathning kengligini aniqlaymiz:

$$G = \frac{\hbar}{\tau} = \frac{0,66 \cdot 10^{-15} \text{ eV} \cdot c}{10^{-10} c} = 6,6 \cdot 10^{-6} \text{ eV} \quad (1.58)$$

Yadro olgan tepki energiyasi (1.59) formula bo'yicha aniqlanadi:

$$T_{yad} = \frac{E^2}{2M_{yad}c^2} = 0,047 \text{ eV} \quad (1.59)$$


Bu hisoblashlarni  $^{57}_{26}\text{Fe}$  yadrosi uchun ham ko'rib chiqamiz.  $^{57}_{26}\text{Fe}$  yadrosi  $^{57}_{25}\text{Co}$  yadrosining b-parchalanishi natijasida uyg'ongan holatda hosil bo'ladi (**1.15-rasm**).

Uning gamma-kvantining energiyasi  $Y_e = 14,4 \text{ keV}$  va yashash vaqt  $f = 1,4 \cdot 10^{-7} \text{ s}$  energetik sathning kengligini (1.57) formula bo'yicha aniqlaymiz:

$$G = \frac{\hbar}{\tau} \approx 6 \cdot 10^{-9} \text{ eV}. \quad (1.60)$$

Yadro olgan tepki energiyasi:

$$T_{yad} = \frac{E^2}{2M_{yad}c^2} = 0,002 \text{ eV}. \quad (1.61)$$



**1.15-rasm.**  ${}^{57}\text{So}$  radionuklidining parchalanish sxemasi.  
MD – Myossbauer o'tishi.

Demak, keltirilgan ikkita misolda ham yadroning tepki energiyasi nurlanish chizig'ining tabiiy kengligidan ancha katta ekan. Boshqa-cha aytganda, yadro tomonidan chiqarilgan gamma-kvantni shu turdag'i yadro yuta olmas ekan. Bu esa erkin atomda yadro rezonansi sodir bo'lishini inkor qiladi. Ta'kidlab o'tamiz, optik o'tishlarning energiyasi yadro o'tishlariga nisbatan  $10^4$  marta kichik va (1.56) shart optik yutilishlar uchun o'rinni bo'ladi. Agar tepki energiyasi qiymatini chiziqning tabiiy kengligi kattaligigacha kamaytirishga erishilsa, unda gamma-kvant energiyasini quyidagi nisbiy aniqlik bilan o'lhash mumkin bo'lar edi:

$$\frac{G}{E_\gamma} = \frac{\hbar}{E_\gamma \tau} \approx 10^{-12} - 10^{-14} \quad (1.62)$$

Kristall strukturaga ega bo'lgan qattiq jismlardagi bog'langan atomlardan biriga energiya uzatilishi, uni o'rab turgan katta sonli atomlar ning xaotik tebranishini yuzaga keltiradi, ya'ni kristallning ichki ener-


giyasini oshiradi. Bitta yadroning *g-kvant* chiqarishi yoki yutishi natijasida kristalldagi atomlar katta jamoasining tartibli tebranishi yuzaga kelishi kichik ehtimolikka ega bo'lsa kerak. Ammo harorat kamaytirilsa, alohida atomlarning tebranishlari eksponensial kamayadi. Bunda kristalldagi alohida bitta atomning ega bo'lishi mumkin bo'lgan tebranma kinetik energiyasi (1.62) ifodadagi tepki energiyasidan kichik bo'ladi. Endi katta miqdordagi atomlar ( $\sim 10^8$  ch  $10^9$ ) birdamlik bilan (muvofiq-lashtirilgan) yagona bir butun tizim bo'lib tebranish imkoniyatiga ega bo'ladi. Kristall tepki impulsini o'ziga olgan holda ega bo'ladigan kinetik energiya qiymati, alohida bir atomning massasiga nisbatan kristall o'ta katta massaga ega bo'lganligi sababli e'tiborga olmasa ham bo'ladigan darajada kichikdir. Ushbu holda kristallga berilgan tepki energiya juda kichik bo'ladi, nurlanayotgan va yutilayotgan gamma-kvant energiyasi o'zgarmaydi. Kristall oladigan tepki energiyasini baholaymiz:

$$R = \frac{P_{ya}^2}{2 \cdot 10^8 M_{ya}} = \frac{T_{ya}}{10^8} \approx 5 \cdot 10^{-10} \text{ eV} \quad (1.63)$$


bu yerda  $p_{ya}$ ,  $M_{ya}$  va  $T_{ya}$  – mos holda «tepki» olgan yadro impulsi, massasi va kinetik energiyasi. Bu yerdan ko'rindiki, chiqayotgan va yutilayotgan gamma-kvantlarning energiyasi teng bo'ladi, ya'ni rezonans hodisasi kuzatiladi. Myossbauer manba va yutgichni suyuq azot haroratigacha sovutib, birinchi marta gamma-kvantlarning chiqishi va yutilishlarini tepkisiz kuzatgan va gamma-kvantlar energiyasini nihoyatda yuqori aniqlikda o'lhash imkoniyati mavjudligini isbotlagan. Keyinchalik, Myossbauer effektini  $^{57}\text{Fe}$  ( $E_\gamma = 14,4 \text{ keV}$ ,  $\tau = 1,4 \cdot 10^{-7} \text{ s}$ ) va  $^{110}\text{Sn}$  ( $E_\gamma = 23,9 \text{ keV}$ ,  $f = 2,8 \cdot 10^{-8} \text{ s}$ ) yadrolardagi kichik energiyali gamma-o'tishlar uchun xona haroratida ham kuzatish mumkinligi aniqlandi. Hozirgi vaqtida bu effekt yadro fizikasi va qattiq jismlar fizikasi masalalarida ham tez-tez qo'llanilmoqda.

Gamma-kvantlarning rezonans yutilishi bo'yicha tajriba sxemasi **1.16-rasm**da keltirilgan: 2 – gamma-nurlanish manbai, 3 – yutgich va 4 – bitta chiziq bo'ylab joylashgan gamma detektor. Manba qanday yadrolardan tashkil topgan bo'lsa, yutgich ham shunday yadrolardan tashkil topgan bo'ladi.

Gamma-nurlanishlar manbai 1 silindrغا joylashtirilgan bo‘lib, bu silindr tebranma harakat qiladi. Ushbu tebranma harakat natijasida manba yutgichga davriy ravishda yaqinlashib va uzoqlashib turadi. Bunda Doppler effekti hisobiga gamma-kvantining chastotasi o‘zgaradi. Yutilish qiymatining o‘zgarish effektini kuzatish uchun manba va yutgichlarni bir-biriga nisbatan bir necha mm/s tezlik bilan siljitim yetarli ekan. Myossbauer tajribasida olingan yutilish egri chizig‘i 1.17-rasmda keltirilgan.



1.16-rasm. Myossbauer tajribasi.




1.17-rasm. Myossbauer tajribasida olingan yutilish egri chizig‘i.

Myossbauer effekti asosida Myossbauer spektroskopiyasi deb nomlanuvchi yangi yo‘nalish vujudga keldi. Bunda radioaktiv manbadan chiqqan monoxromatik gamma-nurlanishlarni yutgichda rezonans yutilishi sodir bo‘ladi. Absorbsion Myossbauer spektroskopiyasida (metodning ko‘p qo‘llaniladigan turlaridan biri) namuna gamma-kvantlar bilan «yoritiladi», ya’ni nurlantiriladi. Gamma-nurlanishlar manbai sifatida temir-57, iridiy-191 va boshqa Myossbauer radioizotoplari qo‘llaniladi. Namunadan keyin detektor joylashtiriladi. Bu detektor yordamida gamma-kvantlarning namunadagi yutilish koeffitsientlari aniqlanadi. Namuna ham xuddi shunday ( $^{57}\text{Fe}$ ,  $^{191}\text{Ir}$  va h.k.) yadrolardan tashkil topgan bo‘lishi lozim.

**1.18-rasmida** MS1104Yem turdagি ekspress Myossbauer spektrometri keltirilgan. Ushbu spektrometr xona haroratidan 85 K gacha bo‘lgan haroratlarda transmission va emission Myossbauer o‘lchashlarni amalga oshirish uchun mo‘ljallangan.

Hozirgi kunda yadroviy gamma-rezonans metodi fizikaviy materialshunoslik, geologiya, kimyo va biologiyada keng qo‘llanilmoqda.


Masalan biologiyada oqsil tarkibida temir moddasi mavjud bo‘lgan guruhlarning xususiyatlarini tahlil qilishda keng qo‘llaniladi. Bu metodning katta taassurot qoldiradigan qo‘llanilishi, 1960-yilda Paund va Rebkilar tomonidan o‘tkazilgan tajriba hisoblanadi. Bu tajribada laboratoriya sharotida umumiy nisbiylik nazariyasida aytib o‘tilgan gamma-kvantlarning gravitatsion siljishi o‘lchangan.



**1.18-rasm.** MS-1104Yem turdagи Myossbauer spektrometri.

## 1.8-§. Klaster radioaktivlik

Radioaktiv yadro tomonidan b-zarra chiqarish hodisasi bizga yaxshi ma'lum. Radioaktiv yadro o'z-o'zidan geliy atom yadrosidan farqli qandaydir boshqa atom yadrosini chiqarishi mumkinmi? Bu savolga ijobiy javob 1984-yilda berildi. Bir-biridan mustaqil holda ilmiy tadqiqot olib boragan Angliyadagi va Rossiyadagi ikki guruh olimlar  $^{223}\text{Ra}$  izotopining radioaktiv parchalanishda  $^{14}\text{C}$  yadrosi uchib chiqishini kuzatishgan, ya'ni:



Bu turdag'i parchalanishlarga klaster parchalanishlar, yoki klaster radioaktivlik deb nom berildi. Klaster radioaktivlik – yadrolarning o'z-o'zidan b-zarraga nisbatan og'irroq bo'lgan yadro fragmentlari (klasterlar) chiqarish hodisasiidir. Hozirgi vaqtida asosiy holatdan  $^{14}\text{S}$ ,  $^{20}\text{O}$ ,  $^{24}\text{Ne}$ ,  $^{26}\text{Ne}$ ,  $^{28}\text{Mg}$ ,  $^{30}\text{Mg}$ ,  $^{32}\text{Si}$  va  $^{34}\text{Si}$  turdag'i klasterlar chiqaradigan  $^{114}\text{Ba}$  dan  $^{241}\text{Am}$  gacha bo'lgan 25 ta yadro eksperimental aniqlandi.

Klaster parchalanishlar juda katta sondagi og'ir izotoplar uchun energiya ruxsat etilgan. Ammo ko'pchilik hollarda bunday jarayonlarning ehtimolliklari juda ham kichik bo'lganligi uchun hozirgi kunda mavjud bo'lgan eksperimental qurilmalarning imkoniyatlari chegarasida bu hodisalarni kuzatish mumkin emas. Bu potensial to'siqlarning kengligi yoki balandligi oshishi natijasida shaffoflik eksponensial kamayishi bilan bog'liqidir. Uchib chiqayotgan klaster va ikkilamchi yadro nisbiy harakatining Q energiyasi 28 dan 94 MeV gacha o'zgaradi va u hamma holda potensial to'siqning balandligidan sezilarli darajada kichik bo'ladi. Shunday qilib, klaster parchalanish ham alfa-parchalanish kabi klassik fizikadagi potensial to'siq orqali zarraning o'tishi taqiqlangan, tunnel effekti sababli sodir bo'lar ekan. Klaster parchalanishni, ba'zi bir ma'noda yadroning alfa-parchalanish va sponton bo'linishi orasidagi oraliq jarayon sifatida ham qarash mumkin.

Klaster parchalanishlarni ularning birlamchi yadro asosiy parchalanish turiga nisbatan parchalanish ehtimolliklari *1.1-jadvalda* keltirilgan.

## 1.1-jadval.

*Klaster parchalanishlarni ularning birlamchi yadro asosiy  
parchalanishiga nisbatan ehtimolligi.*

Birlam-chi yadro	Uchib chiqayot-gan klasterlar	Q, MeV	$L_s / L_b$	$T_{1/2}$ , yil
$^{114}\text{Ba}$	$^{12}\text{C}$	—	$\sim 3,0 \cdot 10^{-5}$	—
$^{221}\text{Fr}$	$^{14}\text{C}$	31,28	$8,14 \cdot 10^{-13}$	$> 2 \cdot 10^8$
$^{221}\text{Ra}$	$^{14}\text{C}$	32,39	$< 1,2 \cdot 10^{-13}$	$> 7,4 \cdot 10^6$
$^{222}\text{Ra}$	$^{14}\text{C}$	33,05	$(3,7 \text{ yo } 0,6) \cdot 10^{-10}$ $(3,1 \text{ yo } 1,0) \cdot 10^{-10}$ $3,07 \cdot 10^{-10}$	—
$^{223}\text{Ra}$	$^{14}\text{C}$	31,85	$8,5 \cdot 10^{-10}$ $(8,5 \text{ yo } 2,5) \cdot 10^{-10}$ $(7,6 \text{ yo } 3,0) \cdot 10^{-10}$ $(5,5 \text{ yo } 2,0) \cdot 10^{-10}$	—
$^{224}\text{Ra}$	$^{14}\text{C}$	30,54	$6,1 \cdot 10^{-10}$ $(4,3 \text{ yo } 1,2) \cdot 10^{-11}$	$(2,3 \text{ yo } 0,6) \cdot 10^8$
$^{226}\text{Ra}$	$^{14}\text{C}$	28,21	$2,9 \cdot 10^{-11}$ $(3,2 \text{ yo } 1,6) \cdot 10^{-11}$ $(2,9 \text{ yo } 1,0) \cdot 10^{-11}$	—
$^{225}\text{Ac}$	$^{14}\text{C}$	30,47	$6 \cdot 10^{-12}$ $< 4 \cdot 10^{-13}$	$> 7 \cdot 10^{10}$
$^{228}\text{Th}$	$^{20}\text{O}$ Ne	—	$1 \cdot 10^{-13}$ ?	—
$^{230}\text{Th}$	$^{24}\text{Ne}$	57,78	$5,6 \cdot 10^{-13}$ $(5,6 \text{ yo } 1,0) \cdot 10^{-13}$	$(1,3 \text{ yo } 0,3) \cdot 10^{17}$
$^{231}\text{Pa}$	$^{23}\text{F}$ $^{24}\text{Ne}$	51,84 —	$< 4 \cdot 10^{-14}$ $9,97 \cdot 10^{-15}$ $1,34 \cdot 10^{-11}$	$> 8 \cdot 10^{17}$
$^{232}\text{U}$	$^{24}\text{Ne}$ $^{28}\text{Mg}$	62,31	$(2,0 \text{ yo } 0,5) \cdot 10^{-12}$ $2 \cdot 10^{-12}$ $1,18 \cdot 10^{-13}$	$(3,4 \text{ yo } 0,8) \cdot 10^{13}$
$^{233}\text{U}$	$^{24}\text{Ne}$ $^{25}\text{Ne}$ $^{28}\text{Mg}$	60,50 60,85	$(7,5 + 2,5) \cdot 10^{-13}$ $(5,3 + 2,3) \cdot 10^{-13}$ $1,3 \cdot 10^{-15}$	—

$^{234}\text{U}$	$^{28}\text{Mg}$	74,13	$1 \cdot 10^{-13}$ $(1,4 \text{ yo } 0,2) \cdot 10^{-13}$	
	$^{24}\text{Ne}$	58,84	$9 \cdot 10^{-14}$	
	$^{26}\text{Ne}$	59,47	$<4 \cdot 10^{-12}$	
$^{235}\text{U}$	$^{24}\text{Ne}$		$8 \cdot 10^{-12}$	
	$^{25}\text{Ne}$	55,96	$<5 \cdot 10^{-12}$	
	$^{28}\text{Mg}$	56,75	$1,8 \cdot 10^{-12}$	$>9 \cdot 10^{20}$
	$^{29}\text{Mg}$	72,20		
$^{236}\text{U}$	$^{24}\text{Ne}$		$9 \cdot 10^{-12}$	
	$^{26}\text{Ne}$	57,36		$>1,4 \cdot 10^{20}$
	$^{28}\text{Mg}$	58,11		
	$^{30}\text{Mg}$	72,20	$2 \cdot 10^{-13}$	
$^{236}\text{Pu}$	$^{28}\text{Mg}$	79,67	$2 \cdot 10^{-14}$	$\sim 1,5 \cdot 10^{14}$
$^{238}\text{Pu}$	$^{32}\text{Si}$	91,21	$1,38 \cdot 10^{-16}$	$\sim 6,5 \cdot 10^{17}$
	$^{28}\text{Mg}$	75,93	$5,62 \cdot 10^{-17}$	$\sim 1,5 \cdot 10^{18}$
	$^{30}\text{Mg}$	77,03		
$^{240}\text{Pu}$	$^{34}\text{Si}$	90,95	$<1,3 \cdot 10^{-13}$ $6 \cdot 10^{-15}$	$>5 \cdot 10^{16}$
$^{237}\text{Np}$	$^{30}\text{Mg}$	75,02	$1,8 \cdot 10^{-14}$	$>5 \cdot 10^{19}$
$^{241}\text{Am}$	$^{34}\text{Si}$	93,84	$2,6 \cdot 10^{-13}$	$>9 \cdot 10^{16}$


Og'ir yadrolar sohasida asosiy parchalanish turi alfa-parchalanish hisoblanadi. Shu sababli, bu jadvalda tajribada kuzatiladigan klaster parchalanishlar alfa-parchalanishga qiyoslashtirilgan. Bu jadvalda bir-lamchi yadro, uchib chiqayotgan klasterlar, parchalanish energiyasi  $Q$ , klaster chiqish ehtimolligining alfa-zarra chiqish ehtimolligiga nisbati  $L_s / L_b$ , klaster nisbiy chiqishning yarim parchalanish davrlari keltirilgan. Bu jadvalning tahlili shuni ko'rsatadiki, ba'zi bir yadrolarda neytronlarning katta miqdorda ortiqcha bo'lishi neytronga boy bo'lgan yengil nuklidlarning emissiyasiga (chiqishiga) imkon beradi.

Atom yadrosidan uchib chiqqan  $^{14}\text{C}$  yadrosi, yarim o'tkazgichli detektorlarning DYe-Ye teleskopida qayd qilingan.  $^{14}\text{C}$  yadro uchib chiqish ehtimolligi, b-zarrani chiqish ehtimolligiga nisbati  $L_s / L_b = (8,5 \text{ yo } 2,5) \cdot 10^{-10}$  teng ekanligi aniqlandi.

Klaster radioaktivlik kashf etilishiga olib keluvchi hal qiluvchi omil bu radioaktiv parchalanuvchi izotopni tanlash bo'ldi.

Agar klaster parchalanish natijasida ikki marta sehrli  $^{208}\text{Pb}$  izotopiga yaqin izotop hosil bo'lsa, energiya bo'yicha maksimal ustunlik ega bo'ladi. Bunda klasterning potensial to'siqdan o'tish ehtimolligi oshadi, bu esa ma'lum bir klasterning hosil bo'lishi bilan bog'liq bo'lgan parchalanish ehtimolligini oshiradi. Tez orada  $^{14}\text{C}$  yadroning spontan uchib chiqishi  $^{221}\text{Fr}$ ,  $^{221}\text{Ra}$ ,  $^{222}\text{Ra}$  izotoplarda ayon bo'ldi. Hozirgi vaqtida klaster radioaktivlik aniqlangan 10 dan ortiq izotoplarni ma'lumdir.  $^{14}\text{C}$  yadro chiqishi bilan bir qatorda  $^{24}\text{Ne}$ ,  $^{26}\text{Ne}$ ,  $^{28}\text{Mg}$ ,  $^{32}\text{Si}$  izotoplarni chiqishilarini ham kuzatildi.

Og'ir klasterning chiqish ehtimolligining b-zarra chiqish ehtimolli-giga nisbati  $\sim 10^{-10} - 10^{-13}$  intervalda joylashgan. Ammo ayrim hollarda, masalan  $^{28,30}\text{Mg}$  izotoplarning chiqish ehtimolliklari  $10^{-17}$  gacha tushishi mumkin.



**1.19-rasm.** Klaster radioaktivlik (nuqtalar) va spontan bo'linish (krestik) holari dayarim parchalanish logarifmining  $Z^2/A$  bo'linish parametriga bog'lanishi.

Klaster radioaktivlik tabiatini tushunish uchun ushbu hodisani, b-par-chalanish va kuchli assimmetrik yadro bo'linishlari bilan solishtirish tabiiyidir.

Atom yadrosi bo'linishida yadroda katta o'zgarish sodir bo'ladi va u ikkita bo'lakka bo'linadi. Agar bo'linishdan oldin u kuchli deformatsiyalangan va cho'zilgan bo'lsa, bo'linish sodir bo'ladi. Uzilish momentida deformatsiya parametri muvozanat qiyamatidan ikki marta katta bo'ladi. Uzilish (bo'linish) natijasida kuchli uyg'ongan deformatsiyalangan bo'laklar hosil bo'ladi. Ularning uchib ketish jarayoni potensial to'siq usti yoki atrofida bo'lar ekan. Bir necha izotoplarni yarim parchalanish davri lo-garifmining bo'linish parametriga  $Z^2/A$  bog'lanishi **1.19-rasmida** keltirilgan.

Bo'linish parametri qancha katta bo'lsa, og'ir yadrolarning o'z-o'zidan

bo'linishi shuncha oson bo'ladi. Agar  $Z^2/A > 46,56$  shart bajarilganda har qanday yadro beqaror bo'lib, spontan parchalanish imkoniyatiga ega bo'ladi.  $Z^2/A$  kattalikning ortib borishi bilan yadrolarning spontan bo'linish ehtimolligi ham ortib, yadroning yarim parchalanish davrining kamayishi yangi transuran elementlarni sintez qilishga ma'lum chegara qo'yadi.

**1.19-rasmdan** ko'rindiki, ushbu bog'lanish spontan bo'linish uchun odatda «cho'qqisimon» ko'rinishga ega bo'ladi, shu bilan bir vaqtida klaster radioaktivlik uchun bo'linish parametri oshishi bilan yarim parchalanish davri keskin kamayadi.

Alfa-parchalanish bo'linish jarayonidan quyidagi bir necha belgilari bo'yicha keskin farq qiladi:

1. b-parchalanish to'siq osti jarayoni.
2. Dastlabki(yoki boshlang'ich) yadro b-zarra va ikkilamchi yadroga parchalanganda, ikkilamchi yadro asosiy yoki kuchsiz uyg'ongan holatda hosil bo'ladi.
3. b-parchalanish natijasida yadroda katta o'zgarishlar sodir bo'lmaydi.


Klaster parchalanish doimiysi I, yarim parchalanish davri  $T_{1/2}$ , vaqt birligida yadro sirtida klaster hosil bo'lish ehtimolligi w va D potensial to'siqdan o'tish ehtimolliklari orqali aniqlanadi:

$$I = \ln 2 / T_{1/2} = wD \quad (1.65)$$

Klaster radioaktivlik parsial yarim parchalanish davrining Kulon potensial to'sig'i shaffofligi (to'siqdan o'tish ehtimolligi) logarifmiga bog'lanishi **1.20-rasmida** keltirilgan. Bu yerda solishtirish uchun b-parchalanishga oid bog'lanish ham keltirilgan.

Rasmdan ko'rindiki, hamma hollardagi klasterlar va b-parchalanishda chiziqli bog'lanishlar kuzatiladi.

Alfa-parchalanish va spontan bo'linish jarayonlarini o'rganish shuni ko'rsatdiki, ikkala holda ham hal qiluvchi omil bo'lib, b-zarra yoki og'irroq klasterlarning potensial to'siqdan o'tishi hisoblanadi. Keltirilgan dalillar shuni ko'rsatdiki, klaster parchalanishlar ko'proq b-parchalanish hodisasiiga o'xshash ekan.



**1.20-rasm.** Klaster radioaktivlik parsial yarim parchalanish davrining Kulon potensial to'sig'i shaffofligi (to'siqdan o'tish ehtimolligi) logarifmiga bog'lanishi.

Dastlabki yadrodan uchib chiqayotgan klasterlarning  $E_{kin}$  kinetik energiyasini eksperimental o'lchashlarni bu xulosaga qo'shimcha dalil sifatida keltirish mumkin. Ushbu kinetik energiya quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:


$$E = Q(F_i/F_j) \quad (1.66)$$

bu yerda  $Q$  – klaster parchalanish energiyasi,  $F_i$  – dastlabki (yoki birlamchi) yadro massasi,  $F_j$  – ikkilamchi yoki parchalanishdan keyin hosil bo'lgan yadro massasi. Chiqayotgan klasterlarning massasi oshishi bilan (1.66) ba'zi bir chetlanishlar og'irroq klasterlar chiqarishida b-parchalanish mexanizmidan uzoq davom etuvchi mexanizmga o'tishidan dalolat beradi. Shunday qilib, ushbu holda ham b-parchalanish jarayonidagi kabi parchalanish energiyasi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ko'pchilik og'ir yadrolar ikkita yadroga, ya'ni,  $A \rightarrow A_1 + A_2$  parchalanishga energetik jihatdan noturg'un bo'ladi. Bunda parchalanish energiyasi quyidagiga teng bo'ladi:

$$Q = [M(A) - M(A_1) - M(A_2)]c^2. \quad (1.67)$$

Demak, bunda  $Q$  kattalik katta sonli  $A_1$  va  $A_2$  larning turli kombinatsiyalari uchun musbat bo'lar ekan. Ammo  $A_1$  va  $A_2$  massa sonlari-

ning faqat ba'zi bir birikmasi kuchli ajralib turgan bo'ladi va parchalanishda aynan ushbu birikmalar hosil bo'ladi. Parchalanish energiyasiga berk qobiqlar kuchli ta'sir ko'rsatadi. Klaster parchalanish energiyasi yaqqol ko'rindigan maksimumga ega. Bu maksimum neytronlar bilan to'lgan qobiq va  $N = 8, 14, 20$  kabi yengil fragmentlar osti qobiqlari bilan bog'langan. Bu bog'lanish **1.21-rasmida** aniq ko'rini turibdi.



**1.21-rasm.**  $^{208}\text{Pb}$  og'ir fragmenti hosil bo'lishiga olib keluvchi turli parchalanishlar uchun klaster  $Q$  parchalanish energiyasining chiqayotgan klaster massa soniga bog'lanishi.

Bu rasmda klaster parchalanish energiyasi  $Q$  ning,  $^{208}\text{Pb}$  hosil bo'lishiga olib keluvchi turli parchalanishlar uchun, chiqayotgan klasterlar massalariga bog'lanishi ko'rsatilgan. Eng katta ehtimollikdagi chiqishlar sehrli sonli fragmentlarga to'g'ri keladi.  $A_1 = 208$  ( $Z_1 = 82$ ,  $N_1 = 126$ ) va  $A_2 = 14, 24, 28, 34$  ( $N_2 = 8, 14, 20$ ) yadrolar eng katta chiqishlarga ega.

Klaster parchalanishlarni nazariy tushuntirish uchun turli modellar taklif etilgan. Ushbu modellar yordamida keyingi va hali kashf etilmagan klaster parchalanishlar oldindan bashorat qilinmoqda.

Tajribalar shuni ko'rsatdiki, ushbu modellar bilan hisoblangan klaster parchalanish parametrlari tajriba natijalari bilan juda mos tushar ekan.


Klaster parchalanish modellaridan eng oxirgilaridan biri yordamida hisoblangan yarim parchalanishlar davri **1.2-jadvalda** keltirilgan. Shuningdek, bu jadvalda tajribada olingan natijalar ham solishtirish uchun alohida ustunda keltirilgan.

### 1.2-jadval.

*Klaster radioaktivlik uchun tajribada o'lchangan yarim parchalanish davri bilan nazariy hisoblangan yarim parchalanish davrlarini solishtirish.*

$A \rightarrow A_x + A_f$	Q, MeV	$T_{1/2}^{\text{exp}}, \text{c}$	$T_{1/2}, \text{s}$
$^{222}\text{Ra} \rightarrow ^{14}\text{C} + ^{208}\text{Pb}$	33,05	$1,7 \cdot 10^{11}$	$2,3 \cdot 10^{11}$
$^{228}\text{Th} \rightarrow ^{20}\text{O} + ^{208}\text{Pb}$	44,73	$5,4 \cdot 10^{20}$	$5,1 \cdot 10^{20}$
$^{232}\text{U} \rightarrow ^{24}\text{Ne} + ^{208}\text{Pb}$	62,32	$2,5 \cdot 10^{20}$	$2,7 \cdot 10^{19}$
$^{234}\text{U} \rightarrow ^{26}\text{Ne} + ^{208}\text{Pb}$	59,48	$1,2 \cdot 10^{25}$	$2,1 \cdot 10^{25}$
$^{236}\text{U} \rightarrow ^{30}\text{Mg} + ^{206}\text{Hg}$	72,51	$3,8 \cdot 10^{27}$	$8,3 \cdot 10^{27}$
$^{236}\text{Pu} \rightarrow ^{28}\text{Mg} + ^{208}\text{Pb}$	79,85	$3,5 \cdot 10^{21}$	$3,4 \cdot 10^{20}$
$^{238}\text{Pu} \rightarrow ^{32}\text{Si} + ^{206}\text{Pb}$	91,20	$1,9 \cdot 10^{25}$	$1,1 \cdot 10^{25}$
$^{242}\text{Cm} \rightarrow ^{34}\text{Si} + ^{208}\text{Pb}$	96,52	$1,4 \cdot 10^{23}$	$4,8 \cdot 10^{23}$

Ushbu model Birlashgan yadro tadqiqotlar instituti (Rossiya) xo-dimlari G.G. Adamyan, S.R. Kuklin va N.V. Antonenko tamonidan taklif etilgan. Mazkur model asosida hisoblangan yarim parchalanish davrining dastlabki (birlamchi) yadro massa soniga bog'lanishi **1.22-rasm**-da keltirilgan.




**1.22-rasm.** Hisoblangan yarim parchalanish davrining dastlabki(birlamchi) yadro massa soniga bog'lanishi. Bu yerda neon (qora uchburchak), magniy (qora romb) va kremniy (yulduzcha) klasterlarining plutoniyydan (yuqori grafik), va magniy, kremniy va oltingugurt (yorug' uchburchaklar) klasterlarining kyuriydan (pastki grafik) chiqishi uchun. Nuqtalar yonida yengil klasterlarning massa soni ko'rsatilgan.

Bu yerda neon, magniy va kremniy klasterlarining plutoniyydan (yuqori grafik), magniy, kremniy va oltingugurt klasterlarining kyuriydan (pastki grafik) chiqishi uchun bog'lanish keltirilgan.

**1.2-jadvalda** klaster radioaktivlik uchun tajribada o'lchangan yarim parchalanish davri bilan nazariy hisoblangan yarim parchalanish davrlari solishtirilgan.


Bu yerdan ko'rindaniki, mazkur model asosida bajarilgan hisoblashlar tajribada olingan ma'lumotlari bilan qoniqarli darajada mos tushar ekan.



**1.23-rasm.** Toriy  $_{90}\text{Th}$  ( $A = 209\text{--}234$ ) izotoplaridan  $^{14}\text{C}$ ,  $^{20}\text{O}$ ,  $^{24}\text{Ne}$  klasterlarni ajratish energiyasining massa soniga bog'lanishi.

Bitta element izotoplaridan klasterlarning chiqishi, massa soni A ga qanday bog'liq bo'lishini **1.23** va **1.24-rasmrlardan** ko'rish mumkin

**1.23-rasmida** toriy  $_{90}\text{Th}$  ( $A = 209\text{--}234$ ) izotoplaridan  $^{14}\text{C}$ ,  $^{20}\text{O}$ ,  $^{24}\text{Ne}$  klasterlarni ajratish energiyasining massa soniga bog'lanishi keltirilgan. Ushbu energiya  $^{14}\text{C}$ ,  $^{20}\text{O}$ ,  $^{24}\text{Ne}$  klasterlar uchun massa soni oshishi bilan kamayib boradi va ma'lum nuqtadan keyin yana ortishi kuzatiladi (**1.23-rasm**). Bu nuqta yengilroq klasterlar uchun kichik massa sonlarda kuzatiladi. Klasterlar og'irlashgan sayin bu nuqta massa sonining katta qiymatlariga to'g'ri keladi. Bu holatni **1.24-rasmida** ham kuzatish mumkin. Bu rasmda radiy  $_{88}\text{Ra}$  ( $A=202\text{--}230$ ) izotoplaridan  $^{14}\text{C}$ ,  $^{20}\text{O}$ ,  $^{24}\text{Ne}$  klasterlarni ajratish energiyasining massa soniga bog'lanishi ko'satilgan.




**1.24-rasm.** Radiy  $_{88}\text{Ra}$  ( $A = 202\text{--}230$ ) izotoplaridan  $^{14}\text{C}$ ,  $^{20}\text{O}$ ,  $^{24}\text{Ne}$  klasterlarni ajratish energiyasini massa soniga bog'lanishi.

## 1.9-§. Qo'shaloq beta-parchalanishlar

Qo'shaloq beta-parchalanishlar kuchsiz o'zaro ta'sir sababli yadro zaryadi ikkiga o'zgaradigan atom yadrolarning radioaktiv parchalanishlaridir. Qo'shaloq beta-parchalaishlar 2b- va bb-parchalanishlar ko'rinishlarida beriladi.


Qo'shaloq b-parchalanishda ( $A, Z$ ) atom yadrosi ikkita elektron va ikkita antineytrino yoki ikkita pozitron va ikkita neytrino chiqaradi. Buning natijasida izobar yadro hosil bo'ladi va uning elektr zaryadi ikki birlikka oshadi yoki kamayadi.

Qo'shaloq 2b-parchalanishda yadroning zaryadi ikki birlikka oshadi va ikkita elektron chiqishi sodir bo'ladi:




2b-parchalanishning boshqa bir turida esa yadro zaryadi ikki birlikka kamayadi.


Bulardan tashqari qo'shaloq elektron qamrash (*2e qamrash*) mavjud, ya'ni:



Elektron qamrashning yana bir noyob turi bu pozitron va ikkita neytrino chiqishi bilan sodir bo'ladigan jarayondir:



Pozitron parchalanishning ham qo'shaloq parchalanishi mavjud, ya'ni:




Qo'shaloq beta-parchalaishlar barcha radioaktiv jarayonlar ichida eng kam uchraydigan turi hisoblanadi. Hozirgi kunda 11 ta nuklidda mazkur jarayon yuqori ishonchlikda kuzatilgan bo'lib, ularning yarim parchalanish davri  $7 \cdot 10^{18}$  yildan ortiq.  $^{128}Te$  izotopining yarim parchalanish davri (3,5 yo 2,0)  $\cdot 10^{24}$  yilni tashkil qilib, bu bugungi kunda hamma radioaktiv izotoplarni mutloq rekord hisoblanadi.


Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, tasdiqlangan kuzatishlar fa-

qat  $2b$ -*parchalanishga* taalluqlidir. Qo'shaloq qamrashlar faqat bariy-130 izotopida kuzatilgan va uning yarim parchalanish davri ( $2,2$  yo  $0,5 \cdot 10^{24}$ ) yilni tashkil qiladi. Ushbu parchalanishlar nafaqat ikkilamchi yadroning asosiy holatida, balki uyg'ongan holatida ham amalga oshishi mumkin. Bunday hollarda bir yoki bir necha gamma-kvant yoki konversion elektronlar nurlanishi sodir bo'ladi.

Hozirgi kunda nazariya bo'yicha ikkita qo'shaloq beta-parchalanishlar mavjud bo'lib, birinchisi yuqorida keltirildi, ya'ni:



Ikinchisi esa ekzotik bo'lib, bunda neytrino hosil bo'lmaydi va neytrinosiz parchalanish deyiladi:



Hozirgi davrda faqat ikki neytrinoli qo'shaloq beta-parchalanish mavjudligi aniqlangan. Neytrinosiz parchalanish esa aniqlanmagan.

Qo'shaloq beta-parchalanish yuz berayotgan radionuklidlar juda katta yarim parchalanish davriga ega bo'ladi deb aytilgan edi va bu tajribalarda tasdiqlandi.

Qo'shaloq beta-parchalanishlarni o'rganish orqali neytrino tinchlikdagi massaga egami yoki yo'qmi degan savolga ham javob berish mumkin. Bu faktor koinotning kelajakdagi kosmologik tadqiqotlarida ham muhim ahamiyatga egadir.

### 1.10-§. Neytron radioaktivlik

Bizga ma'lum bo'lgan N-Z diagrammaning o'ng tomonida turg'un yadrolardan keyin neytronga boy (neytronlar soni ortiq) bo'lgan yadrolar joylashgan. Ushbu soha hozirgi kunda yetarlicha o'rganilmagan. Yadro modeli tomonidan oldindan aytilgan (bashorat qilingan) mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan 3 mingta yadro aynan ushbu sohada joylashgan bo'lib, hozirgi kunda bu yadrolar topilmagan.

Neytron radioaktivlik chegarasida joylashgan neytronga boy yengil yadrolarda (neutron dripline)  $(A, Z)$  yadroning asosiy holatidan neytroning chiqishi kuzatiladi. Bunda massa soni A birga kamayadi, yadro zaryadi esa o'zgarmaydi:

$$(A, Z) \rightarrow (A-1, Z) + n \quad (1.74)$$

Hozirgi kunda aniqlangan neytron radioaktiv yadrolar soni ~20 ta.

Neytron radioaktivlikka ega bo'lgan yengil yadrolarning og'ir izotoplari topilmoqda. Masalan,  $Z=1$  ( $^{4,5,6}\text{H}$ ) va  $Z=2$  ( $^{5,7,9,10}\text{He}$ ) bo'lgan yengil yadrolarda. Neytron radioaktivlik  $Z=16$  gacha bo'lgan yadrolarda kuzatiladi. Yengil yadrolarning og'ir izotoplari, ya'ni  $^{26}\text{O}$ ,  $^{33}\text{Ne}$ ,  $^{36}\text{Na}$ ,  $^{39}\text{Mg}$  va  $^{49}\text{S}$  izotoplari neytron nurlatgichlar hisoblanadi.

Yadrodag'i neytronlar sonining ortishi bilan neytronlar chiqarish ehtimolliklari oshishiga simmetriya energiyasining oshishi sabab bo'ladi. Simmetriya energiyasi quyidagi teng:

$$E_{\text{simm}} = 23,6(A-2Z)^2/A \quad (1.75)$$

Proton radioaktivlikdan farqli ravishda neytron radioaktivlikda yarim parchalanish davri parchalanish sodir bo'lganda yadrodan chiqib ketadigan neytron olib ketgan orbital moment bilan aniqlanadi. Neytron zaryadga ega bo'limganligi uchun Kulon potensial to'sig'i mavjud emas. Ammo markazdan qochma potensial to'siq mavjud bo'ladi.

**1.3-jadvalda** turg'un izotoplarning maksimal massa soni va neytron radioaktivligi aniqlangan izotoplarni massa sonlari keltirilgan. Ushbu ma'lumotlar neytron radioaktivlik chegarasi qayerdan o'tishini aniqlash va tushunishga imkon beradi.

Atom yadrolarining neytronlar chiqarib parchalanishida birlamchi yadroning konfiguratsiyasi kuchli o'zgarishi mumkin. Bu o'z navbatida radioaktiv yadrolarning yashash vaqtining oshishiga olib keladi.


Yadro assosiy holatidan neytron chiqarishi  $Z > 8$  bo'lgan quyidagi neytronga boy bo'lgan izotoplarda kuzatilgan:  $^{28}\text{F}$ ,  $^{33}\text{Ne}$ ,  $^{36}\text{Na}$ ,  $^{39}\text{Mg}$ ,  $^{49}\text{S}$ . Bu izotoplarning hammasi toq sonli neytronlarga ega. **1.25-1.28-rasm-larda** neytron radioaktivligi aniqlangan kimyoziy elementlar ( $Z = 4$ ch16) uchun hisoblab topilgan neytronlar ajratib olish energiyasining massa soniga bog'lanishlari keltirilgan.

### 1.3-jadval.


*Neytronlar nurlanuvchi izotoplarning mayjudlik chegarasi.*

Kimyoviy elementlar tartib raqami	Kimyoviy element simvoli	Turg'un izotoplар massa soni, A	Neytron-radioaktiv izotoplар massa soni, A
1	H	2, 3	4, 5, 6
2	He	3, 4	7, 9, 10
3	Li	6, 7	10, 12
4	Be	9	13, 15
5	B	10, 11	16, 18
6	C	12, 13	21
7	N	14, 15	17, 18
8	O	16, 17, 18	25, 26, 27, 28
9	F	19	28, 30
10	Ne	20, 21, 22	33
11	Na	23	36
12	Mg	24, 25, 26	39
16	S	32, 33, 34	49


Radioaktiv parchalanish sodir bo'layotgan izotoplarning massa soni oshishi bilan ulardan neytronlar ajratish energiyasi ham kamaya boradi. Buni **1.25-1.29-rasmarda** keltirilgan bog'lanishlarda ham kuzatish mumkin. Bu kamayish qonuniyati element tartib raqami yoki yadrodag'i protonlar soni oshishi bilan yaqqol namoyon bo'ladi. Ya'ni bu yerda kamayish eksponensial qonunga yaqin qonun bo'yicha kamaya boradi.




**I.25-rasm.**  $\text{He} (Z = 2)$  va  $\text{Li} (Z = 3)$  izotoplarida neytronni ajratish energiyasi.



**I.26-rasm.**  $\text{Be} (Z = 4)$  va  $\text{B} (Z = 5)$  izotoplarida neytronni ajratish energiyasi.




**I.27-rasm.**  $\text{C} (Z = 6)$  va  $\text{N} (Z = 7)$  izotoplarida neytronni ajratish energiyasi.



1.28-rasm. O ( $Z = 8$ ) izotoplarida neytronni ajratish energiyasi.

Neytron radioaktivlikka misol sifatida  $^{28}\text{F}$  izotopning parchalanishi sxemasi 1.29-rasmda keltirilgan. Ftor bitta  $^{19}\text{F}$  turg'un izotopga ega.  $^{28}\text{F}$  izotopi neytronlarga boy va asosiy holatidan neytron chiqarib parchalanadi, ya'ni:  $^{28}\text{F} \rightarrow ^{27}\text{F} + \text{n}$ .  $^{28}\text{F}$  izotopning yarim parchalanish davri  $T_{1/2} < 40$  ns.  $^{28}\text{F}$  izotopi parchalanishi natijasida hosil bo'lgan izotoplari ham neytronlarga boy bo'lgani uchun ularning asosiy parchalanish kanchali bu  $\sigma$ -parchalanishdir.  $^{27}\text{F}$ ,  $^{26}\text{Ne}$ ,  $^{27}\text{Na}$  izotoplari kechikkan neytronlar chiqarib parchalanadilar.



1.29-rasm.  $^{28}\text{F}$  izotopining parchalanishi.

## 1.11-§. Radioaktiv parchalanish jarayonlarining sinflarga bo'linishi

Hozirgi kunda ma'lum bo'lgan radioaktiv parchalanish jarayonlari sinflarga bo'lib chiqildi. Ushbu ma'lumotlar **1.4-jadvalda** keltirilgan.

### 1.4-jadval.

*Radioaktiv parchalanishlar turlari.*

Parchalanish turi	Parchalanishda ishtirok etuvchi zarralar	Ikkilamehi nuklid
<i>Atom yadrosidan yengil atom yadrolari chiqishi bilan sodir bo'ladigan parchalanishlar</i>		
b-parchalanish	Yadrodan chiqqan b-zarra	(A-4, Z-2)
Protonlar chiqishi	Yadrodan chiqqan proton	(A-1, Z-1)
Neytronlar chiqishi	Yadrodan chiqqan neytron	(A-1, Z)
Qo'sh neytron emissiyasi	Yadrodan bir vaqtida chiqqan qo'sh neytron	
Spontan bo'linish	Yadro ikki yoki bir necha kichik yadrolarga parchalanadi	
Klaster parchalanishlar	Yadrodan b-zarradan katta, ammo birlamchi yadrodan kichik bo'lgan yadro	(A-A1, Z-Z1) + (A1,Z1)
<i>Beta parchalanish turlari</i>		
b <sup>-</sup> - parchalanish	Yadro elektron va antineytrino chiqaradi	(A, Z+1)
b <sup>+</sup> - parchalanish	Yadro pozitron va neytrino chiqaradi	(A, Z-1)
Elektron qamrash	Yadro orbital elektronni qamrab oladi va neytrino chiqaradi. Ikkilamchi yadro (yoki nuklid) uyg'ongan va nostabil holatda bo'ladi	(A, Z-1)
Qo'shaloq b - parchalanish	Yadro ikkita elektron va ikkita antineytrino chiqaradi	(A, Z+2)

Qo'shaloq elektron qamrash	Yadro ikkita orbital elektronni qamrab oladi va ikkita neytrino chiqaradi. Ikkilamchi yadro (yoki nuklid) uyg'ongan va nostabil holatda bo'ladi.	(A, Z-2)
Pozitron emissiyasi bilan sodir bo'ladijan elektron qamrash	Yadro orbital elektronni qamrab oladi va bitta pozitron va ikkita neytrino chiqaradi.	(A, Z-2)
Qo'shaloq pozitron chiqadigan parchalanish	Yadro ikkita pozitron va ikkita neytrino chiqaradi.	(A, Z-2)
<b><i>Gamma-nurlanishlar (yadro holatlari orasidagi o'tish)</i></b>		
Gamma-parchalanishlar	Uyg'ongan yadro yuqori energiyali foton (gamma-nurlar) chiqaradi.	(A, Z)
Ichki konversiya	Uyg'ongan yadro o'z energiyasini orbital elektronga beradi	(A, Z)

## 1.12-§. Radioaktiv fon

Insoniyat o'z hayoti davomida radioaktiv fon nurlanishlar maydoni ichida yashaydi.

Radioaktiv fonni shartli ravishda ikkiga bo'lish mumkin, ya'ni:

1. Tabiiy radioaktiv fon.
2. Sun'iy radioaktiv fon.

Radioaktiv fon insonga bog'liq bo'lmasdan Quyosh sistemasi vujudga kelgan vaqtida paydo bo'lган bo'lib, uni asosan tabiatda sochilgan uran-toriy oilasi va tabiiy radionuklidlar vujudga keltiradi. Ikkinci fon esa bevosita inson faoliyati bilan bog'liq bo'lib, uning vujudga keliishi inson tomonidan yadro qurollari yaratilishi va yadro energetikasini o'zlashtirilishi bilan uzviy bog'liqdir. Sun'iy radioaktiv fon intensivligi vaqt o'tishi bilan oshib bormoqda va ma'lum bir darajada ekologik xavf tug'dirishi mumkin. Ushbu fonni doimo kuzatish va nazorat qilib turish davr talabidir.

Tabiiy radioaktiv fonni vujudga keltiruvchi omillar asosan quyidagilar:

1. Kosmik nurlanishlar.
2. Uran-toriy oilasi.
3. Tabiiy radionuklidlar.
4. Tabiiy radioaktiv aerozollar.


Har bir inson doimo tashqi radiatsiya manbai bo‘lgan kosmik nurlar ta’siri ostida bo‘ladi. Ushbu nurlanishlar bizga koinotning uzoq sohalaridan yetib keladi.

Kosmik yoki kosmik radiatsion nurlanishlar Galaktikada va Quyoshda sodir bo‘layotgan portlashlar natijasida hosil bo‘ladi. Koinotdan Yerga kelayotgan zaryadlangan zarrachalar oqimi, odat-da, birlamchi koinot nurlanishlari deyiladi. Birlamchi koinot nurlanishlari asosan protonlar (~90%), b-zarralar (geliy atomining yadrosi) va tartib raqami 30 dan kichik bo‘lgan kimyoviy elementlar atom yadrolaridan iborat. Birlamchi koinot nurlanishlari atmosferani tashkil etgan kimyoviy elementlar atom yadrolari bilan o‘zaro ta’sirlashishi natijasida yangi (ikkilamchi) zarralar – ikkilamchi koinot nurlari hosil bo‘ladi. Ikkilamchi koinot nurlari asosan 20 km balandlikdan to Yer sirtigacha bo‘lgan oraliqda sodir bo‘lib, birlamchi koinot nurlanishidan keskin farq qiladi va asosan yuqori energiyali mezonlar, neytronlar, protonlar va «yumshoq» komponentli elektron va gamma-kvantlardan iborat. Dengiz sathida yumshoq komponentlar intensivligi koinot nurlanishlari to‘liq intensivligining taxminan 1/3 qismini tashkil qiladi.

Gamma va rentgen nurlari yumshoq va qattiq tashkil etuvchilarga bo‘linadi. Kosmik nurlanishlarning 10 sm qalinlikdagi qo‘rg‘oshinda deyarli yutiladigan qismiga yumshoq, yutilmasdan o‘tgan qismiga esa qattiq komponentlar deyiladi. 1,25 MeV energiyada intensivlik  $K=500$  marta kamayadi. Tekshirishlar shuni ko‘rsatdiki, koinot nurlarining yumshoq va qattiq komponentlarga bo‘linishi chuqur fizik ma’noga ega bo‘lib, komponentlarni tashkil etgan zarralarning tabiatini bilan uzviy bog‘liq ekan. Masalan, yumshoq komponent moddada kuchli yutiluvchi zarralar-elektronlar va gamma-kvantlardan, qattiq komponenti esa, asosan relativistik myuonlardan iborat. Myuon massasi elektron massasidan 206,8 marta katta bo‘lib, ular moddada kuchsiz yutiladi. Sababi, ularning tormozlanish nurlanishi juda kuchsiz bo‘lib, o‘z energiyasini asosan ionlashtirish hisobiga sarflaydi. Myuonlarning ikki asosiy turi mavjud bo‘lib, ularning o‘rtacha yashash vaqtisi ~ 2,2 mks ga teng.

Kosmik nurlanishlarni yuzaga keltiruvchi yadro reaksiyalari natijasida hosil bo‘ladigan radionuklidlarga kosmogen radionuklidlar deyildi. Bunda bombordimon qiluvchi zarralar vazifasini birlamchi va ikkilamchi kosmik nurlar tarkibidagi zarralar, nishon sifatida atmosfera havosi tarkibiga kiruvchi kimyoviy elementlar, ya’ni azot, kislород va argonlar bajaradi. Bu jarayonlar natijasida tritiy, uglerod-14, berilliyy-7 va natriy-22 kosmogen radionuklidlari hosil bo‘ladi. Tritiy izotopi havo tarkibida hosil bo‘ladi va yog‘ingarchiliklar natijasida yer sirtiga tushadi. Tabiatda havo-tuproq-suv aylanishlarida qatnashadi. Tirik organizm to‘qimalaridagi tritiy konsentratsiyasi o‘rtacha 0,4 Bk/kg ni tashkil etadi. Uglerod-14 oksidlanadi va fotosintez orqali odatdagи karbonat angidrid gazi bilan biotik aylanishlarda qatnashadi. Bu radionuklidning o‘rtacha konsentratsiyasi 27 Bk/kg tashkil etadi. Berilliyy-7 radionuklidining yomg‘ir suvleri bilan o‘simpliklar, sabzavotlar, inson va hayvonlar organizmlariga tushadigan miqdori 50 Bk/yilga teng bo‘ladi.

Tritiy va uglerod-14 kosmogen radionuklidlari hosil bo‘lish jarayoniga bat afsil to‘xtalib o‘tamiz. Birlamchi kosmik nurlanishlar ta’sirida atmosfera tarkibidagi azot atomidan radioaktiv izotoplар tritiy va uglerod-14 hosil bo‘ladi. Bu murakkab jarayon bo‘lib, quyidagi tartibda soadir bo‘ladi: birlamchi tez protonlar azot va kislород atomi yadrolaridan neytronlarni urib chiqaradi, bu neytronlar esa o‘z navbatida boshqa azot atomlari yadrosi bilan o‘zaro ta’sirlashib, proton va triton (tritiy atom yadrosi) hosil bo‘ladi. Ushbu jarayon quyidagi tenglama ko‘rinishda yoziladi:



Radioaktiv uglerod-14 inson organizimiga nafas olganda  $\text{CO}_2$  gaz bilan, hamda suv va turli oziq-ovqat mahsulotlari orqali kiradi. Shu jumladan, tritiy ham organizmda mavjud bo‘lib, bu radioaktiv izotoplар umumiyy radioaktiv fonni tashkil qiladi. Atrof-muhit, inson va barcha jonzotlar ushbu radioaktiv fon ta’siri ostida bo‘ladi. Kosmik nurlanishlar intensivligi obyektning geografik joylashishiga bog‘liq va dengiz sathidan ko‘tarilgan sari oshib boradi. Masalan, Toshkent shahri geografik kengligida ekvatordagiga nisbatan inson to‘qimalarida yutiladigan

o‘rtacha yillik doza taxminan 1,3 marta katta bo‘ladi va qutbga yaqinlashgani sayin oshib boradi.

Tabiiy radioaktiv fonni vujudga keltiruvchi omillardan biri bu urantoriy oilasi hisoblanadi.

Tabiiy radioaktiv izotoplар orasida yarim parchalanish davri Yerning yoshi ( $4,5 \cdot 10^9$  yil) a yaqin uchta izotop ma’lum. Bularga uran-238 ( $T_{1/2} = 4,5 \cdot 10^9$  yil), uran-235 ( $T_{1/2} = 7 \cdot 10^8$  yil) va toriy-232 ( $T_{1/2} = 1,4 \cdot 10^{10}$  yil)lar misol bo‘ladi. Bu izotoplarning hammasi Mendeleev davriy sistemasining oxiridan joy olgan bo‘lib, uchta radioaktiv oilani boshlab beradi. Uran oilasi davriy sistemada eng barqaror bo‘lgan qo‘rg‘oshining  $^{206}\text{Pb}$  va  $^{207}\text{Pb}$ , toriy oilasi esa  $^{208}\text{Pb}$  izotoplari bilan tugaydi. Radioaktiv oilalar **1.5-jadvalda** keltirilgan bo‘lib, bu oilalar ichida neptuniy oilasi hozirgi kunda uchramaydi, sababi yarim parchalanish davri nisbatan kichik bo‘lgani sababli bu oila yo‘q bo‘lib ketgan.

### 1.5-jadval.

*Radioaktiv oilalar.*

Oilalar	Massa sonining formulasi	Eng uzoq yashovchi nuklid	Eng uzoq yashovchi nuklidning yarim parchalanish davri	Parchalanishning oxirgi mahsuloti
Toriy	$4n$	$^{232}_{90}Th$	$1,39 \cdot 10^{10}$ yil	$^{208}_{82}Pb$
Neptuniy	$4n+1$	$^{237}_{93}Np$	$2,2 \cdot 10^6$ yil	$^{209}_{83}Bi$
Uran-radiy	$4n+2$	$^{238}_{92}U$	$4,5 \cdot 10^9$ yil	$^{206}_{82}Pb$
Uran-aktino	$4n+3$	$^{235}_{92}U$	$7,8 \cdot 10^8$ yil	$^{207}_{82}Pb$

Uchta radioaktiv oiladan tashqari radioaktivlik xususiyatiga ega bo‘lgan beshta tabiiy radioaktiv yadrolar ham mavjud bo‘lib, ularning parchalanishi natijasida turg‘un yadrolar hosil bo‘ladi. Bular quyidagilari:

$$\begin{aligned}
 {}^{40}_{19}K (\beta^-, \beta^+, \varepsilon), T_{1/2} = 1,28 \cdot 10^9 \text{ yil}; \\
 {}^{87}_{37}Rb (\beta^-), T_{1/2} = 4,7 \cdot 10^{10} \text{ yil}; \\
 {}^{147}_{62}Sm (\alpha), T_{1/2} = 1,06 \cdot 10^{11} \text{ yil}; \\
 {}^{176}_{71}Lu (\varepsilon; \beta^-), T_{1/2} = 5 \cdot 10^{10} \text{ yil}; \\
 {}^{187}_{75}Re (\beta^-), T_{1/2} = 4 \cdot 10^{10} \text{ yil}.
 \end{aligned} \tag{1.78}$$

Bular ichida ko‘p uchraydigani o‘simpliklar tarkibida, inson va hayvonlar organizmida uchraydigani kaliy-40 radionuklidi hisoblanadi.

Tabiiy kaliy uchta izotopning aralashmasidan tashkil topgan, ya’ni kaliy-39 ( $p = 93,08\%$ ), 40 ( $p = 0,01\%$ ) va 41 ( $p = 6,91\%$ ) ( $\beta$ -izotopning tabiatda tarqalganligi). Bular ichida kaliy-40 izotopi radioaktivdir. Tabiiy kaliyning izotop tarkibi o‘zgarmas bo‘lgani uchun, uning istalgan birikmasida kaliy-40 radioizotopi bo‘ladi.  ${}^{40}K$  radionuklidining 89% ulushi  $\beta$ -parchalanish natijasida, asosiy holatdagi turg‘un  ${}^{40}Ca$  izotopiga aylanadi:



bu yerda  $\tilde{\nu}_e$  – elektron antineytrinosi.

${}^{40}K$  izotop yadrosi chiqaradigan elektronlar noldan to 1330 KeV gacha bo‘lgan uzluksiz spektriga ega, ya’ni chiqayotgan elektronlarning maksimal kinetik energiyasi 1330 keV gacha bo‘ladi. Ushbu maksimal energiya  $\beta$ -spektrning chegara energiyasi ham deyiladi.

${}^{40}_{19}K$  yadrosi, 11 % holda orbitadagi elektronni qamrab (K-qamrash, ya’ni K-qobiqdagi elektroni qamrash), uyg‘ongan holatdagi turg‘un  ${}^{40}_{18}Ar$  yadrosini hosil qiladi:



Ushbu argon yadrosi uyg‘ongan holatdan asosiy holatiga  $E_\gamma = 1461$  keV energiyali  $\gamma$ -kvant chiqarib o’tadi:



Demak,  ${}^{40}K$  izotopi maksimal energiyasi 0,585 MeV bo‘lgan, uzluksiz spektriga ega bo‘lgan  $\beta$  zarrachalar chiqaradi. Bundan tashqari 1461 keV energiyali monoenergetik  $\gamma$ -nurlanishlarni chiqaradi.

Endi mazkur ma'lumotlar asosida 1 g tabiiy kaliy 1 soniyada chiqaradigan  $\beta$ -zarralar va  $\gamma$ -kvantlar sonini hisoblaymiz. Bu hisoblashlarni bajarishdan oldin  $m$  massali radioaktiv moddaning aktivligi aniqlanadi-gan ifodani keltirib chiqaramiz.

Massasi  $m$  bo'lgan manbadagi radioaktiv yadrolar soni:

$$N = \frac{m}{\mu} N_A \quad (1.82)$$

bu yerda  $N_A$  – Avogadro soni,  $\mu$  – izotopning molyar massasi. (1.6) va (1.82) larni  $A = IN$  ga qo'yamiz va  $m$  massali monoizotop manbaning aktivligini aniqlaydigan ifodani olamiz:

$$A = 0,693 \cdot \frac{m N_A}{T_{\frac{1}{2}} M} \quad (1.83)$$

Agar aktivlik Bk larda emas, balki Kyurilarda hisoblansa, u holda (1.40) ifodani quyidagi ko'rinishda yozamiz:

$$A = \frac{0,693}{3,7 \cdot 10^{10}} \cdot \frac{m N_A}{T_{\frac{1}{2}} M} K_u \quad (1.84)$$

1 g tabiiy kaliy chiqarayotgan  $\beta$ -zarralar sonini topish uchun  ${}^{40}\text{K}$  radioizotopining tabiiy aralashmadagi foiz miqdorini va  $\beta$ -zarralar chiqishi yuz beradigan parchalanishlar ulushini hisobga olish kerak. Massasi 1 g tabiiy kaliyda  $m' = \delta \cdot 1g = 10^{-4} \cdot 1g = 10^{-4} \text{ g}$  miqdorda  ${}^{40}\text{K}$  radioizotopi bor;  $\beta$ -parchalanish uchun chiqish kattaligi  $I_\beta = 0,893$  ga teng. Ko'rilib chiqarayotgan hol uchun (1.41) ifoda quyidagi ko'rinishga keladi:

$$A_\beta = 0,693 \cdot m' \cdot \frac{N_A}{T_{\frac{1}{2}} \cdot M} I_\beta \quad (1.85)$$

Agar bu ifodaga yuqorida ta'kidlangan qiymatlarni qo'yib hisoblasak,  $A_v = 28$  Bk qiymatni olamiz. Boshqacha aytganda 1 g tabiiy kaliy 1 s da taxminan 28 ta  $\beta$ -zarracha (*elektron*) chiqaradi. Shunga o'xshash hisobni K-qamrash uchun bajarsak, 1 g tabiiy kaliy 1 s taxminan 4 ta  $\gamma$ -kvant chiqarishini aniqlaymiz. Massasi 1 g tabiiy kaliy chiqarayotgan  $\beta$ -zarralar va  $\gamma$ -kvantlar sonini bilgan holda, ixtiyoriy massali istalgan

kaliy birikmasi chiqarayotgan  $\beta$ -zarralar va  $\gamma$ -kvantlar sonini topish mumkin.


### 1.13-§. Tabiiy radioaktiv aerozollar

Tabiiy radioaktiv aerozollar emanatsiyalarning atmosferada parchalanishi natijasida hosil bo‘ladi. «Emanatsiya» – lotincha «emanftio» – ajralib chiqish, sizib chiqish, tarqalish ma’nosini anglatadi. *Emanatsiya* – radiy tabiiy radioaktiv izotoplari parchalanishing gazsimon radioaktiv mahsullari. Radiy-224 ( $^{224}\text{Ra}$ )ning parchalanishi natijasida gazsimon radon (Rn),  $^{224}\text{Ra}$  dan taron (Tn),  $^{223}\text{Ra}$  dan esa aktinon (An) hosil bo‘ladi. Ushbu radionuklidlar ya’ni  $^{222}\text{Rn}$ ,  $^{220}\text{Tn}$  va  $^{219}\text{An}$  atom raqami 86 bo‘lgan kimiyoviy element – radon (Rn)ning nuklidlari bo‘lib, ularning parchalanish davrlari ( $T_{1/2}$ ) mos holda 3,825 sut, 54,5 s va 3,92 s ga teng. Radiy-226, 224, va 223 lar mos ravishda uran-235, toriy-232 va uran-238 radioaktiv oilalarning parchalanish zanjirida joylashgan.

Radon, taron va aktinonlar, ya’ni emanatsiyalar atmosferaga tuproq, tog‘ jinslari va tabiiy suvlardan o‘tadi. Ular atmosferada havo oqimi va diffuziyasi asosida tarqaladi. Ularning havodagi konsentratsiyasi balandlik ortgani sari, parchalanishi tufayli kamaya boradi. Taron va aktinonlarning yashash vaqtqi qisqa, shu sababli atmosferaning yer sirtiga yaqin bo‘lgan qatlamlarida uchraydi. Radon konsentratsiyasi odatda taron konsentratsiyasidan bir necha tartibda yuqori bo‘ladi. Radiatsion xavfsizlik nuqtai nazaridan faqat radon muhim ahamiyatga ega bo‘lib taron va aktinon gazlari kam ahamiyatga ega. Radon gazi ko‘p miqdorda uran konlarida to‘planadi hamda yerosti tabiiy mineral suvlardida ham bo‘ladi.


Emanatsiya inert gaz bo‘lib, atmosferada atomar holatida bo‘ladi. Emanatsiya atomlari kondensatsiya yadrolariga, ya’ni chang zarralari, og‘ir ionlar va h.k. birikmaydilar. Shu sababli o‘zlari bevosita aerozol hosil qilmaydilar. Radioaktiv aerozollar, emanatsiya parchalanish mahsulotlari bo‘lgan poloniq, vismut va qo‘rg‘oshin izotoplarining kondensatsiya yadrolariga qo‘silishi natijasida hosil bo‘ladi.

Radon parchalanish zanjirini batafsil ko‘rib chiqamiz:



Bu parchalanishda  ${}^{210}Pb$  gacha bo‘lgan barcha mahsulotlar qisqa yashovchilardir. Uzoq yashovchi  ${}^{210}Pb$  ( $T_{1/2} = 22$  yil) o‘zi esa havoda yetarli miqdorda to‘planishga ulgurmaydi shu sababli undan keyingi parchalanish mahsulotlarini hisobga olmasa ham bo‘ladi.

Vismut-214 (0,04%) izotopining parchalanishi tufayli hosil bo‘lgan  ${}^{210}Tl$  izotopining chiqish kattaligi kichik bo‘lganligi sababli  ${}^{210}Tl$  ni  ${}^{214}Po$  ga nisbatan hisobga olmasa ham bo‘ladi. Poloniy-214 atomlari o‘ta qisqa yashashi ( $10^{-4}$  s lar atrofida) sababli,  ${}^{214}Po$  izotopi doimo  ${}^{214}Bi$  izotopini bilan radioaktiv muvozanatda bo‘ladi. Shunday qilib radon parchalanish mahsulotlari o‘zaro aylanishini soddalashtirib quyidagi ko‘rinishda yozish mumkin:



Havodagi  ${}^{218}Po$ ,  ${}^{214}Pb$  va  ${}^{214}Bi$  atomlari konsentratsiyasi mos holda  $n_1$ ,  $n_2$  va  $n_3$  bo‘lsin. Radon parchalanish mahsulotlarining aktivlik konsentratsiyalar  $A_1 = I_1 n_1$ ;  $A_2 = I_2 n_2$ ;  $A_3 = I_3 n_3$  bo‘ladi, bu yerda  $I_1$ ,  $I_2$  va  $I_3$  mos holda  ${}^{218}Po$ ,  ${}^{214}Pb$  va  ${}^{214}Bi$  izotoplarning parchalanish doimiyлари. Radon va uning parchalanish mahsulotlari orasida radioaktiv muvozanatda  $A_1 = A_2 = A_3$ , binobarin bu muvozanat holat uchun

$$n_1 : n_2 : n_3 = 1 : (I_1 / I_2) : (I_1 / I_3) \tag{1.88}$$

$$A_1 : A_2 : A_3 = 1 : 1 : 1 \tag{1.89}$$

Doimiy kattaliklarning qiymatlarini (1.83) ga qo‘yib, quyidagi natijani olamiz:


$$n_1 : n_2 : n_3 = 1 : 8,8 : 6,45 \tag{1.90}$$

Odatda, ma’lum hajmli berk idishda radioaktiv muvozanat 3 soatdan keyin qaror topadi. Real sharoitda, odatda muvozanatning  ${}^{218}Po$  atomlari konsentratsiyasi ustunlik qiladigan tomonga siljishi kuzati-


ladi. Bunga sabab, havo harakati natijasida  $^{214}\text{Pb}$  va  $^{214}\text{Bi}$  atomlarining ko‘chib ketishidir. Havoda faqat  $^{218}\text{Po}$  atomlari bo‘lganda nihoyatda no-muvozanat holatiga mos keladi.

Radon va uning parchalanish mahsulotlarining konsentratsiyasi kuzatish joyiga, ob-havo sharoitiga va kuzatish vaqtiga yuqori darajada bog‘liq. Yer sirtidagi quruqlik ustida 3,7 *parchalanish/s* ni radon yuzaga keltiradi va faqat 0,037 *parchalanish/s* esa taron sababli yuzaga keladi. Boshqacha so‘z bilan aytganda tabiiy radioaktiv aerozollar aktivligi asosan radon parchalanishi mahsulotlari bilan aniqlanadi.

Taron parchalanish zanjiri quyidagicha:




Parchalanish mahsulotlarining izotop tarkibi quyidagicha:



Bu yerda, hamma vaqt  $^{218}\text{Po}$  va  $^{208}\text{Tl}$  izotoplari  $^{12}\text{Bi}$  bilan muvozanatda bo‘ladi deb faraz qilish to‘g‘ri bo‘ladi. Poloniy-216 kichik va  $^{212}\text{Pb}$  esa katta yarim parchalanish davriga egaligi e’tiborni o‘ziga jalb etadi. Berk idishda taron va parchalanish mahsulotlari orasida muvozanat bir necha o‘n soatlardan keyin qaror topadi.

Atrofimizdagagi ushbu inert gazning asosiy manbai yer qobig‘i (yer-ning ustki qattiq qatlami) hisoblanadi. Radon fundament, pol va devor yoriq va tirqishlari orqali kirib olib, xonada qolib ketadi. Uy ichidagi (xona ichidagi) radonning yana bir manbai – tarkibida tabiiy radionuklidlar mavjud bo‘lgan qurilish materiallari (beton, g‘isht va h.k.) hisoblanadi. Bu radionuklidlar parchalanishi natijasida radon gazi hosil bo‘ladi. Radon xonaga suv (ayniqsa, agar u artezian quduqdan olina-yotgan bo‘lsa) bilan, tabiiy gazni yoqishda ham va h.k. kirishi mumkin. Radon havodan 7,5 marta og‘irdir. Buning natijasida, radon gazining konsentratsiyasi ko‘p qavatli binolarning yuqori qavatlarida pastki qavatlariga nisbatan kam bo‘ladi. **1.30-rasmida** keltirilgan diagramma biz-



*1.30-rasm. Tevarak-atrofimizdagi radon gazining manbalari.*


ga radonning har xil manbalarining nurlanish quvvatini solishtirishga imkon beradi.

Inson radon gazidan asosiy nurlanish dozasini shamollatilmaydigan berk xona ichida oladi. Doimiy ravishda shamollatib turiladigan xona ichida radon gazining konsentratsiyasini bir necha marta kamaytirish mumkin. Inson organizimiga uzoq vaqt davomida radon va uning mahsulotlari tushib turishi o'pka raki hosil bo'lish xavfini bir necha marta oshirishi mumkin.

### 1.14-§. Sun'iy radioaktiv fon


Tabiiy radioaktiv g-fonning oshishiga maksimal hissani uzoq yashovchi texnogen radionuklidlar qo'shib, ular ichida tirik organizmlarga o'zining toksik ta'siri kattaligi bilan e'tiborga ega bo'lgan  $^{137}\text{Cs}$  hisoblanadi.  $^{137}\text{Cs}$  atmosfera, tuproq va suvlarni ifoslab, «tuproq-o'simlik-inson» va «tuproq-hayvon-o'simlik-inson» biologik zanjir bo'yicha inson organizimiga kirib keladi. Biologik o'ta faol hisoblangan  $^{137}\text{Cs}$  radionuklidlari o'simliklarda, inson va hayvonlar organizmlarida yuz beradigan hamma ahmashuv reaksiyalarida faol ishtirot etadi va dunyo aholisi nurlanishi effektiv ekvivalent dozasining ~40% (540 mkZv) ekanligi sabab bo'ladi.

Seziyning massa sonlari  $A = 114 - 148$  ga teng bo'lgan 35 ta izotopga ega bo'lib, shulardan 34 tasi radioaktiv va faqat  $^{133}\text{Cs}$  izotopi turg'un hisoblanadi. Massa soni  $A = 134 - 148$  ga teng seziy radionuk-



**1.31-rasm.** Seziy-137 parchalanish sxemasi.


lidlari U va Th yadrolarning spontan yoki majburiy bo‘linishidan hosil bo‘ladi. Radiatsion-gigienik nuqtai nazaridan  $^{137}\text{Cs}$  radionuklidi katta qiziqish uyg‘otib, u bo‘linish bo‘lagi sifatida va massa soni A=137 izobara bo‘lgan boshqa bo‘linish bo‘laklarining ketma-ket parchalanish mahsuloti sifatida ham hosil bo‘lishi mumkin. Ushbu ketma-ket parchalanishlar qo‘yidagicha yuz beradi:  $^{137}\text{Tc}(4\text{ s}) \rightarrow ^{137}\text{I}(24,2\text{ s}) \rightarrow ^{137}\text{Xe}(3,83\text{ min}) \rightarrow ^{137}\text{Cs}(30,17\text{ yil}) \rightarrow ^{137\text{m}}\text{Ba}(2,55\text{ min}) \rightarrow ^{137}\text{Ba}(\text{stabil})$ . Seziy-137 radionuklidining parchalanish sxemasi **1.31-rasmda** keltirilgan. Sxemadan ko‘rinadiki,  $^{137}\text{Cs}$  radionuklidi beta-parchalanish orqali  $^{137}\text{Ba}$  nuklidga o‘tadi:



Bu jarayon maksimal kinetik energiyalari 0,512 MeV ( $\beta_1^-$ , 94,6%) va 0,1174 MeV( $\beta_2^-$ , 5,4%) bo‘lgan elektronlar chiqishi bilan sodir bo‘ladi.

Tuproq va minerallarda tabiiy  $^{137}\text{Cs}$  radionuklidining muvozanat solishtirma aktivligi juda kichik bo‘lib, 3,7 dan 370 mBk/kg gacha, yer qobig‘ida muvozanat miqdori  $\sim 6 \cdot 10^{16}$  Bk atrofida, tuproqning bir metr ustki qatlamidagi miqdori esa  $\sim 8 \cdot 10^{11}$  Bk.

Atrof-muhitga  $^{137}\text{Cs}$  radionuklidining kelib tushish manbalari asosan, atmosferada yadro qurollarini sinash natijasida hosil bo‘lgan yadro bo‘linish mahsulotlarining global va regionar yog‘ishi hisoblanadi. XX asrda yadro quroliga ega bo‘lgan davlatlar tomonidan 2060 dan ortiq termoyadro zaryadlari sinovdan o‘tkazilgan bo‘lib, shulardan



**1.32-rasm.** Yerning shimoliy(-) va janubiy (---) yarim sharlarida seziy-137 radionuklidining global yog'ilishining o'rtacha zichligining kengliklar bo'yicha taqsimoti.

457 tasi shimoliy va 44 tasi janubiy yarim sharlarning atmosferasida o'tkazilgan. Ushbu sinovlar natijasida tashqi muhitga, yig'indi aktivligi  $\sim 1,8 \cdot 10^{21}$  Bk bo'lgan yadro bo'linish mahsulotlari bilan ifloslanib, shularning  $\sim 9 \cdot 10^{17}$  Bk aktivligini  $^{137}\text{Cs}$  tashkil etadi. Yer sharining turli joyida yadro bo'linish mahsulotlarining kengliklar bo'yicha taqsimoti portlashning quvvatiga, portlash o'tkazish sharoitlariga, geografik, obhavo sharoitlarga va boshqa omillarga bog'liq bo'ladi.

Yadro bo'linish mahsulotlari  $^{30}\text{Zn}$  dan  $^{64}\text{Gd}$  gacha bo'lgan elementlarning 200 dan ko'pi neytronga boy izotoplarini o'z ichiga oлади. Bu radionuklidlarning ko'pchiligi nisbatan qisqa yarim parchalanish davriga ega bo'lganligi sababli yadro bo'linish mahsulotlarining boshlang'ich aktivligi (portlashdan bir soatdan keyin) juda tez kamayadi. Yetti kundan keyin 10 marta, 49 kundan keyin  $10^2$  marta, 343 kundan keyin  $10^3$  marta, 10 yildan keyin esa  $10^4$  marta kamayib, asosan yadro bo'linish mahsulotlarining o'ta uzoq yashovchilar bo'lgan

$^{90}\text{Sr}$  ( $T_{1/2}=28$  yil) va  $^{137}\text{Cs}$  ( $T_{1/2}=30$  yil) radionuklidlarning aktivliklaridan iborat bo'lib qoladi. Tirik organizmlarga  $^{137}\text{Cs}$  ning radiatsion ta'siri  $^{90}\text{Sr}$  radionuklidiga qaraganda ancha katta. Bunga sabab birinchi radionuklidning v-parchalanishda energiyasi 662 keV bo'lgan intensiv g-nurlanish chiqarishi bilan sodir bo'lishidir.

Seziy-137 radionuklidining global yog'ilishi  $\bar{Q}$  o'rtacha zichligining kengliklar bo'yicha taqsimoti **I.32-rasmida** keltirilgan.

Ushbu taqsimotdan ko'rindiki, O'zbekiston hududi bu radio-nuklidning yog'ilishi maksimal zichligiga to'g'ri keladi, ya'ni

$\bar{Q} = 5,17 \text{ kBk/m}^2$ . Ammo bu qiymat chegaraviy ruxsat etilgan kon-sentratsiyadan katta emas.

### 1.15-§. Seziy-137 radionuklidining tuproqdagi migratsiyasi

Texnogen radionuklidlar bilan atrof-muhit ifloslanishini tadqiq qiliш, atrof-muhit turli obyektlardagi ularning miqdorini o'rganish va texnogen radionuklidlarning muhitda migratsiyasiga sabab bo'luvchi qonuniyatlarni aniqlashdan iborat bo'ladi. Bu tadqiqotlar quyidagi zanjir bo'yicha olib boriladi:

- *atmosfera-tuproq-o'simlik-inson;*
- *atmosfera-tuproq-o'simlik-hayvonlar-inson.*

Tuproq yer sirtida eng ko'p tarqalgan tabiiy ion almashuvchi material hisoblanadi va u eng inersion halqa hisoblanib, butun zanjir bo'yicha texnogen radionuklidlarning tarqalish tezligini belgilaydi. Tuproqda radionuklidlarning vertikal va gorizontal migratsiyasi ularning o'simlik, yerosti suvlari (sizot suvlari), hovuzdagи suvlarga tu-shishiga (qo'shilishga) sabab bo'ladi. Tuproqda radionuklidlarning ko'chish mexanizimlari o'z tabiat bo'yicha turli-tumandir:

- havo yog'inlari filtratsiyasi;
- tuproq sirtida suvning harakati;
- o'simliklar ildiz tizimi bo'yicha ko'chishlar;
- erkin va adsorbirlangan ionlar diffuziyasi;
- antropogen faoliyat natijasida va h.k.

Bularning migratsiya tezligi, migratsion jarayondagi ulushi quyida-gilar bo'yicha aniqlanadi:

- radionuklidlarning kimyoviy xususiyati (ion zaryadi va kattaligi, birikma shakli, adsorbsiyalanishiga, gidroliziga);
- tuproqning fizik-kimyoviy xususiyatlariga (minerallashishiga, kimyoviy va granulometrik tarkibiga, zichligiga, namligiga, organik moddalar tarkibi va miqdoriga, kislota miqdori, yutilish hajmiga, haroratga, tuproq eritmasining konsentratsiyasiga va tarkibiga);
- ob-havo sharoitiga (faslning davomiyligiga, haroratning davomiyligiga, yilning va oyning o‘rtacha haroratiga, yillik yog‘ingarchilikka va ularning fasllar bo‘yicha taqsimotiga) bog‘liq.

XX asrning 80-yillariga kelib, radionuklidlarning dunyoning turli regionlaridagi tuproqlardagi miqdori, taqsimoti va siljishi bo‘yicha juda katta eksperimental materiallar to‘plangan. Ushbu ma’lumotlar asosida radionuklidlarning vertikal siljishini (migratsiyasi) ifodalovchi qator modellar yaratilgan bo‘lib, ular tuproqda texnogen radionuklidlarning migratsiya jarayonini modellar orqali ifodalanishi turli amaliy masalalarni yechish uchun zarurdir.

Respublikamiz hududida texnogen radionuklidlarning migratsiyasi bo‘yicha ham keng qamrovli ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Bu tekshirishlar O‘zR FA akademigi T.M. Mo‘minov rahbarlik qilgan guruh tomonidan uzoq yillar davomida olib borilgan va bu tadqiqotlar natijalari e’lon qilingan. Mazkur tadqiqotlar uchun namunalar mammakatimizning turli hududlaridan olingan. Bunda  $^{137}\text{Cs}$  radionuklidining vertikal taqsimotini tajribada va modellar orqali ifodalash uchun O‘zbekistonning Jizzax, Navoiy, Samarqand va Toshkent viloyatlari-da 20 ta tajriba uchastkalari tanlanib, ulardagи tuproqlardan namunalar olingan va tahlil ishlari olib borilgan.

### **1.16-§. Radiatsion ekologiya**

«Radioekologiya» atamasi 1956-yilda fanga kiritilgan bo‘lib, ushbu fan sohasi XX asrning 50-yillarida yadro quroli sinovlari, atom elektr stansiyalari va yadro obyektlarida yuz bergen halokatlar ta’sirida atrof-muhitning radiatsion ifloslanish darajasi ortishi bilan bog‘liq holatda shakllangan.

**Radiatsion ekologiya** – tabiiy va sun’iy (antropogen) manbalar asosidagi ionlashtiruvchi radiatsion nurlanishning (radionuklidlar) biotse-nozlarga ta’sir mexanizmlarini o‘rganuvchi fan sohasi hisoblanadi.

**Radiatsion ekologiya (radioekologiya)** – tirik organizmlar va ularning jamoalarining tabiiy radionuklidlar yoki texnogen tavsifdagi radioaktiv ifloslanish manbalari ta'siri sharoitda mavjudligi xususiyatlarini o'rganuvchi fan sohasi hisoblanadi.

Rossiyada radioekologiya fani rivojlanishiga V.I. Vernadskiy, L.P. Rixvanov, A.M. Kuzin, A.A. Peredelskiy, V.M. Klechkovskiy, N.V. Timofeev-Resovskiy, F.A. Tixomirov, R.M. Aleksaxin, V.A. Shevchenko kabi olimlar katta hissa qo'shishgan.

Radioekolgiya fani tabiiy va antropogen kelib chiqish tavsifiga ega bo'lgan ionlashtiruvchi nurlanish turlari va manbalarini o'rganadi, radionuklidlarning biosfera tarkibiy qismlariga tushish qonuniyatlarini tadqiq qiladi va quyidagi bo'limlarga ajratiladi:

**Nazariy radioekologiya** – radionuklidlarning ekotizimlarda migratsiyasi masalalarini o'rganadi;

**Eksperimental radioekologiya** – biologik organizmlarga ionlashtiruvchi nurlanishning ta'sir mexanizmlarini o'rganadi va ularni radiatsion nurlanishdan himoya qilish chora-tadbirlarini ilmiy asoslab beradi.

**Radioekologiya bevosita** – hayvonlar radioekologiyasi, o'simliklar radioekologiyasi, gidroradioekologiya, mikroorganizmlar radioekologiyasi, o'rmonlar radioekologiyasi, qishloq xo'jaligi radioekologiyasi va boshqa yo'nalishlarga ajratiladi.

Ekologik biofizika, jumladan, radiatsion ekologiya fan sohalarining amaliy jihatdan muhim vazifalaridan biri – bu atrof-muhitning atropogen omillar ta'sirida ifloslanish (kimyoviy va fizik, jumladan, radiatsion) darajasini monitoring qilish va uni bartaraf qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqishni ilmiy jihatdan asoslab berishdan tashkil topadi. Ushbu maqsadda 1989-yilda atrof-muhitning ifloslanish darajasini baholash uchun xalqaro «Biotest» dasturi ishlab chiqilgan. Radiatsion ekologiyada atrof-muhitning turli xil toksik ta'sir ko'rsatish hossasiga ega bo'lgan, radioaktiv chiqindilar bilan ifloslanish darajasini baholashda biotest va bioindikatsiya uslublaridan foydalilanadi:

- Biotest (bioassay) – laboratoriya sharoitida ifloslanish muhiti tar-kibidan olingan biologik obyektlar sinov namunalarining morfologik, genetik, biokimyoviy va hokzzo struktura-funksional tizimlaridagi o'zgarishlar asosida muhitning ifloslanish darajasini baholash uslubi hisoblanadi.

- Bioindikatsiya (bioindication) – yashash muhitida tabiiy va antropogen tavsifga ega zararli chiqindilar ta'siriga nisbatan tirik organizmlarning javob reaksiyasi asosida, mavjud holatni baholash uslubi hisoblanadi.

Atrof-muhitni radioekologik monitoring qilish asosida olib borilgan radioekologik tadqiqotlar natijalari, yadro qurollar sinashni cheklash va ularni urush sharoitida ishlatalishdan bosh tortish uchun xalqaro konvensiyalarni qabul qilishda katta ta'sir ko'rsatdi. Sanoatda radioekologik tadqiqotlar tavsiyalaridan kelib chiqqan holda, yadro reaktorlarni sovitsht yopiq sikllari, radioaktiv aerozol tutqichlar, radioaktiv chiqindilarni saqlash, zararsizlantirish usullari ishlab chiqilmoqda va amalga oshirilmoxda.

## MASALALAR YECHISH UCHUN NAMUNALAR

**1-masala.** Aktivligi  $A = 1 \text{ kKi}$   ${}^{60}\text{So}$  radioizotopining massasi aniq-lansin. Uning aktivligi  $t = 10,5$  yildan keyin qancha marta kamayadi.

**Yechilishi:** Aktivlik bilan radioaktiv element yadrolar soni orasida quyidagi bog'lanish mavjud:

$$A = \lambda N \quad (1)$$

Radioaktiv yadrolar soni:

$$N = \frac{m}{M} N_A \quad (2)$$

bu yerda  $N_A = 6,022 \cdot 10^{23} \text{ mol}^{-1}$  – Avogadro doimiysi,  $m$  – radioizotop massasi,  $M$  – molyar massa. Bu ifodani (1) ifodaga qo'yamiz:

$$A = \frac{m\lambda}{M} N_A \quad (3)$$

$\lambda$  va  $T_{\frac{1}{2}}$  orasidagi bog'lanish, ya'ni (1.6) formulaga ko'ra:

$$\lambda = \frac{\ln 2}{T_{\frac{1}{2}}} = \frac{0,693}{T_{\frac{1}{2}}} \quad (4)$$

(4) ni (3) ga qo'yamiz,

$$A = \frac{m N_A}{M} \cdot \frac{0,693}{T_{\frac{1}{2}}} \quad (5)$$

va bu ifodadan  $m$  ni topamiz:

$$m = \frac{A M T_{\frac{1}{2}}}{N_A \cdot 0,693} \quad (6)$$

Formulaga masala shartidagi qiymatlarni qo'yib, hisoblashlarni bajaralimiz.

$$A = 1 \text{ kKi} = 10^3 \text{ Ki} = 3,7 \cdot 10^{10} \cdot 10^3 \frac{\text{parch}}{c} = 3,7 \cdot 10^{13} \frac{\text{parch}}{c}$$

$$N_A = 6,022 \cdot 10^{23} \frac{1}{mol} \quad M = 60 \cdot 10^3 \frac{kg}{mol}$$

$$T_{\frac{1}{2}} = 5,25 \text{ yil} = 5,25 \cdot 365 \cdot 24 \cdot 60 \cdot 60 = 16556,4 \cdot 10^4 \text{ s.}$$

$$m = \frac{3,7 \cdot 10^{13} \cdot 60 \cdot 10^{-3} \cdot 16556,4 \cdot 10^4}{6,022 \cdot 10^{23} \cdot 0,693} = 0,882 \cdot 10^{-3} \text{ kg}$$

**Javob:**  $m = 0,882 \cdot 10^{-3}$  kg yoki  $m = 0,882$  g.

Endi  $t = 10,5$  yilda aktivlikni qancha marta kamayishini aniqlash uchun  $N = N_0 e^{-\lambda t}$  formuladan foydalanamiz.

$$N = N_0 e^{-\frac{\ln 2}{T_{\frac{1}{2}}} t} \quad (7)$$

bundan  $N_0 / N$  ni topamiz.

$$\frac{N_0}{N} = e^{-\frac{\ln 2}{T_{\frac{1}{2}}} t} = e^{-\frac{0,693}{T_{\frac{1}{2}}} t} = e^{-\frac{0,693}{5,25 \text{ yil}} \cdot 10,5 \text{ yil}} = 4 \text{ marta.}$$

**Javob:** 4 marta kamayadi.

**2-masala.** Massasi 1 g bo‘lgan izolyatsiyalangan  $^{226}\text{Ra}$  radioizotoping aktivligi va uning qancha vaqtdan keyin 10% ga kamayishi aniqlansin.

**Yechilishi:** Aktivlikni quyidagi formula bilan aniqlaymiz:

$$A = \lambda N \quad (1)$$

Radioizotopdagи yadrolar soni:

$$N = \frac{m}{M} N_A \quad (2)$$

(2) ni (1) ga qo‘yamiz va quyidagi ifodani olamiz:

$$A = \lambda \frac{m}{M} N_A \quad (3)$$

Formulaga masala shartidagi qiymatlarni qo‘yib, hisoblashlarni bajaramiz.

$$T_{1/2} \left( ^{226}Ra \right) = 1620 \text{ yil};$$

$$\lambda = \frac{0,693}{T_{1/2}} = \frac{0,693}{1620 \cdot 365 \cdot 24 \cdot 3600} c^{-1} = 1,354 \cdot 10^{-11} c^{-1}$$

$$N_A = 6,022 \cdot 10^{23} \frac{1}{mol} \quad M = 226 \cdot 10^{-3} \frac{kg}{mol}$$

$$A = 1,354 \cdot 10^{-11} \frac{6,022 \cdot 10^{23} \cdot 10^{-3}}{226 \cdot 10^{-3}} = 3,61 \cdot 10^{10} c^{-1} = 0,975 Ku$$

2)  $N = N_o e^{-\lambda t}$  dan

$$\frac{N}{N_o} = e^{-\lambda t} \quad \text{yoki} \quad \frac{N_o}{N} = e^{\lambda t}. \quad (4)$$

Bu ifodaning logariflasak:

$$\ln \frac{N_o}{N} = \ln e^{\lambda t} \quad (5)$$

bundan

$$\lambda t = \ln \frac{N_o}{N}$$

$$\text{va } t = \frac{1}{\lambda} \ln \frac{N_o}{N} = \frac{1}{\lambda} \ln \frac{N_o}{0,9 N_o} = \frac{1}{\lambda} \ln \frac{1}{0,9} = \frac{1}{1,354 \cdot 10^{-11}} \ln \frac{1}{0,9} \approx 243 \text{ yil}$$

**Javob:**  $A = 0,975 Ku; t \approx 243 \text{ yil}$ .

**3-masala.** Toza  $^{239}\text{Pu}$  radioizotopining solishtirma aktivligini aniqlang.  $^{239}\text{Pu}$  radioizotopining yarim parchalanish davri  $T_{1/2}(^{239}\text{Pu}) = 24100$ -yil.

**Yechilishi:** Radioizotopining solishtirma aktivligi quyidagiga teng bo'ladi:

$$a = \frac{A}{m} \quad (1)$$

yoki

$$a = \frac{A}{m} = \frac{\lambda \cdot N(t)}{m_a \cdot N(t)} = \frac{\lambda}{m_a} = \frac{\ln 2}{T_{1/2} \cdot m_a}, \quad (2)$$

ya'ni solishtirma aktivlik vaqtga bog'liq emas. Formulaga masala shartidagi qiymatlarni qo'yib, hisoblashlarni bajaramiz:

$$a = \frac{\ln 2}{T_{1/2} \cdot m_a} = \frac{0,693}{24100 \cdot 365,25 \cdot 24 \cdot 3600 \cdot 239 \cdot 1,66 \cdot 10^{-24}} = 2,3 \cdot 10^9 \text{ Bk/g}$$

**Javob:**  $a = 1,3 \cdot 10^9 \text{ Bk/g} = 6,2 \cdot 10^{-2} \text{ Ki/g.}$

**4-masala.** Preparatning solishtirma aktivligi  $6,8 \text{ Ki/g}$  bo‘lishi uchun  $1 \text{ mg}$  radioaktiv bo‘limgan stronsiyga qancha milligramm  $\nu$ -aktiv  $^{90}\text{Sr}$  qo‘shish kerak?  $^{90}\text{Sr}$  radioizotopining yarim parchalanish davri  $T_{1/2}(^{90}\text{Sr}) = 28,6 \text{ yil.}$

**Yechilishi:** Preparatning solishtirma aktivligi:

$$a = \frac{A(^{90}\text{Sr})}{m(^{90}\text{Sr}) + m(\text{Sr})} = \frac{a(^{90}\text{Sr}) \cdot m(^{90}\text{Sr})}{m(^{90}\text{Sr}) + m(\text{Sr})} \quad (1)$$

Bu tenglamadan

$$m(^{90}\text{Sr}) = \frac{a \cdot m(\text{Sr})}{a(^{90}\text{Sr}) - a} \quad (2)$$

Radionuklidning solishtirma aktivligini 3-masaladagi formula yordamida aniqlaymiz:

$$a(^{90}\text{Sr}) = \frac{\ln 2}{T_{1/2} \cdot m_a} = \frac{0,693}{28,6 \cdot 365,25 \cdot 24 \cdot 3600 \cdot 90 \cdot 1,66 \cdot 10^{-24}} = 5,14 \cdot 10^{12} \text{ Bk/g}$$

$$a(^{90}\text{Sr}) = 5,14 \cdot 10^{12} \text{ Bk/g} = 139 \text{ Ki/g.}$$

Bu qiymatni (2) ifodaga qo‘yamiz va javobni olamiz:

$$m(^{90}\text{Sr}) = \frac{a \cdot m(\text{Sr})}{a(^{90}\text{Sr}) - a} = \frac{6,8 \cdot 1 \cdot 10^{-3}}{142 - 6,8} = 5 \cdot 10^{-5} \text{ g}$$

**Javob:**  $m(^{90}\text{Sr}) = 5 \cdot 10^{-5} \text{ g.}$

**5-masala.** Berk idishda massasi  $m = 0,1 \text{ g}$  bo‘lgan radiy bor. Idisha da  $24 \text{ soatdan}$  keyin qancha miqdorda radon yig‘iladi? Radiyning yarim parchalanish davri  $1600 \text{ yil}$ , radonning esa  $3,8 \text{ km.}$

**Yechilishi:** Masalani quyidagi formuladan foydalananib yechamiz:

$$N_{Ra} = N_{Ra} \frac{\lambda_{Ra}}{\lambda_{Ra} - \lambda_{Rn}} (e^{-\lambda_{Ra} t} - e^{-\lambda_{Rn} t}) \quad (1)$$

Radiy atomlari miqdori:

$$N_{Ra} = \frac{m}{A_{Ra}} N_A \quad (2)$$

bu yerda  $N_A$  – Avogadro soni

Binobarin

$$N_{Ra} = \frac{m N_A}{A_{Ra}} \left[ (e^{\ln 2})^{-\frac{t}{T_1}} - (e^{\ln 2})^{-\frac{t}{T_2}} \right] \frac{T_2}{T_1 - T_2} \quad (3)$$

Bu formulaga masala shartidagi quyidagi

$$m = 0,1 \text{ g} = 10^{-4} \text{ kg}, \quad t = 24 \cdot 60 \cdot 60 = 8,64 \cdot 10^4 \text{ c}$$

$$A_{Ra} = 226, \quad N_A = 6,022 \cdot 10^{23} \frac{1}{\text{mol}}$$

$$T_1 = 1600 \cdot 365 \cdot 24 \cdot 3600 = 5,05 \cdot 10^{10} \text{ c}$$

$$T_2 = 3,8 \cdot 24 \cdot 3600 = 328,3 \cdot 10^3 = 3,3 \cdot 10^5 \text{ c}$$

qiymatlarni qo‘yamiz va hisoblash natijasida quyidagi javobni olamiz:

$$N_{Ra} \approx 32 \cdot 10^{14} \text{ (atom)}$$

**Javob:**  $N_{Ra} \approx 32 \cdot 10^{14}$  (atom).

## MUSTAQIL YECHISH UCHUN MASALALAR

**1.1.** Yangi tayyorlangan preparat tarkibida 1,4 mkg radioaktiv natriy-24 nuklidi bor. Uning aktivligi bir sutkadan keyin nimaga teng bo'ladi? Natriy-24 nuklidining yarim parchalanish davri 15 soat. (*Javobi: 4 Ki*).

**1.2.** Massasi 1 mg bo'lgan seriy-144 radioizotopining qancha yadroisi, a) 1s va b) 1 yil vaqt oraliqlarida parchalanishini aniqlang. Seriyning yarim parchalanish davri  $285 \text{ kun}$ . (*Javobi: } \Delta N = 2,5 \cdot 10^{18}*).

**1.3.** Massasi 1 g bo'lgan radiy bilan muvozanatda bo'lgan radonning massa va hajmi topilsin. (*Javobi: } m\_2 = 6,5 \cdot 10^{-9} \text{ kg}; V = 6,6 \cdot 10^{-10} \text{ m}^3*).

**1.4.** Natiriy-22 radioaktiv izotopi energiyasi 1,28 MeV bo'lgan gamma-kvantlarni nurlantirmoqda. Massasi 5 g bo'lgan natriy izotoping 5 min davomida nurlanayotgan gamma-nurlanishlar quvvati va energiyasi aniqlanilsin. Har bir parchalanish aktida energiyasi yuqorida ko'rsatilgan qiymatga teng bo'lgan bitta gamma-kvant nurlanadi deb hisoblansin. (*Javobi: 70,6 kJ*).

**1.5.** Aktivligi  $14,8 \cdot 10^{10}$  Bk bo'lgan nuqtaviy izotrop radioaktiv manbadan 5 sm uzoqlikda gamma-nurlanishlar intensivligi aniqlansin. Radioaktiv parchalanishning har bir aktida har birining energiyasi 0,51 MeV bo'lgan o'rtacha 1,8 gamma-kvantlar nurlaniladi deb hisoblansin (*Javobi: } 0,6 \text{ Vt/m}^2*).

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Radioaktiv parchalanish tezligini qanday kattalik belgilaydi?
2. Radionuklid aktivligi qanday formula bilan aniqlaniladi?
3. Solishtirma, hajmiy va sirt aktivligiga ta'rif bering. Bu kattaliklar qanday birliliklarda o'lchanadi?
4. Radioaktiv oilalar deb nimaga aytildi?
5. Qanday vaziyatda asr muvozanati vujudga keladi?

## TEST SAVOLLARI

1. Turg'un yadroning tinchlikdagi massasi  $m_{ya}$  va uni tashkil etgan protonlarning  $Zm_p$ , hamda neytronlarning  $Nm_n$  tinchlikdagi massalari yig'indisi orasidagi munosabat qanday?

- A)  $m_{ya} > (Zm_p + Nm_n)$
- B)  $m_{ya} < (Zm_p + Nm_n)$
- C)  $m_{ya} = Zm_p + Nm_n$
- D)  $m_{ya} < (Zm_p + Nm_n) \cdot 100$

2. Atom yadrolarini qanday guruhlarga ajratish mumkin?

- A) Turg'un va radioaktiv
- B) Zaryadlangan va neytral
- C) Kuchli va kuchsiz
- D) Suyuq va qattiq

3. Geyger-Nettol qonunini ifodalovchi munosabatni ko'rsating.

A)  $\log T_{1/2} = C + \frac{D}{\sqrt{E}}$

B)  $\tau = \frac{T_{1/2}}{\ln 2};$

C)  $\bar{n} = N \lambda t$

D)  $\tau = \frac{1}{\lambda}$

4. Radioaktiv parchalanish qonunini ko'rsating.

A)  $N = 120 * e^{-At}$

C)  $N = N_0 e^{-\lambda t}$

B)  $N = N_0 + A$

D)  $N = A + SX$

**5. Beta parchalanish hodisasida Kulon to 'sig'i asosan qanday zarlarga ta'sir qiladi?**

- |             |            |
|-------------|------------|
| A) Pozitron | C) Neytron |
| B) Elektron | D) Proton  |

**6. Radioaktiv parchalanish yuz berayotgan radioaktiv atomlar o'rtacha soni quyidagiga teng:**

- |                        |                            |
|------------------------|----------------------------|
| A) $dN = -\lambda/Ndt$ | C) $dN = -\lambda \ln Ndt$ |
| B) $dN = \lambda Ndt$  | D) $dN = -\lambda Ndt$     |

**7. Ikkita yarim parchalanish davri davomida qancha radioaktiv yadrolar parchalanadi?**

- |         |          |
|---------|----------|
| A) 50 % | C) 100 % |
| B) 10 % | D) 75 %  |

**8. Alfa-parchalanishda yadrodan nima chiqib ketadi?**

- |                              |           |
|------------------------------|-----------|
| A) Gelyi atomining yadrosi   | C) Foton  |
| B) Vodorod atomining yadrosi | D) Triton |

**9. Radioaktiv parchalanishda gamma-kvantlar qanday hosil boladi?**

- A) g-kvant atomning uyg'ongan holatidan asosiy holatiga o'tganda nurlanadi;  
B) g-kvantlar uyg'ongan atom yadrolar tomonidan nurlanadi;  
C) g-kvantlar b-zarralarning modda orqali o'tganida hosil bo'ladi;  
D) g-kvantlar b-zarralarning modda orqali o'tganida hosil bo'ladi.

**10. Radioizotoplar qanday qoida bo'yicha parchalanadi?**

- |                  |              |
|------------------|--------------|
| A) Chiziqli;     | C) Kimyoviy; |
| B) Eksponensial; | D) Biologik. |

**11. Radioaktivlik qanday jarayon?**

- |              |                       |
|--------------|-----------------------|
| A) Statistik | C) Kinetik            |
| B) Dinamik   | D) To'g'ri javob yo'q |

**12. Radioaktiv preparatlarning aktivligi bu ...**

- A) Radioaktiv yadrolarning yarimi parchalanishi uchun ketgan vaqt  
B) Parchalanish natijasida chiqayotgan zarralar yig'indi energiyasi  
C) Vaqt birligi ichida sodir bo'ladigan parchalanishlar soni  
D) Radioaktiv yadrolarning o'rtacha yashash vaqt

**13. IN kattalik qanday nomlanadi?**

- |                     |             |
|---------------------|-------------|
| A) Tezlik           | C) Aktivlik |
| B) Dinamik kattalik | D) Bosim    |

**14. I Ki (Kyuri) nimaga teng?**

A)  $3,7 \cdot 10^{10}$  parch./s

C) 2 parch./s

B)  $10^4$  parch./s

D)  $2 \cdot 10^5$  parch./s

**15. Ichki konversiya koeffitsienti deb nimaga aytildi?**

A) Elektronlar sonining protonlar soniga nisbatiga

B) Neytronlar sonining elektronlar soniga nisbatiga

C) Ichki konversion elektronlar sonining gamma-kvantlar soniga nisbatiga

D) Gamma-kvantlar sonining ichki konversion elektronlar soniga nisbatiga aytildi

**16. Nurlanish jarayonida radioizotoplarning hosil bo'lish va parchalanishini ifodalovchi tenglamaga nima deb aytildi?**

A) Aktivatsiya tenglamasi

C) Sintez tenglamasi

B) Kvadrat tenglama

D) Fotosintez tenglamasi

**17. Qisqa yashovchi radioizotoplар deb, yarim parchalanish davri ... ga teng bo'lgan radioizotoplarga aytildi?**

A)  $T_{1/2} > 10^6$  yil

C)  $T_{1/2} < 0,01$  yil

B)  $0,01 \text{ min} < T_{1/2} < 10 \text{ min}$

D)  $T_{1/2} > 1$  yil

**18. O'ta qisqa yashovchi radioizotoplар deb yarim parchalanish davri ... ga teng bo'lgan radioizotoplarga aytildi?**

A)  $T_{1/2} < 0,01$  min

C)  $T_{1/2} > 1$  yil

B)  $10 \text{ min} < T_{1/2} < 1$  kun

D)  $0,01 \text{ min} < T_{1/2} < 10 \text{ min}$

**19. Uzoq yashovchi radioizotoplар deb, yarim parchalanish davri ... ga teng bo'lgan radioizotoplarga aytildi?**

A)  $T_{1/2} > 1$  yil

C)  $T_{1/2} > 10^6$  yil

B)  $1 \text{ kun} < T_{1/2} < 1$  yil

D)  $0,01 \text{ min} < T_{1/2} < 10 \text{ min}$  OK

**20. Radioaktiv parchalanish jarayonining asosiy oltita ko'rinishini ko'rsating.**

A) b-parchalanish;  $\beta$ -parchalanish; bg-parchalanish; yadro reaksiysi; neyturn va protonlar parchalanishi

B) b-parchalanish;  $\beta$ -parchalanish; yadro reaksiysi; molekular parchalanish;  $\lambda$ -parchalanish; atom parchalanish

C) L,  $\beta$ -parchalanish; elektron parchalanish; izomer hosil bo'lish

D) b-parchalanish;  $\beta$ -parchalanish; g-parchalanish; yadro bo'linishi; kechikkan neytron va protonlar

## II BOB

### YADRO REAKSIYALARI

---

Birinchi yadro reaksiyasi 1919-yilda E. Rezerford tomonidan amalga oshirilgan. Bu insoniyat tarixida ilk bor sun'iy ravishda yadro ni o'zgartirish jarayoni edi. E. Rezerford ko'p asrlar davomida alkim-yogarlar amalga oshirishga harakat qilib, amalga oshira olmagan va orzu bo'lib qolgan jarayonni, ya'ni bir moddani ikkinchi bir moddaga o'zgartirishni amalga oshirdi. U tajribada geliy atom yadrosi, ya'ni alfa-zarralar bilan azot atomi yadrosini bombardimon qilgan. Ushbu jarayon natijasida vodorod atom yadrosi – proton hosil bo'lgan. Protonlar hosil bo'lganligini birinchi tajribada ssintillatsiya metodi bilan, so'ngra Vilson kamerasi yordamida kuzatishgan. Keyinchalik zaryadlangan zarralar tezlatkichlari paydo bo'lishi bilan yadro reaksiyalarning turlari ko'payib bordi. Yadro reaksiyalarni o'rganish atom yadrosining strukturasi va xususiyatlarini o'rganishga yordam beradi. Bundan tashqari ushbu ma'lumotlar katta amaliy ahamiyatga ham egadir. Hozirgi kunda yadro reaksiyalari yordamida fan va texnikada, tibbiyotda keng qo'llanilayotgan radioizotoplar olinmoqda.

Mazkur bobda yadro reaksiyalarining turlari, ularni tavsiflovchi kattaliklar, aktivatsiya tenglamasi, radioizotoplarni olish va ularning tibbiyotda qo'llanilishi, yadro tibbiyotida qo'llanilayotgan radionuklidlarning sinflarga bo'linishi, kobalt-57 va yod-123 radioizotopini olishda qo'llaniladigan yadro reaksiyalari va metodikalariga batafsil to'xtalib o'tiladi.

#### **2.1-§. Yadro reaksiyalarining ta'rifi. Asosiy tushunchalar**

Yuqori energiyali mikrozarralar yoki yengil yadrolarning yadro bilan o'zaro ta'sirlashishi natijasida yadro ichki holatining o'zgarishi yoki yangi yadro hosil bo'lish jarayoniga yadro reaksiyasi deyiladi. Yadro bilan o'zaro ta'sirlashayotgan mikrozarralar turiga qarab yadro reaksiyalari bir necha turlarga bo'linadi:  $(n,\gamma)$ ,  $(n,p)$   $(\gamma,n)$   $(p,n)$ ,  $(\alpha,n)$  h.k.

Yadro reaksiyalarining eng ko‘p tarqalgani yengil  $\alpha$  zarra bilan  $A$  yadro orasidagi o‘zaro ta’sirlashishi natijasida  $B$  zarra va  $B$  yadro hosil bo‘lishidir, ya’ni



yoki qisqacha ifodalash mumkin:



Zarralar sifatida neytron (n), proton (p),  $\alpha$ -zarra, deyton (d),  $\gamma$ -kvanti va og‘ir ionlarni ishlatish mumkin.

Yadro reaksiyalarini xarakterlash uchun quyidagi kattaliklar qo‘llaniladi: *yadro reaksiya chiqishi* ( $Y$ ) va *kesimi* ( $\sigma$ ), *reaksiya energiyasi* ( $Q$ ), *ostona energiyasi* ( $E_{\text{nr}}$ ) va reaksiya natijasida hosil bo‘lgan zarralarning energetik va burchak taqsimotlari.

Reaksiya energiyasi  $Q$  ni energiya saqlanish qonunidan foydalanib aniqlaymiz. Yuqorida keltirilgan (2.2) reaksiya uchun energiya saqlanish qonunini yozamiz:

$$E_1 = E_2 \quad (2.3)$$

yoki

$$E_{01} + T_1 = E_{02} + T_2, \quad (2.4)$$

bu yerda  $Ye_{01}$  va  $Ye_{02}$  – mos holda birlamchi va ikkilamchi zarralarning tinchlikdagi energiyasi,  $T_1$  va  $T_2$  esa kinetik energiyasi. Bu kattalik o‘z navbatida quyidagilarga teng:

$$E_{01} = M_A c^2 + m_a c^2; \quad (2.5)$$

$$E_{02} = M_B c^2 + m_b c^2; \quad (2.6)$$

$$T_1 = T_A + T_a; \quad (2.7)$$

$$T_2 = T_B + T_b. \quad (2.8)$$

Umumiy holda  $Ye_{01} = Ye_{02}$  tenglama bajarilmaydi, chunki tinchlikdagi massasi o‘zgaradi. Tinchlikdagi energiyalar farqiga yoki kinetik energiyalar farqiga reaksiya energiyasi deyiladi:

$$Q = E_{01} - E_{02} = T_2 - T_1, \quad (2.9)$$

Agar (2.9) ifodani reaksiyada qatnashgan zarralarning tinchlikdagi massalari orqali ifodalasak:

$$Q = [M_a + M_A - (M_b - M_B)]c^2, \quad (2.10)$$

yoki formulani megaelektronvoltlarda yozilsa:

$$Q = (M_a + M_A - M_b - M_B) \cdot 931,5 M\Omega B. \quad (2.11)$$

Agar  $Q > 0$  bo'lsa, yadro reaksiyasida energiya ajraladi va **ekzoenergetik (yoki ekzotermik) reaksiya** deyiladi. Agar  $Q < 0$  bo'lsa, yadro reaksiyasida energiya yutiladi va **endoenergetik (yoki endotermik) reaksiya** deyiladi.

Zarraning yadro bilan to'qnashishi natijasida endoenergetik reaksiya yuz berishi mumkin bo'lgan minimal kinetik energiyasiga reaksiya ostonasi deyiladi. Ostona energiyasi bu yadro bilan to'qnashayotgan zarraning yadro reaksiyasini sodir qilishga yetarli bo'lgan laboratoriya sanoq sistemasidagi minimal kinetik energiyadir.

Agar qo'zg'almas nishon zarralar oqimi bilan bombardimon qilinsa, ostona va reaksiya energiyalari orasida quyidagicha bog'lanish mavjud bo'ladi:

$$E_{th} = \frac{(M_A + M_a)}{M_A} \cdot |Q|, \quad (2.12)$$

bu yerda  $M_A$  va  $M_a$  – mos holda nishon yadrosi va u bilan to'qnashayotgan zarra massalari. Agar nishon yadro yuqori energiyali g-kvantlar bilan nurlantirilsa, ostona energiyasi reaksiya energiyasiga teng bo'ladi, ya'ni

$$E_{th} = |Q| \quad (2.13)$$

## 2.2-§. Yadro reaksiyalarining kesimi va chiqishi

Yadro reaksiyalar kesimi – ikkita o'zaro ta'sirlashuvchi zarralar tizimining ma'lum bir oxirgi holatga o'tish ehtimolligini bildiruvchi kattalik hisoblanadi. Oddiy holda bu kattalik reaksiya yuz berish ehtimolligidir.

Yadro o'zaro ta'sir ehtimolligini zarralar oqimining dastasi yo'lida joylashgan yadroning effektiv yuzasi orqali aniqlash qabul qilingan.

Dasta o‘qiga perpendikular joylashgan nishonning birlik yuzasiga kelib tushayotgan zarralar sonini  $N$ , orqali belgilaymiz. Ushbu yuzada  $n$  ta yadro bo‘lsin. U holda o‘zaro ta’sirlar soni quyidagi munosabat bilan aniqlanadi:

$$N = N_0 \sigma n \quad (2.14)$$

bu yerda  $\sigma$  – reaksiyaning to‘liq kesimi. Kesim kattaligi yadro geometrik yuzasidan bir necha tartibga farq qiladi.

Agar nishon qalinligi ma’lum bo‘lsa, birlik yuzaga mos keluvchi yadrolar sonini hisoblash mumkin:

$$n = \frac{\rho d N_A}{A} \quad (2.15)$$

bu yerda  $c$  – nishon muddasining zinchligi,  $d$  – nishon qalinligi,  $N_A$  – Avogadro soni,  $A$  – massa soni.

Reaksiyaning turli chiqish kanallaridagi (masalan (p,n), (p,d) va h.k.) kesimlari parsial kesimlar deyiladi. To‘liq kesim, ma’lum bir energiyada yuz berishi mumkin bo‘lgan reaksiyalar parsial kesimlarining yig‘indisidan iborat bo‘ladi:

$$\sigma = \sum \sigma_b \quad (2.16)$$

bu yerda  $\sigma_b$  – parsial kesim.

Kesim o‘lchov birligi sifatida barn qabul qilingan bo‘lib, 1 barn =  $10^{-24}$  sm<sup>2</sup> ga teng.

Qo‘yilgan masalaga va tajriba sharoitlariga qarab, integral, differential va ikki marta differentsiyal kesimlar tushunchalari qo‘llaniladi.

$a + A \rightarrow b + B$  reaksiya integral kesimi deb quyidagi kattalikka aytildi:

$$\sigma_{ab} = \frac{dN_b}{n N_0} \quad (2.17)$$

bu yerda  $n$  – nishonning birlik yuzadagi yadrolar soni,  $N_0$  – nishonga kelib tushgan  $a$  zarralar soni,  $dN_b$  – reaksiya mahsuli bo‘lgan  $b$  zarralar soni.

$a + A \rightarrow b + B$  reaksiya differentsiyal kesimi deb quyidagi kattalikka aytildi:

$$\frac{d\sigma_{ab}}{d\varepsilon_b} = \frac{1}{nN_0} \frac{dN_b}{d\varepsilon_b}, \quad (2.18)$$

$dN_b/d\varepsilon_b$  – energiyasi  $\varepsilon_b$  – ( $\varepsilon_b + d\varepsilon_b$ ) diapazondagi, reaksiya mahsuli bo‘lgan b zarralar soni.

$a + A \rightarrow b + B$  reaksiya ikki marta differensial kesimi deb quyidagi kattalikka aytildi:

$$\frac{d^2\sigma_{ab}}{d\Omega d\varepsilon_b} = \frac{1}{nN_0} \frac{dN_b}{d\Omega d\varepsilon_b} \quad (2.19)$$

Yadro reaksiyasini tavsflovchi yana bir muhim kattaliklardan biri reaksiyaning chiqish kattaligi hisoblanadi. Reaksiya chiqishi deb yuz bergen reaksiyalar sonining birlik yuzaga kelib tushgan zarralar soniga nisbatiga aytildi. Ayrim hollarda yadro o‘zgarishlarida ishtirok etayotgan zarralar sonining nishonga kelib tushayotgan zarralar soniga nisbatiga ham reaksiya chiqishi deyiladi:

$$Y = \frac{N_{yar}}{N_0}, \quad (2.20)$$

bu yerda Y – reaksiyaning chiqishi;  $N_{yar}$  – yadro o‘zgarishlarida ishtirok etayotgan zarralar soni;  $N_0$  – nishonga kelib tushayotgan zarralar soni. Tajribalarda asosan reaksiyaning chiqish kattaliklari o‘lchanadi. Bu ma’lumotlar asosida reaksiyaning kesimi aniqlanadi.

Yadroning chiqish kattaligini quyidagi ifoda orqali ham aniqlash mumkin:

$$Y = \frac{N}{F}, \quad (2.21)$$

bu yerda N – nishonda sodir bo‘lgan yadro o‘zaro ta’sirlar soni; F – zarralar oqimi, zarra/(sm<sup>-2</sup>·s).

Yadro reaksiyasining chiqishi va kesimi kattaligi orasidagi munosabatni aniqlaymiz. Buning uchun yadro reaksiyasi tezligi tushunchasidan foydalanamiz. Reaksiya tezligi berilgan nurlanish sharoitida zarralar oqimi, reaksiya kesimi va boshlang‘ich yadrolar soni bilan quyidagicha bog‘langan:

$$\frac{dN_b}{dt} = F\sigma N_A, \quad (2.22)$$

bu yerda  $N_B$  – reaksiya mahsulidagi atomlar soni;  $N_A$  – boshlang‘ich atomlar soni. Ushbu holda reaksiyaning chiqishi quyidagiga teng bo‘ladi:

$$Y = \frac{dN / dt}{F} = \sigma N_A. \quad (2.23)$$

Bu formula monoenergetik nurlanishlar uchun o‘rinlidir. Agar ni shonga kelib tushayotgan zarralar yoki nurlanishlar energiyasi monoenergetik bo‘lmasa, ya’ni nurlanish spektri uzlusiz bo‘lsa, reaksiyaning chiqishi quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$Y = N_A \int_0^{E_{\max}} F_0(E) \sigma(E) dE, \quad (2.24)$$

bu yerda  $\Phi_0(E)$  – nurlanish spektri,  $\sigma(E)$  – reaksiyaning uyg‘onish funksiyasi, ya’ni reaksiya kesimining zarra energiyasiga bog‘lanishi.


Reaksiyaning chiqishini aniqlashda laboratoriyyada qo‘llanilayotgan qurilma va o‘lchash asboblarining parametrлari, o‘lchash geometriyasi va h.k. e’tiborga olinadi.

### 2.3-§. Yadro reaksiyalarning yuz berish mexanizmlari

Yadro reaksiyalarning yuz berish jarayoni asosan ikki xil mexanizm orqali tushuntiriladi, ya’ni kompaund (oraliq) yadro mexanizimi va be vosita o‘zaro ta’sir mexanizmlari.

**Kompaund yadro mexanizmi.** 1936-yilda Nils Bor tomonidan taklif etilgan oraliq yadro mexanizmiga binoan yadro reaksiyalari ikki bosqichda yuz beradi.

Birinchi bosqichda yuqori energiyali elementar zarra, yadro yoki gamma-kvantlar yadroda yutiladi va uyg‘ongan holatdagi oraliq S’ yoki kompaund yadro hosil bo‘ladi:



Ikkinci bosqichda kompaund yadro quyidagi sxema bo‘yicha par chalanadi:




B zarracha neytron, proton, deytron va boshqa zarralar bo‘lishi mumkin.

Yadro reaksiyasining yuz berish jarayonini umumiy holda quyidagi ko'rnishda yozish mumkin:



yoki



bu yerda  $B^*$  – reaksiya natijasida uyg'ongan holatda hosil bo'lgan yadro.

Yadroga yutilgan  $\alpha$ -zarra energiyasi nuklonlar orasida juda tez taqsimlanadi. Natijada  $\alpha$ -zarra olib kirgan energiyaning qiymati yadrodagi nuklonlarning bog'lanish energiyasidan katta bo'lishiga qaramasdan, nuklonlardan bittasi ham yadrodan chiqib ketish uchun zarur bo'lgan energiyaga ega bo'lmaydi. Shu sababli uyg'ongan  $C^*$  oraliq yadro kvazistatsionar sistema kabi yadro vaqtiga ( $\sim 10^{-22}$  s) nisbatan o'zoq vaqt ( $\sim 10^{-14}$  s) yashaydi. Yadro vaqt deb tez neytronning ( $\sim 10$  MeV) yadro radiusiga teng bo'lgan masofani bosib o'tish uchun kerak bo'lgan vaqtga aytildi, ya'ni

$$\Delta t = \frac{R_{zl}}{v_n} \approx \frac{1,4 \cdot 10^{-12} \text{ sm}}{4 \cdot 10^9 \text{ sm/c}} \approx 10^{-22} \text{ c.}$$

Kompaund yadro yashash vaqt davomida ( $\sim 10^{-14}$  s) yadroda juda ko'p marta energiya taqsimoti yuz beradi. Binobarin, oraliq yadro hosil bo'lishi va uning parchalanishi bir-biriga bog'liq bo'lman yadro reaksiyasining ikkita bosqichidan iborat. Bunda yadro qanday hosil bo'lganini «esdan» chiqaradi va uning parchalanishi hosil bo'lish usuliga bog'liq emas.

Kompaund yadroning u yoki bu parchalanish turi uyg'onish energiyasiga, harakat miqdori momentiga va boshqa kompaund yadroni tafsiflovchi parametr larga bog'liq bo'lib, kompaund yadro qanday yo'llar bilan vujudga kelganiga bog'liq emas. Shuning uchun yadro reaksiyasining ikkinchi bosqichi oraliq yadro har xil ko'rinishda parchalanishi mumkin.

Zamonaviy dunyoqarashga asosan, jarayon boshida yadro dagi nuklonlar orasida taqsimlangan oraliq yadroning o'yg'onish energiyasi, ko'p sonli qayta taqsimlanishlardan keyin statistik qonunga asosan birorta zarraga yig'ilib qolishi mumkin. Ortiqcha energiya olgan ushbu zarracha oraliq yadro dan chiqib ketishi mumkin. Reaksiyaning ikkinchi

bosqichi (etapi)  $C^* \rightarrow B + b$ ,  $\alpha$ -parchalanishni eslatadi. Farqi, ushbu holda kuchli uyg'ongan S\* yadro parchalanadi.

**Bevosita reaksiya mexanizmi.** Yadro reaksiyalarini eksperimental o'rGANISH bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, kompaund yadro mexanizimi hamma vaqt ham o'rINli bo'lmas ekan. Bu birinchi marta fotoprotonlar hosil bo'ladigan yadro reaksiyada kuzatilgan. Fotoprotonlar, ya'ni ( $\gamma, p$ ) fotoyadro reaksiyasi natijasida hosil bo'ladigan protonlarning energetik va burchak taqsimotlarini o'rGANISH, ushbu reaksiyalar ikkita mexanizm bo'yicha yuz berishi, ya'ni oraliq yadro mexanizmi va bevosita yadro reaksiyasi mexanizmlari mavjudligini ko'rsatdi. Ayrim hollarda birinchisini bug'lanish mexanizmi, ikkinchisi esa fotoeffekt mexanizmi ham deyiladi. Bevosita reaksiya (fotoeffekt) mexanizmida  $\gamma$  - kvantlar energiyasining asosiy qismini sirtda joylashgan protonga beradi va ushbu proton,  $\gamma$  - kvantlar olib kelgan energiya nuklonlar orasida taqsimlanmasdan oldin yadrodan uchib chiqib ketadi. Mazkur protonning maksimal energiyasi quyidagiga teng:

$$(T_p)_{\max} = E_\gamma - \varepsilon_p,$$

bu yerda  $\varepsilon_p$  - protonning bog'lanish energiyasi.

Shunday bevosita ajralib chiqqan protonlar yordamida ( $\gamma, p$ ) fotoyadro reaksiyasi chiqishining oraliq yadro mexanizmida kutilayotgan chiqishiga nisbatan oshishini va uchib chiqayotgan protonlarning burchak taqsimotidagi anizotropiyani ham tushuntirish mumkin.

Protonlarni bevosita «uzib» olish  $\gamma$ -kvantlar yutilish kesimining fagaqt ma'lum bir qismiga javob beradi. Ammo ( $\gamma, p$ ) reaksiya uchun u muhim ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Bunda sirtda joylashgan protonlar uchun kulon barerining roli bug'lanish protonlari uchun kulon bareri roldan ancha kichikligi bilan bog'liq.

Bevosita o'zaro ta'sir mexanizmi og'ir yadrolardagi reaksiyalarida o'ta muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Bunga sabab ushbu yadrolarda kichik energiyali bug'lanish protonlarga qarshilik qiluvchi Kulon to'sig'inining kattaligidir.

## 2.4-§. Fotoyadro reaksiyalari

*Fotoyadro reaksiyası* deb, yuqori energiyali gamma-kvantlarning yadro bilan o‘zaro ta’sirlashuvi natijasida yadrodan *proton*, *neytron*, *deytron* va boshqa zarralarning chiqib ketish jarayonlariga aytildi. *Fotoyadro reaksiyasını yadro fotoeffekti* deb ham aytildi. Fotoyadro reaksiyasını umumiy ko‘rinishda quyidagicha yozish mumkin:




yoki quyidagi ko‘rinishda ham yozish mumkin:




Yadrodan chiqayotgan zarralar turiga qarab fotoyadro reaksiyalari quyidagi turlarga bo‘linadi: ( $\gamma, n$ ), ( $\gamma, p$ ), ( $\gamma, np$ ), ( $\gamma, 2n$ ), ( $\gamma, d$ ), ( $\gamma, \alpha$ ) va h.k. Hozirgi kunda eng yaxshi o‘rganilgan reaksiyalar: ( $\gamma, n$ ) va ( $\gamma, p$ ). Bu reaksiyalar endotermik bo‘lgani uchun ushbu reaksiya yuz berishi uchun,  $\gamma$ -kvantlarning energiyasi ushbu zarrani yadrodan ajratish uchun zarur bo‘lgan energiyadan katta bo‘lishi kerak, ya’ni

$$E_\gamma > \epsilon_n(\epsilon_p, \epsilon_\alpha) \quad (2.27)$$

Yadro fotoeffekti birinchi marta 1934-yilda Chedvik (James Chadwick) va Goldxaberlar (Maurice Goldhaber) tomonidan deytronning fotoparchalanishi misolida kuzatilgan:



Tajribada  ${}^{208}_{82}Tl$  radionuklididan chiqayotgan energiyasi  $E_\gamma = 2,62 \text{ MeV}$  ga teng bo‘lgan gamma-kvantlardan foydalanilgan. Keyinchalik tabiiy radioaktiv elementlar gamma-kvantlari ta’sirida bo‘ladigan yana bir fotoyadro reaksiyasi kuzatildi.



Ushbu reaksiya bilan tabiiy radioaktiv elementlarning gamma-kvantlari ta’sirida yuz beradigan fotoyadro reaksiyalarining ro‘yxati cheklanadi. Boshqa hamma yadrolarda nuklonning ajralish energiyasi radioaktiv yadrolar chiqarayotgan gam-makovantlarining energiyasidan katta bo‘lganligi sababli fotoyadro reaksiyasi yuz bermaydi.

Yuqori energiyali gamma-kvantlarni olish imkoniyati faqat elektron tezlatkichlari yaratilgandan keyingina paydo bo‘ldi. Elektron tezlatkichlarda (betatron, mikrotron va chiziqli elektron


tezlatkich) yuqori energiyali gamma-kvantlarni rentgen trubkasida tormozli rentgen nurlar hosil qilishiga o'xshash vaziyatda hosil qilinadi, ya'ni yuqori energiyagacha tezlatilgan monoxromatik elektronlar Z katta bo'lgan elementdan (W,Pb) tayyorlangan nishonga kelib tushadi va unda tormozlanadi. Natijada tormozli gamma-nurlar hosil bo'lib, ularning spektri uzlusizdir. Tormozli gamma-nurlanislarning maksimal energiyasi tormozlanayotgan elektronlarning maksimal kinetik energiyasiga teng bo'lib, intensivligi esa energiyaga teskari proporsional ravishda kamayadi. Shunday qilib, elektronlarning tormozlanishi natijasida berilgan maksimal energiyali uzlusiz gamma-kvantlar spektrini olish mumkin.

## 2.5-§. Neytronlar ishtirokidagi yadro reaksiyalari


Yadroga kelib tushayotgan neytron energiyasiga bog'liq holda har xil turdag'i yadro reaksiyalari sodir bo'lishi mumkin. Neytronlarni energiyasiga qarab turli guruhlarga ajratish mumkin. Bu guruhlar *2.1-jadvalda* keltirilgan.

Bu reaksiyalar bilan tanishib o'tamiz. Neytronlar ishtirokidagi reaksiyalar turlari neytronlar energiyasiga bog'liq bo'ladi.

**Neytronlarning radiatsion qamrashi.** Neytronlar ta'siri ostida yuz beradigan yadro reaksiyalari ichida eng ko'p tarqalgani bu radiatsion qamrash reaksiyasi, ya'ni ( $n,\gamma$ )



Bu reaksiya natijasida  $\beta$ -radioaktiv ( $A+1, Z$ ) yadro hosil bo'ladi va u quyidagi sxema bo'yicha parchalanadi:




Yadro reaksiyalarida neytron yutilishi va undan keyin  $\gamma$ -kvant chiqishi bilan yuz bergani uchun bu reaksiyalar ( $n,\gamma$ ) ko'rinishdagi radiatsion qamrash reaksiyasi deyiladi. Radiatsion qamrash reaksiyasi katta ehtimollik bilan energiyasi  $0.6 - 500 \text{ keV}$  gacha bo'lgan sekin neytronlar ta'siri ostida yuz beradi. Shuning uchun ham ushbu reaksiya neytronlar ni qayd qilish uchun keng qo'llaniladi.

## 2.1-jadval.


Neytronlarni energiya bo'yicha guruhlash.

Guruhlari	Neytron energiyasi
Sovuq neytronlar	$E_n \leq 0,005 \text{ eV}$
Issiqlik neytronlari	$0,005 \text{ eV} \leq E_n \leq 0,1 \text{ eV}$
Sekin neytronlar	$0,1 \text{ eV} \leq E_n \leq 1000 \text{ eV}$
Oraliq neytronlar	$1 \text{ keV} \leq E_n \leq 500 \text{ keV}$
Tez neytronlar	$0,5 \text{ MeV} \leq E_n \leq 50 \text{ MeV}$
O'ta tez neytronlar	$E_n > 50 \text{ MeV}$


Radiatsion qamrash reaksiyasiga misol qilib, issiqlik neytronlarning indiy yadrosi tomonidan qamrab olishi jarayonini keltirish mumkin:



Bu jarayon natijasida hosil bo'lgan  $^{116}_{49}\text{In}$  radioaktiv izotopning yarim parchalanish davri  $T_{1/2} = 54 \text{ min}$  va u quyidagi sxema bo'yicha parchalanadi:



**Protonlar hosil bo'lishi bilan yuz beradigan reaksiyalar.** Energiyasi  $T_n \approx 0,5 \div 10 \text{ MeV}$  bo'lgan neytronlar ishtirokida ko'pincha ( $n,p$ ) turdagi reaksiya yuz beradi:



Odatda ( $n,p$ ) turdagi reaksiya energiya yutilishi bilan yuz beradi, ya'ni  $Q < 0$ , agar  $Q < 0$  bo'lsa, u holda  $|Q| \approx 1 \text{ MeV}$ . Bunda reaksiya natijasida hosil bo'ladigan protonlar Kulon to'sig'ini yengib, yadrodan chiqib ketishi uchun neytronlar yetarlicha katta energiyaga ega bo'lishi lozim.

( $n,p$ ) turdagi reaksiyaga misol qilib ostona energiyasiga ega bo'lgan quyidagi reaksiyani keltirish mumkin:




bu reaksiya energiyasi  $Q \approx -0,92 \text{ MeV}$  ga teng.

Hatto issiqlik neytronlari ta'siri ostida yuz beradigan reaksiyalar ham mavjud bo'lib, bunga misol qilib quyidagini keltirish mumkin:





Bu reaksiya energiyasi  $Q \approx 0,6$  MeV ga teng bo'lib, u yengil yadrolarda yuz beradi. Bunga sabab, ushbu yadrolarda hosil bo'lgan protonlar uchun Kulon to'sig'ining uncha katta bo'lmasligidir.

**Alfa-zarralar hosil bo'tishi bilan yuz beradigan reaksiyalar.** Yadro fizikasida  $(n, \alpha)$  turdag'i reaksiyalar keng qo'llaniladi:




$(n, \alpha)$  turdag'i reaksiyalarning samarali kechishi uchun energiyalari 0,5 dan 10 MeV oraliqda bo'lgan neytronlar zarur bo'ladi. Ammo ayrim hollarda ushbu reaksiya katta ehtimolik bilan sekin neytronlarda ham yuz beradi.


Bunday reaksiyaga misollar:



Endoenergetik reaksiyalarga misol qilib quyidagi  $(n, \alpha)$  turdag'i reaksiyani keltirish mmkin:



**Bo'linish reaksiyasi.** Og'ir yadrolarni, ya'ni transuran elementlarni ( ${}_{90}^{90}\text{Th}$ ,  ${}_{91}^{91}\text{Pa}$ ,  ${}_{92}^{92}\text{U}$ ) energiyasi  $T_n > 1$  MeV bo'lган tez neytronlar bilan (uranning ayrim izotoplarida va transuran elementlarda hatto issiqlik neytronlarida sodir bo'ladi) nurlantirilganda o'rtacha massalar nisbati 2/3 nisbatni qanoatlatiruvchi ikkita yadro bo'lagi hosil bo'ladi:




bu yerda

$$\begin{aligned} A_1 + A_2 &= A + 1; \quad Z_1 + Z_2 = Z; \\ \ddot{A}_1 : \ddot{A}_2 &\approx 2 : 3. \end{aligned} \quad (2.42)$$

Bunday turdag'i reaksiyalar bo'linish reaksiyasi deyiladi va  $(n, f)$  ko'rinishda yoziladi. Bo'linish reaksiyalari yadro energiyasini olish-

da keng qo'llaniladi. Bunday reaksiyaga misol sifatida issiq neytronlar ta'sirida uran-235 yadrosining bo'linishini keltirish mumkin:



**Ikki va undan ortiq nuklonlar hosil bo'luvchi reaksiyalar.** Energiyası  $T_n > 10$  MeV bo'lgan neytronlar ta'siri ostida porogli detektorlar sifatida keng qo'llaniladigan ( $n, 2n$ ), ( $n, pn$ ), ( $n, 3n$ ) va boshqa turdagı reaksiyalar sodir bo'ladi. Bu reaksiyalarga misol qilib quyidagi reaksiylarni keltirish mumkin:



bu reaksiyalarining ostona energiyalari mos holda 20 va 10 MeV.

( $n, 2n$ ) turdagı reaksiyalarning ostona enregiyalari kattaligi, bitta neytronga nisbatan ikkita neytronni yadrodan chiqarish uchun katta energiya sarflashidadir. Mazkur turdagı yadro reaksiyalarini neytron aktivatsion tahlilda ham keng qo'llaniladi.

**Neytronlarning noelastik sochilishi.** Energiyası bir necha yuz kiloelektronvolt bo'lgan neytronlar yadroga tushgandan keyin uni uyg'ongan holatga o'tkazishi va undan yana kamroq energiya bilan chiqib ketishi mumkin. Bu yerda kelib tushgan neytron chiqib ketishi shart emas, balki boshqa bir neytron ham chiqib ketishi mumkin. Bunday jarayon neytronlarning noelastik sochilishi deyiladi. Neytronlarning noelastik sochilish jarayoni, ya'ni ( $n, n'$ ) og'ir yadrolarda neytronlar kinetik energiyasi  $T_n > 0,6$  MeV bo'lganda, yengil yadrolarda esa  $T_n > 1$  MeV energiyalarda sodir bo'ladi.

Neytronlarning noelastik sochilish kesimi atom raqamiga va neytronlar energiyasiga bog'liq bo'ladi. Yengil yadrolardan og'ir yadrolar sohasiga o'tganda va neytronlar energiyasi oshganda reaksiya kesimi ham oshadi. Bunda noelastik sochilish kesimining qiymati keskin o'zgarmaydi, ya'ni 0,6-3 barn chegarasida o'zgaradi.

**Neytronlarning elastik sochilishi.** Neytronlar moddalarga tushganda quyidagi ko'rinishdagi jarayonlarni sodir etadi. Yuqorida aytib o'tilganidek noelastik sochilish, shu bilan bir qatorda, neytronning elastik sochilishi ham yuz beradi. Elastik sochilish neytron kelib urilayot-

gan yadroning massasiga juda katta bog'liq bo'ladi. Neytron zarralari-ning qayd qilinishi neytronlarning elastik sochilishiga ham asoslanadi. Bu jarayonda tepki yadrosoi hosil bo'ladi (yoki nuklon hosil bo'ladi). Odatda tepki proton hosil bo'ladi.

Biz to'xtalmoqchi bo'lgan oxirgi jarayon bu neytronlarning elastik sochilishidir. Ma'lumki elastik sochilish natijasida yadro oldingi hola-tida qoladi. Neytron esa inersiya markazidagi sanoq sistemaga nisbatan boshlang'ich kinetik energiyasini saqlaydi (laboratoriya sanoq sistemasiga nisbatan esa neytron va yadroning yig'indi kinetik energiyasi saqlanadi). Ushbu turdag'i reaksiyalar amaliy yadro fizikasida keng qo'llaniladi.

## 2.6-§. Aktivatsiya tenglamasi

**Aktivatsiya** deb, turg'un yadrolarni neytronlar, gamma-kvantlar, protonlar yoki boshqa zarralar bilan nurlantirganda yuz beradigan yadro reaksiyasi natijasida radioaktiv moddalar hosil bo'lishiga aytildi. Aktivatsion tahlil metodi asosan radioaktiv yadrolarning hosil bo'lishiga asoslanadi. Aktivatsion tahlil metodining eng muhim tenglamalaridan biri bu aktivatsiya tenglamasidir. Bu yerda biz ushbu tenglama bilan tanishib chiqamiz.

Berilgan sharoitda  $A(a,b)B$  yadro reaksiyasining tezligi (2.22) munosabat orqali aniqlanadi. Agar reaksiya natijasida hosil bo'lgan mahsulot radioaktiv va uning parchalanish doimisi  $I$  bo'lsa, u holda radioaktiv yadrolarning to'planish (yig'ilish) tezligi ikkita jarayon orqali aniqlanadi: yadro o'zaro ta'sir natijasida radioizotoplар hosil bo'lish tezligi va radioaktiv parchalanish natijasida ularning kamayish tezliklari:

$$\frac{dN_B}{dt} = F\sigma N_A - \lambda N_B. \quad (2.46)$$

Ma'lum bir  $t_0$  nurlanish vaqtida to'plangan (hosil bo'lgan)  $B$  radioizotop atomlarining miqdorini (soni) (2.46) tenglamani integral-lash orqali topish mumkin. Nurlanish jarayonida  $F$ ,  $y$  va  $N_A$  kattaliklar o'zgarmaydi deb faraz qilamiz. Bunda aktivatsiya qiluvchi nurlanish oqim zichligi  $F$  nurlanish vaqtida o'zgarmaydi va namunanining ixtiyoriy nuqtasida bir xil bo'ladi. Shuningdek, aktivatsiya qiluvchi nurlanish

energiyasi va nurlanayotgan izotopning soni kamaymaydi. Mazkur sharoitda (2.46) tenglamani integrallab, quyidagi ifodaga kelamiz:

$$N_B = \frac{F\sigma N_A}{\lambda} (1 - e^{-\lambda t_n}), \quad (2.47)$$

bu yerda  $t_n$  – nurlanish vaqt.

Nurlanish tugagandan keyin ma'lum bir  $t_u$  vaqt davomida (o'lhash vaqt) parchalanishlar soni o'lchanadi. Bu o'lhash vaqt hisobga olinsa (2.47) ifoda quyidagi ko'rinishga keladi:

$$N_B = \frac{F\sigma N_A}{\lambda} (1 - e^{-\lambda t_n})(1 - e^{-\lambda t_u}). \quad (2.48)$$

Bu tenglama monoizotop elementlar uchun o'rinni bo'ladi. Agar element ko'p izotopli bo'lsa, u holda tenglama quyidagi ko'rinishni oladi:

$$N_B = \frac{F\sigma N_e \theta}{\lambda} (1 - e^{-\lambda t_n})(1 - e^{-\lambda t_p}). \quad (2.49)$$

bu yerda  $N_e$  – element atomlarining boshlang'ich soni;  $\theta$  – aktivatsiya qilinayotgan izotopning tabiiy izotoplari aralashmasidagi ulushi.

Ushbu (2.49) tenglama nurlanish tugagan momentdagи parchalanishlar sonini beradi. Agar o'lhash ma'lum bir  $t_p$  vaqt o'tgandan keyin (pauza vaqt) amalga oshirilsa, unda mazkur vaqt oralig'ida radioizotop parchalanishini hisobga olish lozim, ya'ni:

$$N_B = \frac{F\sigma N_e \theta}{\lambda} (1 - e^{-\lambda t_n})(1 - e^{-\lambda t_u}) e^{-\lambda t_p}. \quad (2.50)$$


Agar induksiyalangan (reaksiya natijasida hosil qilingan) aktivlikni o'lhash *g-spektrometrda* bajarilsa, u holda parchalanishlar soni fotocho'qqi yuzasi bilan yoki fotocho'qqidagi impulslar soni bilan aniqlanadi:

$$N_d = \frac{N_\Sigma}{\varepsilon I_g}, \quad (2.51)$$

bu yerda  $N_d$  – fotocho'qqidagi impulslar soni;  $\varepsilon$  – spektrometrning effektivligi;  $I_g$  – g-kvantning intensivligi. Yuqoridagi (2.50) va (2.51) tenglamalardan quyidagini olamiz:

$$N_{\Sigma} = \frac{F \sigma N_e \theta \varepsilon I_{\gamma}}{\lambda} (1 - e^{-\lambda t_s}) (1 - e^{-\lambda t_u}) e^{-\lambda t_p}. \quad (2.52)$$

To'yinishga  $t \approx (445) T_{1/2}$  vaqt ichida erishiladi. Kichik t vaqtarda  $N(t)$  bog'lanish chiziqli xarakterga ega bo'ladi (2.1-rasm).



**2.1-rasm.** Aktivatsiya egri chizig'i.

Endi (2.47) tenglamani tahlil qilamiz. Bu yerdan ko'rindik, nurlanish vaqt oshishi bilan hosil bo'lgan radioaktiv yadrolar (yoki radioizotoplar) soni oshib boradi va ma'lum bir vaqtdan keyin egri chiziq to'yinishga (platoga) chiqadi. Bunda  $dN_B / dt = 0$  va  $N_t = F \sigma N_A / \lambda$  bo'ladi. To'yinish yuz berganda nurlanish natijasida hosil bo'layotgan yadrolar soni parchalanayotgan yadrolar soniga tenglashib qoladi. Mazkur hol uchun (2.47) ifoda quyidagi ko'rinishga keladi:

$$N_B = N_t (1 - e^{-\lambda t}). \quad (2.53)$$

## 2.7-§. Yadro xususiyati va yadro reaksiyalar bo'yicha ma'lumotlar markazlari

Hozirgi kunda jahonda juda ko'p yadroviy ma'lumot markazlari faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Xalqaro yadroviy ma'lumot markazlar tarmoqlari o'z ichiga Avstriya, Vengriya, Xitoy, Rossiya, AQSH, Ukraina, Fransiya, Yaponiya davlatlaridagi tashkilotlarni o'z ichiga oladi. Rossianing o'zida beshta yadro ma'lumot markazlari mavjud. Bular

ichida bizning mavzuga bevosita aloqasi bo'lgan tashkilot bu Fotoyadro tajribalar ma'lumotlar markazi (Sentr dannix fotoyadernix eksperimentov (SDFE) NIIYAF MGU) hisoblanadi. Ushbu markazda yadro reaksiyalari va yadro ma'lumotlariga taalluqli hamma ma'lumotlar jamlangan. Bundan tashqari bu markaz orqali boshqa markazlarga chiqish mumkin. Ushbu markazlarning asosiy maqsadi zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda jahonning istalgan nuqtasida joylashgan va internet tizimiga ulangan ilmiy markazlarni eng oxirgi ma'lumotlar bilan ta'minlab turishdan iborat. Gamma-aktivatsion tahsil uchun mo'ljallangan ma'lumotlar markazi bir nechta bo'lib, bular ichida eng ko'p ma'lumotlar bazasiga ega bo'lgani Rossiyaning Rostov-Don shahridagi *Rostov davlat universiteti Fizika ilmiy tekshirish institutining* ma'lumotlar markazi hisoblanadi. Bundan tashqari quydagi ma'lumotlar markazlari mavjud.

1. ENDF/B, ENDL, UKNDL, KEDAK, SOKRATOR va Obninskda yadro reaksiyalari bo'yicha ma'lumotlar markazi;
2. CUHDA – AQSHda joylashgan ma'lumotlar markazi;
3. EXFUR (4 ta markazni o'z ichiga oladi.);
4. MAGATE tomonidan tashkil etilgan «UHUC» ma'lumotlar sistemasi;
5. NDC – Venada joylashgan ma'lumotlar markazi;
6. UKNDL – Angliyada joylashgan ma'lumotlar markazi;
7. ENDL LLL – AQSHda joylashgan ma'lumotlar markazi.

#### ***Halqaro yadro ma'lumotlar markazlarining saytlari:***

1. <http://cdfe.sinp.msu.ru/index.ru.html>;
2. <http://www-nds.iaea.org>;
3. <http://www.ippe.obninsk.ru/podr/cjd/>;
4. <ftp://bnlnd2.dne.bnl.gov>;
5. <http://www.nndc.bnl.gov>.

## MASALALAR YECHISH UCHUN NAMUNALAR

**1-masala.**  ${}^3_3Li + {}^1_1H \rightarrow {}^7_4Be + {}^1_0n$  yadro reaksiyasi qanday reaksiya, ya'ni ekzotermik yoki endotermik ekanligini aniqlang. Yadro reaksiya energiyasi aniqlansin.

**Yechilishi:** Yadro reaksiya energiyasi quyidagi ifoda bilan aniqlanildi:

$$Q = c^2 \left( \sum m_i - \sum m_f \right) \quad (1)$$

bu yerda  $m_i$  va  $m_f$  – mos holda reaksiya boshidagi va oxiridagi zarralarning tinchlikdag'i massaslarining yig'indisi. Mazkur holda bu tenglama quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$Q = (m_{Li} + m_H - m_{Be} - m_n)c^2 \quad (2)$$

bu formulaga masala shartidagi va jadvallardagi qiymatlarni qo'yib, hisoblashlarni bajaramiz:

$$m_{Li} = 11,65079 \cdot 10^{-27} \text{ kg}, \quad m_H = 1,6736 \cdot 10^{-27} \text{ kg} \quad (3)$$


$$m_{Be} = 11,65231 \cdot 10^{-27} \text{ kg}, \quad m_n = 1,675 \cdot 10^{-27} \text{ kg} \quad (4)$$

$Q = -1,64 \text{ MeV}$ . Demak yadro reaksiyasi endotermik reaksiya ekan.

**Javob:**  $Q = -1,64 \text{ MeV}$ .

**2-masala.** Tinch turgan bor yadrosi bilan o'ta sekin neytronlarning o'zaro ta'siri natijasida yuz beradigan quyidagi  ${}^{10}_5B(n,b){}^7_3Li$  yadro reaksiyasining Q energiyasi aniqlansin.

**Yechilishi:**  ${}^{10}_5B(n,b){}^7_3Li$  yadro reaksiyasi quyidagi mexanizm bo'yicha yuz beradi, ya'ni bor  ${}^{10}_5B$  yadrosi sekin  ${}^1_0n$  neytronlarni yutadi (ya'ni o'ziga qo'shib oladi) va oraliq  ${}^{11}_5B$  yadroga aylanadi. Ushbu yadro kuchli qo'zg'algan (uyg'ongan) holatda bo'lgani uchun, o'zidan  $\alpha$ -zarra ( ${}^4_2He$ ) chiqaradi va litiy  ${}^7_3Li$  yadrosiga aylanadi. Ushbu reaksiya jarayonini quyidagi ko'rinishda yozish mumkin:



Reaksiya Q energiyasini quyidagi ifoda bilan topamiz:

$$Q = (m_{Be} + m_n - m_{Li} - m_{He})c^2 \quad (2)$$

Yadrolarning tinchlikdagi massalarini, ushbu yadro atomlarining tinchlikdagi massalariga almashtiramiz va jadvaldan olingen atom massalarini oxirgi ifodaga qo'yamiz:

$$Q = 931 \cdot (10,01294 + 1,00867 - 7,01601 - 4,00260) M_e B = 2,80 M_e B \quad (3)$$

Reaksiya mahsulotlari bo'lgan litiy  $^7Li$  va  $\alpha$ -zarralarning kinetik energiyasini topish uchun reaksiya energiyasini quyidagi ko'rinishda yozamiz:

$$Q = \sum T_f - \sum T_i \quad (4)$$

bu yerda  $T_i$  va  $T_f$  – mos holda reaksiya boshidagi va oxiridagi zarralarning kinetik energiyalarining yig'indisi. Masala shartiga ko'ra  $\sum T$  kattalikni hisobga olmasa ham bo'ladi. U holda  $^7Li$  va  $^4He$  zarralar kinetik energiyalarining yig'indisi:

$$T_{Li} + T_{He} = Q \quad (5)$$

$T_{Li}$  va  $T_{He}$  noma'lumlarni bog'lovchi ikkinchi bir tenglamani tuzish uchun impulsni saqlanish qonunini qo'llaymiz. Zarralar impulsları yig'indisi, reaksiyagacha nolga teng desak, u holda reaksiyadan keyin ham u nolga teng bo'ladi.

$$\vec{P}_{Li} + \vec{P}_{He} = 0 \quad (6)$$

bu yerdan impuls modullari uchun:

$$P_{Li} = P_{He} \quad (7)$$

Zarralar impulsları tenglamalaridan ularning kinetik energiyasi tenglamalariga o'tamiz:

$$T_{Li} = \frac{P_{Li}^2}{2m_{Li}}, \quad T_{He} = \frac{P_{He}^2}{2m_{He}} \quad (7)$$

(7) va (8) dan

$$m_{Li} T_{Li} = m_{He} T_{He} \quad (8)$$

ni hosil qilamiz. (5) va (8) tenglamalarni birgalikda yechib,

$$T_{Li} = Qm_{He} / (m_{Li} + m_{He})$$

$$T_{He} = Qm_{Li} / (m_{Li} + m_{He}) \quad (9)$$

tenglamalarni olamiz va  $m_{He}$  va  $m_{Li}$  yadro massalar qiymatini butun soniga yaxlitlab quyidagilarni topamiz:

$$T_{Li} = 4Q / 11 = 1,02 MeV, \quad T_{He} = 7Q / 11 = 1,78 MeV \quad (10)$$

**Javob:**  $T_{Li} = 4Q / 11 = 1,02 MeV, \quad T_{He} = 7Q / 11 = 1,78 MeV.$

**3-masala.** Quyidagi fotojadro reaksiyasining ostona energiyasi topilsin:  $\gamma + {}^{12}C \rightarrow {}^{11}B + p, \quad \gamma + {}^{12}C \rightarrow {}^{11}C + n.$

**Yechilishi:** Yuqori energiyali  $\gamma$ -kvantlar ta'sirida yuz beradigan yadro reaksiyalariga fotojadro reaksiyasi deyiladi. Ushbu reaksiya endoenergetik reaksiya bo'lgani uchun, u ostona energiyasiga egadir. Reaksiya ostona energiyasi quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$E_{ost} = \frac{m + M}{M} |Q| \quad (1)$$

bu yerda  $m$  va  $M$  – mos holda yadroga uchib kelayotgan zarra va nishon yadro massalari. (1) ifodani fotojadro reaksiyasi uchun yozamiz.

$$E_{ost} = |Q| \quad (2)$$

Reaksiya energiyasini  $Q$  ni topamiz,

$$Q = c^2 (\sum M_i - \sum M_f) \quad (3)$$

$$\sum M_i = m_C = 12 \text{ m.a.b.} \quad (4)$$

$$\sum M_f = m_B + m_p = (11,00930 + 1,0078) \text{ m.a.b.} \quad (5)$$

Ushbu qiymatlarni (3) ga qo'yamiz.

$$Q = 931 \frac{MeV}{m.a.b.} (12 - (11,00930 + 1,0078)) = -15,96 MeV \quad (6)$$

Xuddi shunga o'xshash hisoblashlarni ikkinchi reaksiya uchun ham bajaramiz va quyidagini olamiz:

$$Q = -18,72 \text{ MeV} \quad (7)$$

demak,

$$E_{ost}(\gamma, p) = |Q| = 15,96 \text{ MeV} \quad (8)$$

$$E_{ost}(\gamma, n) = |Q| = 18,72 \text{ MeV}. \quad (9)$$

**Javob:**  $E_{ost}(\gamma, p) = |Q| = 15,96 \text{ MeV}$ ,  $E_{ost}(\gamma, n) = |Q| = 18,72 \text{ MeV}$ .

**4-masala.** Massasi M bo‘lgan yadroning ёш energiyali  $\gamma$ -kvantni yutishi natijasida olgan uyg‘onish energiyasini toping.

**Yechilishi:** Mazkur jarayon uchun energiya va impulsning saqlanish qonunlarini yozamiz:

$$\begin{cases} Mc^2 + \hbar\omega = Mc^2 + E_{ya} + E^* \\ \frac{\hbar\omega}{c} = p \end{cases} \quad (1)$$


bu yerda  $E_{ya}$  – yadroning tepki energiyasi,  $E^*$  – uyg‘onish energiyasi. Bu tenglamalardan  $\gamma$ -kvantni yutishi natijasida olgan uyg‘onish energiyasini topamiz:

$$E_{ya} = \frac{P^2}{2M} = \frac{(\hbar\omega)^2}{2Mc^2}, \quad E^* = \hbar\omega(1 - \frac{\hbar\omega}{2Mc^2}) \quad (2)$$

$$\text{Javob: } E^* = \hbar\omega(1 - \frac{\hbar\omega}{2Mc^2})$$

**5-masala.** Yupqa plastika ko‘rinishidagi  $^{113}Cd$  nishon oqim zichligi  $1,0 \cdot 10^{12} N \cdot s^{-1} \cdot sm^{-2}$  bo‘lgan issiqlik neytronlar bilan nurlantirilgan. Agar nurlanishning 6 sutkadan keyin  $^{113}Cd$  nuklidining miqdori 1% kamaysa, ( $n, \gamma$ ) reaksiya kesimi topilsin.

**Yechilishi:** Reaksiya sxemasini yozamiz:



Birlik vaqt davomida moddaning birlik hajmida yuz beradigan reaksiyalar soni quyidagiga teng bo‘ladi:

$$Y = n\sigma F. \quad (2)$$

$dt$  vaqt oralig'ida nishon yadrolar konsentratsiyasi quyidagicha o'zgaradi:

$$dn = -Ydt = -n\sigma Fdt. \quad (3)$$

ushbu tenglama  $n(t=0) = n_0$  boshlang'ich shartni hisobga olib yechilsa, uning yechimi quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$n(t) = n_0 \cdot \exp(-\sigma F t) \quad (4)$$

Bu formula asosida quyidagi ifodani olamiz:

$$\frac{n_0 - n(t)}{n_0} = 0,01 = 1 - \exp(-\sigma F t). \quad (5)$$


Bu tenglamadan ( $n, \gamma$ ) reaksiya kesimi topiladi:

$$\sigma = \frac{\ln 0,99}{F \cdot t} = \frac{0,01}{1 \cdot 10^{12} \cdot 6 \cdot 24 \cdot 3600} = 1,9 \cdot 10^{-20} \text{ sm}^2 = 2 \cdot 10^4 \text{ barn}. \quad (6)$$


**Javob:**  $2 \cdot 10^4$  barn.

## MUSTAQIL YECHISH UCHUN MASALALAR

**2.1.** Quyidagi reaksiyaning ostona energiyasi topilsin:



**2.2.** Quyidagi reaksiyaning ostona energiyasi topilsin:



**2.3.** Deyteriy va tritiyning termoyadroviy birikish reaksiyasida qancha energiya ajraladi? (*Javob: Q = 17,6 MeV*)

**2.4.** Issiqlik neytronlari dastasi bo'shlida 10 m masofani o'tganda dastaning intensivligi qanchaga o'zgaradi? (*Javob: [N<sub>0</sub> - N(t)] / N<sub>0</sub> ≈ 5 · 10<sup>-6</sup>*)

**2.5.**  $\gamma + {}^{14}C \rightarrow {}^{12}C + n + n$  fotojadro reaksiyaning ostona energiyasi ni toping. (*Javob: E<sub>ost</sub>(γ, 2n) = 18,2 MeV*)

**2.6.** Litiy-7 yadrosi sekin neytronni qamrab oladi va g-kvant chiqaradi. Gamma-kvant energiyasi nimaga teng? (*Javob: E<sub>γ</sub> = 2,034 MeV*).

**2.7.** Massasi 0,20 g bo'lgan oltin folgani 6,0 soat davomida issiqlik neytronlari bilan nurlantirilgan. Neytronlar folga sirtiga normal tushmoqda. Nurlanish tamom bo'lgandan keyin 12 soat o'tgandan keyin folga aktivligi o'lchanganda uning aktivligi  $1,9 \cdot 10^7$  Bk ga teng bo'lgan. Agar radioaktiv izotop yadolarining hosil bo'lish effektiv kesimi 96 barn va yarim parchalanish davri 2,7 sutka bo'lsa, neytronlarning oqim zichligini aniqlang.

(*Javob: J = Ae<sup>λt</sup> / σN<sub>0</sub>(1 - e<sup>-λt</sup>) = 6 · 10<sup>9</sup> zarra/(sm<sup>2</sup> · s)*, bu yerda N<sub>0</sub> – oltin yadolarining soni).

## **NAZORAT SAVOLLARI**

1. *Reaksiya kanali deb nimaga aytildi?*
2. *Yadro reaksiyalarida qanday saqlanish qonunlari bajariladi?*
3. *Qanday reaksiyalar ostona energiyasiga ega bo'ladilar?*
4. *Yadro reaksiyalarini tadqiq qilishning fundamental va amaliy ahamiyatini tushuntiring.*
5. *Neytronlar energiyalari bo'yicha qanday guruhlarga bo'linadi?*
6. *Yuqori energiyali fotonlar ta'sirida qanday yadro reaksiyasi sodir bo'ladit?*

## **TEST SAVOLLARI**

1. *Yadro reaksiyasi nima?*  
A) Elementar zarralarning yadro bilan o'zaro ta'siri  
B) Molekulalarning yadro bilan o'zaro ta'siri  
C) Ionlarning modda bilan o'zaro ta'siri  
D) Elektronlarning modda bilan o'zaro ta'siri
2. *Energiya ajralishi bilan yuz beradigan yadro reaksiyasiga ... reaksiya deb ataladi?*  
A) Ostona                                    C) Fotosintez  
B) Endotermik                            D) Ekzotermik
3. *Energiya yutilishi bilan yuz beradigan yadro reaksiyasiga ... reaksiya deb ataladi?*  
A) Endotermik                            C) Ekzotermik  
B) Fotosintez                            D) Ostona
4. *Yadro reaksiyasing kesimi deb nimaga aytildi?*  
A) Reaksiya ostona energiyasiga  
B) Reaksiya yuz berish ehtimolligiga  
C) Reaksiya chiqishiga  
D) Reaksiya turiga
5. *Yadro reaksiyasing chiqishi deb ... aytildi?*  
A) Hosil bo'lgan yadrolar soniga  
B) Reaksiya ostona energiyasiga  
C) Yadro tartibiga  
D) Reaksiya yuz berish ehtimolligiga

**6. Yadro reaksiyasi kesimining o'chov birligi nima?**

- A) Barn      B) Joul      C)  $\text{sm}^3$       D) Bekkerel

**7.  $(g,n)$  turdag'i, ya'n'i yadrodan neytron chiqib ketadigan fotoyadro reaksiyasida qanday yadro hosil bo'ladi?**

- A) Neytronlar soni oshgan      C) Alfa radioaktiv  
B) Neytron defitsit      D) To'g'ri javob yo'q


**8. Issiqlik neytronlar deb energiyasi shartli ravishda qaysi oraliqda bo'lgan neytronlarga aytildi?**

- A)  $E_n > 50 \text{ MeV}$       C)  $2 \text{ MeV} \leq E_n \leq 5 \text{ MeV}$   
B)  $0,5 \text{ MeV} \leq E_n \leq 50 \text{ MeV}$       D)  $0,005 \text{ eV} \leq E_n \leq 0,4 \text{ eV}$

**9.  $\gamma + {}_{49}^{113}\text{In} \rightarrow x + 2n$  fotoyadro reaksiyasi natijasida qanday «x» yadro hosil bo'ladi?**

- A)  ${}^{111}\text{In}$       B)  ${}^{113}\text{Te}$       C)  ${}^{57}\text{Co}$       D)  ${}^{56}\text{So}$

**10. Quyidagi yadro reaksiyasi natijasida qanday yadro hosil bo'ladi?**



- A)  ${}_{15}^{32}\text{P}$       B)  ${}_{16}^{32}\text{S}$       C)  ${}_{17}^{17}\text{Ce}$       D)  ${}_{8}^{16}\text{O}$

**11. Qanday yadro reaksiyalari ostona energiyaga ega bo'ladi?**

- A) Kinetik      C) Endotermik  
B) Enzotermik      D) Termodinamik

**12. Yadro reaksiyalarining kompaund yadro modeli kim tomonidan taklif etilgan?**

- A) E. Rezerford      C) N. Bor  
B) I. Kurchatov      D) Maks Plank

**13.  $a + A \rightarrow C^* \rightarrow B + b$  reaksiya qanday reaksiya mexanizmi bo'yicha yuz bermoqda?**

- A) Kompaund yadro mexanizmi  
B) To'g'ri yadro reaksiya mexanizmi  
C) Termoyadro reaksiyasi mexanizmi  
D) Fotoyadro reaksiyasi mexanizmi

**14.  $\alpha + {}_7^{14}\text{N} \rightarrow ? + p$  reaksiya natijasida hosil bo'lган yadroni ko'r-sating.**

- A) Azot-17      B) Kislorod-17      C) Uran-27      D) Vodorod-3

**15.**  $p + {}_3^7Li \rightarrow p + {}_3^7Li$  reaksiyada qanday jarayon yuz berdi?

- A) Elastik sochilish      C) Yutilish  
B) Noelastik sochilish      D) Bo'linish


**16.** Fotojadro reaksiyasi deb ... yadro bilan o'zaro ta'sirlashish jarayoniga aytiladi.

- A) Past energiyali neytronlarning  
B) Past energiyali protonlarning  
C) Yuqori energiyali elektronlarning  
D) Yuqori energiyali  $\gamma$ -kvantlarning

**17.** Nils Bor qanday yadro reaksiya mexanizmini taklif qilgan?

- A) Kompaund yadro hosil bo'lish mexanizmi  
B) To'g'ri reaksiya mexanizmi  
C) Uzish reaksiyasi  
D) Fotojadro reaksiyasi

**18.** Quyidagi yadro reaksiyasi natijasida qanday yadro hosil bo'ladi?



- A)  ${}_{11}^{23}Na$       B)  ${}_{14}^{30}Si$       C)  ${}_{7}^{14}N$       D)  ${}_{15}^{31}P$

**19.**  ${}^{14}N$  yadroda ( $n,p$ ) reaksiya natijasida qanday yadro hosil bo'ladi?

- A)  ${}^{14}C$   
B)  ${}^{13}C$   
C)  ${}^{14}N$   
D)  ${}^{13}N$

**20.** Issiq neytronlar ta'siri ostida yuz beradigan reaksiyani ko'rsating.

- A)  $(n,2n)$       B)  $(n,3n)$       C)  $(n,\gamma)$       D)  $(n,p)$

### III B O B

## YADRO NURLANISHLARINING MODDA BILAN O'ZARO TA'SIRI

Yadro nurlanishlari yoki aksariyat hollarda ionlovchi nurlanishlar deb nomlangan nurlanishlar radioaktiv moddalarda sodir bo'ladigan radioaktiv parchalanishlar, og'ir yadro atomlarining bo'linishi, yadro reaksiyalari natijasida hosil bo'ladi. Yadro nurlanishlari quyidagi tur-larga bo'linadi: zaryadlangan zarralar oqimi (elektron, pozitron, protonlar, myuonlar, alfa zarralar va h.k.), qisqa to'lqinli elektromagnit nurlanishlar (rentgen nurlanishlar, gamma-nurlanishlar) va zaryadlanma-gan zarralar oqimi (neytronlar). Ionlovchi nurlanishlar manbalari ham o'z navbatida ikkiga bo'linadi, ya'ni tabiiy va sun'iy manbalar. Tabiiy manbalarga tabiiy radioaktiv moddalarda sodir bo'ladigan radioaktivlik, Quyoshda sodir bo'layotgan termoyadro reaksiyasi, kosmik nurlar. Sun'iy manbalarga sun'iy radionuklidlar, yadro reaktorlari, zaryadlan-gan zarralar tezlatkichlari, rentgen trubkasi kiradi.

Radionuklidlar va yadro qurilmalarida olingen nurlanishlar mod-dalardan o'tishi davomida modda atomi yadrolar bilan o'zaro ta'sir-plashadi. Yadro nurlanishlarining modda bilan o'zaro ta'siri muammosi bilan asosan quyidagi fanlar shug'ullanadilar: radiatsion fizika, radiatsi-on kimyo, radiobiologiya va boshqalar.

**Radiatsion fizika** yadro nurlanishlarining modda orqali ko'chish yoki o'tishi jarayonlarini tadqiq qilish bilan shug'ullanadi. Nurlanishning o'tishi va qaytishi (albedo) jarayoni va moddani tashkil et-gan element atom yadrolari bilan yuz berishi mumkin bo'lgan turli yadro reaksiyalari, himoya muhitida (moddasida) sochilgan va hosil bo'lgan ikkilamchi neytronlar va foton nurlanishlarning burchak va energetik taqsimotini baholash, neytron va foton nurlanishlarni o'lchash metodologiyalarini ishlab chiqishlarga katta e'tibor qara-tildi. Fizik tadqiqotlar konstruksion materiallarda yutilgan dozani hisoblash va himoya to'siqlarning optimal konstruksiyalarini hisob-lashga yo'naltirilgan.

**Radiatsion kimyo** bu kimyo fanining ionlovchi nurlanishlar ta'-sirida uyg'onadigan kimyoviy jarayonlarni o'rganadigan sohasi hisob-

lanadi. Radiatsion kimyo 1865 – 1896-yillarda paydo bo‘ldi. Radiatsion kimyodagi dastlabki kuzatish ishlari nurlarning fotoplastinkaga ta’sir etib qoraytirishidan boshlangan. Ko‘p o’tmay radiy nurlarining suvni kislorod va vodorodga parchalashi ma’lum bo‘ldi. Radiatsion kimyo rivojining keyingi bosqichi yadro reaktorlarining kashf etilishi bilan bog‘liq bo‘lib, XX asrning 40-yillaridan kimyo fanining mustaqil sohasi sifatida shakllandi. Atom energetikasida ishlatiladigan har xil materiallarga turlicha nurlar ta’siri o’rganildi. Atom reaktorlarining ishlatilishi va yadro yonilg‘isining qayta ishlanishi suvning parchalanish jarayonlarini, yuqori radioaktivlikka ega bo‘lgan texnologik aralashmalardagi kimyoviy o‘zgarishlarni tushuntirib berishni talab qildi.

Bunda ionlovchi nurlanishlar asosan quyidagi yo‘nalishlarda qo‘llaniladi: modda va materiallarni radiatsion modifikatsiya qilish; ularni buzilishlardan saqlash usullarini ishlab chiqishda; ionlovchi nurlanishlarni kimyo texnologiyalarida organik, shuningdek, yuqori molekular moddalarni radiatsion-kimyoviy sintez qilishda.

Radiatsion kimyoviy sintezda kimyoviy sistemalarga nur ta’sirida yangi kimyoviy moddalar olinadi. Ionlovchi nurlar zanjirli jarayonlarni initsirlashda keng qo‘llaniladi. Bunga xlorlash, sulfirlash, oksidlash, sulfoxlorlash, sulfooksidlash, qo‘s sh bog‘larga birikish va boshqalar zanjirli mexanizm bo‘yicha boradigan boshqa radiatsion kimyoviy sintez jarayonlari kiradi. Radiatsion initsirlashning katalitik yoki fotokimyoviy initsirlashga qaraganda bir qancha afzalligi bor: sistemaga initsirllovchi moddalar qo‘sish va trani ko‘tarish zarurati yo‘qoladi, ko‘pgina zanjirli jarayonlarning yong‘in va portlash xavfi bilan bog‘liq bo‘lgan bir qancha texnik talablarini amalga oshirish mumkin bo‘ladi. Laboratoriya tadqiqotlari ionlovchi nurlarning bir qator elementorganik birikmalarni, fosfororganik va qalayorganik birikmalarni sintezlashda yaxshi natija berishini ko‘rsatdi. Polimerlarni radiatsion modifikatsiyalash va kauchuklarni vulkanizatsiyalash jarayonlari radiatsion kimyoning mustaqil sanoat tarmog‘i hisoblanadi. Radiatsion termik vulkanizatsiyalash shinalarning sifatini ancha yaxshilaydi. Radiatsion kimyoning keyingi rivoji bir qator fan va texnika sohalari bilan chambarchas bog‘liq. Yadro fizikasi, atom energetikasi, kosmik tadqiqotlar va boshqalar shular jumlasidandir.

**Radiobiologiya** bu ionlovchi nurlanishlarning biologik obyektlarga (biomolekulalar, hujayrlar, to'qimalar, organizmlar, populatsiya) ta'sirini o'rganuvchi fandir.

Radiobiologiya fanida radiobiologiyaning fizikaviy asoslari, nurlanishning hujayraga ta'siri, radiatsiya ta'sirida hujayraning halokati, radiatsiyadan keyingi tiklanish, radiatsiya ta'sirining nazariy asoslar, tana organlarining radiatsiyaga sezgirligi, o'tkir nur kasalligi, organizmga kirgan radioaktiv moddalarning biologik ta'siri, radiatsiya ta'sirida umrning qisqarishi, nurlanish oqibatlari va undan himoyalanish kabi masalalar atroficha o'rganiladi.

Radiobiologiya radioaktiv zarrachalarni nurlanayotgan obyektlarning ichki qismiga kirib borib, ularning atom va molekulalardan tashkil topgan barcha tarkibiy qismlariga ta'sir etish xususiyatlarini hamda yuqori energiyaga ega bo'lgan kvantlar va zarrachalar (zarracha, elektronlar, pozitronlar, protonlar, neytronlar va boshqalar) bilan bog'liq jarayonlarni o'rganadi. Ionlovchi nurlarning biologik ta'sirini o'rganish V.K. Rentgen rentgen nurlarini (1888), A. Bekkerel radioaktivlikni (1896), P. Kyuri va M. Sklodovskaya Kyuri tomonidan radiy elementining kashf etilishi bilan deyarli bir vaqtida boshlangan. Lekin radiobiologiya mustaqil fan sifatida faqat XX asrning birinchi yarmida shakllandi. Bu ko'p jihatdan texnika va yadro fizikasining rivojlanishi bilan bog'liq. 1925-yilda ionlovchi nurlarning mutagen ta'siri kashf etilishi radiatsion genetikaning fan sifatida shakllanishiga imkon berdi. XX asrning 20 – 30-yillarida radiobiologiya sohasida qilingan tadqiqotlar tahlili asosida hujayraning nurlanish dozasidan halok bo'lishini tushuntirish uchun unda sezgir – nishon – mo'ljal mavjudligi haqidagi gipoteza ishlab chiqildi. Gipotezaga ko'ra, ionlashgan zarrachalarning «nishon»ga tegishi radiatsion effektni paydo qiladi. «Nishon» nazariyasini ingliz olimi D. Li (1946), rus olimi N.V. Timofeev-Resovskiy va nemis olimi K. Sitter (1947) tomonidan to'liq ishlab chi'ilgan.

XX asrning 40 – 50-yillarida yadro fizikasi va texnikaning jadal rivojlanishi, atom energiyasi va radioaktiv izotoplarning texnika, tibbiyot va ionlovchi ta'sir ishlarida keng qo'llanilishi hamda yadro qurollarning sinovdan o'tkazilishi bir qator yangi muammolarni paydo qildi. Bu muammolar ko'p hujayrali organizmlar yoppasiga nurlanganida ularning radiatsion shikastlanganini tadqiq qilish; organizmlarning nur-

lanishga turli darajada sézgirligi sabablarini aniqlash, zararli mutatsiya-larning paydo bo‘lishida radiatsiyaning ahamiyatini aniqlash, nurlanish ta’siri oqibatlarini o‘rganish (umrning qisqarishi, o‘sma kasalliklarining ko‘payib ketishi, immunitetning pasayishi sabablari) va boshqalardan iborat. Radiobiologiyaning aktual amaliy vazifalariga organizmni nurlanishdan himoya qilish va shikastlangan to‘qimalarni postradiatsion tiklash, atrof-muhitda radiatsiya ortib ketishining insoniyatga ta’sirini boshorat qilish, qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat va mikrobiologiya sanoatida ionlovchi nurlardan foydalanishning yangi istiqbolli yo‘llarini aniqlash kiradi.

1950–60-yillarda radiobiologiya sohasidagi ionlovchi ta’sirlarda biofizika va biokimyo metodlaridan keng foydalanila boshlandi. Nati-jada hujayra strukturalari va makromolekulalar faqat kvantlar va zarrachalarning bevosita ta’siri ostida emas, balki suv va boshqa kichik molekulali birikmalar radikallari (peroksidlar, gidroperoksidlar, xinonlar, semixinonlar) kislorod ishtirokida ham nurlanishi ma’lum bo‘ldi. Ana shu davrda radiatsiyadan himoya qiluvchi vositalar (radioprotektorlar), kimyoviy moddalar ham kashf etildi. Nurlanish kasalligini davolashning samarali usullari ishlab chiqildi.

Mazkur bobda zaryadlangan zarralar va gamma nurlarning muhit atomlari bilan o‘zaro ta’sir etish natijasida sodir bo‘ladigan jarayonlar bilan tanishamiz.

### **3.1-§. Zaryadlangan og‘ir zarralarning modda orqali o‘tishi**

Zaryadlangan og‘ir zarralarning modda bilan o‘zaro ta’siri quyida-gicha: Zarra modda ichidan o‘tganda, u o‘z Kulon maydoni bilan atom elektronlarini «turtadi» («turtki» beradi) yoki «surib» o‘tadi. Buning hisobiga zarra o‘z energiyasini asta-sekin yo‘qotadi. Modda atomlari yo ionlashadi, yo bo‘lmasa, uyg‘ongan holatlarga o‘tadi. Ko‘p hollar da asosan ionlashgan jarayoni sodir bo‘lib, bunda kamida bitta elektron chiqib ketadi:

$$M \rightarrow M^+ + e^-, \quad (3.1)$$

bu yerda ko‘rsatkich bilan ionlovchi nurlanish ta’siri ko‘rsatilgan. Demak, umumiy holda zarra o‘z energiyasini modda atomlarini uyg‘otishga va ionlashga sarflar ekan.

Kulon kuchlarining uzoqdan ta'sir qilish xususiyati hisobiga modda orqali uchib o'tayotgan zaryadlangan zarra juda ko'p miqdordagi elektronlar bilan o'zaro ta'sirlashadi (turtib o'tishga ulguradi). Modda orqali o'tayotgan zarraning massasi elektron massasiga nisbatan katta bo'lganligi sababli, u elektron bilan to'qnashganda o'z yo'lidan juda kichik miqdorda chetlashadi. Harakat davomida bunday to'qnashishlar juda ko'p bo'lib, bunday xaotik yo'nalishdagi to'qnashishlar bir-birini kompensatsiyalaydi. Shu sababli zaryadlangan og'ir zarralarning moddadagi traektoriyasi deyarli to'g'ri chiziq bo'ladi.

Zaryadlangan og'ir zarralarning modda orqali o'tishi quyidagi fizik kattaliklar orqali tavsiflanadi:

- Birlik masofadagi energiya yo'qotishi yoki yo'qotilgan solishtirma ionlashtirish energiyasi  $\left( -\frac{dE}{dx} \right)_{ion}$  bilan ifodalanadi.
- Zarraning moddadagi to'liq yugurish yo'li – R.

Zaryadlangan og'ir zarralar modda orqali o'tganda energiyasini asosan modda atomlarini uyg'otishga va ionlashga sarflaydi. Bu energiya yo'qotish jarayonlarini umumlashtirib, ionizatsion yo'qotish deyiladi. Solishtirma ionizatsion yo'qotishni quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin ( $x \ll \text{hol uchun}$ ):

$$\left( -\frac{dE}{dx} \right)_{eli} = \frac{4\pi n_e Z^2 z^2 e^4}{m_e v^2} \ln \frac{2m_e v^2}{I(Z)}, \quad (3.2)$$

bu yerda  $n$  – muhitning  $1 \text{ sm}^3$  hajmidagi elektronlar soni yoki konsentratsiyasi;  $Z$  – zarralar o'tayotgan modda (yoki muhit)ning atom raqami;  $I(Z)$  – muhit atomlarining o'rtacha ionizatsiya potensiali, ya'ni  $13,5 \cdot Z \text{ eV}$ ;  $m_e$  – elektronning tinchlikdagi massasi;  $x$  – zarra tezligi;  $ze$  – zarra zaryadi.

(3.2) formuladagi logarifm ostidagi kasr surati, ya'ni  $2m_e c^2$ , tezligi  $x \ll s$  bo'lgan og'ir zarra tomonidan qo'zg'almas elektronga yuzma-yuz to'qnashganda beriladigan maksimal kinetik energiya, ya'ni

$$\Delta T_{max} = 2m_e g^2. \quad (3.3)$$

(3.2) formula faqat  $E \sim I(Z)$  shart bajarilganda o'rinali bo'ladi. Endi ushbu formuladan kelib chiqadigan xulosalarga to'xtalib o'tamiz. (3.2) formuladan ko'rinadiki, ionizatsion yo'qotish asosan quyidagi kattaliklarga bog'liq bo'ladi:

- zarra tezligiga;
- zarra massasiga;
- hajm birligidagi elektronlar soni yoki konsentratsiyasiga;
- o'rtacha ionlashtirish potensialiga.

Buni ifoda ko'rinishida yozsak quyidagicha bo'ladi:

$$\left( \frac{dE}{dx} \right)_{ion} \approx Z^2 n_e \phi(v). \quad (3.4)$$

Bunda o'rtacha ionizatsion potensialga bog'lanish logarifmik ravishda kuchsiz bog'langan. Hajm birligidagi elektronlar soni  $n$  modda zichligi  $c$  ga proporsionaldir:

$$n = \frac{Z \rho N_A}{A}, \quad (3.5)$$

bu yerda  $N_A$  – Avogadro soni;  $A$  – massa soni;  $Z$  – atomdagи elektronlar soni.

Demak ionizatsion yo'qotish modda zichligiga to'g'ri proporsional ekan. (3.2) formuladan kelib chiqadiki, zarralarning katta energiyalari da ( $x \rightarrow s$  bo'lganda), ionizatsion yo'qotish monoton ravishda kamaya borishi kerak. Ammo amalda bu hol kuzatilmaydi yoki (3.1) formula aniq bo'lmay qoladi. Bu yerdan kelib chiqadiki, yuqori energiyalarda bu formula aniq bajarilmas ekan. Ushbu holni hisobga olib relyativistik hollar uchun quyidagi formula o'rinli bo'lar ekan:

$$\left( -\frac{dE}{dx} \right)_{ell} = \frac{4\pi n_e Z^2 z^2 e^4}{m_e v^2} \left[ \ln \frac{2m_e v^2}{I(Z)} - \ln(1 - \beta^2) - \beta^2 \right] \quad (3.6)$$

bu yerda  $\beta = \frac{g}{c}$ .

(3.6) formuladan ko'rindik, zarra energiyasi oshishi bilan ionizatsion yo'qotish oldin juda tez kamayadi, (energiyaga teskari proporsional ravishda) ammo yorug'lik tezligiga yaqinlashgan sayin bu kamayish sekinlashib boradi. Bu (3.6) formulaning mahrajida deyarli o'zgarmas kattalik, ya'ni  $g^2 \approx c^2$ . Ammo qavs ichidagi hadlarda ko'rindik, zarraning ba'zi bir yuqori energiyalaridan boshlab,

$dE/dx$  kattalik asta-sekin (logarifmik ravishda) o'sadi, undan keyin to'yinishga chiqadi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, zaryadlangan zarralarning modda orqali o'tishini tavsiflovchi yana bir kattalik bu zarraning moddadagi to'liq yugurish yo'li hisoblanadi. Zarra modda orqali o'tganda energiyasini yo'qotib keyin to'xtaydi. Zarraning moddada bosib o'tgan yo'li yugurish yo'li deyiladi. Bu kattalik zarra zaryadiga, massasiga va energiyasiga bog'liq bo'ladi. Yugurish yo'li  $R$  quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$R = \int_{E_0}^0 \frac{dE}{-dE / dx}, \quad (3.7)$$

bu yerda  $E_0$  – zarraning moddaga kelib tushguncha bo'lgan energiyasi. Yugurish yo'li uzunlik ( $m$ ,  $sm$ ,  $mkm$ ) yoki «zichlik» ( $g/sm^2$ ) o'chov birliklarida aniqlanadi. Agar ionizatsion yo'qotish uchun (3.2) ifoda qo'llanilsa, u holda yugurish yo'li ifodasi quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$R = \frac{M}{z^2} f(\beta), \quad (3.8)$$

bu yerdagi  $f(\beta)$  funksiya zarra turiga bog'liq emas. Ammo bu ifodadagi solishtirma ionizatsion yo'qotishni aniqlovchi formula turli energiyalar sohasida ham o'rinni emas. Shu sababli haqiqiy yugurish yo'lining zarra energiyasi va modda turiga bog'lanishi (3.8) formulaga qaraganda murakkab bo'lib, uning formulasi nazariy va tajriba natijalarini o'zaro taqqoslash yo'li bilan aniqlanadi.

Turli muhitlarda ayrim zarralarning yugurish yo'li bilan energiyasini bog'lovchi bir nechta formulalarni keltiramiz.

- Normal sharoitda  $\alpha$ -zarralarning havodagi o'rtacha yugurish yo'li:

$$\bar{R}_\alpha = 0,31T^{3/2} sm; \quad 4 < T < 7 MeV \quad (3.9)$$

- Massa soni  $A$  bo'lgan moddada  $\alpha$ -zarraning o'rtacha yugurish yo'li:

$$\bar{R}_\alpha = 0,56R_\alpha(sm)A^{1/3}mg / sm^2, \quad (3.10)$$

bu yerda  $R_\alpha$  (sm) – shu energiyadagi  $\alpha$ -zarraning havodagi yugurish yo‘li.

• Normal sharoitda T-kinetik energiyali protonning havodagi yugurish yo‘li:

$$R_\rho(T) = R_\alpha(4T) - 0,2 \text{ sm}; \quad T > 0,5 \text{ MeV}, \quad (3.11)$$

bu yerda  $R_\alpha$  – kinetik energiyasi  $4T$  bo‘lgan  $\alpha$ -zarraning havodagi o‘rtacha yugurish yo‘li.

### 3.2-§. Zaryadlangan yengil zarralarning modda orqali o‘tishi


Zaryadlangan yengil zarralar, ya’ni elektron va pozitronlarning modda orqali o‘tishi barcha zaryadli og‘ir zarralarning modda orqali o‘tishidan keskin farq qiladi. Bunga asosiy sabab, elektron va pozitron massalarining kichikligidir. Moddaga uchib kelayotgan elektronlarning massasi kichiklidan, modda ichidagi har bir to‘qnashishda impulsulari o‘zgaradi. Buning oqibatida berilgan yo‘nalishga nisbatan yo‘nalishini o‘zgartiradi. Shu sababli elektronlarning traektoriyalari to‘g‘ri chiziq bo‘lmaydi.

Elektronlar ham modda orqali o‘tganda boshqa zaryadlangan zarralar kabi o‘z energiyasini atomlarni uyg‘otishga va ionlashtirishga sarflaydi. Bundan tashqari elektron energiyasining bir qismini radiatsion effektga ham sarflaydi. Radiatsion effekt yoki radiatsion yo‘qotishda elektron atom qobig‘idagi elektronning yoki yadroning Kulon maydonida tormozlanishi natijasida uzlusiz spektrga ega bo‘lgan tormozlanish nurlarni hosil qiladi. Bu holda moddaga uchib kirgan elektron o‘z energiyasining bir qismini mazkur jarayon natijasida yo‘qotadi.

Demak elektronlar modda orqali o‘tganda ularning energiyasi quyidagi jarayonlarga sarflanadi:

1. Ionlashtirishga
2. Nurlanishga

**Elektronlarning radiatsion tormozlanishi.** Zaryadli zarralar atom yadrosi va atom elektronlarining elektr maydonida tez tormozlanishi natijasida radiatsion (yoki tormozli) nurlanishlar chiqaradi (**3.1-rasm**).



**3.1-rasm.** Zaryadi  $Z_e$  bo‘lgan yadroning Kulon maydonidagi elektronning tormozlanish nurlanishi.

Nurlanishga sarflangan energiya  $dE/dx_{nur}$  tezlanishning kvadratiga proporsionaldir, ya’ni  $\ddot{x}^2$ . Tezlanish massaga teskari munosabatda bog‘lanishga ega. Bu bog‘lanish quyidagi ifodada berilgan:

$$\left( a^2 = \ddot{x}^2 \approx \frac{1}{m^2} \right)_{z=const}, \quad (3.12)$$

va

$$\left[ \left( \frac{dE}{dx} \right)_{ion} \right]_{z=const} \sim \frac{1}{m^2} \quad (3.13)$$

Demak, zaryadlari bir xil bo‘lgan zarralar uchun energiyaning nurlanishga sarflanishi, zarra massasining kvadratiga teskari proporsional bo‘lar ekan. Ayniqsa, bu jarayon zaryadlangan yengil zarralar, ya’ni elektronlar uchun juda sezilarli yo‘qotish bo‘ladi. Zaryadlangan og‘ir zarralar uchun bu effektni hisobga olmasa ham bo‘ladi.

Elektronlar uchun radiatsion yo‘qotish moddadagi atomlar konsentrasiyasiga, yadro zaryadiga va elektronlarning kinetik energiyalariga bog‘liq bo‘ladi:

$$\left( -\frac{dE}{dx} \right)_{nur} \sim Z^2 n T_e \quad (3.14)$$

Monoxromatik elektronlar dastasi yupqa nishonga kelib tushsin. Nishon qaliligi shunchalik kichikki, unda ionizatsion yo‘qotish va

atom elektronlar bilan ko‘p marta to‘qnashishlarini hisobga olmasak ham bo‘ladi. Bunda energiyaning spektri uzliksiz bo‘ladi.

Tormozli nurlanishlar quvvati ( $V_t$ ) quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$W_{torm} = 1,9 \cdot 10^3 (E_e - 0,511) Z^2 \rho \cdot d \cdot i/A, \quad (3.15)$$

bu yerda  $W_{torm}$  – tormozli nurlanishlar quvvati,  $V_t$ ;  $Y_e$  – nishonga tu-shayotgan elektronlar energiyasi, MeV;  $Z$  va  $A$  – mos holda atom zar-yadi va massa soni;  $c$  – modda zichligi,  $\text{kg}/\text{m}^3$ ;  $d$  – nishon qalinligi, m;  $i$  – elektronlar oqimining tok kuchi, A.

Elektronning  $T_e \sim m_e c^2$  energiyalar sohasida elektronlar tormozlanish nurlanishlarining yo‘nalishi, elektronlar harakat yo‘nalishi bo‘yicha yo‘nalgan bo‘ladi va yoyilish burchagi quyidagi ifoda bilan aniqlanadigan konus chegarasida to‘planadi:

$$\theta \approx \frac{m_0 c^2}{E_e} \approx \frac{0,511}{E_e}, \quad (3.16)$$

Bu yerdan ko‘rinadiki, elektronning energiyasi oshishi bilan tormozli nurlar dastasi siqladi.

**Elektron energiyasining ionlashtirishga va radiatsion nurlanishga yo‘qotishlarini solishtirish.** Past energiyali elektronlar o‘z energiyasini asosan ionlashtirishga sarflaydi. Yuqori energiyalarda esa radiatsion yo‘qotish ustunlikka erishadi. Radiatsion yo‘qotishning roli  $Z$  ning qiymati katta bo‘lgan moddalarda katta bo‘ladi. Ionizatsion yo‘qotish, radiatsion yo‘qotish bilan tenglashadigan energiyaga  $E_{kr}$  kritik energiya deyiladi. Kritik energiyani baholashda quyidagi taxminiy munosabatdan foydalanish qulaydir:

$$\frac{(-dE/dx)_{rad}}{(-dE/dx)_{ion}} \approx \frac{ZE_c (\text{MeV})}{800}. \quad (3.17)$$

Bu formuladan quyidagi kritik energiyani aniqlovchi ifodani olish mumkin:

$$E_{kr} = \frac{800}{Z}, \quad (3.18)$$

bu yerda  $Y_{e_{kr}}$  – MeV larda o‘lchanadi.

Oxirgi formulada  $Pb$  uchun  $Ye_{kr} \approx 10 \text{ MeV}$ ,  $Al$  uchun  $Ye_{kr} \approx 62 \text{ MeV}$ .  $Ye_e >> E_{kr}$  bo'lganda ionlashtirish asosida yo'qotishni hisobga olmasa ham bo'ladi va elektron o'z energiyasini faqat tormozli nurlanishga sarflaydi. Bunda elektronlar energiyasi eksponensial qonun bo'yicha kamayadi. Elektron energiyasining radiatsion yo'qotish natijasida e martaga kamayadigan masofaga *radiatsion uzunlik* ( $x = X_0$ ) deyiladi:

$$E_e = E_e^0 \exp\left(-\frac{x}{X_0}\right). \quad (3.19)$$

$X_0$  ning qiymati  $Pb$  uchun  $58 \frac{\text{kg}}{\text{m}^2}$  (yoki  $5,8 \frac{\text{g}}{\text{sm}^2}$ ) dan,  $He$  uchun  $850 \frac{\text{kg}}{\text{m}^2}$  gacha o'zgaradi.

### 3.3-§. Vavilov-Cherenkov nurlanishi

S.I. Vavilov rahbarligida elektromagnit nurlanishlarning modda-ga ta'sirini o'rghanayotgan yosh olim P.A. Cherenkov 1934-yilda radiy gamma-nurlari ta'sirida suyuqliklarning alohida tur nurlanishga ega bo'lishini aniqladi. Bunday nurlanishlarning hosil bo'lishi boshqa zarralar, masalan elektronlar ta'sirida ham vujudga kelishi aniqlandi. S.I. Vavilov bu turdag'i nurlanishlarning manbai gamma-nurlarni vujudga keltirayotgan katta tezlikdagi elektronlar bo'lishi kerak degan xulosaga keldi. Bu hodisaga Vavilov-Cherenkov effekti deb nom berildi. Ushbu hodisani 1937-yilda I.Y. Tamm va I.M. Franklar klassik elektrodinamik asosida nazariy tushuntirib berishdi. Ushbu kashfiyat uchun 1958-yilda P.A. Cherenkov, I.Y. Tamm va I.M. Franklar Nobel mukofotiga sazovor bo'lishdi. V.L. Ginzburg 1940-yilda bu effektning kvant nazariyasini yaratgan bo'lib, bunda ham klassik elektrodinamik asosida olingan natijalar kelib chiqdi.

Ma'lumki, muhitdagi yorug'likning tarqalish tezligi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$c' = c / n \quad (3.20)$$

bu yerda  $n$  – muhitning sindirish ko'rsatkichi.

Agar  $n > 1$  bo'lsa, u holda katta energiyaga ega bo'lgan zarra muhitdagi yorug'likning tarqalish tezligidan ham katta tezlikda harakatlanshi mumkin. Bunda zarracha to'g'ri chiziqli tekis harakatlansa ham


nurlanish hosil bo‘ladi. Klassik elektrodinamikaga asosan tezlanishsiz o‘zgarmas tezlikda harakatlanayotgan zarracha elektromagnit to‘lqinlar (yoki nurlanishlar) chiqarmaydi. Ammo bu effektda zarra tezlanishga ega bo‘lmasa ham nurlanishlar chiqmoqda. Bu yerda elektromagnit to‘lqinlarning muhitdagi tarqalish tezligi nazarda tutilmoxda. Nisbiylik nazariyasiga asosan zarraning tezligi elektromagnit to‘lqinlarning vakuumdagi tarqalish tezligidan katta bo‘lishi mumkin emas. Ammo yorug‘likning shaffof muhitda tarqalish tezligi vakuumdagi tarqalish tezligidan kichik, ya’ni  $c/n$  bo‘ladi. Masalan, yorug‘likning suvda tarqalish tezligi  $\sim 2,3 \cdot 10^8$  m/s, ya’ni yorug‘likning vakuumda tarqalish tezligining 75 % ni tashkil qiladi. Shu sababli elektron yoki proton harakatlanayotgan muhitdagi tezligi mazkur muhitdagi yorug‘likning tarqalish tezligidan katta bo‘lishi mumkin.

Zarra tomonidan chiqarilayotgan Vavilov-Cherenkov nurlanishlar to‘lqin fronti egiluvchi sferik to‘lqin hisoblanadi. Bu to‘lqin fronti (*nurlanishlar*) faqat zarra tezligi yorug‘likning mazkur muhitdagi tarqalish tezligidan katta bo‘lgandagina yuzaga keladi. Bu nurlanishlar zarra hatto tekis harakatlasa ham hosil bo‘lar ekan. Bu yerdan  $\theta < c/n$  bo‘lganda Cherenkov nurlanishlar yuzaga kelmas ekan. Ushbu nurlanishlar chiqayotgan ***u*** burchakni **3.2-rasm**dagi AVO uchburchakdan topish mumkin:

$$\cos \theta = \frac{AB}{AO} = \frac{c}{\beta n} \quad (3.21)$$

Vavilov-Cherenkov nurlanishida qisqa to‘lqinlar ko‘p bo‘lgani uchun u havorang bo‘lib ko‘rinadi.

Ko‘philikda okeanning juda chuqur joylarida tim qorong‘ilik (zimiston) bo‘ladi, sababi yorug‘lik suv sirtidan juda chuqur joylariga yetib bormaydi degan xato fikr shakllangan. Okean suvlaridagi radioaktiv izotoplarning, xususan, *kaliy-40* radioizotopi yemirilishi natijasida vujudga keladigan Vavilov-Cherenkov effekti hisobiga hattoki o‘ta chuqur joylarda ham kuchsiz nurlarning mavjud ekanligi kuzatiladi. Shunday gipoteza mavjudki, bunga asosan chuqur suv ostida yashovchi mavjudotlar bunday kuchsiz nurlanishlarni ko‘rish uchun ularning ko‘zlarini katta bo‘lishi lozim. Shuningdek, yana bir xulosa, bu zarra nurlanish hosil qilishi uchun u o‘zining kinetik energiyasini sarflaganligi sababli nurlanish jarayonida zarra tezligi kamayadi.



**3.2-rasm.** Vavilov-Cherenkov nurlanishi vujudga kelish sxemasi. I-muhitda harakatlanayotgan zarra vujudga keltirgan nurlanish to'lqinlarning fronti bo'lib, u zarra tezligi vektoriga u burchak ostida yo'nalgan bo'ladi.

Cherenkov nurlanishlarini qayd qiluvchi detektorlar yuqori energiyalar fizikasida relyativistik zarralarni qayd qilishda keng qo'llaniladi. Bu detektor yordamida zarra tezligi va harakat yo'naliшини aniqlash mumkin. Agar ushbu nurlanishni vujudga keltiruvchi zarraning massasi ma'lum bo'lsa, u holda bir vaqtning o'zida uning kinetik energiyasi ham aniqlanadi.

### 3.4-§. Sinxrotron nurlanishlar

Sinxrotron nurlanish (yoki magnit-tormozli nurlanish) bir jinsli magnit maydonda relyativistik tezlik bilan harakatlanayotgan zaryadlangan zarralarning elektromagnit to'lqinlar nurlanishidir. Ushbu nurlanishga zaryadlangan zarra traektoriyasining magnit maydon ta'sirida egrilanishi natijasida vujudga keladigan tezlanish sababchi bo'ladi. Bu nurlanish mexanizmi, elektronning yadro elektrostatik maydonida tormozlanishi, ya'ni traektoriyasi o'zgarishi natijasida tormozlanish nurlanishlari hosil bo'lishiga o'xshashdir.

Sinxrotron nurlanishlar nomi ushbu nurlanish hosil bo'lgan manba bilan bog'liq bo'lib, bu nurlanish birinchi marta elektron tezlatkich – sinxrotronda olingan. Sinxrotronda elektron doiraviy orbita bo'ylab ha-

rakatlanishi natijasida markazga intilma tezlanish hosil bo‘ladi va bu tezlanish natijasida sinxrotron nurlanishlar paydo bo‘ladi. Bu nurlanishni infraqizil, inson ko‘zi ko‘radigan va rentgen nurlar diapazonlarida olish mumkin bo‘lib, bu elektronning energiyasiga va magnit maydoni kattaligiga bog‘liq. Induksiyasi  $V$  bo‘lgan magnit maydon elektron nurlanishining to‘liq intensivligi quyidagi teng bo‘ladi:

$$I = \frac{2e^2 B^2 \gamma^2 g_e^2}{3m_e^2 c^5}, \quad (3.22)$$

bu yerda  $\vartheta$  – elektron tezligi,  $\gamma$  – relyativistik faktor bo‘lib, u quyidagi ga teng:


$$\gamma = 1 / \sqrt{1 - \vartheta^2 / c^2}. \quad (3.23)$$

Elektron magnit maydonida doira bo‘ylab bir marta aylanganda quyidagi energiya nurlanadi:

$$\Delta E = 88E_e^4 / R \quad (3.24)$$

bu yerda  $E_e$  – elektronning energiyasi, GeV;  $R$  – aylanish radiusi, sm.

Relyativistik elektron uchun nurlanishning deyarli hamma qismi uning tezligi yo‘nalishida bo‘ladi va tor konus shaklida bo‘ladi (**3.3-rasm**).



**3.3-rasm.** Sinxrotron nurlanishning yo‘nalishi.

Energiyasi  $E=mc^2$  bo‘lgan zarraning to‘liq nurlanish quvvati quyidagi teng bo‘ladi:

$$-\frac{\partial E}{\partial t} = \frac{2e^2}{3m^4 c^7} H_\perp^2 E^2 = 0,98 \cdot 10^{-3} H_\perp^2 \cdot \left( \frac{E}{mc^2} \right)^2 eV/sek \quad (3.25)$$


bu yerda  $e$  – zarra zaryadi,  $H_{\perp}$  – zarra tezligiga perpendikular bo‘lgan magnit maydon kuchlanganligining tashkil etuvchisi. Mazkur ifodadan ko‘rinadiki, nurlanish quvvati (yoki intensivligi) zarra massasiga teskari proporsional bo‘lib, bu nurlanishning quvvati yengil zarralarda (elektron va pozitron) katta bo‘ladi. Shu sababli sinxrotron nurlanishlar manbai sifatida elektron tezlatkichlar qo‘llaniladi.

Sinxrotron nurlanishlarga o‘xshash yana bir nurlanish mavjud bo‘lib, bu nurlanish norelyativistik zarralarning (energiyasi  $E=mc^2$  bo‘lgan zarra) doiraviy yoki spiral traektoriya bo‘ylab harakatlanishda hosil bo‘ladi va u *siklotron nurlanishlar* deyiladi. Umumiy holda siklotron va sinxrotron nurlanishlar magnit maydonida tormozlanish nurlanishlari deyiladi.

Magnit maydonda elektronlar dastasining sinxrotron nurlanishlari, dastadagi elektronlarni o‘z-o‘zini radiatsion qutblashiga olib keladi (Sokolov-Ternov effekti). Bu hodisa texnikada qutblangan elektronlar dastasini hosil qilish uchun qo‘llaniladi.

Keyingi vaqtarda intensiv va nozik dasta ko‘rinishida yo‘nalgan sinxrotron nurlanishlar, elektromagnit nurlanishlarning modda bilan o‘zaro ta’sirini o‘rganilayotgan zamонавиј fanlarning deyarli hamma sohalarida keng qo‘llanilmoqda. Tibbiyotda esa tashxis qo‘yishda va davolashda foydalanimoqda. Bu nurlanish yordamida ko‘pchilik kasalliklarga erta tashxis qo‘yish mumkin. Nanotexnologiyada mazkur nurlanish yordamida moddaning juda yupqa qatlamlarini ham o‘rganish mumkin. Hozirgi kunda turli mamlakatlarda 100 ta tezlatkich sinxrotron nurlanishlar manbalari sifatida ishlab turibdi, 40 tasi qurilmoqda.

Sinxrotron nurlanishlar astrofizikada ham keng tarqałgan va turli obyektlarda (magnit maydon va relyativistik zarralar mavjud bo‘lgan obyektlar) asosiy rol o‘ynaydi. Katta tezlik bilan ketayotgan elektron o‘z yo‘lida kuchli magnit maydoniga uchrasa, ushbu maydon magnit kuchlari elektronning traektoriyasini burib, spiral ko‘rinishga olib keladi. Elektronlar magnit maydon chiziqlari atrofida aylanma harakat qiladi va sinxrotron nurlanishlar hosil bo‘ladi (**3.4-rasm**). Bunday magnit maydonlar yulduzlararo fazoni egallagan bo‘ladi.



*3.4-rasm. Sinxrotron nurlanishlarning hosil bo'lishi.*


Sinxrotron nurlanishlarning tibbiyotda qo'llanilishiga misol qilib ularning rentgen sohasida qo'llanilishini keltirish mumkin. Bizga ma'lum bo'lgan rentgen trubkalarda hosil qilinayotgan rentgen nurlar yordamida tashxis qo'yish metodi keng qo'llanilishiga qaramasdan mazkur metod ayrim kamchiliklardan holi emas. Birinchidan, rentgen nurlari yordamida olingan rasmlar sifati (kontrasti) hamma vaqt ham vrachlarni qoniqtirmaydi.

Tekshirilayotgan obyektning tiniqlik darajasi, uning zichligi va atom og'irligi farqi orqali aniqlaniladi. Biologik to'qimalar uchun bunday farq nisbatan katta emas. Masalan, inson organizmida o'simtalar hosil bo'lishini erta bosqichida aniqlash oson emas. Ikkinchidan puxta tekshirishda nurlanish dozasi yetarlicha katta bo'lishi va inson organizimiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunga sabab, oddiy rentgen trubkasida hosil bo'lgan nurlanishning energetik spektri uzuksiz bo'lishidir. Puxta tekshirish uchun esa monoxromatik fotonlar kerak bo'ladi. Obyektning qalingligi va zichligiga mos holdagi energiyaga ega bo'lgan monoxromatik fotonlar yordamidagina sifatli (kontrasti yaxshi bo'lgan) rasmlar olish mumkin. Rentgen trubkasi bilan nurlantirilganda fotonlarning ko'pchiligi «befoyda» ketadi va nurlanish dozasi ni oshiradi. Bu muammolarni oson hal qilish yo'li bu sinxrotoron nurlanishlarning rentgen sohasidan foydalanishdir. Hozirgi kunda bu tashxis metodi tibbiyotda keng qo'llanilmoqda.

### 3.5-§. Zaryadlangan zarralarning kanallashishi.

#### Kanallahish sharti. Lindxard burchagi


Zaryadlangan zarralar kuchsiz tartiblangan qattiq obyektga kelib tushganda ularning sochilishi ma'lum bir darajada xaotik bo'ladi. Bunga sabab, ular alohida atomlar bilan to'qnashadi. Agar zaryadlangan zarralar nozik dastasi ma'lum bir burchak ostida kristallga kelib tushsa, u holda alohida atomlarda sochilish kooperativ effektga olib keldi, ya'ni atomlar zanjiri yoki tekisliklari tomonidan zarralar harakati yo'naltiriladi (kanallashtiriladi). Monokristall ichida atomlar parallel qatori yoki tekisliklari hosil qilgan «kanallar» bo'ylab zaryadlangan zarralarning harakatiga zaryadlangan zarralarning kanallashishi deyiladi. Zaryadlangan zarralarning kristallarda kanallashish hodisasi 1961-yilda M.T. Robinson va O.S. Oen tomonidan oldindan aytilgan bo'lib, u 1963-yilda tajribada kuzatildi. Zaryadlangan zarralarning bunday kanallahishgan harakati ularning kristall ichiga chuqur kirib borishiga imkon beradi. Kristalldagi asosiy kristallografik yo'nalishlar bo'ylab atomlar qatorlari (zanjiri) shakllantirgan kanallari **3.5-rasmدا** ko'rsatilgan.



**3.5-rasm.** Kristalldagi asosiy kristallografik yo'nalishlar bo'ylab atomlar qatorlari (zanjiri) shakllantirgan kanallar.


Kristallning simmetriya tekisligi bo'ylab harakatlanayotgan zaryadlangan zarralar odatdagidan boshqacharoq bo'ladi, ya'ni ular alohida (yakka) atomlar bilan o'zaro ta'sirlashmasdan, balki atom tekisliklari yoki qatorlari bilan o'zaro ta'sirlashadi. Kristallarda zaryadlangan zarralarning kanallashishi zarralarning bir-biriga parallel bo'lgan atomlar

qatorlari hosil qilgan «kanallar»dagi harakatidir. Bunda zarralar ularni mazkur kanallarda ushlab turuvchi atomlar qatorlari bilan sirpanuvchi (sirg'anuvchi) (impuls deyarli o'zgarmaydi) to'qnashishlarni «boshidan kechiradi» (3.6-rasm).



**3.6-rasm.** Zaryadlangan zarralarning kristallarda kanallashuvi.

Zaryadlangan zarralarning kanallashuvi, aksial va tekislikdagilaridan farq qiladi. Kanallashuv zaryadlangan zarralar dastasi monokristallga uning kristallografik o'qlarining biriga kichik  $\theta_1$  burchak ostida tushganda kuzatiladi. Bunda tez harakatlanayotgan musbat zaryadlangan zarra (masalan, proton) kristallografik o'qqa parallel bo'lgan atomlar qatoriga (zajiriga) yaqinlashadi va ketma-ket sodir bo'lgan kuchsiz sochilishlar natijasida o'z traektoriyasini silliq egri chiziq ko'rinishda o'zgartiradi. Bu yerda zarralarning atomlar zanjiridan deyarli ko'zgusimon qaytishi sodir bo'ladi ( $\theta_2 = \theta_1$ ; 3.7-rasmida «a» egri chiziq).



**3.7-rasm.** Zaryadlangan zarralarning kristalldagi traektoriyasi:


1)  $\theta < \theta_L$  («a» egri chiziq); 2)  $\theta > \theta_L$  («b» egri chiziq).

Nazariyadan kelib chiqadiki, bunday «ko'zgusimon» sochilishlar  $\vartheta < \vartheta_L$  ( $\vartheta_L$  – Lindxard burchagi) bo'lganda kuzatiladi.

Lindxard burchagi quyidagi ifoda yordamida aniqlanadi:

$$\vartheta_L = \sqrt{\frac{Z_1 Z_2 e^2}{El}}. \quad (3.26)$$

bu yerda  $Z_1e$ ,  $Z_2e$  – mos holda harakatlanayotgan zarra va monokristall atom yadrolarining zaryadlari,  $E$  – zarralar energiyasi,  $l$  – qator-dagi (yoki zanjirdagi) qo'shni atomlar orasidagi masofa (**3.8-rasm**).  $\vartheta_L$  burchakning qiymatini  $\vartheta > \vartheta_L$  gacha oshirganda, zarralarning harakatlanish xususiyati o'zgaradi.




**3.8-rasm.** Ko'ndalang tekislikda bunday zarraning harakati umumiy holda tasodifiy «tentirash»ni ifodalaydi.

Zarra atom yadrosi bilan yaqindan to'qnashishi mumkin. Buning natijasida ular katta burchaklarga sochiladi ( $b$  – egri chiziq) bu notartib muhitdagi harakatga o'xshaydi.  $\vartheta_L$  – *Lindxard burchagi* gradusning ulushlari tartibida bo'ladi. Qalin kristallda zaryadlangan zarralar aksial kanallahushi rejimida harakatlanib, turli atom qatorlaridan ketma-ket «ko'zgusimon» qaytish aktlari yuz beradi.


Tekislikdagi zaryadlangan zarralar kanallahishi kristallograf tekislikka nisbatan kichik burchak ostida tushganda kuzatiladi.

Ushbu holda zarralar qo'shni tekisliklardan galma-gal qaytadi va uning traektoriyasi sinusoidani eslatadi (**3.9-rasm**). Bunda zarra yadrodan ma'lum bir uzoqlikda ushlab turiladi.



**3.9-rasm.** Tekislikdagি zaryadlangan zarralar kanallashishi.

Zaryadlangan zarralar kanallashishi, monokristalli nishonda yadro reaksiyalari yuz berganda ular mahsulotlarining burchak taqsimotida yaqqol namoyon bo‘ladi (**3.10-rasm**).  $\theta_1 = 0$  bo‘lganda nishondan chiqayotgan zarralarning intensivligi keskin kamayib ketishi, nishonga kelib tushayotgan zarralar dastasining asosiy qismi zaryadlangan zarralar kanallashishi rejimiga tushishidan darak beradi va ularning yadro bilan to‘qnashish ehtimolligi, binobarin yadro reaksiyalarining yuz berishi sezilarli kamayadi.



**3.10-rasm.** Qayd qilingan reaksiya mahsuloti bo‘lgan N zarralar sonining tushayotgan zarralar dastasi yo‘nalishi bilan kristallografik o‘q orasidagi  $\theta_1$ , burchakka bog‘lanishi.

Kanallahgan (yoki kanalga tushgan) zarralarni atomlar qatori yoki zanjiri o‘qidan ushlab turish boshqa fizikaviy jarayonlarga ham olib kelishi mumkin.  $\theta_1 < \theta_L$  bo‘lganda ichki elektron qobiqdan xarakteristik rentgen nurlar chiqishi kamayadi. Kanallahgan zarralarning yugurish yo‘li, zaryadlangan zarralar kanallashish hodisasi sodir bo‘lmagan zarralarning yugurish yo‘liga nisbatan sezilarli ravishda katta bo‘ladi.

Bunga sabab, bir tomondan yadro bilan yaqindan to‘qnashish mavjud emasligi yadroviy energiya yo‘qotishni kamayishi bo‘lsa, ikkinchi tomon dan esa kanallashgan zarralar traektoriyasi elektron zichligi kamay gan sohada bo‘lishidir. Bu o‘z navbatida ionlashtirishning kamayishiga olib keladi.

Hozirgi kunda zaryadlangan zarralar kanallashish hodisasi qattiq jismlar fizikasida, tezlatkichlar fizikasida va amaliy yadro fizikasining ayrim yo‘nalishlarida qo‘llanilmoqda.

### **3.6-§. Gamma-nurlarning modda bilan o‘zaro ta’siri**

Gamma-kvanti zaryadga ega bo‘lmagani uchun muhit atomlarini bevosita ionlashtira olmaydi.

Gamma-kvantlar dastasi modda orqali o‘tganda ularning soni yoki intensivligi eksponensial qonun bo‘yicha kamayadi, ya’ni:

$$N = N_0 e^{-\mu x} \quad (3.27)$$

yoki

$$I = I_0 e^{-\mu x} \quad (3.28)$$

bu yerda  $N_0$ ,  $I_0$  – qalinligi  $x$  bo‘lgan modda qatlamiga kelib tushayot gan g-kvantlar soni yoki intensivligi;  $N$ ,  $I$  – ushbu qatlamdan o‘tgan g-kvantlar soni yoki intensivligi;  $\mu$  – chiziqli yutilish koefitsienti  $m^{-1}$ .  $1/\mu$  kattalik g-nurlarning o‘rtacha yugurish yo‘li deyildi. Gamma kvantlar moddada  $1/\mu$  masofani o‘tganda ularning soni yoki intensivligi  $e$  marta kamayadi. Chiziqli yutilish koefitsienti  $\mu$  moddaning zichligi va tartib raqamiga, shuningdek, g-kvantlar energiyasiga bog‘liq bo‘ladi:

$$\mu = \mu(\rho, Z, E_y) \quad (3.29)$$

Chiziqli yutilish koefitsientidan tashqari,  $\mu_m = \mu / \rho$  ga teng bo‘lgan massaviy yutilish koefitsienti tushunchasi ham qo‘llaniladi. Bu yerda  $c$  – modda zichligi. Massaviy yutilish koefitsientining o‘lchov birligi –  $m^2/kg$ . Hisoblashlarda massaviy yutilish koefitsientidan foydalanganda modda qalinligini  $kg/m^2$  birlikda ifodalash qulaydir.

Agar g-kvantlarning yutilishi bir necha turli jarayonlar hisobiga bo‘lsa, u holda har bir jarayonning mos holda o‘z  $\mu_i$  yutilish koefitsi-

entlari bo'ladi. Bu jarayonlarning to'la yutilish koeffitsienti barcha  $M_i$  koeffitsientlar yig'indisiga teng bo'ladi:

$$\mu = \sum_i \mu_i. \quad (3.30)$$

bu yerdagi  $M$  va  $M_i$  kattaliklar o'chhami  $m^{-1}$  ( $sm^{-1}$ ).


Yutilish koeffitsienti g-kvantlarning modda orqali o'tishi jarayonini to'liq tavsiflaydi va u ko'rileyotgan jarayonning to'la kesimiga bog'liq bo'ladi. Har bir jaryonning to'liq kesimi yutilish koeffitsienti bilan quyidagicha bog'langan bo'ladi:

$$\mu_i = n_i \sigma_i, \quad (3.31)$$

bu yerda  $n_i$  – yutuvchi (yoki sochuvchi) markazlar konsentratsiyasi.

Fotoядро reaksiyalarini hisobga olmaganda g-kvantlar modda orqali o'tganda quyidagi jarayonlar yuz beradi: a) fotoeffekt, b) Kompton effekti, v) elektron-pozitron juftining hosil bo'lishi.

**Fotoeffekt.** Bu jarayonda g-kvant atom tomonidan yutiladi va undan elektron chiqib ketadi (3.11-rasm).



3.11-rasm. Fotoeffekt jarayonining sxemasi.

Yanada aniqroq qilib bayon etilsa, fotoeffekt jarayonida g-kvant butun energiyasini uchragan atom elektronlaridan biriga beradi va g-kvant butunlay yo'q bo'ladi, elektron esa atomdan chiqib ketadi. Bu elektronning energiyasini energiya saqlanish qonunidan foydalanib aniqlaymiz:

$$E_e = E_\gamma - I_i - E_{ya} \quad (3.32)$$

bu yerdagi  $I_i$  – atomning elektron chiqayotgan i – qobiqdagi ionlashtirish potensiali (elektronning bog'lanish energiyasi),  $E_e$  – yadroning tepki energiyasi,  $E_{ya}$  – fotoeffekt natijasida chiqqan elektron kinetik energiya-

si,  $E_g$  – g-kvant energiyasi. Yadro tepki energiyasi qiymati juda kichik bo‘lganligi sababli uni e’tiborga olmasa ham bo‘ladi.

Fotoeffekt yuz berishi uchun  $E_g > I$  shart bajrilishi lozim.  $E_g < I_K$  shart bajarilganda fotoeffekt faqat L –, M – va h.k. qobiqlarda yuz beradi. K – qobiqda esa yuz bermaydi.  $E_g < I_L$  shart bajarilganda fotoeffekt faqat M –, N – va h.k. qobiqlarda yuz beradi. K – va L – qobiqlarda esa yuz bermaydi. Shuni ham ta’kidlab o’tish lozimki, fotoeffekt faqat bog‘langan elektronlarda yuz beradi. Erkin elektronlarda esa yuz bermaydi. Buni energiya va impuls saqlanish qonunlari yordamida isbotlash mumkin.

Atomdagи fotoeffekt hodisasi, xarakteristik rentgen nurlar yoki Oje elektronlarning hosil bo‘lishi bilan birqalikda yuz beradi. Xarakteristik rentgen nurlar, fotoeffekt natijasida elektron qobiqda hosil bo‘lgan vakan joyga elektronlarning o’tishi natijasida yuzaga keladi. Shuningdek, uyg‘ongan holatdagи atom o‘z energiyasini atomning tashqi qobig‘ida gi elektronlarga ham berishi mumkin. Ushbu holda atomdan energiyasi  $E_e$  bo‘lgan fotoelektronlardan tashqari, energiyasining qiymati jihatidan ionlashtirish energiyasiga  $E_i$  (atomning i-qobiqidagi bog‘lanish energiyasi) yaqin bo‘lgan elektronlar – Oje elektronlari ham chiqadi. Oje elektronlari katta ehtimollik bilan atom nomeri Z kichik va o‘rta bo‘lgan atomlarda kuzatiladi.

Fotoeffekt yuz berish ehtimolligi atom tartib raqamiga kuchli bog‘langan bo‘ladi, ya’ni:  $y_f \sim Z^5$ . Bu atomdagи elektronlarning har xil bog‘lanishga ega ekanligi bilan tushuntiriladi. Fotoeffekt kesimi ni hisoblashlar shuni ko‘rsatdiki, bu jarayon asosan K-qobiqda (80%) sodir bo‘lar ekan. Gamma-nurlar energiyasining  $E_g > E_K$  sohalarida K-qobiqda fotoeffekt yuz berish kesimi:

$$\sigma_f^{[K]} \sim \frac{Z^5}{(E_\gamma)^{7/2}}. \quad (3.33)$$


Mazkur jarayonning to‘liq kesimi quyidagiga teng:

$$\sigma_f \approx \frac{5}{4} \cdot \sigma_f^{[K]}. \quad (3.34)$$

Shuningdek, fotoeffektning turli qobiqlarda yuz berish kesimlari orasida quyidagi munosabat aniqlangan:

$$\frac{\sigma_f^{[L]}}{\sigma_f^{[K]}} \approx \frac{1}{5} \quad \text{va} \quad \frac{\sigma_f^{[M]}}{\sigma_f^{[L]}} \approx \frac{1}{4} \quad (3.35)$$

**3.12-rasm**da fotoeffekt kesimining g-kvantlar energiyasiga bog'lanishi keltirilgan.




**3.12-rasm.** Fotoeffekt kesimining g-kvantlar energiyasiga bog'lanishi keltirilgan.

Rasmdan ko'rindik, g-kvantlarning katta energiyalarida kesim juda kichik bo'ladi. Bu energiyalarga nisbatan elektronlar bog'lanish energiyalari kichik bo'ladi va elektron deyarli erkin bo'ladi. Gamma-kvantlar energiyasi  $E_{\gamma}$  ning kamayshi bilan kesim dastlab  $1/E_{\gamma}$  qonuni bo'yicha, keyin  $1/E_{\gamma}^{7/2}$  qonuni bo'yicha oshib boradi.

Fotoeffekt jarayoni og'ir moddalarda kichik energiyali g-nurlanishlarning yutilishida asosiy mexanizm hisoblanadi. Masalan, aluminiyda  $E_{\gamma} < 60$  keV energiyalarda, qo'rg'oshinda esa  $E_{\gamma} < 600$  keV energiyalar sohalarida fotoeffekt jarayoni ustunlik qiladi.

**Kompton effekti.** Gamma-kvanti erkin yoki kuchsiz bog'langan elektron bilan o'zaro ta'sirlashganda, energiyasining faqat bir qismini elektronga beradi (**3.13-rasm**).



**3.13-rasm.** Kompton effektining yuz berish sxemasi.

Bunda sochilish burchagiga qarab, elektron noldan boshlab maksimal qiyatlarni energiya oralig‘ida qabul qilishi mumkin. (Kompton sochilishidagi elektronlarning maksimal energiyasi):

$$E_{\max} = \frac{E_\gamma}{1 - \frac{m_0 c^2}{2 E_\gamma}} \quad (3.36)$$

bu yerda  $m_0$  – elektronning tinchlikdagi massasi,  $s$  – yorug‘lik tezligi ( $m_0 \cdot s^2 = 0,511 \text{ MeV}$ ).

Kompton sochilishining differensial kesimini Kleyn – Nishina – Tamm formulasi bo‘yicha topish mumkin:

$$\frac{d\sigma}{d\Omega} = \frac{r_0^2}{2} \left( \frac{E'_\gamma}{E_\gamma} \right)^2 \left[ \frac{E_\gamma}{E'_\gamma} + \frac{E'_\gamma}{E_\gamma} - \sin^2 \theta \right] Z, \quad (3.37)$$

bu yerda  $r_0 = e^2 / m_e c^2$  – elektronning klassik radiusi,  $Z$  – atomning tartib raqami,  $E_0$  – fotonning boshlang‘ich energiyasi,  $E'$  – sochilgan foton energiryasi,  $\theta$  – sochilish burchagi.


Keltirilgan munosabat,  $Z$  ta elektronda (ya’ni tartib raqami  $Z$  bo‘lgan atomda), birlik fazoviy burchak va  $\theta$  – burchak yo‘nalishida Kompton sochilish ehtimolligini topishga imkon beradi.

Kompton sochilishi to‘liq kesimini (3.37) ifodaning to‘liq fazoviy burchak bo‘yicha integrallash orqali olish mumkin:

$$\sigma_k = \pi \cdot r_0^2 \frac{Z}{\gamma} \left\{ \left[ 1 - 2 \frac{(\gamma+1)}{\gamma^2} \right] \ln(2\gamma+1) + \frac{1}{2} + \frac{4}{\gamma} - \frac{1}{2}(2\gamma+1) \right\}, \quad (3.38)$$

bu yerda  $\gamma = E_\gamma / m_e c^2$ .

**3.14-rasmda** tepki elektronlarning (Kompton elektronlari) spektri keltirilgan. Bu yerda yuqori energiyalarda Kompton elektronlarining taqsimoti deyarli teng ehtimollikaga ega bo‘lib, faqat fotonlar energiyasiiga yaqin sohadagina sezirali darajada o’sishi kuzatiladi.



**3.14-rasm.** Tepki elektronlar spektri.

Har bir elektron sochilish jarayonida alohida qatnashganligi sababli sochilish kesimi  $Z$  ga proporsional bo‘ladi, ya’ni:  $y_k \sim Z/E_\gamma$ .

$hN \sim mc^2$  bo‘lganda (3.38) formula quyidagi ko‘rinishga o‘zgaradi:


$$\sigma_k \sim \frac{NZ}{E_\gamma} \left( \ln \frac{2E_\gamma}{mc^2} + \frac{1}{2} \right). \quad (3.39)$$

bu yerda  $N$  – hajm birligida atomlar soni.

**Elektron-pozitron juftining hosil bo‘lishi.** Gamma-kvantlarning yetarlicha yuqori energiyalarida ( $E \geq 2m_e c^2$ ) fotoeffekt va Kompton effektleri bilan bir qatorda uchinchi bir jarayon, ya’ni g-kvantlarning modda bilan o‘zaro ta’sirlashishi natijasida elektron-pozitron juftining hosil bo‘lishi jarayoni yuz beradi (3.15-rasm).

Juftlarning hosil bo‘lish jarayoni faqat fotonlar energiyalari, elektron va pozitronlarning tinchlikdagi energiyalari yig‘indisidan yuqori bo‘lgan holdagini sodir bo‘lishi mumkin, ya’ni ( $E_r \geq 2m_e c^2$ ).

Bo‘shliqda bitta fotondan elektron-pozitron jufti hosil bo‘lmaydi. Bu jarayon energiya saqlanish qonunu bo‘yicha taqiqlangan bo‘lib, u yadro yoki elektron maydonida sodir bo‘lishi mumkin.



**3.15-rasm.** Elektron-pozitron juftining hosil bo‘lishi sxemasi.

Yadroning Kulon maydonida elektron va pozitronlar juftining hosil bo‘lishi uchun quyidagi shart bajarilishi lozim:

$$E_\gamma \geq 2mc^2 = 1,02 \text{ MeV}. \quad (3.40)$$

Atom qobig‘idagi elektronlarning Kulon maydonida elektron-pozitron juftining hosil bo‘lishi uchun quyidagi shart bajarilishi kerak:

$$E_\gamma = 4mc^2 = 2,04 \text{ MeV} \quad (3.41)$$

Elektron-pozitron jufti hosil bo‘lishi kesimi g-kvantlar energiyasiga murakkab bog‘langan. Agar elektronlarning ekranlovchi ta’sirini hisobga olmaganda, ya’ni elektron qobiqlarsiz «yalang‘och» yadro bo‘lgan holda,

$$m_e c^2 \ll E_\gamma \ll 137 m_e c^2 Z^{-1/3}$$

energiyalar sohasi uchun elektron-pozitron jufti hosil bo‘lish kesimi quyidagiga teng bo‘ladi:


$$\sigma_{juft} = \frac{Z^2}{137} r_e^2 \left[ \frac{28}{9} \ln \frac{2E_\gamma}{m_e c^2} - \frac{218}{27} \right] \quad (3.42)$$

Ekranlovchi ta'sirni hisobga olganda va  $E_g \sim 137 m_e c^2 Z^{-1/3}$  energiyalar sohasida:

$$\sigma_{juft} = \frac{Z^2}{137} r_e^2 \left[ \frac{28}{9} \ln(183Z^{-1/3}) - \frac{2}{27} \right] \quad (3.43)$$

$E_g \sim 137 m_e c^2 Z^{-1/3}$  kattalik qiymati aluminiy uchun 30 MeV va qo'rg'oshin uchun 15 MeV atrofida bo'ladi. **3.16-rasm**da elektron-pozitron jufti hosil bo'lish kesimining g-kvantlar energiyasiga bog'lanishi keltirilgan. Elektron va pozitronlar jufti hosil bo'lish kesimi oldin keskin oshib borib, keyin sekinlashadi va yuqori energiyalar sohasida, ya'ni  $E_g \sim 137 m_e c^2 Z^{-1/3}$  o'zgarmas qiymatga erishadi.

Kichik energiya va katta  $Z$  larda elektron-pozitron juftining yadro maydonida hosil bo'lish kesimi, uning elektron maydonida hosil bo'lish kesimidan taxminan ming marta katta bo'ladi.



**3.16-rasm.** Elektron-pozitron jufti hosil bo'lish kesimining g-kvantlar energiyasiga bog'lanishi.


**Gamma-kvantlarning to'la yutilish koeffitsienti va kesimi.** Gamma-kvantlar modda orqali o'tganda fotoeffekt, Kompton effekt va elektron-pozitron jufti hosil bo'lish effektlariga energiyasini sarflaydi. Gamma-kvantlarning moddada to'liq yutilish koeffitsienti, yuqorida ko'rib chiqilgan uch jarayon yutilish koeffitsientlari yig'indisiga teng, ya'ni:

$$\mu = \mu_f + \mu_{komp} + \mu_{juft} \quad (3.44)$$

yoki ushbu jarayonlarni yuz berish kesimlari orqali ifodalasak:

$$\sigma = \sigma_f + \sigma_{komp} + \sigma_{juft} \quad (3.45)$$

Kichik energiyalar sohasida fotoeffekt jarayoni ustunlik qiladi, o'rta va yuqori energiyalar sohasida esa Kompton effektining yuz berish kesimi oshib boradi, fotoeffekt kesimi esa kamaya boradi,  $E_g \geq 2m_e c^2 = 1,02 \text{ MeV}$  energiyalardan boshlab elektron-pozitron jufti hosil bo'lish jarayoni boshlanadi. Yuqori energiyalar sohasida asosan Kompton va elektron-pozitronlar juftining hosil bo'lish jarayonlari yuz beradi. Ushbu jarayonlar **3.17-rasm**da qo'rg'oshin misolida keltirilgan.



**3.17-rasm.** Qo'rg'oshin uchun g-nurlar chiziqli yutilish koefitsientining g-kvantlar energiyasiga bog'lanishi.

Gamma-kvantlar modda orqali o'tganda sodir bo'ladigan uchta jarayonning asosiy ustunlik qiladigan energiyalar diapazoni ma'lum bir moddalar, ya'ni havo, aluminiy, temir va qo'rg'oshinlar misolida **3.1-jadvalda** keltirilgan.

Yuqorida bayon qilingan uchta o'zaro ta'sir jarayoni to'liq massaviy yutilish koefitsientiga o'z hissasini qo'shadi. Bu uchta jarayoning nisbiy ulishi g-kvantlar energiyasiga va moddaning atom raqamiga bog'liq bo'ladi.

### **3.1-jadval.**

*Gamma-nurlanishlarning havo, aluminiy, temir va qo'rg'oshinlardan o'tish.*

Modda	Gamma-kvantlar energiyasining o'zgarish diapazoni, $E_g$ , MeV		
	Fotoeffekt	Kompton-effekt	Elektron-pozitron juftining hosil bo'lishi
Havo	<0,02	$0,02 < E_g < 23$	$> 23$
Aluminiy	<0,05	$0,05 < E_g < 15$	$> 15$
Temir	<0,012	$0,12 < E_g < 9,5$	$> 9,5$
Qo'rg'oshin	<0,50	$0,50 < E_g < 4,9$	$> 4,7$

## MASALALAR YECHISH UCHUN NAMUNALAR

**1-masala.** Radioaktiv  $^{32}\text{R}$  preparati chiqarayotgan  $\beta$ -zarralarning havo, aluminiy va qo‘rg‘oshin uchun yarim yutilish qatlami qalinligi hisoblansin.

**Yechilishi:** Beta-zarralar modda orqali o‘tganda quyidagi qonun bo‘yicha yutiladi:

$$N = N_0 e^{-\mu x} \quad (1)$$

bu yerda  $N_0$  – moddaga tushayotgan  $\beta$ -zarralar soni,  $N$  – qalinligi  $x$  bo‘lgan qatlamdan o‘tgan  $\beta$ -zarralar soni. Agar beta-zarralar oqimi moddaning  $x$  qalinligidan o‘tganda yarimi yutilsa, ya’ni  $N=N_0/2$ . Buni (1) formulaga qo‘yamiz

$$N_0 / 2 = N_0 e^{-\mu d_{\frac{1}{2}}} \quad (2)$$

yoki

$$\frac{1}{2} = e^{-\mu d_{\frac{1}{2}}} \quad (3)$$

Bu ifodani logarifmlab qidirilayotgan yarim yutilish qatlaming qalinligini aniqlaymiz:

$$d_{\frac{1}{2}} = \ln 2 / \mu \quad (4)$$

$^{32}\text{R}$  radioizotop uchun beta-zarralar maksimal kinetik energiyasi  $T_{\beta_{\max}}=1,71$  MeV. Beta-zarralar energiyasi  $0,5 < T_{\beta_{\max}} < 6$  MeV bo‘lsa, massaviy yutilish koeffitsienti bilan beta-zarralar kinetik energiyasi orasida quyidagi munosabat o‘rinli bo‘ladi:

$$\frac{\mu}{\rho} = \frac{22}{T_{\beta_{\max}}^{4/3}} \quad (5)$$

bu yerda  $c$  – modda zichligi. Bu munosabat yordamida  $\mu_{\text{havo}}$ ,  $\mu_{\text{Al}}$  va  $\mu_{\text{RV}}$  koeffitsientlarni aniqlaymiz va bu qiymatlarni (4) ifodaga qo‘yib quyidagi qiymatlarni olamiz:

$$d_{\frac{1}{2}}(\text{havo}) = 50 \text{ sm} \quad (6)$$

$$d_{\frac{1}{2}}(\text{Al}) = 2,4 \cdot 10^{-2} \text{ sm} \quad (7)$$

$$d_{\frac{1}{2}}(\text{Pb}) = 5,7 \cdot 10^{-3} \text{ sm} \quad (8)$$

**Javob:**  $50 \text{ sm}; 2,4 \cdot 10^{-2} \text{ sm}; 5,7 \cdot 10^{-3} \text{ sm}$ .

**2-masala.** Zaryadli og'ir zarralarning, moddadagi  $sm^2$  larda ifoda-langan yugurish yo'li yutuvchi moddaga bog'liq emasligini ko'rsating. Ushbu xulosaning ta'sir etish chegaralarini ko'rsating.

**Yechilishi:** Zaryadli og'ir zarralar moddadadan o'tganda ular hamma energiyasini asosan yutuvchi modda atomlarini ionizatsiyalashga va uyg'ongan holatga o'tkazishga sarflaydi (ionizatsiya yo'qotishlar). Zaryadi  $Z$ , va tezligi  $v$  bo'lgan zarraning ionizatsion yo'qotishlari quyidagi teng:

$$-\left(\frac{dE}{dx}\right) = \frac{4\pi e^4 z_1^2}{mv^2} ZNB, \quad (1)$$

bu yerda  $Z$  – yutuvchi moddaning atom raqami,  $N$  –  $1 sm^3$  hajm-dagi atomlar soni,  $V$  – moddaning ionizatsiya potensialiga kuchsiz bog'langan tormozlanish koefitsienti. Bu bog'lanishni e'tiborga olman-gan holda,  $Ye_1$  energiyali zarraning yugurishini topamiz:

$$R = \int_0^E \frac{dE}{-\left(\frac{dE}{dx}\right)} \approx \frac{f(E)}{ZN} = \frac{f(E)}{ZN_A \rho} A \quad (2)$$

bu yerda  $N_A$  – Avogadro soni,  $f(E)$  zarraning xususiyatlariga bog'liq va yutuvchi moddaga bog'liq bo'lgan kattalik. Yengil va o'rtacha yutuvichlar uchun  $Z/A = 1/2$ , va  $R \cdot \rho = R(g/s m^2)$ . Demak, bunday yutuvchi moddalar uchun  $R \rho$  ko'paytma taxminan doimiy kattalik.

**3-masala.** Energiyasi  $E_p = 10 MeV$  bo'lgan protonning havoda chiziqli yugurishi aniqlansin.

**Yechilishi:** Oldin protonlar boshlang'ich tezligida harakatlanayotgan  $\alpha$ -zarraning kinetik energiyasini topamiz:

$$\frac{T_p}{T_\alpha} = \frac{m_p v_p^2 / 2}{m_\alpha v_\alpha^2 / 2} = \frac{m_p}{m_\alpha} \approx \frac{1}{4} \quad (1)$$

Energiyasi  $T_\alpha = 40 MeV$  bo'lgan zarraning havodagi chiziqli yugurishi:

$$R_\alpha = 0,148 \quad T_\alpha^{1,8} = 114 sm \quad (2)$$

Havoda bir xil boshlang‘ich tezlik bilan harakatlanayotgan ikki tur-dagi zarrachalar uchun chiziqli yugurishlar nisbati:

$$\frac{R_1}{R_2} = \frac{m_1}{m_2} \left( \frac{q_2}{q_1} \right)^2 \quad (3)$$

bu yerda  $m_1$  va  $m_2$  – zarralar massalari,  $q_1$  va  $q_2$  – esa ularning zaryadlari. Bizning hol uchun:

$$\frac{R_p}{R_\alpha} = \frac{m_p}{m_\alpha} \left( \frac{2e}{e} \right)^2 = 4 \frac{m_p}{m_\alpha} = 4 \cdot \frac{1}{4} = 1 \quad (4)$$

bu yerdan  $R_p$  ni topamiz:

$$R_p = R_\alpha = 114 \text{ sm} \quad (5)$$

**Javob:** 114 sm.

**4-masala.** Kinetik energiyasi 0,2 MeV bo‘lgan alfa zarra, proton va elektronlarning fotoemulsiyadagi qora izlar zichliklari nisbatlarini taxminiy baholang.

**Yechilishi:** Norelyativistik zarralar uchun ionizatsion yo‘qotishlar nisbatlari quyidagiga teng:

$$\left( \frac{dE}{dx} \right)_\alpha : \left( \frac{dE}{dx} \right)_p : \left( \frac{dE}{dx} \right)_e \cong \frac{Z_\alpha^2}{v_\alpha^2} : \frac{1}{v_p^2} : \frac{1}{v_e^2} = 4m_\alpha : m_p : m_e \quad (1)$$

Fotoemulsiyadagi izlarning zichligi taxminan ionizatsion yo‘qotishlarga proporsional.

**5-masala.** Energiyasi 10 GeV bo‘lgan elektron va proton uchun ionizatsion yo‘qotishlar nisbatlarini baholang.

**Yechilishi:**

$$\left( \frac{dE}{dx} \right)_e : \left( \frac{dE}{dx} \right)_p = \frac{\frac{2\pi e^4 zN}{mc^2} \left\{ \ln \frac{E_e^2}{2I^2 \sqrt{1 - \beta_e^2}} + \frac{1}{8} \right\}}{\frac{4\pi e^4 zN}{mc^2} \ln \frac{mc^2}{I^2 (1 - \beta_p^2)}} \quad (1)$$

Bu holda ikkala zarra ham relyativistik bo‘lgani uchun, ularning ionizatsion yo‘qotishlari nisbati yuqoridagiga teng.

Bu yerda I – moddaning ionizatsiya potensiali bo‘lib, u tartib raqamiga kichik bo‘lgan yutuvchi moddalar uchun  $I \sim 100$  eV ga teng.

$$\frac{1}{\sqrt{1-\beta_e^2}} = \frac{E_e}{mc^2} = 2 \cdot 10^4; \quad \frac{1}{\sqrt{1-\beta_p^2}} = \frac{E_p}{m_p c} \cong 10 \quad (2)$$

ekanligidan ionizatsion yo‘qotishlar nisbatini topamiz:

$$\left( \frac{dE}{dx} \right)_e : \left( \frac{dE}{dx} \right)_p \cong 2 \quad (3)$$

**Javob:** 2.

## MUSTAQIL YECHISH UCHUN MASALALAR

**3.1.** Preparat qaliligi oshganda ham, qayd qilinayotgan alfa nurlanishlar intensivligi oshmaydigan radioaktiv  $^{238}\text{Ru}$  manba qaliligini aniqlang. Alfa-zarralar energiyasi 5,5 MeV. (*Javob:*  $R = 3,3 \text{ mg}/\text{sm}^2$ ).

**3.2.** Fotoemulsiyadagi zarralar izining oxiri nima uchun kengayishi ni tushuntiring.

**3.3.** Elektron va protonni radiatsiya orqali yo‘qotishlar nisbatini baho lang. (*Javob:*  $W_e : W_p = a_e^2 : a_p^2 \cong m_p^2 : m_e^2 = 3 \cdot 10^6$ ).

**3.4.** Havoda yugurish yo‘li 6 m bo‘lgan elektronlar oqimidan himoyalanish uchun aluminiydan tayyorlangan ekran qaliligini aniqlang. (*Javob:* 3 mm).

**3.5.** Energiyasi  $E_\alpha = 5M\text{eB}$  bo‘lgan  $\alpha$ -zarrachaning berilliydagi ( $A = 9$ ,  $\rho = 1800 \text{ kg}/\text{m}^3$ ) massaviy va chiziqli yugurishi topilsin. (*Javob:*  $33,5 \text{ g}/\text{m}^3$ ,  $18,5 \text{ mkm}$ ).

**3.6.** Energiyasi 1 MeV bo‘lgan gamma-kvantlar oqimini 1000 marta kamaytiruvchi quyidagi yutuvchi moddalarning qaliligini toping: 1) qo‘rg‘oshin; 2) graffit. Energiyasi 1 MeV gamma-kvantni qo‘rg‘oshinda oqim kamayishi effektiv kesimi 24 barn. (*Javob:*  $x(Pb) = 8,5 \text{ sm}$ ;  $x(^{12}\text{C}) = 40 \text{ sm}$ ).

**3.7.** Erkin elektronda fotoeffekt hodisasi sodir bo‘lmasligini ko‘rsating.

**3.8.** Vakuumda gamma-kvant elektron-pozitron juftiga aylanmasligini isbot qiling.

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Zaryadlangan og 'ir zarralar modda orqali o 'tganda qanday jarayonlar sodir bo 'ladi?
2. Og 'ir zarralarning o 'rtacha yugurish yo 'li deb qanday kattalikka aytildi?
3. Ionizatsiya deb qanday jarayonga aytildi?
4. Solishtirma ionlashtirish asosida yo 'qotish nima?
5. Elektron modda orqali o 'tganda energiyasini qanday jarayonlariga sarflaydi?
6. Elektronlar radiatsion nurlanishlari qanday kattaliklarga bog 'liq bo 'ladi?
7. Gamma-kvantlar modda orqali o 'tganda ularning intensivligi qanday qonun bo 'yicha kamayadi?

## TEST SAVOLLARI

1. Ionizatsiya jarayoni deb ... aytildi.  
A) Neytral atom yoki molekulalardan ionlar hosil bo 'lishga  
B) Ionlardan molekulalar hosil bo 'lishiga  
C) Kimyoiy elementlardan molekulalar hosil bo 'lishiga  
D) Molekulalardan atomlar hosil bo 'lishiga
2. O 'rtacha ionlashtirish asosida yo 'qotish nimaga teng?  
A)  $\bar{I} \approx 13,5 \cdot Z \text{ eV}$       C)  $\bar{I} \approx 13,5 \cdot AZ \text{ eV}$   
B)  $\bar{I} \approx 100 \cdot Z \text{ eV}$       D)  $\bar{I} \approx 135 \cdot \sqrt{AZ} \text{ eV}$
3. Qanday zarralarga zaryadlangan yengil zarralar deyiladi?  
A) Elektron va pozitron      C) Ion va proton  
B) Proton va elektron      D) Pozitron va neytron
4. Qanday zarralarga zaryadlangan og 'ir zarralar deyiladi?  
A) Pozitron va neytron  
B) Proton, ion, alfa-zarra, triton  
C) Ion va proton  
D) Elektron va pozitron
5. Zaryadlangan og 'ir zarralar modda orqali o 'tganda asosan qanday jarayonlar sodir bo 'ladi?

A) Protonlarning parchalanishi

B) Modda atomlarining uyg'onish va ionizatsiya jarayoni

C) Ion va protonlar hosil bo'ladi

D) Pozitron va neytronlar hosil bo'ladi

6. *Zaryadlangan yengil zarralar modda orqali o'tganda asosan qanday jarayonlar sodir bo'ladi?*

A) Pozitron va neytronlar hosil bo'ladi

B) Modda atomlarining uyg'onish va ionizatsiya jarayoni

C) Ionizatsiya jarayoni

D) Modda atomlarining uyg'onishi, ionizatsiya va radiatsion nurlanishlar jarayoni

7. *Solishtirma ionlashtirish asosida yo'qotish qanday kattaliklarga bog'liq bo'ladi?*

A) Muhitdagi elektronlar konsentratsiyasiga, zarraning tezligi va zaryadiga

B) Muhitdagi elektronlar konsentratsiyasiga

C) Muhitdagi atomlar zaryadiga va diffuziya koeffitsientiga

D) Muhitning harorati va massasiga

8. *Zarralarning muhitdagi yuugurish yo'li deb ... aytildi.*

A) Zarraning muhitda to'xtaguncha bosib o'tgan yo'liga;

B) Zarraning muhitda ikki marta bosib o'tgan yo'liga;

C) Zarraning muhitda energiyasi ikki marta kamayguncha bosib o'tgan yo'liga;

D) Zarraning muhitdan tashqarida bosib o'tgan yo'liga

9. *Zarraning muhitdagi yo'lining uzunligi qanday kattalikka bog'liq bo'ladi?*

A) Zarraning hajmiga

B) Zarranning traektoriyasiga

C) Zarra energiyasiga

D) Zarraning de Broyl to'lqin uzunligiga

10. *Elektronlar uchun radiatsion yo'qotishi qanday kattaliklarga bog'liq bo'ladi?*

$$A) \left( -\frac{dE}{dx} \right)_{hyp} \approx Z^2 n T_e$$

$$C) \left( -\frac{dE}{dx} \right)_{hyp} \approx 2AZ^2 n$$

$$B) \left( -\frac{dE}{dx} \right)_{hyp} \approx \sqrt{46} Z^2 n T_e$$

$$D) \left( -\frac{dE}{dx} \right)_{hyp} \approx 300 n T_e$$

**11. Yuqori energiyalarda, ya'ni radiatsion nurlanishlar ustunlik qiladigan energiyalar muhitida zarra energiyasi qanday qonuniyat bo'yicha kamayadi?**

- A)  $E = E_0 e^{-x}$       C)  $E = E_0 2^{-x/t_r}$   
B)  $E = E_0 e^{-x/t_r}$       D)  $E = E_0 \sqrt{2} e^{-x}$

**12. Vavilov-Cherenkov nurlanishi qanday hosil bo'ladi?**

- A) Zaryadli zarraning muhitdagi tezligi shu muhitdagi yorug'likning tarqalish tezligidan katta bo'lsa  
B) Zaryadlangan zarra tezligi nolga teng bo'lsa  
C) Zaryadlangan zarra tezligi yorug'likning vakuumda tarqalish tezligidan katta bo'lsa  
D) Zaryadlangan zarra harakatlanayotgan muhitning harorati oshganda

**13. Sinxroton nurlanishi qanday hosil bo'ladi?**

- A) Zaryadlangan zarra harakatlanayotgan muhitning harorati oshganda  
B) Zaryadlangan zarra tezligi nolga teng bo'lsa  
C) Zaryadlangan zarralarning magnit maydonda relyativistik tezlik bilan harakatlanganda  
D) Zaryadlangan zarra tezligi yorug'likning vakuumda tarqalish tezligidan katta bo'lsa

**14. Gamma-nurlar modda orqali o'tganda uning intesivligi qanday qonuniyat bo'yicha kamayadi?**

- A)  $J = J_0 e^{-\mu x}$       C)  $J = J_0 e^{-\mu \sqrt{2}x}$   
B)  $J = J_0 2^{-\mu x}$       D)  $J = \sqrt{3} J_0 e^{-\mu x}$

**15. Gamma-nurlarning yutilish koeffitsienti nimalarga bog'liq bo'ladi?**

- A) Muhit atomlarining zaryadiga  
B) Muhitning harorati va zichligiga  
C) Gamma-kvant energiyasi va yugurish yo'llining uzunligiga  
D) Muhitning xususiyati va gamma-kvant energiyasiga

**16. Gamma-nurlarning yutilishi qanday jarayonlar hisobiga sodir bo‘ladi?**

A) Fotoeffekt, Kompton effekti va elektron-pozitron juftining hosil bo‘lishi

B) Fotoeffekt va Kompton effektlari

C) Gamma-kvant energiyasi va yugurish yo‘lining uzunligiga

D) Muhit atomlarining zaryadiga

**17. Gamma-kvantlarning energiyasi qanday bo‘lganda elektron-pozitron juftining hosil bo‘lishi sodir bo‘ladi?**

A)  $E_{\gamma} > 2m_e c^2 + 511$

C)  $E_{\gamma} > 2m_e c^2$

B)  $E_{\gamma} < 2m_e c^2$

D)  $E_{\gamma} = 100m_e c^2$

**18. Fotoeffekt hodisasi qanday holatdagi elektronlarda sodir bo‘ladi?**

A) Erkin elektronlarda

B) Bog‘langan elektronlarda

C) Kuchsiz bog‘langan elektronlarda

D) Elektronlar holatiga bog‘liq emas

**19. Kompton effekt hodisasi qanday holatdagi elektronlarda sodir bo‘ladi?**

A) Kuchsiz bog‘langan elektronlarda

B) Bog‘langan elektronlarda

C) Erkin elektronlarda

D) Elektronlar holatiga bog‘liq emas

**20. Elektronning Kulon maydonida elektron-pozitron juftining hosil bo‘lishi uchun gamma-kvantlarning ostona energiyasi qanday bo‘lishi lozim?**

A)  $E_{\gamma} > 4m_e c^2$

C)  $E_{\gamma} > 2m_e c^2 + 511$

B)  $E_{\gamma} > 2m_e c^2$

D)  $E_{\gamma} = 100m_e c^2$

## IV BOB

### YADRO NURLANISHLARINING TIBBIYOTDA QO'LLANILISHI

---

Yadro nurlanishlari tibbiyotda tashxis qo'yishda va davolashda keng qo'llaniladi. Yadro nurlanishlari asosan radionuklidlar ko'rinishda tashxis qo'yishda qo'llaniladi. Radionuklid tashxisi yoki ayrim hollarda nishonlangan atomlar deb nomlangan metod qalqonsimon bez kasalligini aniqlash uchun qo'llaniladi. Shuningdek, bu metod qon va boshqa suyuqliklarning taqsimotini o'rganishga, yurak va boshqa a'zolarning kasalliklariga tashxis qo'yishga imkon beradi.

Keyingi vaqtarda zamonaviy tashxis qo'yish metodlaridan biri bo'lgan pozitron emission tomografiya metodi tibbiyotda keng qo'llanilmogda. Bu metod qisqa yashovchi radioizotoplarni qo'llashga asoslangan. Pozitron emission tomografiya (PET), uni ikki fotonli emission tomografiya ham deyiladi. Bu metoddha inson va hayvonlarining ichki a'zolari radionuklidli tomografiya yordamida o'rganiladi.

Yadro nurlanishlari tibbiyotda davolash sifatida ham keng qo'llaniladi. Tibbiyotda bu metod nur terapiyasi deb yuritiladi. Bu metod xavfli o'smalarni (saraton kasalligi) davolashda asosiy vosita hisoblanadi. O'smalarni nurlantirish uchun turli yadro nurlanishlari qo'llaniladi, ya'ni gamma-nurlanish, elektronlar, neytronlar, protonlar. Bu nurlanishlar manbalari sifatida reaktor, tezlatkichlar, radionuklid qu'rilmalar ishlatiladi.

Mazkur bobda yadro nurlanishlarni turli yadro qurilmalarida olish imkoniyatlari va ularning qo'llanilish sohalariga oid ma'lumotlar beriladi. Shuningdek, PET metodining ishlash tamoyillari va uning fizikaviy asoslariga ham to'xtalib o'tiladi.

#### 4.1-§. Dozimetriya asoslari

Ionlovchi yadro nurlanishlar, ya'ni zaryadlangan zarralar, gamma-nurlanish va neytronlar muhit orqali o'tganda muhit atomlari tarkibidagi elektronlar, atomlarning yadrolari bilan o'zaro ta'sirlashib, turli effektlarni yuzaga keltiradi. Bu effektlar uchinchi bobda batafsil yoritilib berilgan.

Turli jismlarda, jumladan, tirik organizm to‘qimalarida ham, nurlanishlar ta’sirida ma’lum energiya yutiladi va ulardagi atomlar ionlashadi yoki uyg‘ongan holatga o’tadi. Shuning uchun ham nurlanish dozasini o‘lhash asosan ionlashtirish natijasida hosil bo‘lgan zaryad miqdorini o‘lhashga asoslangan bo‘lishi mumkin. Haqiqatan ham, gamma-kvantlar muhit orqali o‘tganda yuqorida aytilgan effektlar natijasida elektron yoki pozitronlar yuzaga keladi.

Dozimetriyaning asosiy vazifasi ionlovchi nurlanishning aholiga va boshqa obyektlarga nisbatan xavflik darajasini aniqlash va baholashdan iborat. Bunday joylarda odamlar bevosita nurlanish manbalari bilan ish olib boradi. Nurlanishdan himoyalanishni tashkil etish kerak. Nuqtaviy manbaning nurlanish dozasini amalga oshirishning 3 ta yo‘li bor.

- 1) Nurlanish dozasi masofa bo‘yicha  $1/r^2$  bo‘yicha kamayadi.
- 2) Nurlanish vaqtি kam bo‘lishi kerak.
- 3) Odam bilan nurlanish orasiga himoya devori qo‘yish kerak.

Nurlanish ta’sirida tirik organizm hujayrasida turli o‘zgarishlar yuz beradi. Masalan, nurlatilgan hujayralarning bo‘linish mexanizmi va xromosoma apparati buziladi, hujayralarning yangilanish va bo‘linish jarayonlari susayadi va h.k. Nurlanish organizmning turli qismlariga turlicha ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, ilik, qora taloq, jinsiy bezlar kabi hujayralari doimo yangilanib turuvchi to‘qima va a’zolarga radioaktiv nurlanishlar ta’siri, ayniqsa, kuchli bo‘ladi. Hujayralarning shikastlanishi va nobud bo‘lishi esa alohida a’zolarning ishslash funksiyasining buzilishiga sabab bo‘ladi va bular o‘z navbatida kishi organizmining halok bo‘lishiga olib keladi.

Ionlashtiruvchi nurlanishlarning tirik organizm hujayrasiga ta’sirini o‘rganish bo‘yicha olib borilgan fundamental va amaliy tadqiqotlar natijasida yangi fan – radiologiya vujudga keldi. Radiologiya – turli kassalliklarni tashxislash va davolash uchun inson tanasida ionlashtiruvchi nurlanish ta’sirini o‘rganadigan tibbiyotning maxsus bo‘limi. Ushbu fanning tamoyillariga asoslangan radiatsion terapiya bugungi kunda onkologiyani jarrohlik va kimyoterapiya bilan birga davolashda keng qo‘llaniladi. Bu fanda ionlashtiruvchi nurlanishlarning tirik organizmga salbiy ta’sirining ijobiylaridan keng foydalilanladi, ya’ni mazkur nurlanish yordamida xavfli o‘smlar mavjud bo‘lgan soha nurlantirila-

di. Bu nurlanishlar natijasida saraton hujayrlarining DNK strukturasi buziladi va ularning ko‘payish hamda bo‘linish qobiliyati kamayadi.

**Dozimetriya** – ionlashtiruvchi nurlanishni o‘lhash usullari va qu-rilmalari, radioaktiv nurlanishning biologik organizmga ta’sir darajasini miqdoriy ko‘rsatkichlar asosida tavsiflash haqidagi nazariy va amaliy bilimlar majmuasi hisoblanadi.

1901-yilda A. Bekkerel va Mariya Sklodovskaya-Kyuri, Per Kyuri tomonidan radiatsion nurlanishning teriga kuydiruvchi ta’sir ko‘rsatishi qayd qilingan va rentgen nurlanishning biologik ta’sirini ifodalash uchun dastlabki – HED (Haut erithem dosis – teri eritemasini yuzaga keltiruvchi doza) o‘lchov birligi fanga kiritilgan va radiatsion dozimetriya yo‘nalishiga asos solingan.

Ionlovchi nurlanish ta’siri ostida muhitda sodir bo‘ladigan va qayd qilinadigan fizik-kimyoviy hodisalarining tabiatiga bog‘liq holda ionlovchi nurlanishlarni aniqlash va qayd qilish ionizatsion, kimyoviy, ssintillatsion, fotografik va boshqa usullar yordamida amalga oshiriladi.

Dozimetriyada qo‘llaniladigan asosiy fizik kattaliklar va ularning o‘lchov birliklari **4.1-jadvalda** keltirilgan.

#### 4.1-jadval.

*Asosiy dozimetrik kattaliklar va ularning  
o‘lchov birliklari.*

Fizik kattaliklar	Birligi, nomlanishi, belgilanishi		Birliklar orasidagi munosabat
	Tizimdan tashqari	Xalqaro birliklar tizimida	
Aktivlik	Kyuri (Ci, Ki)	Bekkerel (Bq, Bk)	$1 \text{ Bk} = 2,7 \times 10^{-11} \text{ Ki}$ $1 \text{ Ki} = 3,7 \times 10^{10} \text{ Bk}$
Nurlanishning ekspozitsion dozasi	Rentgen (R, R)	Kulon/kg (C/kg, Kl/kg)	$1 \text{ K/kg} = 3876 \text{ R}$ $1 \text{ R} = 2,58 \times 10^4 \text{ Kl/kg}$
Ekspozitsion dozaning quvvati	Rentgen/ sekund (R/s, R/S)	Amper/kg (A/Kg, A/kg)	$1 \text{ A/kg} = 3876 \text{ R/s}$ $1 \text{ R/s} = 2,58 \times 10^{-4} \text{ A/kg}$
Nurlanishning yutilgan dozasi	Rad (rad, rad)	Grey (Gy, Gr)	$1 \text{ Gr} = 100 \text{ rad}$ $1 \text{ rad} = 0,01 \text{ Gr}$

Yutilgan dozaning quvvati	Rad/sekund (rad/s, rad/s)	Grey/sekund (Gy/s, Gr/s)	1 Gr/s = 100 rad/s 1 rad/s = 0,01 Gr/s
Nurlanishning integral dozasi	rad·gramm (rad·g, rad·g)	Djoul (J, Dj)*	1 Dj = 10 <sup>5</sup> rad·g 1 rad·g = 10 <sup>-5</sup> Dj
Nurlanishning ekvivalent dozasi	Ber (rem, ber)	Zivert (Sv, Zv)	1 Zv = 100 ber 1 ber = 0,01 Zv
Ekvivalent doza quvvati	Ber/sekund (rem/s, ber/s)	Zivert/sekund (Sv/s, Zv/s)	1 Zv/s = 100 ber/s

Dozimetriyada qo'llaniladigan fizik kattaliklar kutilayotgan radiatsiya effektlari bilan bog'liq bo'ladi. Odatda bu kattaliklar dozimetrik kattaliklar deyiladi. O'lchanigan fizik kattaliklar va kutilayotgan radiatsiya effekti o'rtasida o'rnatilgan munosabatlar dozimetrik kattaliklarning eng muhim xususiyatidir.

Ushbu jadvalda keltirilgan kattaliklar bilan tanishib chiqamiz. Dozimetriyada asosan to'rtta nurlanish dozasi qo'llaniladi, ya'ni ekspozitsion doza, yutilgan doza, integral doza va ekvivalent doza.

Ionlashtiruvchi nurlanish ta'sirini baholash uchun dozimetriyada qabul qilingan asosiy fizik yutilgan doza yoki oddiygina nurlanish dozasi hisoblanadi. Nurlanish dozasi nurlanayotgan moddaning birlik massasida yutilgan nurlanish energiyasidir. Agar modda hajmi elementining massasi  $dm$  va o'rtacha yutilgan energiya  $dE$  bo'lsa, nurlanish yutilgan dozasi quyidagi formula bilan aniqlaniladi:

$$D = \frac{dE}{dm} \quad (4.1)$$

Xalqaro o'lchov birliklari tizimida yutilgan doza qiymati o'lchov birligi Grey (Gr) hisoblanadi:

$$1 Gr = 1 J/kg. \quad (4.2)$$

Shuningdek, yutilgan dozani o'lchashda xalqaro o'lchov birliklari tizimidan tashqari o'lchov birligi sifatida Rad ishlataladi:

$$1 Rad = 0,01 Gr. \quad (4.3)$$

Yutilgan nurlanish dozasini bevosita aniqlash qiyin masala hisoblanadi, shu sababli ekspozitsion doza deb nomlangan kattalikdan foydalaniladi.

Ekspozitsion doza deb, gamma-nurlar ta'sirida havoning elementar hajmida hosil bo'lgan bir xil ishorali barcha ionlar to'liq zaryadining mazkur hajmdagi havo massasiga  $dm$  nisbatiga aytildi:

$$X = \frac{dQ}{dm}, \quad (4.4)$$

bu yerda  $dQ$  – havoning elementar hajmida hosil bo'lgan bir xil ishorali ionlarning to'liq zaryadi. Ushbu ionlar havoning elementar hajmida fotonlar ta'sirida yuzaga kelgan barcha ikkilamchi elektronlar tormozlanishi natijasida hosil bo'ladi.

Ekspozitsion doza rentgen va gamma-nurlarining ionlash qobilyatini belgilaydi va atmosfera havosining birlik massasi bo'yicha zaryadlangan zarrachalarning kinetik energiyasiga aylantirilgan nurlanish energiyasini ifodalaydi.

Ekspozitsion doza birligi xalqaro o'lchov tizimida  $Kl/kg$  qabul qilingan. Shuningdek, amalda va ilmiy adabiyotlarda ekspozitsion dozani xalqaro o'lchov birliklari tizimidan tashqari o'lchov birligi sifatida *Rentgen (R)* ham ishlataladi:

$$1 R = 2,58 \cdot 10^{-4} Kl/kg. \quad (4.5)$$

Jonli to'qimalar nurlanishining individual ta'sirini o'rghanish shuni ko'rsatadiki, xuddi shu yutilgan dozalarda, turli xil nurlanishlar organizmga bir xil bo'lmagan biologik ta'sir ko'rsatadi. Bu og'ir zarralar (masalan, proton) to'qimada yo'l birligida yengil zarralarga (masalan, elektron) nisbatan ko'proq ion hosil qilishi bilan bog'liq. Bir xil yutilgan dozada, nurlanish hosil qilgan ionizatsiya zichligi qanchalik katta bo'lsa, shu nurlanishning radiobiologik halokat ta'siri shunchalik yuqori bo'ladi. Ushbu ta'sirni hisoblash uchun *ekvivalent doza* tushunchasi joriy etilgan. Ekvivalent doza yutilgan dozaning qiymatini maxsus ko-effitsient nisbiy biologik samaradorlik koeffitsienti (RBE) yoki sifat ko-effitsientiga ko'paytirish bilan hisoblanadi:

$$D_{ekv} = \sum D_i K_i \quad (4.6)$$

Xalqaro o'lchov birliklari tizimida ekvivalent doza qiymati o'lchov birligi *Zivert (Zv)* hisoblanadi. Shuningdek, ekvivalent dozani o'lchashda xalqaro o'lchov birliklari tizimidan tashqari o'lchov birligi sifatida Ber ishlataladi:  $1 Ber = 0,01 Zv$ . Hozirgi vaqtida ishlab chiqariluvchi barcha turdag'i dozimetrlar Zv o'lchov birligi shkalasi bo'yicha

belgilanadi. *Zivert* (Zv) o‘lchov birligi shvetsiyalik radiofizik Rolf Zivert sharafiga qo‘yilgan.

Nurlanish bilan ishlaydigan odamlar guruhi yoki turar-joylardagi aholiga nurlanishning ko‘rsatgan dozasi kollektiv effektiv ekvivalent doza atamasi bilan ifodalanadi. Bu dozani quyidagi ifoda orqali topish mumkin:

$$D_{koll.eff.ekv.d.} = D_{eff.d.} \cdot F_i$$

bu yerda,  $F_i$  – guruhdagi odamlar soni.

Kollektiv effektiv ekvivalent dozaning o‘lchov birligi qilib, odam-zivert (odam-Zv) qabul qilingan.

Turli nurlarning biologik ta’sirini taqqoslash uchun sifat koeffitsienti (SK) yoki nisbiy biologik effektivlik deb ataluvchi kattalikdan foydalindi. Bu kattaliklar energiya yutilishi bir xil bo‘lganda ko‘rilayotgan nurlanishning biologik ta’siri gamma-nurlanishning biologik ta’siridan necha marta katta ekanini ko‘rsatadi. **4.2-jadvalda** nurlanishlarning sifat koeffitsienti (SK) qiymatlari keltirilgan.

Ishlovchi nurlanishlarning manbalar bilan ishlaganda radiatsion xavfsizlik masalalarini hal qilish uchun chegaraviy ruxsat etilgan ekvivalent doza tushunchasidan keng foydalniladi. Agar xodimning bir yilda olgan nurlanish dozasi shu chegara ekvivalent dozasidan ortmasa, bunday nurlanish ta’sirida 50 yil davomida ishlaganda ham xodimning sog‘lig‘ida sezilarli o‘zgarish ro‘y bermaydi.

Radioaktiv nurlanishlar ta’sirida ishlovchi kishilar (A kategoriya) uchun chegara ekvivalent doza  $2 \text{ ber/yil}$  ( $0,02 \text{ Zv/yil}$ ) deb belgilangan. Boshqa kategoriyadagi kishilar uchun bu qiymat taxminan 10 marta kichik bo‘lishi kerak. Har xil yoshdagagi (A kategoriyadagi) xodimlarning olishi mumkin bo‘lgan chegaraviy yig‘indi dozaning qiymati quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$D \leq 5(N - 18), \quad (4.7)$$

bu yerda N – radioaktiv nurlanish manbalar bilan ishlayotgan xodimning yoshi, 18 – radioaktiv manbalar bilan ishlash boshlangan yoshi. Yoshi  $N \geq 18$  va shu bilan birga tibbiy ko‘rikdan o‘tgan hamda maxsus imtihonlarni topshirgan insonlarda radioaktiv bilan ishlashga ruxsat beriladi. Barcha hollarda yoshi 30 yoshga to‘lgan xodim uchun uning organizmida to‘plangan doza  $60 \text{ berdan}$  ortmasligi lozim.

## 4.2-jadval.

*Nurlanishlarning sifat koeffitsienti (SK).*

<b>Nurlanish turlari va energiya diapazoni</b>	<b>Sifat koeffitsienti (SK)</b>
Gamma va rentgen nurlar	1
Barcha energiyadagi elektronlar	1
Alfa-zarralar ( $E_\alpha \leq 10 \text{ MeV}$ )	10
Protonlar ( $E_p \leq 10 \text{ MeV}$ )	10
Og‘ir tepki yadrolari	20
Issiq neytronlar	3
Energiyalari quyidagi diapazondagi neytronlar	
5 keV	2,5
20 keV	5
100 keV	8
500 keV	10
1 MeV	10,5
5 MeV	7,0
10 MeV	6,5

Dozimetriyada dozalardan tashqari doza quvvati deb nomlangan kattaliklardan ham foydalaniлади. Vaqt birligi ichidagi nurlanish doza-siga doza quvvati deyiladi. Mos ravishda, yutilish doza va ekspozitson doza quvvatlari quyidagi ifodalar orqali ifodalanadi:

$$P_{yu} = \frac{D}{t}; \quad P_{ekz} = \frac{X}{t}. \quad (4.9)$$

Doza quvvatining o‘lchov birliklari: yutilgan doza quvvati –  $Gr/s$  ( $rad/s$ ), ekspozitsion doza quvvati –  $R/s$ .

### 4.2-§. Ionlashtiruvchi radiatsiyaning biologik ta’sir mexanizmi

Ionlashtiruvchi nurlar ta’sirida organizmdagi atom va molekulalar ionlashadi, bu esa organizmdagi kimyoiy birikmalar tarkiblarining o‘zgarishiga va normal molekular birikmalarda uzilishlarning sodir bo‘lishiga olib keladi. Bu o‘z navbatida tirik hujayralardagi modda almashinuvining buzilishiga va organizmda biokimyoiy jarayonlarning ishdan chiqishiga sabab bo‘ladi. Yuqori intensivlikdagi nurlanishlar

ta'siri uzoq vaqt davom etsa, ba'zi bir hujayralarning nobud bo'lishi kuzatiladi va bu ayrim a'zolarning, hattoki butun organizmning halokati bilan tugaydi.

Ionlashtiruvchi radiatsiyaning biologik ta'siri quyidagi ko'rinishlarga bo'linadi: determinatsion ta'sir, stoxastik ta'sir.

**Determinatsion ta'sir** – bu og'irlik darajasi radiatsion nurlanish dozasi qiymatiga bog'liq holatda belgilanuvchi, shuningdek, pog'ona darajasiga ega bo'lgan tavsifda yuzaga keluvchi va nurlanish kasalligi, dermatit, katarakta, bepushtlik kabi patologik holatlar yuzaga kelishi bilan ifodalanadi.

**Stoxastik ta'sir** – radiatsion nurlanish dozasi pog'ona qiymatiga ega bo'limgan tavsifda, nurlanishdan keyin ma'lum vaqt davomida rivojlanuvchi o'sma kasalliklari, leykoz va irsiy kasalliklar yuzaga kelishi bilan ifodalanadi.

Radiatsion nurlanishning stoxastik ta'siri: A. Leykemiya (qon saroni); B. Oshqozon limfomasi (saraton); V. Melanoma (teri saroni).

Shuningdek, radiatsion nurlanishning biologik ta'siri oqibatlariga ko'ra, quyidagi 3 ta guruhga ajratiladi:

O'tkir zararlanish yuqori dozada radiatsion nurlanish ta'sirida qayd qilinadi. Jumladan, odam organizmida  $\sim 0,5 - 1 \text{ Zv}$  ( $50 - 100 \text{ Ber}$ ) radiatsion nurlanish ta'sirida qon tizimida jiddiy buzilishlar yuzaga keldi. Shuningdek,  $\sim 3 - 5 \text{ Zv}$  ( $300 - 500 \text{ Ber}$ ) radiatsion nurlanish olgan holatda, suyak iligi funksiyasi buzilishi va qon tarkibida leykotsitlar miqdori keskin kamayishi sharoitida, nurlanish olgan  $\sim 50\%$  odam o'tkir nur kasalligi oqibatida olamdan o'tishi kuzatiladi.  $\sim 10 - 50 \text{ Zv}$  ( $100 - 5000 \text{ Ber}$ ) radiatsion nurlanish ta'sirida, 1-2 haftadan keyin oshqozon-ichak tizimi shilliq qavatida hujayralarning nobud bo'lishi natijasida, qon ketishi oqibatida olamdan o'tish holati qayd qilinadi.  $100 \text{ Zv}$  ( $10 000 \text{ Ber}$ ) radiatsion nurlanish ta'sirida markaziy asab tizimi funksiyasi izdan chiqishi oqibatida odam bir necha soat yoki bir necha kundan keyin olamdan o'tishi kuzatiladi. Shuningdek, rivojlanayotgan va voyaga yetgan odam organizmida bir xil nurlanish dozasi turli xil ta'sirga ega bo'lishi aniqlangan. Jumladan, o'sayotgan organizmda bo'linish jayroni jadal amalga oshayotgan hujayralar nurlanish ta'sirida nisbatan tez nobud bo'ladi.

**Davomiylikda (vaqt o'tishi bilan, asta-sekin) yuzaga keluvchi nurlanish oqibatlari.** Tajriba hayvonlar ustida amalga oshirilgan tadqiqot-

lar, shuningdek, Xirosima va Nagasaki (Yaponiya) shaharlarida atom bombasi portlatilishi oqibatlarini tahlil qilish asosida, radiatsion nurlanish nafaqat odam organizmiga nurlanish kasalligi shaklida namoyon bo‘lishi, balki vaqt o‘tishi bilan, asta-sekin davomiylikda yuzaga keluvchi oqibatlar ko‘rinishida ham ifodalanishi kuzatiladi.

Nurlanish ta’sirida biologik organizm hujayralarida yuzaga keluvchi buzilishlar qaytmas tavsifga ega bo‘lib, turli xil kasalliklar, jumladan, o‘sma kasalliklari kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Masalan, radiatsion nurlanish ta’sirida yuzaga kelgan leykoz oqibatida olamdan o‘tish muddati o‘rtacha 10 yilni tashkil qiladi. Radiatsion nurlanish ta’sirida o‘sma kasalliklarining kelib chiqish ehtimolligi darajasi radiatsiya dozasiga bog‘liq hisoblanadi. Masalan, 1 Zv (100 Ber) radiatsion nurlanish ta’siriga uchragan har 2 tadan bitta odam organizmida leykoz, 10 tadan bitta odamda qalqonsimon bez o‘sma kasalligi, 10 tadan bitta ayolda ko‘krak bezi saratoni, shuningdek, har 1000 tadan 5 ta odamda o‘pka saratoni kasalligi yuzaga kelishi aniqlangan. Yuqorida keltirilgan ma’lumotlar asosida, qayd qilish lozimki, voyaga yetgan odam organizmida 0,01 Zv (1 Ber) radiatsion nurlanish ta’sirida o‘sma (saraton) kasalligi kelib chiqish ehtimolligi  $2 \cdot 10^{-4} - 3 \cdot 10^{-4}$  ga teng bo‘ladi.

*Nurlanishning genetik oqibatlari.* Amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida, surunkali tavsifda 1 Zv (100 Ber) nurlanish ta’sirida odam avlodlarida (~30 yil davomida) har 1000 ta tug‘ilgan chaqaloqdan 2 tasi jiddiy genetik nuqson bilan dunyoga kelishi aniqlangan. Agar nurlanish ta’siri doimiy ravishda, surunkali tarzda qayd qilinsa, u holda genetik mutatsiyalarga uchrash ehtimoli ham ortadi.

*Nisbiy biologik ta’sir effekti.* Nisbiy biologik ta’sir effekti (NBE) bir xil ta’sirga olib keladigan standart nurlanish dozasi bilan ma’lum bir biologik ta’sirga olib keladigan radiatsiya dozasini taqqoslash yo‘li bilan baholanadi. Nisbiy biologik ta’sir effektining koeffitsienti quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$K_{nbe} = \frac{D_r}{D_x}, \quad (4.9)$$

bu yerda  $D_r$  – rentgen yoki  $\gamma$ -nurlanislarning yutilgan dozasi,  $D_x$  – shu effektni vujudga keltiruvchi o‘rganilayotgan yutilish dozasi.

**Biologik organizmlarning radiatsion nurlanish ta'siriga chidamlilik darajasi.** Biologik organizmlar radiatsion nurlanish ta'siriga chidamlilik xususiyati bo'yicha o'zaro farqlanadi. Masalan, radiatsion nurlanish ta'sirida 30 sutka davomida nurlantirilgan hayvonlarning 50% qismi nobud bo'lishi qayd qilinuvchi radiatsiya qiymati dengiz cho'chqasi uchun – 250 Rentgen, it uchun – 335 Rentgen, maymun uchun – 600 Rentgen, sichqonlar uchun – 550–650 Rentgen, ilon uchun – 8000 – 20 000 Rentgen ga teng bo'ladi. Shuningdek, ayrim achitqi turlari 30 000 Rentgen, amyoba – 100 000 Rentgen, infuzoriya – 300 000 Rentgen radiatsion nurlanish ta'sirida nobud bo'lishi aniqlangan. O'simlik turlari orasida karam o'simligi urug'lari unuvchanligiga 64 000 Rentgen nurlanish sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatmasligi qayd qilingan.

Radiatsion nurlanish ta'siriga sezgirlik (radiosezgirlik) bu hujayra, to'qima va biologik organizmning ionlashtiruvchi nurlanish ta'siriga ko'rsatuvchi javob reaksiyasining namoyon bo'lish darajasi hisoblanadi. Radiosezgirlik o'chov birligi sifatida nurlanish dozasi (Gr) qiymatidan foydalaniladi.

Radiosezgirlik xossasi biologik turlarda va organizmlarda yakka tartibda o'zaro farqlanadi.

Turli xil biologik turlarning radiosezgirlik xossasini o'zaro solish-tirishda  $LD_{50}$  qiymatidan foydalaniladi.  $LD_{50}$  – radiatsion nurlanish ta'sirida nurlanish olgan organizmlarning 50% qismi nobud bo'lishi qayd qilinuvchi doza hisoblanadi (**4.3-jadval**).

*Wangiella dermatitidis*, *Cryptococcus neoformans*, *Cladosporium sphaerospermum* mikroskopik zamburug' turlari hujayralarida radiatsion nurlanish ta'sirida biosintez jarayoni faollashishi (radiostimulatsiya) qayd qilinadi.

Jumladan, A. Eynshteyn kolleji (Angliya) tadqiqotchilari tomonidan atom reaktorlarida hayot kechiruvchi ayrim mikroskopik zamburug' turlari, masalan *Wangiella dermatitidis* aynan radiatsion nurlanish energiyasidan biosintez jarayonida foydalanishi mumkinligi taxmin qilingan.

2002-yilda amalga oshirilgan tadqiqotlar davomida Chernobil atom halokati hududida qurilgan «sarkofag» ichki qismidan yig'ib olingan mikroskopik zamburug'lar tarkibida yuqori samaradorlikka ega bo'lgan antioksidant tizim funksiya bajarishi aniqlangan.

Ayrim biologik turlarning g-nurlanish ta'siri sharoitida LD<sub>50</sub> qiymati.

Biologik tur	LD50 (Gr)
Micrococcus radiodurens	>2000
O'simlik turlari	10-1500
Hasharot turlari	10-100
Ilon turlari	80-200
Baliq turlari	8-20
Qush turlari	8-20
Sichqon liniyalari	6-15
Kalamush liniyalari	7-9
Quyon	9-10

#### 4.3-§. Tashxis qo'yishda qo'llaniladigan radionuklidlar

Tibbiy diagnostikaning (tashxislash) asosiy masalasi bu inson ichki a'zolari strukturasini o'rganishdan (vizualizatsiyalashdan) iborat. Nurli tibbiyot tashxis qo'yish metodini 3 ta guruhg'a bo'lish mumkin:

- Rentgenografiya, kompyuterli rentgen tomografiysi;
- Magnit-rezonansli tomografiya (yadromagnit rezonansli tomografiya);
- Tashxis qo'yish uchun radionuklidlardan foydalanish;
- Emission tomografiya.

Radionuklidlar tibbiyotning turli sohalarida diagnostik (tashxislash) tadqiqotlar o'tkazish uchun keng foydalaniladi.

Umumiy holda tibbiyotda radionuklidlar ikki yo'nalishda, ya'ni diagnostika va davolashda qo'llaniladi. Diagnostik tibbiyotda radionuklidlar turli tahlillar uchun foydalanilmoqda, ya'ni qalqonsimon bezning funksiyasini tadqiq qilishda, qon hajmini aniqlashda, buyrak va jigar funksiyalarini tadqiq qilishda, B vitaminining inson organizmda hazm bo'lishini o'rganishda, ichaklarda yog'larning shimalishining buzilishini tekshirishda, temir almashinuvini o'rganishda, yurak-tomir tizimining hajmini aniqlashda, jigar funksiyasini o'rganishda va h.k. Hozirgi vaqtida keng qo'llanilayotgan ko'pchilik radionuklidlar siklotron va yadro reaktorlarida ishlab chiqilgan. Shu bilan bir vaqtida radionuklidlar ishlab

chiqarishning o'sishi elektron tezlatkichlarda ham kuzatilmogda. Tibbiyotda qo'llaniladigan radionuklidlarni ularning xususiyatlari bo'yicha shartli ravishda sinflarga bo'ldik.

Tashxis qo'yishda (diagnostikada) qo'llaniladiganlarni ikkiiga, ya'ni  $v^+$  – nurlatgichlar va g-nurlatgichlar. Bunday maqsadlarda qo'llaniladigan radionuklidlar axborot tashuvchi radionuklidlar bo'lib xizmat qiladi.

Beta-nurlatgichlarning yarim yemirilish davri daqiqalardan bir necha soatgacha. Bunday radionuklidlar pozitron-emission tomografiyada (PET) qo'llaniladi.

Hozirgi kunda tashxis qo'yishda foydalanilayotgan va qo'llanilishi mo'jallanayotgan radionuklidlar bo'yicha ma'lumotlar to'planib, ular ma'lum bir tartibda joylashtirib chiqildi. Bu ma'lumotlar **4.4-jadvalda** keltirilgan.

Hozirgi kunda tibbiyotda qo'llaniladigan radioizotoplarga bo'lgan talablar kundan kunga oshib, ularning nomenklaturasi esa kengayib bormoqda. Bu esa yuqorida keltirilgan radionuklidlar ro'yxatiga yangi qo'llanilish xususiyatlari keng bo'lgan radionukidlarning qo'shilishiga olib keladi.

#### **4.4-jadval.**

*Radionuklidlarning yadro-fizikaviy xususiyatlari*

R*	T <sub>1/2</sub>	E <sub>γ</sub> , keV	R	T <sub>1/2</sub>	E <sub>γ</sub> , keV	R	T <sub>1/2</sub>	E <sub>γ</sub> , keV
<sup>7</sup> Be	53,2 sut	478	<sup>81m</sup> Kr	13 s	190	<sup>128</sup> Cs	3,6 min	441
<sup>28</sup> Mg	21,1 soat	401	<sup>85m</sup> Kr	4,5 soat	151	<sup>129</sup> Cs	32,1 soat	372
<sup>28</sup> Al	2,2 min	1779	<sup>81</sup> Rb	4,6 soat	190	<sup>133m</sup> Ba	38,9 soat	276
<sup>38</sup> Cl	37,2 min	1642	<sup>85</sup> Sr	64,8 sut	514	<sup>137m</sup> Ba	2,6 min	662
<sup>43</sup> K	22,6 soat	373	<sup>87m</sup> Sr	2,8 soat	388	<sup>134</sup> La	6,5 min	605
<sup>47</sup> Sc	3,4 sut	159	<sup>89m</sup> Y	16,1 s	909	<sup>139</sup> Ce	138 sut	166

<sup>51</sup> Cr	27,7 sut	320	<sup>90m</sup> Nb	18,8 s	122	<sup>140</sup> Pr	3,4 min	307307
<sup>54</sup> Mn	312,2 sut	835	<sup>95</sup> Tc	20,0 soat	766	<sup>144</sup> Pr	17,3 min	697
<sup>52</sup> Fe	8,3 soat	169	<sup>97m</sup> Tc	89 sut	96,5	<sup>157</sup> Dy	8,1 soat	326
<sup>59</sup> Fe	44,5 sut	1099	<sup>99m</sup> Tc	6,0 soat	141	<sup>167</sup> Tm	9,3 sut	208
<sup>55</sup> Co	17,5 soat	477	<sup>97</sup> Ru	2,9 sut	216	<sup>169</sup> Yb	32 sut	63
<sup>57</sup> Co	272 sut	122	<sup>103m</sup> Rh	56,1 min	40	<sup>172</sup> Lu	6,7 sut	1094
<sup>62</sup> Cu	9,7 min	1173	<sup>109m</sup> Ag	39,6 s	88	<sup>195m</sup> Pt	4,0 sut	130
<sup>64</sup> Cu	12,7 soat	1346	<sup>111</sup> In	2,8 sut	171	<sup>183m</sup> W	5,2 s	108
<sup>67</sup> Cu	61,8 soat	185	<sup>113m</sup> In	99,5 min	392	<sup>191m</sup> Ir	4,9 s	129
<sup>62</sup> Zn	9,3 soat	597	<sup>115m</sup> In	4,5 soat	336	<sup>195m</sup> Pt	4,0 sut	130
<sup>69m</sup> Zn	13,9 soat	439	<sup>117m</sup> Sn	13,6 sut	159	<sup>195m</sup> Au	30,5 s	262
<sup>66</sup> Ga	9,4 soat	1039	<sup>117</sup> Sb	2,8 soat	159	<sup>197m</sup> Au	7,8 s	279
<sup>67</sup> Ga	61,8 soat	185	<sup>118</sup> Sb	3,6 min	1230	<sup>198</sup> Au	2,7 sut	412
<sup>72</sup> As	26 soat	834	<sup>121</sup> Te	16,8 sut	573	<sup>167</sup> Hg	64,1 soat	77
<sup>74</sup> As	17,8 sut	596	<sup>123m</sup> Te	119,7 sut	159	<sup>197m</sup> Hg	23,8 soat	134
<sup>72</sup> Se	8,4 sut	46	<sup>123</sup> I	13,3 soat	159	<sup>203</sup> Hg	46,7 sut	279
<sup>73</sup> Se	7,2 soat	361	<sup>131</sup> I	8,1 sut	365	<sup>199</sup> Tl	7,4 soat	455
<sup>75</sup> Se	120 sut	136	<sup>132</sup> I	2,3 soat	668	<sup>201</sup> Tl	72,9 soat	167
<sup>77</sup> Br	56 soat	239	<sup>127m</sup> Xe	70 s	125	<sup>204</sup> Bi	11,2 soat	6687

* R – radio-nuklid, $T_{1/2}$ – yarim parchalanish davri, $E_g$ – gamma-kvantlar energiyasi.							
----------------------------------------------------------------------------------------------------	--	--	--	--	--	--	--

#### 4.4-§. Radioizotoplarni olish va ularning tibbiyotda qo'llanilishi

Hozirgi kunda radioizotoplar (radioaktiv nuklidlar) va radiopreparatlardan fan va texnikaning turli sohalarida keng foydalanilmoqda. Ionlashtiruvchi nurlanishlar manbai va radioaktiv indikatorlar metodlari qo'llanilmagan ilmiy izlanishlar yoki ishlab chiqarishlar sohalarini topish qiyindir. Bu metodlar foydalanilib, amalga oshirish uchun mo'ljallangan muammolar soni oshib bormoqda va bu esa o'z navbatida keng nomenklatura radioaktiv nishon birikmali va radionuklidlarni olish va ajratish metodlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan yadro fizikasi va radiokimyo sohasidagi ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish va chuqurlashtirish zarurligiga sabab bo'imodda.

Radioizotoplar turli tezlatkichlar va reaktorlar yordamida olinadi. Reaktorlarda olish mumkin bo'lмаган radioizotoplarni siklotronlar yordamida olinadi. Hozirgi paytda radioizotoplarni ishlab chiqarish uchun maxsus ixcham dastur ta'minotiga ega bo'лган siklotronlar yaratilgan. Bu siklotronlarda nurlanishlar oqimidan foydalanish unumдорligi 100 % darajasiga keltirilgan. Demak, siklotronning aktivlanishi umuman yo'q.

Tibbiyotda radioizotoplar ikki yo'nalishda: diagnostika va terapiyada qo'llaniladi. Diagnostik tibbiyotda radioizotoplardan har xil tahlillar uchun foydalaniladi, ya'ni qalqonsimon bezning funksiyasini tadqiq qilishda, qon hajmini aniqlashda, buyrak va jigar funksiyalarini tadqiq qilishda,  $B_{12}$  vitaminining inson organizmida hazm bo'lishini o'rganishda, ichaklarda yog'larning shimalishining buzilishini tekshirishda, temir al-mashinuvini o'rganishda, yurak-tomir tizimining hajmini aniqlashda, jigar funksiyasini o'rganishda va h.k. Hozirgi vaqtda keng foydalanilayotgan ko'pchilik radioizotoplar siklotron va yadro reaktorlarida ishlab

chiqarilgan. Shu bilan birga radioizotoplarning ishlab chiqarishlarning o'sishi elektron tezlatkichlarda ham kuzatilmoxda.

#### **4.5-§. Yadro tibbiyotida qo'llanilayotgan radionuklidlarning sinflarga bo'linishi**

Hozirgi kunda radioaktiv izotoplar quyidagi to'rtta yo'nalishlarda qo'llanilishi mumkin:

- 1) ilmiy tadqiqotlarda, sanoatda va tibbiyotda radioaktiv indikator sifatida;
- 2) texnologik nazorat qiluvchi radioizotop asboblarda, modda tar-kibini yadro-fizikaviy tahlil qiluvchi asbob va qurilmalarda;
- 3) radiatsion texnologiyalarda va radioterapiyada moddaga ta'sir qilish uchun kuchli nurlanish manbalari ko'rinishida;
- 4) «kichik» energetika (ya'ni issiqlik radioizotop manbalarida, radioizotop temoelektron generatorlarda va atom batareyalarida) radioaktiv yonilg'i sifatida.

**Tibbiyotda radioizotoplar ikki yo'nalishda**, ya'ni diagnostika va davolashda qo'llaniladi.

Davolash maqsadida qo'llaniladigan radionuklidlar inson organizmidagi ma'lum bir a'zo yoki kasallikni keltirib chiqarayotgan hujayralarni nurlantirishga asoslangan. Bunda boshqa sog'lom hujayralarga minimal ta'sir qilishga harakat qilinadi.

Davolash maqsadida qo'llanilayotgan radionuklidlar quyidagi uchta guruhga bo'linadi:

- energiyasi  $200\text{ch}2000 \text{ keV}$  sohada joylashgan  $\nu$ - zarralar chiqarayotgan  $\nu$ -nurlatgichlar;
- yuqori chiziqli energiya uzatuvchi ( $LPE \sim 100 \text{ keV/mkm}$ ) va qisqa yugurish yo'liga ( $50 \text{ ch } 100 \text{ mkm}$ ) ega bo'lgan b-nurlatgichlar;
- elektron qamrash (EQ) yoki ichki elektron konversiya (IEK) bo'yicha parchalanadigan radionuklidlar.

Keyingi 30 yil ichida BFEKT texnikasi yordamida bajariladigan tashxislash jarayoni asosan  $^{99m}\text{Tc}$  preparati bilan amalga oshirib kelmoqda. Keyingi yillarda tezlatkichlar texnikasining rivojlanishi yangi radionuklidlarni ishlab chiqarishga imkon berdi. Hozirgi kunda I-123,


Tl-201, In-111, Cr-51, Ga-67, Kr-81m, I-131 va h.k. radionuklidlar tashxis qo'yishda keng foydalanilmoqda. Pozitron nurlanuvchi radio-nuklidlar ichida asosan C-11, N-13, O-15 va F-18 radionuklidlari keng qo'llaniladi.

Hozirgi kunda bemorlarni davolashda nur terapiyasi ham keng foydalanilmoqda. Nur terapiyasining asosiy maqsadi saraton hujayralarining DNK spiralini shikastlash, ularni bo'linish qobiliyatidan mahrum qilish. Bunda ochiq radioaktiv manba bilan bemorlarning a'zolari nurlantiriladi. Ochiq radioaktiv manbalar alohida yoki qo'shimcha vosita sifatida qo'llaniladi. Ushbu metod xavfli limfalarmi, qalqonsimon bezrakini va h.k. larni nur terapiyasi yordamida davolash samarali hisoblanadi.

Nur terapiyasida proton terapiyasi deb nomlangan davolash metodi alohida ahamiyatga egadir. Proton terapiyasida, boshqa radio-terapiya singari, tezlashtirilgan protonlar oqimi bilan o'simta nurlantiriladi. Ushbu protonlar hujayralarning DNK lariga zarar yetkazadi va natijada ularni shikastlantiradi.

Inson organizmi funksiyasini tekshirishda keng qo'llaniladigan boshqa bir radioizotop bu kobalt-57 hisoblanadi. U B<sub>12</sub> vitaminining inson organizmida hazm bo'lishini tadqiq qilish uchun qo'llaniladi. Kobalt-57 nisbatan og'ir kobalt radioizotopiga nisbatan qisqa yashash vaqt va yuqori sanash effektivligi bo'yicha ustunlikka egadir. Hozirgi kunda ushbu radioizotop asosan siklotronda olinadi.

Elektron tezlatkichlarda kobalt-57 radioizotopini olish uchun kim-yoviy tozaligi yuqori bo'lgan nikel metalli yuqori energiyali gamma-kvantlar nurlantiriladi va buning natijasida nikel-58 stabil izotopida quyidagi fotoyadro reaksiyalari sodir bo'ladi:



Birinchi reaksiya natijasida kobalt-57 bevosita hosil bo'ladi. Ikkinci reaksiyada esa oldin nikel-57 radioizotopi paydo bo'lib, keyin unda  $\nu^+$ -parchalanish sodir bo'ladi, buning natijasida yadrodan pozitron va neytrino chiqib ketadi va kobalt-57 radioizotopi hosil bo'ladi. Kobalt-57 va nikel-57 radioizotoplarning yarim parchalanish davri mos

holda: 270 kun va 36 soat. Bundan ko'rinadiki, birinchi reaksiyada kobalt-57 yuqori chiqishi (hosil bo'lish miqdori) kuzatiladi. Ikkinci reaksiyadan ham foydalanish uchun nurlantirilgan nishonni kobalt-57 ajratib olinguncha  $t > 3T_{1/2}$  ( $t > 108$  soat) vaqt davomida ushlab turish lozim. Demak, 108 soatdan keyin kobal-57 ni ajratib olish boshlansa, biz olayotgan radioizotop miqdori yuqori bo'lar ekan. Kobalt-57 radioizotoping gamma-nurlanishlar energiyasi (~122 keV) kichik bo'lib, inson organizmiga katta ta'sir ko'rsatmaydi. Shu sababli, bu radioizotop tibbiyotda keng qo'llanilib kelinmoqda.

#### **4.6-§. Yod-123 radioizotopining tibbiyotda qo'llanilishi**

Hozirgi kunda yadro tibbiyotida talab katta bo'lган yana bir radioizotop bu yod-123 radioizotopidir. Yod bir necha radioaktiv izotoplarga ega bo'lib, bularidan yod-123 va yod-131 radionuklidlari tibbiyotda keng qo'llaniladi. Yod-131 o'rniga yod-123 qo'llanganda inson qalqonsimon bezining funksiyasi, qon hajmini o'lchashda, miyani onkologik tekshirishda, buyrak va jigarni tekshirishda bemor oladigan nurlanish dozasini 100 marta kamaytiradi. Bunga sabab, yod-123 elektronlar chiqarmaydi va nisbatan qisqa yashovchi radioizotop hisoblanadi. Nurlanish dozasini bunday kamaytirish pediatriya va akusherlikda katta ahamiyatga egadir.

Yodning ba'zi bir radioaktiv izotoplarning xususiyatlari **4.5-jadvalda** keltirilgan. **4.5-jadvalda** ko'rinadiki yod-123 radionuklidi qulay, ya'ni qisqa yarim parchalanish davriga va elektron qamrash jarayoni sodir bo'lishi bilan yod-131 ga nisbatan ustunlikka ega. Shunga qaramasdan yod-131 radionuklidlari tibbiyotda qo'llanilib kelmoqda. Bu radionuklidni chaqaloq va ayrim bemorlarga qo'llash mumkin emas.

#### **4.5-jadval.**


*Yodning ba'zi bir radioaktiv izotoplarning xususiyatlari.*

Izotop	$^{123}\text{I}$	$^{124}\text{I}$	$^{125}\text{I}$	$^{131}\text{I}$
$T_{1/2}$	13,3 soat	4,18 kun	60,0 kun	8,05 kun
Parchalanish turi	EC	EC(77 %), $\beta^-$ (23 %)	EC	$\beta^-$

Nurlanish energiyasi, keV (intensivlik, parchalanish %)	$E_{\gamma} = 529(1)$ $E_{\gamma} = 159(83)$ KX 28(87)	$E_{\beta}^+ = 2140(11)$ $E_{\beta}^+ = 1530(12)$ $E_{\gamma} = 1691(11)$ $E_{\gamma} = 723(10)$ $E_{\gamma} = 603(63)$ $E_{\gamma} = 511(46)$ KX 28(56)	$E_{\gamma} = 36(7)$ KX 28(150)	$E_{\beta}^+ = 606(89)$ $E_{\beta}^+ = 334(7)$ va boshqalar $E_{\gamma} = 723(2)$ $E_{\gamma} = 637(7)$ $E_{\gamma} = 364(7)$ 284(82)
------------------------------------------------------------	--------------------------------------------------------------	----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	------------------------------------	---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

Tibbiyot amaliyotida tarkibida radioaktiv nuklid yod-131 bo'lgan preparatlar keng foydalaniladi. Bu birinchi navbatda qalqonsimon bez va buyrak, shuningdek, boshqa organlarni tekshirishda zarur. Biroq  $^{131}\text{I}$  diagnostik mulojalar xavfli nurlanish dozasiga olib keladi chunki bu radionuklid juda katta yarim yemirilish davri, ya'ni 8 sutkaga ega va v'zarralar chiqaradi. Masalan, qalqonsimon bez skaner qilinganda organizmga aktivligi 0,5 bo'lgan yod-131 kiritiladi, natijada uning to'qimalari 100 rad doza oladi. Bunday tekshirishlarni chaqaloqlarda o'tkazish juda xavflidir.


Yod-123 radioizotopi siklotronda va elektron tezlatkichlarda olinmoqda. Siklotronda yod-123 radionuklid quyidagi reaksiya yordamida olinadi:



$^{123}\text{I}$  preparatining yuqori sifatini ko'rsatuvchi uning tarkibida  $^{124}\text{I}$  va  $^{125}\text{I}$  lar kam miqdorda bo'lishi hisoblanadi. Bularning ikkalasi ham radiatsion dozaning oshishiga olib keluvchi radioizotoplar hisoblanadi.


Keyingi paytlarda  $^{123}\text{I}$  radioizotopi yuqori energiyali gamma-kvantlar yuzaga keltiradigan (g,n,) turdag'i fotoyadro reaksiyalari natijasida ham olinmoqda. Ushbu reaksiyalar orqali  $^{123}\text{I}$  radioizotopi olish imkoniyatlarini o'rganish bo'yicha o'tkazilgan tajriba ishlarida bayon qilingan. Hozirda mavjud bo'lgan elektron tezlatkichlar, (elektronlar energiyasi 20 MeV dan ortiq) ya'ni yuqori energiyali (tormozli) gamma-kvantlar manbai hisoblangan chiziqli elektron tezlatkich va mikrotronlar yordamida tibbiy diagnostika uchun  $^{123}\text{I}$  radioizotopini ishlab chiqarishga mo'ljallangan hududiy markazlarning tarmoqlarini yaratish muammosini hal qilish mumkin.

Ushbu usullar reaksiya tarkibida sezilarli  $^{124}\text{I}$  va  $^{125}\text{I}$  aralashmalari bo‘lmagan, eng yuqori sifatli preparat olishga imkon beradi. Elektron tezlatkichlarda esa  $^{123}\text{I}$  radioizotopni quyidagi reaksiya orqali olish mumkin:



Bu reaksiya ostona energiyasi 10 MeV atrofida bo‘lib, reaksiya effektiv kesimi  $Y_e = 15$  MeV energiyada maksimumga erishadi va u 450 mb ga teng. Ushbu reaksiya samarali amalgaga oshishi uchun elektronlar energiyasi 20 MeV dan yuqori va 50 MeV dan kichik bo‘lishi kerak. Yuqori energiyalarda keraksiz radionuklidlar hosil bo‘ladi.  $E_e = 25-35$  MeV energiyalar oralig‘i optimal diapazon hisoblanadi.

Nishon tarkibida  $^{126}\text{Xe}$  izotopi bo‘lgani uchun unda  $^{126}\text{Xe}(\gamma, p)^{125}\text{Xe}$  fotoyadro reaksiyasini sodir bo‘ladi. Hosil bo‘lgan  $^{125}\text{Xe}$  ( $T_{1/2} = 17$  soat) radionuklidining radioaktiv parchalanishi hisobiga  $^{125}\text{I}$  radionuklidi vujudga keladi, ya’ni



Agarda nishon tarkibidagi  $^{124}\text{Xe}$  va  $^{126}\text{Xe}$  lar teng miqdorda bo‘lganda ham,  $^{125}\text{I}$  aktivligi nurlanish tugagandan keyin bir necha soat davomida  $^{123}\text{I}$  aktivligining 0,3 % ni tashkil etadi va bu foizlar  $^{126}\text{Xe}$  ning nisbiy miqdori kamayishi bilan mos holda kamaya boradi.  $E_e < 35$  MeV energiyada  $^{124}\text{Xe}(\gamma, rp)$  reaksiya bo‘yicha hosil bo‘lgan  $^{124}\text{I}$  radioizotopining chiqishi juda ham kichik bo‘ladi. Shuning uchun elektron tezlatkichda olingan  $^{123}\text{I}$  preparat sifati jihatidan hozirigi vaqtligi tijorat preparatlari bilan bir xil. Nishon tarkibida ksenonning og‘irroq izotoplarining miqdoriga bo‘lgan talab, ksenon-124 ning boyitilishi hisobiga avtomatik ravishda qondiriladi.

Yod-123 radioizotopini ishlab chiqarish uchun elektron tezlatkichlarni qo‘llashning asosiy texnik va iqtisodiy afzalliliklarini qayd qilib o‘tamz. Bular quyidagilardan iborat:

- mahsulot tarkibida  $^{124}\text{I}$  va  $^{125}\text{I}$  aralashmalarining miqdori kam bo‘lishi;
- nishonni qayta ishlashdagi biologik himoyaga sarf-xarajat minimal bo‘lishi;
- elektron tezlatkichlari siklotronlarga nisbatan bir necha marta arzon, ixcham, xizmat xarajatlari kam bo‘lishi.

Bu usulning kamchiliklariga faqat nishon ( $^{124}\text{Xe}$  10 g yuqori boyitilgan) narxini ajratilgan  $\text{Te}$  izotoplar siklotoron nishoni narxidan bir necha marta yuqori ekanligidir. Shu bilan bir vaqtida bitta  $\text{Xe}$  regeneratsiya siklidagi nisbiy yo'qotish  $\text{Te}$  dagiga nisbatan ancha kam hisoblanadi.

Ksenon-124 izotopi nurlantirilganda ksenon-123 radioizotopi hosil bo'lib, bu izotop radioaktiv bo'lganligi sababli u parchalanib yod-123 radioizotopi hosil bo'ladi. Radioizotop nurlantirilgan nishondan maxsus usullar bilan ajratib olinadi va ulardan radioaktiv preparatlar tayyorlaniadi. Bu preparatlar inson organizmiga kiritiladi va radionuklid (yoki radioizotop) tashxis amalgalashiriladi.


Radionuklid diagnostika nur diagnostikasining bir ko'rinishi hisoblanib, u inson organizmiga radiofarmatsevtik preparat kiritilgandan keyin, inson a'zo va to'qimalaridan chiqayotgan nurlanishni tashqi radiometrik o'lhashga asoslangan. Inson organizmiga kiritilgan radiofarmatsevtik preparat, insonning kasal a'zo va to'qimalariga ko'proq borib joylashadi va o'zidan gamma-nurlanishlar chiqaradi. Bu nurlanishlar maxsus radiometrik asboblar (ssintillatsion datchik) yordamida tashqaridan qayd qilinadi. O'lhashlar orqali kiritilgan izotopning lokalizatsiyasi (joylashgani yoki to'plangani), miqdori va taqsimoti aniqlanadi. Olingan ma'lumotlar orqali tashxis qo'yiladi.

**Radiofarmatsevtik preparat** deb, inson organizmiga diagnostik yoki davolash maqsadida kiritiladigan va molekulalarida ma'lum bir radioaktiv nuklid bo'lgan kimyoviy birikmaga aytildi.

Yuqorida bayon qilinganlarni yod-123 izotopi misolida ko'rish mumkin. Bunda bemorga yod-123 radioizotopi mavjud bo'lgan eritma ichiriladi. Bu radioaktiv yod-123 organizmga kiritilmasdan oldin ssintillatsion datchik orqali o'lchab olinadi va 100 % deb qabul qilinadi. Organizm ssintillatsion datchik yordamida qalqonsimon bez sohasidan chiqayotgan nurlanishlarni o'lhash amalgalashiriladi. O'lhashlar yod kiritilgandan keyin 2 soat, 4 soat va bir sutka o'tgandan keyin ham bajariladi. Shunday qilib preparatning qalqonsimon bezda to'planish normasi empirik aniqlanadi. Agar to'planish tez bo'lsa, u holda qalqonsimon bezning giperfunksiyasi, agar to'planish normadagidan sekin to'plansa, gipofunksiyasi mavjudligini ko'rsatadi. Yod radioizotopi terapevtik maqsadlarda ham qo'llaniladi. Yod qalqonsimon bez normal ishlashi uchun zarur bo'lgan element hisoblanadi.

Qalqonsimon bez bo'yin qismida joylashgan (**4.1-rasmga** qaralsin). U organizmda modda va energiya almashinuvida ishtirok etuvchi yodli gormonlar ishlab chiqaradi va to'playdi. Organizmga kiritilgan radioaktiv yod oddiy yod kabi qalqonsimon bez hujayrasiga kiradi va to'plana boshlaydi. Bu esa o'z navbatida qalqonsimon bezni testlashga, diagnostika va davolashga imkon beradi. Davolash effekti yod-131 radioizotoping radioaktivlik xususiyatiga asoslangan bo'lib, undan chiqayotgan beta- va gamma-nurlanishlar hamma bezni nurlantiradi. Terapevtik efektning 90 % beta-nurlanishga asoslangan. Beta-parchalanishda hosil bo'ladigan elektronlarning yugurish yo'li 2-3 mm bo'lib, ular bezni ichkarida nurlantiradi. Radioaktivlik, bez hujayrasini ham, uning chegarasidan tashqariga tarqalayotgan o'sma hujayrasini ham yo'q qiladi. Davolash deyarli og'riqsiz kechadi.

Nurlanishlarni qayd qiluvchi mukammalroq datchiklar, zamonaviy radiofarmpreparatlar va radioaktiv nishonlar qo'llanilishiga qaramasdan, aynan ishlab turgan to'qimalarda radioizotop to'planishini qayd qilish va baholash tamoyillari o'zgarmasdan qolmoqda. Radiobiologlarning tasdiqlashicha, kichik dozali nurlanishlar inson organizmiga ijobiy ta'sir ko'rsatar ekan. Budan radionuklid diagnostikasida qo'llaniladigan radioizotoplarni xavfli emasligi kelib chiqadi.



**4.1-rasm.** Qalqonsimon bez ko'rinishi.


Shuni ham ta'kidlab o'tishimiz kerakki, hozirgi kunda respublikamizda, O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Yadro fizikasi instituti-da, yod-125, 131 va kobalt-57 radioizotoplari ishlab chiqarilmoqda va chet ellarga eksport qilinmoqda. Ayniqsa, yod-131 radioizotopi (radiofarmatsevtik preparati) o'zining yuqori sifatliligi bilan boshqa chet el mahsulotlaridan ajralib turadi. Bundan tashqari, mazkur dargohda tibbiyotda qo'llaniladigan o'ndan ortiq radioizotoplar ishlab chiqilmoqda va yangi radioizotoplar ustida ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Institutda radioizotoplar Yadro reaktori va U-150 turdag'i siklotronda ishlab chiqiladi. Mazkur institutda ishlab chiqarilayotgan radioaktiv izotoplar bo'yicha bat afsil ma'lumotni [www.inp.uz](http://www.inp.uz) sayti orqali olish mumkin.

Hozirgi kunda radionuklidli diagnostika zamonaviy texnologiyalaridan biri bo'lib, u ko'pchilik kasalliklarni oldindan, hali boshqa usullar bilan aniqlash mumkin bo'lмаган ваqtida tashxis qo'yishga imkon beradi.

#### **4.7-§. Yadro reaktorlarida olinadigan radionuklidlar**

Yadro reaktorlarida hosil bo'ladigan neytronlar energetik spektrini asosiy ulushini issiqlik neytronlari tashkil qiladi. Bu neytronlar ta'sirida radiatsion qamrash reaksiyasi, ya'ni  $(n, \gamma)$  sodir bo'ladi va bu reaksiya natijasida neytronga boy yadrolar yoki radionuklidlar hosil bo'ladi. Mazkur radionuklidlar  $\nu$ -parchalanishga uchraydi va o'zidan elektronlar hamda gamma-kvantlar chiqaradi. **4.6-jadvalda** yadro reaktorida olinadigan radionuklidlar keltirilgan bo'lib, bular asosan yadro tibbiyotida tashxis qo'yishda qo'llaniladi.

Radionuklidlar ichida yadro reaktorida olinadigan va insondagi qator kasalliklarga tashxis qo'yish uchun yadro tibbiyotida eng ko'p tarqalgan va keng foydalaniladigan  $^{99m}\text{Ts}$  radionuklid hisoblanadi. Ushbu izotop  $^{99}\text{Mo}$  ning parchalanishidan hosil bo'ladi.



#### 4.6-jadval.

*Yadro tibbiyoti uchun yadro reaktorida ishlab chiqiladigan radionuklidlar.*

Izotop	T <sub>1/2</sub>	Izotop	T <sub>1/2</sub>
<sup>32</sup> P	14,3 sut	<sup>131</sup> I	8,0 sut
<sup>35</sup> S	87,4 sut	<sup>132</sup> I	2,3 soat
<sup>45</sup> Ca	162,6 sut	<sup>133</sup> Xe	5,2 sut
<sup>47</sup> Sc	3,4 sut	<sup>145</sup> Sm	340 sut
<sup>51</sup> Cr	27,7 sut	<sup>153</sup> Sm	46,7 soat
<sup>55</sup> Fe	2,7 let	<sup>153</sup> Gd	241,6 sut
<sup>59</sup> Fe	44,5 sut	<sup>165</sup> Dy	2,35 soat
<sup>60</sup> Co	5,3 let	<sup>166</sup> Dy/ <sup>166</sup> Ho	81,5 soat/26,2 soat
<sup>75</sup> Se	119,8 sut	<sup>170</sup> Tm	128,6 sut
<sup>86</sup> Rb	18,8 sut	<sup>175</sup> Yb	4,2 sut
<sup>85</sup> Sr	64,8 sut	<sup>177</sup> Lu	6,71 sut
<sup>99</sup> Mo/ <sup>99m</sup> Tc	66 soat/6 soat	<sup>186</sup> Re	90,6 soat
<sup>103</sup> Pd	16,7 sut	<sup>188</sup> W/ <sup>188</sup> Re	69 sut/16,9 soat
<sup>109</sup> Pd	13,7 sut	<sup>191</sup> Os/ <sup>191</sup> Ir	15,4 sut/4,9 s
<sup>103</sup> Ru	39,4 sut	<sup>192</sup> Ir	74 sut
<sup>115</sup> Cd	53,5 soat	<sup>195m</sup> Pt	4 sut
<sup>117m</sup> Sn	13,6 sut	<sup>198</sup> Au	2,6 sut
<sup>125</sup> I	60,1 sut	<sup>199</sup> Au	3,2 sut

<sup>99m</sup>Ts radionuklidni ishlab chiqarish XX asrning 90-yillari o'rtalariga kelib 10 kKi ga yaqinlashdi (Kanada, Belgiya, Rossiya va h.k davlatlardagi yadro reaktorlari). Yadro reaktorida mazkur radionuklidni olish uchun quyidagi ikkita sxema qo'llaniladi:

*uran bo'linish reaksiyasi - <sup>235</sup>U(n, f)<sup>99</sup>Mo,*

*radiatsion qamrash reaksiyasi - <sup>98</sup>Mo(n, f) <sup>99</sup>Mo.*

Mazkur reaksiya kesimlari mos holda 582,6 va 0,136 barn qiymat-larga teng.

Birinchi metodning kamchiligi, bu kerak bo‘lмаган radioaktiv chiqindilarning hosil bo‘lishidir, ya’ni  $1\text{ Ki}^{99}\text{Mo}$  radionuklidini olishda  $50\text{ Ki}$  radioaktiv chiqindi hosil bo‘ladi. Bu radioaktiv chiqindini qayta ishlash va utilizatsiya qilish maqsadida undan uranni ajratib olish katta ekologik muammolarni tug‘diradi. ( $n, f$ ) radiatsion qamrash reaksiyasini qo‘llaganda deyarli chiqindi hosil bo‘lmaydi. Bu metodda asosiy muammo yuqori solishtirma aktivlikdagi  $^{99}\text{Mo}$  radionuklidini olish bilan bog‘liq. Masalan, tarkibida  $24,13\%$   $^{98}\text{Mo}$  bo‘lgan tabiiy molibdenni  $1\text{--}10^{14}\text{ n/sm}^2\text{s}$  issiqlik neytronlar oqimi bilan *100 soat* nurlantirganda  $^{99}\text{Mo}$  radionuklidning chiqishi  $0,35\text{ Ki/g}$  dan oshmaydi. Xuddi shunday sharoitda boyitilgan  $^{98}\text{Mo}$  (*boyitilganlik darajasi > 95 %*) izotopida  $^{99}\text{Mo}$  ning hisoblangan aktivligi, reaktor neytron spektridagi rezonans tashkil qiluvchilarining o‘sishi hisobiga (12-15)  $\text{Ki/g}$  gacha oshishi mumkin. Bunda reaksiyaning kesimi  $0,7$  barn va undan ham katta qiymatlarga erishishi mumkin. Neytronlar oqimi  $5\text{--}10^{15}\text{ n/sm}^2\text{ bo‘lgan}$  reaktorlarda  $^{99}\text{Mo}$  radionuklidini  $200\text{ Ki/g}$  tartibdagи qiyatlarga ishlab chiqarish imkoniyati mavjud. ( $n, f$ ) reaksiya  $^{99}\text{Mo}$  radionuklidini yuqori solishtirma aktivlikda ishlab chiqarishga imkon berishiga qaramasdan, uni yuqori samarada bunda xomashyodan yuqori aktivlikdagi texnetsiy- $^{99}\text{m}$  radionuklidini olish uchun qo‘llash mumkin:

Bu radionuklid generatori deyiladi va bunda  $^{99\text{m}}\text{Ts}$  radionuklidining to‘planishi sodir bo‘ladi. Radionuklidlarni ajratib olish uchun turli radiokimyoiy usullardan foydalanish mumkin: *sorbision, xromatografiya va ekstraksion*. Birinchi ikkita usul asosida  $1 - 2\text{-tibbiyat muassasalarri}$  uchun mo‘ljallangan ko‘chma ko‘tarib yurish uchun va uncha katta quvvatga ega bo‘lмаган generatorlar ishlab chiqilgan. Ekstraksion usul asosida ekstraksion generator ishlab chiqilgan. Bu generator quvvati katta bo‘lib, u radionuklidlar bilan butun bir hududni qamrab olishi mumkin.

#### 4.8-§. Siklotronda radionuklidlar ishlab chiqarish

Hozirgi vaqtida radionuklidlar ishlab chiqarish uchun bir necha yuzlab tezlatkichlar qo‘llanilmoqda. Yadroviy tibbiyat hozirgi kunda ishlab chiqilayotgan hamma radionuklidlarning  $50\%$  iste’mol qiladi. Radionuklidlar ishlab chiqishga mo‘ljallangan siklotronlarning katta qismi

neytron defitsit bo‘lgan radionuklidlarni ishlab chiqaradi. Bu radionuklidlar asosan *pozitron-emission tomografiya* uchun ishlab chiqiladi va ularning energiyasi  $\sim 10 - 18$  MeV ni tashkil qiladi. Tezlatkichlarning energiyasini oshirish yana qo‘srimcha radionuklidlar ishlab chiqishga imkon beradi va ularning sonini oshiradi.

Siklotronlarda radionuklidlar ishlab chiqarish uchun quyidagi turdagi yadro reaksiyalar qo‘llaniladi:  $(p, n)$ ,  $(p, \alpha)$ ,  $(p, pn)$ ,  $(p, 2n)$ ,  $(p, 3n)$ ,  $(p, 5n)$ ,  $(d, p)$ ,  $(d, n)$ ,  $(d, 2n)$ ,  $(d, 3n)$ ,  $(d, \alpha)$ ,  $(3Ne, n)$ ,  $(3Ne, \alpha)$ ,  $(3Ne, \alpha n)$ ,  $(3He, 2n)$ ,  $(3He, 3n)$ ,  $(\alpha, r)$ ,  $(\alpha, n)$ ,  $(\alpha, 2n)$ ,  $(\alpha, pn)$ ,  $(\alpha, 3p)$ . Siklotronlarda radionuklidlar ishlab chiqarish yadro reaktorida ishlab chiqilganga nisbatan ancha ustunliklarga egadir. **4.7-jadvalda** siklotronda ishlab chiqilgan va tashxis qo‘yishda qo‘llaniladigan izotoplar ro‘yxati va yadro-fizikaviy xarakteristikalari keltirilgan.

#### **4.7-jadval.**

*Tashxis qo‘yishda qo‘llaniladigan radionuklidlar.*

*Radionuklidlar siklotronda ishlab chiqiladi\**.

<b>Radionuklid hosil bo‘ladigan reaksiya</b>	<b>Nuklid</b>	<b>Yarim yemirilish davri</b>	<b>Yemirilish turi; chiqayotgan nurlanish va uning energiyası, MeV</b>	<b>Qo‘llanilish sohasi</b>
$^{10}\text{B} (d, n)$ $^{11}\text{B} (d, 2n)$ $^9\text{Be} (^3\text{Ne}, n)$ $^{14}\text{N} (p, b)$ $^{12}\text{C} (^3\text{Ne}, b)$ $^{12}\text{C} (p, pn)$	$^{11}\text{S}$	20,38 min	$\beta+(1,0)$	Tibbiyotda (tashxis qo‘yishda); qishloq xo‘jaligida (metka)
$^{12}\text{C} (d, n)$	$^{13}\text{N}$	9,96 min	$\beta+(1,2)$	Tibbiyotda (tashxis qo‘yishda)

$^{14}\text{N}$ ( $d, n$ )	$^{16}\text{O}$	122 s	$\beta^+(1,74)$	Tibbiyotda (tashxis qo'yishda)
$^{16}\text{O}$ ( $^3\text{He}, n$ ) $^{16}\text{O}$ ( $b, pn$ ) $^{20}\text{Ne}$ ( $d, b$ ) $^{20}\text{Ne}$ ( $^3\text{He}, bn$ )	$^{18}\text{F}$	109,8 min	$\beta^+(0,63)$	Tibbiyotda (tashxis qo'yishda)
$^{27}\text{Al}$ ( $b, 3p$ )	$^{28}\text{Mg}$	21 soat	$\beta^- (0,42); \gamma (0,03; 0,40; 0,95; 1,35)$	Tibbiyotda (tashxis qo'yishda)
$^{50}\text{Cr}$ ( $^3\text{He}, n$ ) $^{52}\text{Cr}$ ( $^3\text{He}, 3n$ ) $^{50}\text{Cr}$ ( $b, 2n$ )	$^{52}\text{Fe}$	8,3 soat	$\beta^+ (0,80); EZ; \gamma (0,16)$	Tibbiyotda (tashxis qo'yishda)
$^{64}\text{Ni}$ ( $d, 2n$ ) $^{64}\text{Ni}$ ( $d, n$ )	$^{64}\text{Cu}$	12,7 soat	$\beta^- (0,57); \beta^+ (0,66); EQ; \gamma (1,34)$	Tibbiyotda (tashxis qo'yishda); qishloq xo'jaligida (metka)
$^{69}\text{Ga}$ ( $b, n$ )	$^{72}\text{As}$	26 soat	$\beta^+ (2,5; 3,34); EQ; \gamma (0,63; 0,83)$	Tibbiyotda (tashxis qo'yishda); qishloq xo'jaligida (metka)
$^{74}\text{Ge}$ ( $d, 2n$ ) $^{73}\text{Ge}$ ( $d, n$ ) $^{71}\text{Ga}$ ( $b, n$ )	$^{74}\text{As}$	17,78 kun	$\beta^- (0,72; 1,36); \beta^+ (0,91); EZ; \gamma (0,60)$	Tibbiyotda (tashxis qo'yishda); qishloq xo'jaligida (metka)
$^{75}\text{As}$ ( $b, 2n$ )	$^{77}\text{Br}$	57 soat	$\gamma (0,24; 0,52)$	Tibbiyotda (tashxis qo'yishda)

$^{79}\text{Br}$ (b, 2n)	$^{81}\text{Rb}$	4,6 soat	$\beta^+$ (1,05); EQ; $\gamma$ (0,45; 1,1)	Generator $^{81}\text{Kr}$ (tibbiyot tashxisida)
$^{86}\text{Kr}$ ( $^3\text{He}$ , 2n)	$^{87m}\text{Sr}$	2,8 soat	EQ; g (0,39)	Tibbiyot (diagnostika)
$^{85}\text{Rb}$ (b, 2n)	$^{87}\text{Y}$	80 soat	$\beta^+$ (0,47);EZ; $\gamma$ (0,48)	Generator $^{87m}\text{Sr}$ (tibbiyot tashxisida)
$^{110}\text{Cd}$ (d, n) $^{111}\text{Cd}$ (p, n) $^{112}\text{Cd}$ (p, 2n) $^{109}\text{Ag}$ ( $^3\text{He}$ , n)	$^{111}\text{In}$	67 soat	$\gamma$ (0,17; 0,25)	Tibbiyotda (tashxis qo'yishda)
$^{114}\text{Cd}$ (b, n)	$^{117m}\text{Sn}$	14 sut	$\gamma$ (0,16)	Tibbiyotda (tashxis qo'yishda)
$^{115}\text{In}$ (b, 2n)	$^{117}\text{Sb}$	2,8 soat	$\beta^+$ (0,57); EZ; $\gamma$ (0,16)	Tibbiyotda (tashxis qo'yishda)
$^{121}\text{Sb}$ (b, 2n) $^{123}\text{Sb}$ ( $^3\text{He}$ , 3n) $^{122}\text{Te}$ ( $^3\text{He}$ , 2n) $^{123}\text{Xe}$ $^{123}\text{Xe} \rightarrow ^{123}\text{I}$ $^{123}\text{Te}$ (p, n)	$^{123}\text{I}$	13 soat	EQ; $\gamma$ (0,16)	Tibbiyotda (tashxis qo'yishda)
$^{127}\text{I}$ (b, 2n)	$^{129}\text{Cs}$	32 soat	EQ; $\gamma$ (0,38)	Tibbiyotda (tashxis qo'yishda)
$^{131}\text{Xe}$ (r, n) $^{131}\text{Xe}$ (d, 2n)	$^{131}\text{Cs}$	9,7 sut	EQ	Tibbiyotda (tashxis qo'yishda)
$^{131}\text{Xe}$ (d, n) $^{132}\text{Xe}$ (r, n) $^{132}\text{Xe}$ (d, 2n)	$^{132}\text{Cs}$	6,6 Sut	$\beta^+$ (0,41); EQ; $\gamma$ (0,67)	Tibbiyotda (tashxis qo'yishda)

$^{155}\text{Gd}$ (b, 2n) $^{159}\text{Tb}$ (p, 3n)	$^{157}\text{Dy}$	8,1 sut	EQ; $\gamma$ (0,33)	Tibbiyotda (tashxis qo'yishda)
$^{200}\text{Hg}$ (d, n) $^{201}\text{Hg}$ (d, 2n) $^{203}\text{Tl}$ (r, 3n) $^{201}\text{Pb}$ $^{201}\text{Pb} \rightarrow ^{201}\text{Tl}$	$^{201}\text{Tl}$	73 soat	EQ; $\gamma$ (0,14; 0,17)	Tibbiyotda (tashxis qo'yishda)
* EQ-elektron qamrash.				

#### 4.9-§. Elektron tezlatkichlarda radionuklidlar chiqishlarini aniqlash

Mazkur ishdan maqsad ayrim radionuklidlarning elektron tezlatkichlarda olish imkoniyatlarini o'rganish va tibbiyotda tashxis qo'yish hamda davolash maqsadida qo'llanilayotgan radionuklidlar bo'yicha ma'lumotlarni sistematika qilishdan iborat.

Hozirgi kunda elektron tezlatkichlarda olinayotgan va tibbiyotda tashxis qo'yish hamda davolash maqsadida qo'llanilayotgan radionuklidlarning sistematikasi **4.8-jadvalda** keltirilgan.

#### 4.8-jadval.

*Elektron tezlatkichlar yordamida olinadigan radionuklidlar.*

Izotop	$T_{1/2}$	Reaksiya	Qo'llanilish sohalari
$^{11}\text{C}$	20.38 m	$^{12}\text{C}(\gamma,n)^{11}\text{C}$ $^{16}\text{O}(\gamma,\text{nb})^{11}\text{C}$ $^{14}\text{N}(\gamma,t)^{11}\text{C}$ $^{14}\text{N}(\gamma,\text{nd})^{11}\text{C}$ , $^{14}\text{N}(\gamma,p2n)^{11}\text{C}$	Pozitron-emission tomografiyada (PET) qo'llaniladi
$^{13}\text{N}$	9.98 m	$^{14}\text{N}(\gamma,n)^{13}\text{N}$ $^{16}\text{O}(\gamma,t)^{13}\text{N}$ $^{16}\text{O}(\gamma,\text{nd})^{13}\text{N}$ , $^{16}\text{O}(\gamma,p2n)^{13}\text{N}$	Pozitron-emission tomografiyada qo'llaniladi
$^{15}\text{O}$	122 s	$^{16}\text{O}(\gamma,n)^{15}\text{O}$	Pozitron-emission tomografiyada qo'llaniladi

<sup>18</sup> F	109.8 m	<sup>23</sup> Na(γ,n) <sup>18</sup> F, <sup>19</sup> F(γ,n) <sup>18</sup> F <sup>20</sup> Ne(γ,d) <sup>18</sup> F, <sup>20</sup> Ne(γ,pn) <sup>18</sup> F	Pozitron-emission tomografiyada qo'llaniladi
<sup>47</sup> Sc	3.42 sut	<sup>48</sup> Ti(γ,p) <sup>47</sup> Sc	Radioimmunoterapiyada (RIT) qo'llaniladi
<sup>57</sup> Co	271.7 sut	<sup>58</sup> Ni(γ,p) <sup>57</sup> Co	A'zo o'lchamlarini baholashda marker sifatida qo'llaniladi
<sup>67</sup> Cu	61.9 soat	<sup>68</sup> Zn(γ,p) <sup>67</sup> Cu	Beta-nurlatgich bo'lib, radioimmunoterapiyada (RIT) qo'llaniladi
<sup>99</sup> Mo	66.02 soat	<sup>100</sup> Mo(γ,n) <sup>99</sup> Mo → <sup>99m</sup> Tc	<sup>99m</sup> Ts generatordagi birlamchi izotop
<sup>123</sup> I	13.0 soat	<sup>124</sup> Xe(γ,n) <sup>123</sup> Xe → <sup>123</sup> I	Miya, yurak, qalqonsimon bez, buyraklarni tadqiq qilganda tashxis qo'yish uchun qo'llaniladi
<sup>125</sup> I	60.2 sut	<sup>126</sup> Xe(γ,n) <sup>125</sup> Xe → <sup>125</sup> I	Prostata va miya saraton kasalligi braxiterapiyasida, buyrak filtratsiyasining tezligini baholashda va oyoqdagi chuqur venalar trombozini tashxislashda qo'llaniladi

Bu jadvaldan ko'rindaniki, elektron tezlatkichlarda olingan radio-nuklidlar qo'llanilish chegarasi juda ham keng bo'lib, u hali yetarlicha o'rganilmagan.

Elektron tezlatkichlarning eng muhim afzalliklaridan biri katta mas-saga ega bo'lgan nishonlarni hech qanday boshlang'ich tayyorgarlik-siz ham nurlantirish imkoniyatidir. Bunda nurlantirishga mo'ljallangan nishonni vakuum kamerasi ichiga kiritmasdan va vakuumni buzmasdan tashqarida ham nurlantirish mumkin. Bundan tashqari, elektron tezlatkichlarda nishonni tayyorlash jarayoni siklotronga nisbatan ancha oson va tez bo'ladi. Demak, elektron tezlatkichlarda ishlab chiqiladigan ra-

dionuklidlarning narxi ham ancha arzon bo‘ladi. Xulosa qilib aytish mumkinki, kelajakda radionuklidlar ishlab chiqarishda elektron tezlatkichlarning qo‘llanish imkoniyati juda katta bo‘ladi. Radionuklidlarni ishlab chiqarish uchun elektron tezlatkichlarni qo‘llashning prinsipial texnik va iqtisodiy afzalliklarini qayd qilib o‘tamiz. Bular quyidagilar: mahsulot tarkibida qo‘sishmcha aralashmalarning miqdori kam bo‘ladi; nishonni qayta ishlashdagi biologik himoyaga sarf-xarajat minimal bo‘ladi; elektron tezlatkichlari siklotronlarga nisbatan bir necha marta arzon, ular ixcham, ekspluatatsion sarf-xarajatlari kam. Ammo bugungi kunda radionuklidlar ishlab chiqarishda elektron tezlatkichlar boshqa yadro qurilmalarining o‘mini to‘liq egallamasdan, balki ularni to‘ldirib turibdi.

#### **4.10-§. Pozitron emission tomografiya**

Tibbiyot fani texnikasining rivojlanishi hamma vaqt fizika fanining rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib kelgan. Fizika fanidagi kashfiyotlar ma’lum vaqt o‘tgandan keyin tibbiyotga ma’lum bir tashxis qo‘yish yoki davolash usullari sifatida kirib kelgan. Bunga misol qilib oddiy inson qon bosimini o‘lhash, ultratovush tashxis usuli, radioizotoplar usullari va boshqalarni keltirish mumkin.

Hozirgi kunda tibbiyotning turli sohalarida keng qo‘llanilayotgan metod bu pozitron emission tomografiya hisoblanib, bu metod qisqa yashovchi radioizotoplarni qo‘llashga asoslangan. Pozitron emission tomografiya (PET) ikki fotonli emission tomografiya ham deyiladi. Bu metoddan inson va hayvonlarning ichki a’zolarini radionuklidli tomografiya yordamida o‘rganiladi.


1933-yilda nemis biokimyogari Varburg (Otto Genrix Varburg) xavfli shish (o’sma) yuqori darajada glukoza iste’mol qilishini (ehtiyoji) aniqladi. 1977-yilda olimlar kalamush miyasida xavfli shishning glukozaga bo‘lgan ehtiyojini o‘rganishda uglerod radioaktiv izotopi yordamida dezoksiglukozasining mahalliy tarqalish darajasini o‘lhashni o‘rganishdi. Ushbu tajriba 1979-yilda insonlarda o‘tkazilgan. Bunda radioaktiv ftor  $^{18}\text{F}$  izotopining ftorodezoksiglukozasidan foydalilanilgan. Ftorodezoksiglukoza bu – glukozaning analogi hisoblanadi. U glukoza dan farq qilib, uning metabolizimi tez tugallanadi va mahsulotlari birik-

malarga to‘planadi. Radioaktiv fтор-18 izotopi (yarim parchalanish davri 109,8 min) parchalanadi va o‘zidan pozitronlar chиqaradi. Bu bajarilgan ilmiy tadqiqot ishlari positron-emission tomografiya metodining yaratilishiga asos bo‘ldi.

**Pozitron-emission tomografiya** – bu onkologik, kardiologik va nevrologik kasallikkarga erta tashxis qo‘yishning aniq va zamonaviy usuli bo‘lib qolmoqda (**4.2-rasm**).

Pozitron-emission tomografiya quyidagi sohalarda qo‘llaniladi:

1. *Onkologiyada: saraton kasalligini tashxislashda, metastazaga tashxis qo‘yishda, saratonni samarali davoshni nazorat qilishda;*
2. *Kardiologiyada: yurakning ishemik kasalligida, aortokoronar shuntlashdan oldin;*
3. *Nevrologiyada: parishonxotir skleroz va boshqa kasallikkarda;*
4. *Psixiatriya va gerontologiyada: Alsgeymen kasalligida.*



**4.2-rasm.** Pozitron-emission tomografiyaning umumiy ko‘rinishi.

Radionuklidlarni elektron tezlatkichlar yordamida olish yo'llari ishlab chiqilgan bo'lib, bunda tormozlanish nurlanishlari ishlataladi.

Pozitron-emission tomografiya usuli hujayra darajasida modda almashinuvi haqida axborot olishga imkon beradi.

Hozirgi kunda pozitron emission tomografiyada qo'llanilayotgan radionuklidlar asosan siklotronda olinadi. Elektron tezlatkichlarda va siklotronlarda olinayotgan radionuklidlar bo'yicha ma'lumotlar to'plandi va ular **4.9** va **4.10-jadvallarda** berildi.

#### **4.9-jadval.**

*Pozitron-emission tomografiyada qo'llanilayotgan radionuklidlarni elektron tezlatkichlar yordamida olish.*

Radionuklid	Yarim parchalanish davri, $T_{1/2}$	Radionuklidni hosil qiladigan reaksiyalar
$^{11}\text{C}$	20.38 m	$^{12}\text{C}(\gamma,n)^{11}\text{C}$ , $^{16}\text{O}(\gamma,\text{nb})^{11}\text{C}$ $^{14}\text{N}(\gamma,t)^{11}\text{C}$ $^{14}\text{N}(\gamma,\text{nd})^{11}\text{C}$ , $^{14}\text{N}(\gamma,p2n)^{11}\text{C}$
$^{13}\text{N}$	9.98 m	$^{14}\text{N}(\gamma,n)^{13}\text{N}$ $^{16}\text{O}(\gamma,t)^{13}\text{N}$ $^{16}\text{O}(\gamma,\text{nd})^{13}\text{N}$ , $^{16}\text{O}(\gamma,p2n)^{13}\text{N}$
$^{15}\text{O}$	122 s	$^{16}\text{O}(\gamma,n)^{15}\text{O}$
$^{18}\text{F}$	109.8 m	$^{23}\text{Na}(\gamma,\text{nb})^{18}\text{F}$ , $^{19}\text{F}(\gamma,n)^{18}\text{F}$ $^{20}\text{Ne}(\gamma,d)^{18}\text{F}$ , $^{20}\text{Ne}(\gamma,pn)^{18}\text{F}$

**4.9-jadvalda** elektron tezlatkichda olinayotgan radionuklidlar va ularni hosil qiladigan fotoyadro reaksiyalar keltirilgan. Shuningdek, bu jadvalda hozirgi kunda radionuklidlarni olishda qo'llanilayotgan asosiy fotoyadro reaksiyalarini ko'rsatilgan. Bu jadvalga qo'shimcha olishi mumkin bo'lgan fotoyadro reaksiyalarni ham kirtdik, ular intensivligi katta bo'lgan elektron tezlatkichlarda amalga oshishi mumkin.

## 4.10-jadval.

Siklotron yordamida olinadigan radionuklidlar.

Radionuklid	Yarim parchalanish davri, $T_{1/2}$	Radionuklidni hosil qiladigan reaksiyalar
$^{11}\text{C}$	20.38 m	$^{10}\text{B}$ ( $d, n$ ) $^{11}\text{B}$ ( $d, 2n$ ) $^9\text{Be}$ ( $^3\text{Ne}, n$ ) $^{14}\text{N}$ ( $p, \alpha$ ) $^{12}\text{C}$ ( $^3\text{Ne}, \alpha$ ) $^{12}\text{C}$ ( $p, pn$ )
$^{13}\text{N}$	9.98 m	$^{12}\text{C}$ ( $d, n$ )
$^{15}\text{O}$	122 s	$^{14}\text{N}$ ( $d, n$ )
$^{18}\text{F}$	109.8 m	$^{16}\text{O}$ ( $^3\text{He}, n$ ) $^{16}\text{O}$ ( $\alpha, pn$ ) $^{18}\text{O}$ ( $p, n$ ) $^{20}\text{Ne}$ ( $d, \alpha$ )


**4.10-jadvalda** siklotronda olinayotgan radionuklidlar va ularni hosil qiluvchi yadro reaksiyalari keltirilgan.

## 4.11-§. Pozitron emission tomografiyaning ishlash tamoyili


Mazkur metod pozitronlarning elektronlar bilan annigilatsiya bo‘lishi natijasida hosil bo‘ladigan gamma-kvantlar juftligini qayd qilishga asoslangan. Pozitron (inglizcha so‘zdan olingan bo‘lib, positive – musbat va elektron – elektron, ya’ni musbat zaryadlangan elektron) elektronning antizarrasi hisoblanadi. Pozitronning massasi va elektr zaryadining absolut qiymati mos ravishda elektron massasi va zaryadiga teng. Pozitron turg‘un zarra hisoblanadi, lekin u modda elektronlari bilan ta’sirlashib annigilatsiya natijasida qisqa vaqt yashaydi. Masalan qo‘rg‘oshinda pozitron  $5 \cdot 10^{-11}$  s davomida annigilatsiyaga uchraydi. «Annigilatsiya» termini (annihilation) yo‘q bo‘lish, yo‘qlikka aylanish ma’nosini beradi. Pozitron bilan elektron to‘qnashganda annigilatsiya hodisasi sodir bo‘ladi. Annigilatsiya natijasida asosan ikkita gamma-kvant hosil bo‘ladi va ular o‘zaro  $180^\circ$  burchak ostida sochiladi (**4.3-rasm va 4.4-rasm**):

$$e^- + e^+ \rightarrow \gamma + \gamma \quad \text{yoki} \quad \beta^- + \beta^+ \rightarrow \gamma + \gamma \quad (4.14)$$

**Pozitronlar qayerdan paydo bo'ladi**, degan savolga javob beramiz. Pozitronlar radioaktiv parchalanish tufayli paydo bo'ladi. Atom yadrosining o'z-o'zidan bir yoki bir nechta zarralar chiqarib parchalanish (yemirilish) hodisasi radioaktivlik deb ataladi. Radioaktivlik hodisasi yuz beradigan yadrolarga radioaktiv yadrolar deyiladi. Radioaktiv bo'lmagan yadrolar esa turg'un (stabil) yadrolar deyiladi.



**4.3-rasm.** Gamma-kvant hosil bo'lishi.



**4.4-rasm.** Gamma-kvant hosil bo'lishi.

PET qo'llaniladigan radionuklidlar turlari va ularidan chiqayotgan pozitronlarning biologik to'qimalarda maksimal yugurish yo'li **4.11-jadvalda** keltirilgan. Bu yerda  $L_{\max}$  – pozitronning biologik to'qimalarda maksimal yugurish yo'li. Yugurish yo'li qancha katta bo'lsa, metodning fazoviy ajratish qobiliyati shunchalik yomonlashadi. Ammo bu holda tashxis qo'yish chuqurligi oshadi. Shu sababli tashxis qo'yishda chuqurligini e'tiborga olgan holda turli radionuklidlar qo'llaniladi.

#### **4.11 jadval.**

*Pozitron-emission tomografiyada qo'llanilayotgan radionuklidlar va ularidan chiqayotgan pozitronlarning biologik to'qimalarda maksimal yugurish yo'li.*

Izotop	$L_{\max}$ , mm
$^{18}\text{F}$	2,6
$^{11}\text{C}$	3,8
$^{68}\text{Ga}$	9,0
$^{82}\text{Rb}$	16,5

PET qo'llanilayotgan radioizotoplarning hammasi pozitron chiqarish yo'li bilan parchalanadi. Parchalanayotgan yadro tomonidan chiqarilgan pozitron ( $B^+$ ) yaqinida joylashgan atomning elektronlari bilan to'qnashguncha qisqa masofani (yo'lni) bosib o'tadi.


Pozitron birichi uchragan atom elektroni bilan birikadi va pozitroniya hosil qiladi. Pozitroniya, elektron va pozitronlar spinlarining o'zaro joylashuviga qarab, ortopozitroniya (spinlari parallel) va parapozitroniya (spinlari antiparallel)ga farqlanadi. Pozitroniya nostabil sistema bo'lib, u elektron va pozitron annigilatsiyasi jarayonida qatnashadi. Zaryad juftligini saqlanish qonunidan parapozitroniya ikkita gamma-kvantga ( $1,25 \cdot 10^{-10}$ s ichida) va ortopozitroniya uchta gamma-kvantga ( $1,4 \cdot 10^{-7}$ s ichida) parchalanadi. PET uchun bu vaqt juda ham kichik bo'lgani uchun ular deyarli «bir zumda» parchalanadi. Elektron va pozitronning nisbiy tezliklari katta bo'lmasa, ular ba'zida pozitroniy atomini tashkil qiladi. Uchta gamma-kvantga parchalanish ehtimolligi juda kam bo'ladi.

Pozitroniy atomlari parchalanganda elektron va pozitron annigilatsiyalarini va ularning o'rniiga energiyasi 511 keV bo'lgan ikkita gamma-kvantlar hosil bo'ladi. Bu gamma-kvantlar qarama-qarshi yo'nalishda, ya'ni 180 daraja ostida yo'nalgan bo'ladi. Ushbu fotonlar jismdan (inson tanasidan) tashqariga osongina chiqib ketadi va ularni tashqi detektorlar (qayd qiluvchi qurilmalar) qayd qilishi mumkin. Mazkur detektorlar annigilatsiya natijasida hosil bo'lgan gamma-kvantlarni qayd qiladi. Sababi ular mos tushish sxemasiga ulangan bo'ladi, ya'ni bir vaqtida va o'zaro 180 daraja ostida chiqayotgan gamma-kvantlar detektorlar yordamida qayd qilinadi.


Mos tushish spektrlar qayd qilish sxemasida pozitron tomografiyada tomografik tasvirlarni shakillantirishda qo'llaniladi. Obyekt ichida radioaktiv parchalanish intensivligining kartasini olish uchun bu ma'lumotlar rekonstruksiya qilinadi (molekular zondning fazoviy taqsimoti rekonstruksiyasi). Radiatsion maydon intensivligidagi anomaliyani aniqlash maqsadida olingan tasvirlar maxsus metodlar yordamida tahlil qilinadi. Pozitron molekular zondning konsentratsiyasi oshgan (kamaygan) sohasi inson a'zosining (tarqashi 40 daqqa davom etadi) normal faoliyat ko'rsatmayotganligini bildiradi.

PET tadqiqot jarayonida pozitron-emitatsiya (chiquaruvchi) qiluvchi radioizotop bemor venasiga yoki ingalatsiya yo'llari bilan kiritila-

di. Bundan keyin, radioizotop qon oqimida sirkulatsiya bo'lib, ma'lum bir a'zoga, masalan bosh miyaga yoki yurak muskullariga yetib boradi. Annigilatsiya jarayoni boshlanishi bilan tomograf izotop lokalizatsiyasini (bir joyga to'planishini) qayd qiladi va uning konsentratsiyasini hisoblaydi. Pozitron-emission tomografiya ishlash tamoyili **4.5-rasm**da keltirilgan. Gamma-kvantlar ssintillatsion detektorlar yordamida qayd qilinadi.




**4.5-rasm.** Pozitron-emission tomografiya ishlash tamoyili.  
D – detektor, S – sanagich.



**4.6-rasm.** PET diagnostik (tashxislovchi) qurilmasidagi elektron-pozitron justliklarining annigilatsiyasi.



**4.7-rasm.** Fazoning biror nuqtasida bir vaqtda yuzaga kelgan va qarama-qarshi tomonga yo'nalgan ikki gamma-kvantni qayd qilish sxemasi.



**4.8-rasm.** Tahsil qilinayotgan obyekt atrofiga detektorlar halqasimon ko'rinishida joylashtiriladi.

Mavzu yakunida pozitron-emission tomografiyani qo'llash jaroni bilan tanishib chiqamiz. RFP – bu radioizotop bilan biokimiyoviy birikma qo'shilmasidir. Ko'pchilik holda radioizotop sifatida fтор-18 qo'llaniladi. Bundan tashqari uglerod-11, azot-13 va kislorod-15 va boshqa radioizotoplар ham qo'llaniladi. Biokimiyoviy modda sifatida yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, glukoza qo'llaniladi. Inson hujayrasи RFPni yutadi va ular hujayralarda to'plana boshlaydi. Hujayradagi RFPning radioaktiv parchalanishi (beta parchalanish) natijasida po-

zitron hosil bo'ladi. Ushbu pozitron to'qimada harakatlana boshlaydi. Pozitron uncha katta bo'limgan masofani, ya'ni ~ 1 mm masofani bosib o'tadi. Ushbu vaqt ichida pozitron kinetik energiyasi elektron bilan o'zaro ta'sirlashishi darajasigacha kamayadi va buning natijasida qarama-qarshi tomonga harakatlanadigan ikkita foton (gamma-kvant) hosil bo'ladi (**4.5-rasmga qarang**). Bu ikkita foton bir vaqtida ikkita D detektorlar orqali qayd qilinadi va mos tushgan ushbu signal S sanagichga tushadi, hamda tasvir yasovchi kompyuterga uzatiladi.

Ftor-18 PETda qo'llash uchun optimal xarakteristikaga egadir: nisbatan katta bo'limgan yarim parchalanish davriga va eng kichik nurlanish energiyasiga ega. Ikkinci tomondan ftor-18 nisbatan kichik yarim parchalanish davriga ega bo'lib, bu esa mijozni past doza bilan nurlanishiga va yuqori kontrastli PET tasvir olishga imkon beradi. Ushbu izotopning yarim parchalanish davri boshqa qisqa yashovchi izotoplariga nisbatan kattaligi uchun ftor-18 olingen va bu asosda tayyorlangan RFP ni PET skanerlarga ega bo'lgan boshqa klinika va institatlarda transportirovka qilishga imkon beradi. Shuningdek, PET tadqiqotlar va RFP sintez vaqt chegarasini kengaytirishga imkon beradi. Hozirgi kunda dunyodagi yetakchi korxonalardan biri bo'lgan "Siemens AG" kompaniyasi o'zining PET/CT qurilmalarida  $\text{Lu}_2\text{SiO}_5$  va LSO turdag'i ssintillatsion detektorlarni qo'llamoqda.

Pozitron-emission tomografiyaning qo'llash jarayoni quyidagicha: pozitron-emission tomografiyanı qo'llashdan oldin bemorning venasiga tarkibida qisqa yashovchi radioizotop bo'lgan radiofarmpreparat kiritiladi yoki bemorga ushbu radiofarmpreparat nafas olishi orqali gaz ko'rinishda kiritiladi. Keyin bemor 30-60 daqiqa davomida harakat qilmasdan yotishi kerak bo'ladi. Bu vaqt davomida preparat inson a'zolariga tarqaladi. Bunda bemor o'zini noxush his qilmaydi. Keyin bemor kushetka (zambil) bilan birga halqa ichiga kiritiladi va inson dan chiqayotgan nurlanishlarni detektorlar qayd qila boshlaydi. Keyin esa bu signallar detektorlardan kompyuterga uzatiladi. Bu ma'lumotlar kompyuterda qayta ishlanadi va tasvir hosil qilinadi.

Biz bu yerda tibbiyotning zamonaviy tashxis qo'yish usullaridan bittasi bilan tanishib chiqdik. Hozirda bunday usullar soni kundan kunga ortib bormoqda. Umuman olganda, tibbiyot fizika fani yutuqlari evaziga modernizatsiyalashib bormoqda. Bu esa o'z navbatida juda ko'p kasalliklarni oldindan aniqlashga va davolashga imkon beradi.

## MASALALAR YECHISH UCHUN NAMUNALAR

**1-masala.** Normal sharoitda havo gamma-nurlar bilan nurlantirilmoqda. Nurlanish ekspozitsion dozasi  $D = 258 \text{ mkJ/kg}$  bo'lsa, massasi  $m = 5 \text{ kg}$  bo'lgan havoda qancha energiya yutiladi.

**Yechilishi:** Havoda yutiladigan energiya quyidagiga teng:

$$E = \varepsilon m N \quad (1)$$

bu yerda  $\varepsilon$  – havoni ionlash energiyasi,  $N$  – massa birligidagi ionlar juftligi.

Masalani yechishda gamma-nurlarning hamma energiyasi ionlashga sarf bo'ladi deb faraz qilamiz. Normal sharoitda quruq havoda bitta ionlar juftini hosil qilish uchun zarur bo'lgan energiya  $\varepsilon = 33,85 \text{ eV} = 5,416 \cdot 10^{-18} \text{ J}$  ga teng. Massa birligidagi ionlar juftining miqdori quyidagiga teng:

$$N = \frac{D}{e} \quad (2)$$

bu yerda  $e = 1,6 \cdot 10^{-19} \text{ Kl}$  elementar zaryad. (2) formulani (1) formulaga quyamiz va quyidagi ifodani olamiz:

$$E = \varepsilon m N = \varepsilon m \frac{D}{e} \quad (3)$$

Bu formulaga masala shartidagi kattaliklar qiymatlarini qo'yib hisoblaymiz:  $D = 258 \text{ mkJ/kg} = 258 \cdot 10^{-6} \text{ Kl/kg}$ ;

$$E = \varepsilon m \frac{D}{e} = 4,37 \cdot 10^{-5} \text{ J} = 43,7 \text{ mkJ} \quad (4)$$

**Javob:**  $43,7 \text{ mkJ}$ .

**2-masala.** Kosmik nurlar ta'sirida dengiz sathida  $1 \text{ sm}^3$  havoda 1 daqiqa vaqt davomida 120 ta ionlar jufti hosil bo'lsa, bir sutkada inson oladigan ekspozitsion doza aniqlansin.

**Yechilishi:** Inson  $t$  vaqt davomida oladigan ekspozitsion doza quyidagi ifoda orqali topiladi:

$$D_E = P_E t \quad (1)$$

bu yerda  $D_E$  – ekspozitsion doza,  $P_E$  – ekspozitsion doza quvvati. Bu yerda ekspozitsion doza quvvati:

$$P_3 = \frac{\Delta Q}{\Delta m \cdot \Delta t} \quad (2)$$

bu yerda  $\Delta Q$  – massasi  $\Delta m$  bo‘lgan havoda  $\Delta t$  va t davomida hosil bo‘lgan zaryadlar yig‘indisi. U holda (2) ni (1) ga qo‘yamiz va quyidagi ifodani olamiz:

$$D_e = \frac{\Delta Q}{\Delta m \cdot \Delta t} t \quad (3)$$

Bu yerda havo massasi quyidagiga teng bo‘ladi:

$$\Delta m = \rho \Delta V \quad (4)$$

$\Delta V$  hajmida hosil bo‘ladigan zaryadlar yig‘indisi bir xil ishorali barcha ionlarning zaryadini e elementar zaryadli ionlar soniga ko‘paytmasiga teng:

$$\Delta Q = |e| N \quad (5)$$

(4) va (5) ifodalarni hisobga olsak, (3) formula quyidagi ko‘rinishga keladi:

$$D_e = \frac{|e| \cdot N \cdot t}{\rho \Delta V \cdot \Delta t} \quad (6)$$

Formuladagi kattaliklarni SI birliklari dagi

$$|e| = 1,6 \cdot 10^{-19} \text{ Kl},$$

$$N = 120$$

$$t = 24 \cdot 3600 \text{ s} \quad \rho = 1,29 \cdot \text{kg} / \text{m}^3,$$

$$\Delta V = 1 \cdot 10^{-6} \text{ m}^3, \quad \Delta t = 60 \text{ s}$$

qiymatlaridan ekspozitsion dozani hisoblaymiz:

$$D_E = 21,4 \text{ nKl/kg}$$

**Javob:** 21,4 nKl/kg.

**3-masala.** Aktivligi 50 mKi bo‘lgan  $^{60}\text{So}$  manbaidan nurlangan nurlanishlar dozasini rentgentlarda hisoblang. Manbagacha bo‘lgan masofa 40 sm, ekspozitsiya vaqt esa 6 soatga teng. Agar manbaning dozasi ruxsat etilgan dozadan yuqori (haftada 1 mberdan katta) bo‘lsa, qo‘rg‘oshin himoya ekranining qalinligini aniqlang. *Kobalt-60* gamma doimiysi  $I_\gamma = 13,2 \frac{\text{rentgen} \cdot \text{sm}^2}{\text{MKu} \cdot \text{soat}}$  ga teng. *Kobalt-60* manbaning qo‘rg‘oshindagi yutilish koefitsienti esa  $1 \text{ sm}^{-1}$ .

## **Yechilishi:** Nurlanish dozasi

$$D = I_{\gamma} \frac{A \cdot t}{R^2} = 16,5 \text{ rentgen} \quad (1)$$

bu yerda A – aktivlik, t – vaqt, R – masofa. Qo‘rg‘oshin himoya ekranining qalinligi 7,5 sm dan kam emas.

**4-masala.** Energiyasi  $Y_e = 1 \text{ MeV}$  ga teng bo‘lgan g-kvantlar parallel dastasining qo‘rg‘oshinda ( $Z = 82$ ) va aluminiyda ( $Z = 13$ ) a) yarim susayishi qatlaming qalinligi, b) dastani ikki marta susaytiruvchi qo‘rg‘oshin va aluminiy massalari ( $\text{kg}/\text{m}^2\text{da}$ ) hisoblansin.

**Yechilishi:** Chiziqli to‘liq susayish koeffitsientlari:

$$\mu_{Pb} = 80 \text{ m}^{-1}, \quad \mu_{Al} = 15 \text{ m}^{-1} :$$

zichliklari esa:

$$\rho_{Pb} = 11340 \text{ kg/m}^3, \quad \rho_{Al} = 2700 \frac{\text{kg}}{\text{m}^3} :$$

a) Yarim susayish qalinligi qo‘rg‘oshin uchun:

$$d_{\frac{1}{2}} = 0,693 / \mu_{Pb} = 0,693 / 80 \approx 8,65 \cdot 10^{-3} \text{ m}$$

aluminiy uchun esa  $d_{\frac{1}{2}} = 4,6 \cdot 10^{-2} \text{ m}$ . Massaviy susayish koeffitsientlari, qo‘rg‘oshin uchun,  $\mu_m = \mu / p = 80 / 11340 \approx 7 \cdot 10^{-2} \text{ m}^2/\text{kg}$ , aluminiy uchun esa  $\mu_m = 5,55 \cdot 10^{-3} \text{ m}^2 / \text{kg}$  ga teng.

b) Dastani ikki marta susaytiruvchi qo‘rg‘oshindan bo‘lgan nishon massasi

$$\mu_{Pb} = p_{Pb} d_{\frac{1}{2}} = 11340 \cdot 8,65 \cdot 10^{-3} = 98,7 \text{ kg/m}^2,$$

aluminiy uchun esa  $\mu_{Al} = 12,4 \text{ kg/m}^2$  ga teng.

**5-masala.** Massasi  $10^{-6} \text{ g}$  bo‘lgan  $^{60}\text{So}$  nuqtaviy manbadan qanday R masofada, olti soatlik ish kunida oladigan doza, ruxsat etilgan doza ga teng bo‘ladi?

**Yechilishi:** Massasi  $10^{-6} \text{ g}$  nuqtaviy  $^{60}\text{Co}$  manbadagi atomlar miqdori:

$$N = \frac{m}{M} N_A = \frac{1,0 \cdot 10^{-9}}{60} 6,02 \cdot 10^{26} = 1,0 \cdot 10^{16} \text{ ta atomga teng.}$$

Kobalt aktivligi ( $T_{\frac{1}{2}} = 5,27$  yil):

$$A = \lambda N = \frac{0,693}{5,27 \cdot 3,15 \cdot 10^7} \cdot \frac{1,0 \cdot 10^{16}}{3,7 \cdot 10^7} = 1,13 mKu \quad (1)$$

olti soatlik ish kunida chegaraviy ruxsat etilgan doza quvvati

$$P_{R.d.} = 2,8 \cdot 10^{-2} ber / g:$$

Nuqtaviy manbadan chiqayotgan  $\gamma$ -kvantlarning havodagi ekspozitsion dozasi  $K_{\gamma}$  ionizatsion doimiy bilan ifodalanadi. Kobalt  $^{60}\text{So}$  nuqtaviy manba uchun

$$K_{\gamma} (^{60}\text{Co}) = 12,93 Psm^2 / (soat.mKu)$$

$$P(R) = AK_{\gamma} / R^2 \quad (2)$$

bu yerda  $P$  – ekspozitsion doza, R/soat

$A$  –  $\gamma$ -manbaning mKu lardagi aktivligi.

$R$  – manbagacha bo‘lgan masofa (sm).

Ushbu formuladan R topamiz:

$$R = \sqrt{AK_{\gamma} / P_{p.g.}} = \sqrt{1,13 \cdot 12,93 / 2,8 \cdot 10^{-2}} \approx 72 sm. \quad (3)$$

**Javob:**  $R = 72$  sm.

## MUSTAQIL YECHISH UCHUN MASALALAR

- 4.1.** Energiyasi 0,6 MeV bo‘lgan nozik gamma-nurlar dastasining yarim yutilish qatlaming qalinligini beton uchun aniqlang. (*Javob: 35,46*).
- 4.2.** Nozik gamma-nurlar manbasini (gamma-kvant energiyasi 1,6 MeV) suvgaga qanday chuqurlikgacha botirilganda suvdan chiqayotgan gamma-nurlar intensivligi 1000 marta kamayadi? (*Javob: 115 sm*).
- 4.3.** Ionlovchi rentgen nurlar ekspozitsion dozasi 1 R bo‘lganda normal sharoitda  $1 \text{ sm}^3$  havodagi molekulalarning qancha ulushi ionlanadi? (*Javob:  $0,8 \cdot 10^{-10}$* ).
- 4.4.** Energiyasi 1 MeV bo‘lgan gamma-kvantlar 10 sm qalinligidagi aluminiydan o‘tganda uning intensivligining 5 marta kamayishi, asosan Kompton effekti tufayli bo‘ladi. Gamma-kvant intensivligini kamayishi 10 sm qo‘rg‘oshindan o‘tganda 3000 marta bo‘lsa, ularni qo‘rg‘oshindagi fotoutilish kesimini toping (*Javob: 6,3 barn*).

## **NAZORAT SAVOLLARI**

1. Yutilgan doza va uning o'chov birliklari.
2. Nurlanish dozasi va doza quvvati nima?
3. Sifat koeffitsienti nima?
4.  $\gamma$  – nurlanish dozimetriyasi.
5.  $\beta$  – nurlanish dozimetriyasi.
6.  $\alpha$  – zarralar va protonlar dozimetriyasi.
7. Neytron murlanish dozimetriyasi.
8. Chegaraviy ruxsat etilgan nurlanish.
9. Nuqtaviy manbaning doza quvvati.
10. Radioaktiv fon nima?
11. Radioaktiv fon qanday manbalar hisobiga vujudga keladi?

## **TEST SAVOLLARI**

**1. Quyidagi nurlanishlarning qaysi biri bilvosita ionlovchi nurlanishlarga kiradi?**

- A) Ionlar va myuonlar
- B) Elektron, pozitron, proton va ionlar
- C) Kosmik nurlar dastasi
- D) Rentgen va gamma-nurlanishlar

**2. Aktivlik o'chov birligi qilib nima qabul qilingan?**

- A) Kg/m
- B) J/s.
- C) Ion/s.
- D) Bk.

**3. Nurlanish dozasi deb qanday kattalikka aytildi?**

A) Har qanday modda, tirk organizm va uning to'qimalari ta'sir darajasini baholash uchun qo'llaniladigan kattalikka aytildi

B) Har qanday moddaning birlik massasida yutilgan nurlanish energiyasi

C) Har qanday moddaning birlik massasida yutilgan issiqlik miqdori

D) Har qanday modda massasining uning hajmiga nisbatiga

**4. Yutilgan doza deb qanday kattalikka aytildi?**

A) Birlik hajmda yutilgan energiya

B) Moddaning birlik massasida yutilgan nurlanish energiyasi

- C) Moddaning birlik massasida yutilgan issiqlik miqdori  
D) Modda massasining uning hajmiga nisbatiga

5. *Yutilgan doza o'chov birligi sifatida nima qabul qilingan?*

- A) Kg/m      B) J/kg      C) Ion/s      D) Gr

6. *Yutilgan doza qanday formula bilan aniqlanadi?*

- A)  $D=dE/dm$       C)  $D=dP/dm$   
B)  $D=dE/dm+dV$       D)  $D=dE/dt.$

7. *Ekspozitsion doza deb qanday kattalikka aytildi?*

- A) Havoning birlik hajmidagi bir xil ishorali ionlar zaryadlar yig'indisining shu hajmdagi havo massasiga nisbatiga aytildi  
B) Havoning birlik massasida yutilgan nurlanish energiyasi  
C) Havoning moddaning birlik massasida yutilgan issiqlik miqdori  
D) Havo massasining uning hajmiga nisbatiga

8. *Ekspozitsion doza o'chov birligi sifatida nima qabul qilingan?*

- A) Kl/kg      B) J/kg      C) ion/s      D) Gr

9. *Ekspozitsion doza qanday formula bilan aniqlanadi?*

- A)  $D=dE/dm$       C)  $D=dQ/dm$   
B)  $D=dE/dm+dV$       D)  $D=dE/dt.$

10. *Grey (Gr) o'chov birligi qanday kattalik bilan o'chanadi?*

- A) Gamma-ekvivalent      C) Doza quvvati  
B) Yutilgan doza      D) Radioaktivlik

11. *Effektiv doza deb qanday kattalikka aytildi?*

- A) Inson butun tanasi va uning alohida a'zolari hamda to'qimalari ularning radiosezgirligini e'tiborga olgan holda nurlanishi oqibatida uzoq kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavfning o'chovi sifatida qo'llaniladigan kattalik

B) Havoning birlik massasida yutilgan nurlanish energiyasini belgilovchi kattalik bo'lib, u doza kattaligini ko'rsatadi

C) Havoning moddaning birlik massasida yutilgan issiqlik miqdorining o'chov birligi bo'lib, u issiqlikning moddalarda tarqalishini ko'rsatadi

D) Havo massasining uning hajmiga nisbatiga, ya'ni havoning zichlidigidir.

12. *Radiatsiyaning atomlar bilan o'zaro ta'sirlashishi ... olib keladi.*

A) Ionizatsiyaga

B) Rentgen nurlanishlar hosil bo‘lishi jarayoniga

C) Annigilyatsiya hodisasiga

D) Radioaktivlikka

**13. Zivert(Zv) o‘chov birligida qanday kattalik o‘chanadi?**

A) Ekvivalent doza

C) Doza quvvati

B) Yutilgan doza

D) Ekspozitsion

**14. Sifat koefitsienti qanday nurlanishlar uchun 1 ga teng bo‘ladi?**

A) Rentgen va gamma-nurlanishlar, elektronlar, pozitronlar

B) Alfa-zarralar,  $Ye_{kin} < 10 \text{ MeV}$ ; og‘ir yadrolar

C) Neytronlar,  $0.1 < Ye_{kin} < 10 \text{ MeV}$ ; protonlar,  $Ye_{kin} < 10 \text{ MeV}$

D) Neytronlar,  $Ye_{kin} < 0.02 \text{ MeV}$

**15. Alfa-nurlanishlar qanday zarralar oqimidan iborat?**

A) Geliy yadrolaridan

C) Pozitronlardan

B) Elektronlardan

D) Protonlardan

**16. Tabiiy fon qanday bo‘lgan xavfsiz hisoblanadi?**

A) 25 mkR/soat

C) 430 mkR/soat

B) 150 mkR/soat

D) 122 mkR/soat

**17. Doza quvvati obyektgacha bo‘lgan masofa oshishi bilan ...**

A) Masofaga teskari proporsional ravishda kamayadi

B) Masofaga to‘g‘ri proporsional ravishda oshadi

C) Masofaga teskari proporsional ravishda oshadi

D) Masofaning kvadratiga teskari proporsional ravishda kamayadi

**18. Quyidagi radioizotoplarning qaysi birlari PET qo‘llaniladi?**

A)  $^{11}\text{S}$ ,  $^{13}\text{N}$ ,  $^{15}\text{O}$ ,  $^{18}\text{F}$

C)  $^{13}\text{S}$ ,  $^{14}\text{N}$ ,  $^{16}\text{O}$ ,  $^{19}\text{F}$

B)  $^{22}\text{Na}$ ,  $^{63}\text{Cu}$ ,  $^{16}\text{O}$ ,  $^{53}\text{Fe}$

D)  $^{12}\text{S}$ ,  $^{14}\text{N}$ ,  $^{111}\text{In}$ ,  $^{19}\text{F}$

**19. Radiofarmpreparatlar (RFP) nima?**

A) Tarkibida radionuklid bo‘lgan modda bo‘lib, u inson a’zolarida ma’lum bir diagnostik masalalarni hal qilishga imkon beradi

B) Tarkibida radionuklid, farmakinetika bo‘lgan kimyoviy birikmalar kompleksi bo‘lib, u inson a’zolarida ma’lum bir diagnostik masalalarni hal qilishga imkon beradi

C) Tarkibida farmakinetika bo‘lgan kimyoviy birikmalar kompleksi bo‘lib, u inson a’zolarida ma’lum bir diagnostik masalalarni hal qilishga imkon beradi

D) Tarkibida vitaminlar bo‘lgan kimyoviy birikmalar kompleksi bo‘lib, u inson a’zolarida ma’lum bir diagnostik masalalarni hal qilishga imkon beradi

*20. 1933-yilda nemis biokimyogari Varburg (Otto Genrix Varburg) nimani aniqlagan?*

A) Xavfli shish (o‘sma) yuqori darajada glukoza iste’mol qilishini aniqladi

B) Xavfli shish (o‘sma) yuqori darajada vitaminlar iste’mol qilishini aniqladi

C) Xavfli shish (o‘sma) yuqori darajada temir moddasini iste’mol qilishini aniqladi

D) Xavfli shish (o‘sma) yuqori darajada mis moddasini iste’mol qilishini aniqladi

**AKTIVATSION TAHLIL**

Yadro fizikasi va analitik kimyo fanlari chegarasida yangi yo'nalish – yadro-fizikaviy tahlil metodi vujudga keldi. Ushbu metod paydo bo'lishidan oldin, modda tarkibining element tahlili faqat analitik kimyo yordamida amalga oshirilgan. Hozirgi kunda bunday metodlarning soni ellikdan oshdi. Bu metodlar aktivatsiya sifatida qo'llanilayotgan zarralar va o'lhash metodlari bilan farq qiladi. Yadro-fizikaviy metodlar quyidagi turlarga bo'linadi: rentgenoradiometrik metod (rentgenofluoressent va rentgenoabsorbsion tahlil metodlari), neytron metod (neytron-radiatsion, neytron-aktivatsion tahlil metodlari), fotoyadroviy metod (foto-neytron, foto-aktivatsion yoki gamma-aktivatsion tahlil metodlari), zaryadlangan zarralar tahlil metodi (onyi nurlanishlarni qayd qilish va aktivatsion tahlil metodlari). Shuningdek, yadro-fizikaviy metodlarga Rezerford teskari sochilish metodini ham kiritishadi.

Mazkur bobda aktivatsion tahlil metodining fizikaviy asoslar, metodlari, uni tavsiflovchi asosiy fizikaviy kattaliklar va umumiy yo'nalishlariga to'xtalib o'tiladi.

**5.1-§. Aktivatsion tahlil metodi**

Zamonaviy fan va texnika, murakkab moddalarning kimyoviy tarkibi, toza metall va yarim o'tkazgichlarda mikroaralashmalar haqida yanada aniq ma'lumotlar berishni talab qilmoqda. Masalan, tranzistorlar ishlab chiqarish texnologiyasining yanada rivojlanishiga, germaniy va kremniy tarkibidagi juda kam miqdordagi aralashmalarni aniqlashda erishilgan yutuqlar sabab bo'ldi. Bunday kam miqdordagi aralashmalarni aniqlash uchun zamonaviy yadro-fizikaviy metodlarni qo'llash kerak bo'ladi. Yadro fizika va analitik kimyo orasida vujudga kelgan va keyingi yillarda fan va texnikaning turli sohalarida keng qo'llanilayotgan metodlardan biri bu aktivatsion tahlildir. Aktivatsion tahlil metodi modda tarkibini aniqlovchi metod bo'lib, u atom yadrosini aktivatsiya qilish va yadroning nuklon tarkibi yoki energetik holatlarining o'zgarishlari natijasida vujudga keladigan radioaktiv nurlanishlarni tadqiq qilishga asoslangan.



D. Xevishi (1885–1966)

Aktivatsion tahlil metodi modda tarkibini aniqlovchi yadro-fizikaviy metodlardan biridir. Ushbu metod birinchi bo'lib venger olimlari D. Xevishi (D. Hevesy) va G. Levi (Levi) tomonidan 1936-yilda taklif etilgan. D. Xevishi radiokimyoiy va aktivatsion tahlil sohasida olib borgan ilmiy ishlari uchun 1943-yilda Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan. Hozirgi kunda aktivatsion tahlil metodining sanoatda, geologiyada va xalq ho'jaligining turli sohalarda keng qo'llanishiga misol qilib, Navoiy

tog'-kon kombinatida oltin miqdorini aniqlash va Polshaning Lyubinskiy mis ruda kombinatidagi ruda tarkibidagi mis miqdorlarini aniqlash bo'yicha sanoat miqyosidagi ishlayotgan aktivatsion laboratoriyalarni aytish mumkin.

Aktivatsion tahlilning muvaffaqiyatlari qo'llanishiga yana bir misol qilib, Napoleon Bonapart sochini o'rganish bo'yicha o'tkazilgan tajribani keltirish mumkin. Napoleon soch tolalaridan olingan namunani yadro reaktorida nurlantirish natijasida hosil bo'lgan radioizotoplarning aktivligini (induksiyalangan aktivligini) o'lchan orqali uning tarkibida margimush (mishyak As) borligi aniqlandi. Bu ma'lumotlar asosida Napoleon o'limidan oldin ma'lum vaqt davomida tarkibida margimush bo'lgan ovqat iste'mol qilgan degan xulosaga kelingan. Bunday juda kam miqdordagi margimushni aniqlash uchun qo'llanayotgan metod o'ta katta sezgirlikka ega bo'lishi lozim. Yuqori sezgirlik, bu aktivatsion tahlil metodi tabiatiga xos bo'lib, u moddani yuqori o'tish qobiliyatiga ega bo'lgan nurlanishlar, ya'ni neytronlar, zaryadlangan zarralar va gamma-kvantlar bilan nurlantirish jarayonida hosil bo'ladigan har bir radioaktiv yadrolar parchalanishini qayd qilishdan kelib chiqadi.

Bir guruh ingliz va amerikalik tadqiqotchilar buyuk ingliz olimi Isaak Nyuton xatlarini o'rganish orqali uning kasalligiga asosiy sabab, simobdan zaharlanishidir deb taxmin qilishadi. Uning simob bilan tajribalar o'tkazganligi haqida yetarlicha ma'lumotlar saqlanib qolgan. Oldermastondagi ingliz yadro tadqiqotlar markazi xodimlari I. Nyutonga tegishli bo'lgan soch tolalarining tarkibini neytron-aktivatsion metodi bilan tahlil qiladilar. Tajribada Nyuton sochi tolalaridan olingan na-

munani yadro reaktorida neytronlar oqimi bilan 5 kundan 14 kungacha nurlantiriladi. Tahlil metodi sochdag'i natriy, xlor, marganes, brom, rux, aluminiy, oltin va simob elementlar konsentratsiyalarini aniqlashga imkon berdi. Nyuton sochida inson organizimi uchun zaharli bo'lgan metallarning to'planishi normadan ancha yuqori, simob miqdori esa normadagidan 40 marta ortiq ekanligini ko'rsatdi. Olingan natijalar olimlar taxminini isbotladi.

Aktivatsion tahlil metodi kriminalistikada ham keng qo'llanilmoqda. Bunga misol qilib XX asrning o'ttalarida Kanadaning Edmundston shahrchasida sodir bo'lgan jinoyatning ochilish jarayoni ni keltirish mumkin. 1958-yil 13-mayda Kanada – Amerika chegarasi yaqinidagi Kanadaning Edmundston shaharchasida 16 yoshli Gaetan Bushar ismli qizning murdasi topiladi. Mazkur ish bo'yicha mavjud bo'lgan bilvosita dalillar asosida Edmundstonga ish bo'yicha kelgan yosh amerikalik Jon Follmen gumon qilinadi. Ammo u mazkur jinoyatga aloqadorligini qat'iy inkor qiladi. Tergov ishlari bevosita dalil-larga muhtoj edi. Busharning murdasi sinchiklab ko'zdan kechirilganda uning qo'lida siqilib qolgan bitta soch tolasi borligi aniqlanadi. Ushbu soch tolasi qizniki yoki qotilniki bo'lishi mumkin edi.

Bitta soch tolasi bilan uning kimga tegishli ekanligini aniqlash mumkinmi? Bunday savol bilan politsiyachilar neytron aktivatsion tahlil bo'yicha mutaxassis Robert Jerviga murojaat qiladilar. Bu savolga javob berish uchun murakkab tadqiqotlar olib borishga to'g'ri keladi. Mazkur tadqiqotlarining asosiy g'oyasi shundan iboratki, bunda har bir insonning sochi o'zining takrorlanmaydigan mikroelementlar to'plami va konsentratsiyasi (miqdori) bilan tavsiflanadi. Buni to'g'ri ekanligini isbot qilish uchun Jervi o'nlab kishilarning sochlarini tekshirib chiqishga to'g'ri keldi. Izchillik bilan olib borilgan izlanishlar natijasida qizning qo'lidan topilgan soch tolasi Follmenga tegishli ekani oydinlashdi. Bu uning qotil ekanligining isboti edi. Bu masalani aktivatsion tahlil metodidan tashqari boshqa hech qanday metod hal qilishga ku-chi yetmas edi. Axir bu yerda gap inson soch tolasidagi konsentratsiyasi  $10^{-6}$  % dan oshmaydigan mishyak, natriy, mis, rux, brom elementlari haqida edi.

Aktivatsion tahlil arxeologiyada ham keng qo'llanilmoqda. Olimlar po'latdan yasalgan mashhur Damashq qılıchi tarkibagi uglerod miqdo-

rini va bronzadan yasalgan san'at asari tarkibidagi Fe, Ni, Zn, Sn va Pb elementlar miqdorlarini aniqlaganlar.

## 5.2-§. Miqdoriy natijalarini olish usullari

Olingen (yoki induksiyalangan) aktivlik ( $A_i$ ) kattaligi bombardion qilinayotgan nurlanish oqimi ( $f$ ), aktivatsiya qilinayotgan elementdag'i yadrolar soni ( $N$ ), aktivatsiya kesimi ( $\sigma$ ), hosil bo'lgan izotoplarning yarim parchalanish davri ( $T_{1/2}$ ) va aktivatsiya vaqtiga bog'liq bo'lib, quyidagi munosabatga bo'y sunadi:

$$A_i = f \sigma N (1 - e^{-0.693t/T_{1/2}}). \quad (5.1)$$

Aktivatsion tahlil metodida miqdoriy natijalarini olish uchun absolut, nisbiy va monitor metodlari qo'llanishi mumkin.

**Absolut metod.** Absolut metod, aktivatsiya qilinayotgan element yadrolar sonini ( $N$ ) kiritilgan aktivlik kattaligini o'lhash yo'li bilan aniqlashga asoslangan. Yuqorida keltirilgan tenglamadan kelib chiqqan holda, o'lchanan absolut aktivlik  $A_i$ , ma'lum nurlanish va o'lhash shartlari ( $f$ ,  $t_{nur}$ ,  $t_{o'lch}$ ) va yadro parametrlarining jadvaldagi qiymatlari ( $\sigma$ ,  $A$ ,  $\theta$ ,  $\lambda$ ) bo'yicha element miqdorini aniqlash mumkin.

Shunday o'lhashlar borki, bu o'lhashlarda etalon manbalarni tayyorlab bo'lmaydi. Bunday holatda o'lhashning absolut metodini qo'llashga to'g'ri keladi. Absolut metodni amalga oshirishda bir qator qiyinchiliklar mavjud. Buning uchun bir nechta qiymatlarni son katta liklarini bilishga to'g'ri keladi. Bu kattaliklarga quyidagilar kiradi:

- nurlanishlar oqimining quvvati;
- reaksiyaning kesim kattaligi;
- detektorning effektivligi;
- o'lhash geometriyasiga kiritilgan tuzatma.

Absolut metodning yana bir kamchiligi bu aktivatsiya kesimining aniqlash xatoligiga bog'lanishidir. Bu kattalik nisbatan katta xatolik bilan aniqlanadi.

**Nisbiy (Etalon) metod.** Absolut metodga xos bo'lgan ayrim kamchiliklardan xoli bo'lgan metod etalonlar metodi hisoblanadi. Ushbu metodda tahlil qilinayotgan namuna bilan birgalikda tarkibida aniqlanyotgan elementning miqdori ma'lum bo'lgan yoki asosan shu elementdan tashkil topgan modda – etalon nurlantiriladi. Nurlanish tugagandan

keyin aktivatsion tahlilning instrumental yoki radiokimyoviy variandi qo'llanilishi mumkin. Ikkala holda ham tekshirilayotgan namuna va etalon aktivligi bir xil tajriba geometriyasida o'lchanadi. Bunda aniqlanishi lozim bo'lgan element miqdori quyidagi munosabat yordamida aniqlanadi:

$$\frac{m_x}{m_{et}} = \frac{A_x}{A_{et}}, \quad (5.2)$$

bu yerda  $m_x$  va  $m_{et}$  – mos holda namuna va etalondagi element miqdori,  $A_x$  va  $A_{et}$  – mos holda namuna va etalonlarning aktivligi. Agar o'lhashlar g-spektrometrda va bir xil sharoitda (bir xil o'lhash vaqtiga va geometriyasida) olib borilayotgan bo'lsa, unda aktivlik o'rniga g-spektrdagি fotocho'qqi yuzasini ishlatish mumkin.

Etalon metodida nurlantirilayotgan zarralar yoki g-kvantlar oqim zichligini aniq bilishga hojat qolmaydi. Bu holdagi muhim shartlaridan biri, etalon va namuna egallagan hajmda oqim zichligi bir xil bo'lishi lozim. Shuningdek, nurlanish davomida oqim intensivligi o'zgarmasdan turishga ham talab shart bo'lmay qoladi. Aktivatsiya kesimi kattaligining xatoligiga va nurlanish spektridagi energetik o'zgarishlar oxirgi natijaga ta'sir qilmaydi. Absolut o'lhashlar o'rniga nisbiy o'lhashlarni qo'llash aktivatsion tahlil o'tkazish jarayonini osonlashtiradi va metodining aniqligini oshiradi.

**Monitor metodi.** Monitor metodining asosiy mazmuni nurlanish jarayonini, ya'ni aktivatsiya qilayotgan zarralar (g-kvantlar) oqimi yoki intesivligini nazorat qilishdan iboratdir. Ushbu metodda monitor va etalon birgalikda nurlantiriladi hamda ularning aktivliklari o'lchanadi. Xuddi shunday jarayon namuna uchun ham bajariladi, ya'ni monitor va etalon birgalikda nurlantiriladi va ularning aktivliklari o'lchanadi. Miqdoriy natija quyidagi munosabat yordamida aniqlanadi:

$$m_x = \frac{A_x}{A_{et}} \cdot \frac{A_{met}}{A_{mx}} \cdot m_{et}. \quad (5.3)$$

bu yerda  $m_x$  va  $m_{et}$  – mos holda namuna va etalondagi element miqdori,  $A_x$  va  $A_{et}$  – mos holda namuna va etalonlarning aktivligi,  $A_{mx}$  va  $A_{met}$  – mos holda namuna va etalon monitorlarining aktivligi.

Monitor metodi yordamida bir vaqtida bir nechta elementni aniqlash mumkin. Bu esa o‘z navbatida eksperess va ko‘p elementli aktivatsion tahlilni amalga oshirishga imkon beradi. Monitor sifatida aktivatsiya kesimlari katta va yarim yemirilish davri o‘lchashga qo‘lay bo‘lgan elementlar yoki brikmalar olinadi. Monitor tanlash aktivatsion tahlil turiga ham bog‘liq bo‘ladi. Masalan, issiqlik neytronlar ta’siri ostida aktivatsion tahlil amalga oshirilayotgan bo‘lsa, oltin, kobalt, marganes, mis va boshqa elementlar, shuningdek, ba’zi bir qotishmalar (kobalt va aluminiy qotishmasi) ham qo‘llaniladi. Aktivatsion tahlil jarayonini amalga oshirganda bitta yoki bir shaklda bo‘lgan bir nechta monitorlar qo‘llaniladi. Monitor sifatida ishlatilgan modda shunday ko‘rinishda bo‘lishi kerakki, undan bir nechta standart monitorlarni tayyorlash mumkin bo‘lsin. Ko‘pchilik hollar monitor folga yoki sim ko‘rinishda bo‘ladi. Hozirgi kunda aktivatsion tahlil metodida asosan monitor metodi keng qo‘llaniladi.

### **5.3-§. Aktivatsion tahlil sezgirligi. Aniqlanish va sezgirlik chegarasi**

Radionuklidlarning (yoki radioizotoplarning) chiqishi quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$Y = \frac{S}{m\Omega\varepsilon I_\gamma(1-e^{-\lambda t_e})e^{-\lambda t_n}}, \quad (5.4)$$

bu yerda  $S$  – gamma-spektrdagи fotocho‘qqining yuzasi,  $m$  – namuna massasi,  $\Omega$  – zarralarni qayd qilish fazoviy burchagi,  $e$  – detektorning gamma-kvantlarni qayd qilish effektivligi,  $I_\gamma$  – gamma-kvantlarning intensivligi,  $t_e$ ,  $t_n$  – mos holda gamma-spektrni o‘lchash va sovitish (nurlanish tugagandan o‘lchashgacha bo‘lgan vaqt) vaqtлari.

Aniqlanish chegarasi sifatida spektrometrning apparatura (tabiiy) fonida 0,3 standart chetlanish bilan aniqlanishi mumkin bo‘lgan element massasi qabul qilingan, ya’ni foydali signallarning minimal impulslarining soni shartli bajarilishi quyidagiga  $N_{min} = 3\sqrt{N_{fon}}$  teng. Agarda analitik gamma-chiziq yuqori energiyali gamma-kvantlarning kompton taqsimotida yotgan bo‘lsa,  $N_{min}$  sifatida analitik cho‘qqi sohasidagi real qayd qilinayotgan fon olinadi. Aniqlanish chegarasi quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$m_{\min} = \frac{3}{S} \sqrt{N_{\text{fon}}} m_s \quad (5.5)$$


bu yerda S – fotocho<sup>+</sup>qqi yuzasi, m – etalondagi element namuna masasi. Ayrim hollarda bu kattalik reaksiya chiqishi orqali ham aniqlanadi:

$$m_{\min} = \frac{3}{Y} \sqrt{N_{\text{fon}}}. \quad (5.6)$$

#### 5.4-§. Aktivatsion tahlilning umumiy yo‘nalishi

Modda tarkibini aktivatsion tahlil qilish usuli ketma-ket bir nechta bosqichlardan iborat. Tahlil vaqtida bu ketma-ketliklarga qat’iy rioxoya qilinadi. Bosqichlar soni va ularning xususiyati tadqiq qilinayotgan modda turiga, aniqlanish chegarasiga, aniqlanayotgan elementlar soniga, nurlanish turlariga va boshqa yana bir nechta omillarga bog‘liq bo‘ladi.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, aktivatsion tahlil, tahlil sxemasi bo‘yicha ikkita bosqichga bo‘linadi, ya’ni instrumental va radiokimyo-viy aktivatsion tahlil. Ikki hol uchun qattiq moddani tahlil qilish usuli **5.1-rasm**da keltirilgan.



**5.1-rasm.** Aktivatsion tahlilning umumiy yo‘nalishi.


Birinchi bosqichda analitik tadqiqotlar uchun yoki ilmiy yoki ishlab chiqarish masalalarini hal qilish uchun nazorat maqsadida obyekt (modda) tanlanadi. Ushbu modda yoki materialning analitik laboratoriya yetib kelguncha bo‘lgan tarixi ma’lum bo‘lishi shart. Bundan tashqari uning birlamcha tarkibi (makrokomponentalarining tarkibi) ham ma’lum bo‘lishi kerak. Yana bir muhim shartlardan biri bu uning massasi yetarli miqdorda bo‘lishidir. Chunki ayrim hollarda zarur bo‘lib qolgan taqdirda qayta tahlil qilishga to‘g‘ri keladi.

Ikkinci bosqichda tahlil uchun mo‘ljallangan namunani nurlanishga tayyorlash. Namuna bu tekshirish uchun berilgan modda yoki materialdan olinib tayyorlanadi. Namuna shakli, etalon va monitor shakkllari bilan bir bo‘lishi lozim. Ko‘pchilik hollarda namunalar disk ko‘rinishida tayyorlanadi. Agar namuna kukun ko‘rinishida bo‘lsa unda bu kukundan tabletka tayyorlanadi. Buning uchun gidravlik presslardan foydalilanildi. Agar namuna metall ko‘rinishida bo‘lsa u holda stanokda disk shakliga keltiriladi. Namunaning massasi, aktivatsion tahlil turiga va nurlanish dozasiga yoki intensivligiga qarab aniqlanadi.


Namuna (monitor) va etalon (monitor)lar maxsus idishlarga joylashtiriladi. Bu idish konteyner deyiladi. Konteynerlar ko‘pchilik hollarda (neytron va gamma-aktivatsion tahlilda) polietilen yoki alumindan tayyorlaniladi. Konteynerlarda yadro nurlanishlari bilan aktivlanmaydigan elementlar, erish haroratigacha bormasligi talab qilinadi.

Uchinchi bosqich namunani nurlantirish. Bu bosqichda tekshiri layotgan namuna monitor va etalon bilan birgalikda monitorlar konteynerlarga joylashtiriladi (**5.2-rasmga qarang**). Biz ushbu jarayonni elektron tezlatkichda (mikrotron, betatron yoki chiziqli elektron tezlatkichlar) namunalarni va etalonlarni nurlantirish misolida tushuntiramiz. Namunani nurlantirish va o‘lhash sxemasi **5.3-rasmida** keltirilgan. Konteynerga joylashtirilgan namuna va monitor pnevmopochta yordamida nurlantirish postiga (maydoniga) olib boriladi va ma’lum bir vaqt nurlantirilgandan keyin, konteyner o‘lhash xonasiga, ya’ni detektor joylashgan xonaga keltiriladi. Aktivatsiya tenglamasidan namunalarni nurlantirish vaqt kelib chiqadi, ya’ni namunadagi tekshirilayotgan radioizotopda (yoki analitik radioizotopda) maksimal aktivlikka erishish uchun uni **5ch10 yarim yemirilish davrigacha** nurlantirish lozim. Ammo

bunga hamma vaqt ham erishib bo'lmaydi. Sababi ayrim analitik radioizotoplarning yarim yemirilish davrlari bir necha kun yoki oy (uzoq yashovchi radioizotoplar) bo'lishi mumkin, bunday hollarda sharoitdan kelib chiqqan holda nurlanish vaqtini aniqlanadi.



**5.2-rasm.** Nurlantirish sxemasi. a) – namuna bilan monitorni nurlantirish; b) – etalon bilan monitorni nurlantirish.



**5.3-rasm.** Namunani nurlantirish va o'lchash sxemasi. 1 – elektron tezlatkich kanali, 2 – gamma-kvantlar dastasi, 3 – konteyner, 4 – yarim o'tkazgichli detektor,  $N$  – namuna.

Bir qator kimyoviy elementlar nurlantirilganda yadro xarakteristikalarini, xususan, yarim yemirilish davrlari har xil bo'lgan ikki yoki undan ortiq radioizotoplar hosil bo'lishi mumkin. U yoki bu radioizotopni element miqdorini aniqlash uchun tanlab olish bir necha omillarga bog'liq bo'ladi. Tadqiqotchi qisqa yoki uzoq yashovchi radioizotopni tanlab olishi mumkin. Tanlab olingan radioizotop *analitik radioizotop* deyiladi. Agar qisqa yashovchi radioizotop analitik radioizotop sifatida olinsa, u holda tezkor (yoki ekspress) tahlilni amalga oshirish mumkin. Qisqa yashovchi radioizotoplar bilan ishlaganda nurlantirilgan

namuna tezkorlik bilan o'lhash qurilmasiga olib kelinishi kerak. Bu pnevmopochta yordamida amalga oshiriladi. Qisqa yashovchi radioizotoplар bilan tahlil o'tkazishning kamchiliklaridan biri – bu usul bilan bir vaqtda ko'p elementni aniqlab bo'lmasligidir. Shunga qaramasdan hozirgi kunda sanoatda asosan ekspress tahlillar qo'llaniladi. O'rta va uzoq yashovchi radioizotoplар bilan bir vaqtda ko'p elementli tahlilarni amalga oshirish mumkin. Bu usul asosan ilmiy taddiqot ishlarida qo'llaniladi.


Oxirgi bosqich bu namuna, etalon va monitorlarning induksiyalangan aktivliklarini o'lhash va o'lhash natijasi bo'yicha element miqdorini aniqlash. Nurlanish tugagandan keyin o'lhashgacha bo'lgan vaqt pauza vaqt ham deyiladi. Bu vaqt analitik radioizotopning yarim yemirilish davriga qarab belgilanadi. Ayrim hollarda analitik radioizotopni o'lhashga xalal beruvchi qisqa yashovchi radioizotoplarning yemirilishini kutish uchun namuna ma'lum bir vaqt o'lchamasdan turiladi.

Hozirgi kunda induksiyalangan aktivliklarini o'lhash uchun asosan o'ta toza germaniyli yarim o'tazgichli detektorlar qo'llaniladi. Bu detektorlar yuqori samaradorlikka va energiya bo'yicha yuqori ajratish qobiliyatiga ega.

Aktivatsion tahlil spektrometrlarida bir qator yordamchi elektron qurilmalar ishlatiladi. Bu qurilmalarga yordamchi va asosiy kuchaytirgichlar, tok manbalari, filtrlar, formirovka qilish moslamalari, ko'p kanalli analizatorlar va yarim o'tkazgichli detektorlar kiradi. Biz bular ichida zamonaviy bo'lgan ko'p kanalli analizatorga to'xtalamiz. Ko'p kanalli analizator – impulslar amplituda taqsimotini olish uchun mo'ljallangan qurilma bo'lib, undagi kanallar soni 4096 va undan ortiq bo'ladi. Ko'p kanalli analizatorlar tarkibiga  $\gamma$ -spektrlarni qayta ishlashga yordam beruvchi dasturga ega bo'lgan kompyuter ham kiradi.

Hozirgi kunda aktivatsion tahlilda olinadigan ma'lumotlarni qayta ishlovchi har xil turdag'i dasturlar ishlab chiqilgan bo'lib, ular tahlil jarayonini to'liq avtomatlashtirishga yordam beradi. Nurlanish turi va energiyasi, shuningdek, yarim parchalanish davri kattaligi bo'yicha izotoplarni saralash, ya'ni qaysi yadroga tegishli ekanligini, nurlanish intensivligi bo'yicha esa miqdorini (yoki konsentratsiyasini) aniqlash mumkin. Har bir kimyoviy element atom yadrosi o'ziga tegishli  $\alpha$ ,  $\beta$  va  $\gamma$ -nurlanishlar chiqaradi. Oddiy qilib aytganda har bir radioizotop

o‘zining «barmoq izlariga» ega. **5.4-rasm**da gamma-nurlanishlar yarim o‘tazgichli detektorda o‘lchanganda hosil bo‘lgan gamma-spektr bo‘yicha modda tarkibida aniqlangan elementlar ko‘rsatilgan.



**5.4-rasm.** Gamma-nurlanish bo‘yicha modda tarkibida aniqlangan elementlar.

Oxirgi bosqichda aktivliklarini o‘lhash va bu o‘lhash natijasi bo‘yicha element miqdorini aniqlash. Aktivliklar ma’lum bo‘lgandan keyin quyidagi formula orqali modda miqdori aniqlanadi:

$$m_x = \frac{A_x}{A_{et}} m_{et} \quad (5.7)$$

bu yerda  $m_{et}$  – etalondagi element massasi;  $A_x$  va  $A_{et}$  – namuna va etalon aktivligi.

### 5.5-§. Neytron-aktivatsion tahlil

Neytron elektr zaryadga ega bo‘lmagani uchun, u atom qobig‘idagi elektronlar va yadroning Kulon maydoni bilan o‘zaro ta’sirlashmaydi. Shu sabali neytron yadro ichiga kichik energiyaga ega bo‘lgan taqdirda ham kirib boradi.

Neytronning atom yadrosi bilan o‘zaro ta’sir turlari juda ham turli-tumandir. Bu o‘zaro ta’sirlar neytronning energiyasiga va atom yadrosining strukturasiga bog‘liq bo‘ladi. Neytronlar energiya bo‘yicha bir necha guruhlarga bo‘lingan bo‘lib, bular orasidagi chegara ma’lum

darajada shartlidir. Analitik maqsadlarda sovuq va o'ta tez neytronlar qo'llanilmaydi.

Yadroga kelib tushayotgan neytron energiyasiga bog'liq holda har xil turdag'i yadro reaksiyalari sodir bo'lishi mumkin.

### Neytron manbalari

**Radioizotop manbalar.** Radioizotop manbalar asosan neytron aktivatsion tahlilda keng qo'llaniladi va ular neytronlar manbayi deyiladi. Neytronlar izotop manbalarining uchta turi mavjud, ya'ni:

- $(\alpha, n)$  reaksiyaga asoslangan manbalar;
- $(\gamma, n)$  reaksiyaga asoslangan manbalar;
- Yadrolarning spontan bo'linishida hosil bo'ladigan neytronlar manbai.

Neytronlarning izotop manbalariga misollar 5.1-jadvalda keltirilgan.

### 5.1-jadval.

Neytronlarning bir nechta izotop manbalarini.

Manba	Manba turi	Yarim parchalanish davri	Neytronlar o'rtacha energiyasi, MeV
$^{226}\text{Ra-Be}$	$\alpha, n$	1620 yil	4,5
$^{210}\text{Po-Be}$	$\alpha, n$	138 kun	4,5
$^{239}\text{Pu-Be}$	$\alpha, n$	24000 yil	4,5
$^{238}\text{Pu-Be}$	$\alpha, n$	85 yil	4,5
$^{241}\text{Am-Be}$	$\alpha, n$	462 yil	4,5
$^{210}\text{Po-B}$	$\alpha, n$	138 kun	2,5
$^{124}\text{Sb-Be}$	$\gamma, n$	60 kun	$25 \cdot 10^{-6}$
$^{252}\text{Cf}$	Spontan	2,2 yil	1,4

Radioizotop manbalar yadro reaksiyalarini tadqiq qilishda deyarli qo'llanilmaydi. Xususan,  $(n, 2n)$  turdag'i reaksiyalarni o'rganishda qo'llanilmaydi. Bunga sabab, mazkur turdag'i yadro reaksiyalari endotermik reaksiya bo'lib, ular ostona energiyasiga egadirlar. Mazkur reaksiyalar energiyasi  $T_n > 10 \text{ MeV}$  bo'lgan neytronlar ta'siri ostida sodir bo'ladi. Bundan tashqari radioizotop manbalarining asosiy kamchiliklaridan biri ularning intensivliklari nisbatan kichikligidadir.

**Yadro reaktorlari.** Yadro reaktorlari – bu boshqariladigan zanjir reaksiyasi amalga oshadigan qurilma. Bu qurilma katta oqimga ega bo'lgan neytronlar manbayi hisoblanadi. Har bir yadroni bombardimon qiluvchi neytronlar ta'siri ostida bo'linish jarayonida 2-3 ta erkin neytronlar vujudga keladi. Bu hodisa yadro reaktorida ulkan neytronlar oqimini olishga imkon beradi. Yadro reaktorlari o'z maqsadi bo'yicha quyidagi turlarga bo'linadi: tadqiqot, ixtisoslashtirilgan va energetik. Aktivatsion tahlil uchun tadqiqot va ixtisoslashtirilgan reaktorlar ishlataladi. Tadqiqot reaktorlari neytronlar dastasini chiqarish uchun mo'ljallangan kanallarning ko'pligi bilan farq qiladi, ko'pincha issiqlik neytronlarini olish uchun issiqlik kolonna bilan jihozlangan bo'ladi. Odatda eksperimental bir yoki bir necha kanallar namunalarini aktiv zonaga kiritib qo'yuvchi va ularni reaktordan chiqarib qo'yuvchi pnevmotransport bilan jihozlangan bo'ladi. Zamonaviy tadqiqot reaktorlari aktiv zonali issiqlik neytronlar oqimi  $10^{13}$ – $10^{15}$  neytron/(sm<sup>2</sup>·s)ni tashkil etadi. Reaktorda neytronlar oqimi juda yuqori turg'unligi bilan farq qiladi.

**Ixtisoslashgan reaktorlar.** Bu turdag'i reaktorlar tog'-kon metallurgiyasi va xalq xo'jaligining boshqa sohalarida qo'llaniladigan izotoplar olish maqsadida tanlangan bo'lib, aktivatsion tahlilni o'tkazishda ham foydalilaniladi. Odatda bu reaktorlar uncha katta bo'lmagan quvvatga va tadqiqot reaktori bilan solishtirganda ancha kichik neytronlar oqimi  $10^{11}$ – $10^{12}$  neytron/(sm<sup>2</sup>·s)ga ega. Bunday reaktorlar seriyalab ishlab chiqariladi, ularni joylashtirish uchun va labaratoriyyaviy hamda kontrol-o'lchash jihozlar uchun maxsus binolar va loyihibalar ishlab chiqilgan.

Rossiyada R1-1 va RG-1M turdag'i ixtisoslashgan reaktorlar ishlab chiqilgan. Hozigi kunda yangi IVV-3 turdag'i reaktorlar ishlab chiqarilmoqda. Oxirgi turi maxsus aktivatsion tahlil uchun moslashgan.

**Neytron generatori.** Neytron generatorlarida ko'pincha kesim maksimumi uncha katta bo'lmagan energiyalarda joylashgan  $t(d,n)^4\text{He}$  va  $d(d,n)^3\text{He}$  yadro reaksiyalari qo'llaniladi (**5.5 va 5.6-rasmlargacha qaralsin**). Bu esa o'z navbatida uncha katta bo'lmagan tezlatkichlar ni qo'llashga imkon beradi. Masalan, kaskad generatorlarini. Inersiya markazidagi sistemaga nisbatan deytron energiyasi 120 keV, laboratoriya sistemasida  $d(t,^4\text{He})n$  reaksiya kesimi maksimumga erishadigan


energiyaga  $\sim 110$  keV mos keladi. Neytron generatorida tezlatilgan zarralar energiyasi  $100 - 300$  keV soha oralig'ida bo'ladi.

### 5.2-jadval.


$t(d,n)^4\text{He}$  va  $d(d,n)^3\text{He}$  yadro reaksiyalarining asosiy xususiyatlari

Reaksiya	Reaksiya energiyasi Q, MeV	Neytronlar energiyasi, MeV	Maksimal kesim $y_{\max}$ , barn	$y_{\max}$ bo'lganda i.m.s da tezlatilgan zarralar energiyasi, MeV
$d(d,^3\text{He})n$	3.3	$\sim 2.5$	$\sim 0.1$	$\sim 1.0$
$d(t,^4\text{He})n$	17.6	$\sim 14.2$	5.0	0.13


5.5-rasmdan ko'rinish turibdiki,  $t(d, n) ^4\text{He}$  yadro reaksiyasining kesim kattaligining maksimal qiymati deytronning  $\sim 110$  keV energiyalariiga to'g'ri keladi. Bu energiyada reaksiyaning kesim qiymati o'zining maksimal qiymatiga erishadi ( $\sigma = 5$  barn). Bundan deytronning 110 keV energiyalarida neytronlarning chiqish kattaligi o'zining eng yuqori qiymatiga erishadi. Shu sababli neytron generatori deytronning  $\sim 110$  keV energiyalarida ish olib boriladi.



5.5-rasm.  $t(d,n)^4\text{He}$  reaksiya uchun uyg'onish funksiyasi.



5.6-rasm.  $d(d,n)^3\text{He}$  reaksiya uchun uyg'onish funksiyasi.




5.7-rasm. Neytron generatorning soddalashirilgan sxemasi.

Ushbu reaksiya energiyalari tezlatilgan zarralar energiyalari-da sezilarli katta bo'lgani uchun neytronlar nishondan deyarli bir xil energiyada chiqadilar. Deytronlarning 200 keV energiyasida  $\theta = 0^\circ \text{ch} 180^\circ$  burchaklar oralig'ida neytronlarning energiyasi 15.1 dan 13.2 MeV gacha o'zgaradi.

Neytron generatori nuqtaviy monoenergetik neytronlar manbayi hisoblanadi.  $d-t$  reaksiyada hosil bo'lgan neytronlar izotropdir. Bunday neytron generatorlarida qo'llaniladigan tezlatkichlar odatda uzluksiz ta'sirli tezlatkichlardir.

Impulslı ionlar dastasini olish uchun impulsli ionli manbalardan foydalilanadi. 5.7-rasmida neytron generatorning soddalashgan sxemasi keltirilgan.

Yuqori intensivlikdagi neytronlar oqimini olishga imkon beruvchi neytron generatorlarning nishon konvertorlari odatda qattiq jismdan



**5.8-rasm.**  
*Neytron  
generator  
nishoni kesimi;*  
1) titan qatlami,  
2) sovitish  
uchun kanal,  
3) mis taglik.


iborat bo'lib, mis taglik surtilgan titan, skandiy yoki rux yupqa qatlamli (bir necha o'n mkm gacha) (5.8-rasm) bo'ladi.

Bu metallar *metall gidridlari* deb nomlangan holatni hosil qilishga qodir.

Titan yoki skandiy gidridi bitta metall atomiga ikkitaga yaqin vodorod izotopi atomini ushlab qolish qobiliyatiga egadir. Metall gidridlarning bu xususiyati ularni vodorod izotoplarini akkumulator sifatida qo'llashga imkon beradi.

Zaryadlangan zarralar dastasining nishonda yo'qotadigan energiyasi juda katta qiymatlarga ega bo'lishi mumkin ( $1 \text{ sm}^2$  ga o'nlab  $\text{kVt}$  to'g'ri kelishi mumkin). Bu esa o'z navbatida nishon-konvertor-

ni samarali sovutib turishni talab etadi. Odatda suv bilan sovitish ko'p qo'llaniladi. Bundan tashqari nishon tez aylanuchi disk ko'rinishida bo'ladi. Shunday qilib, dasta tushadigan effektiv maydonni oshiradi. Neytron generatorda  $T(d,n)^4\text{He}$  reaksiya qo'llanganda  $4\pi$  fazoviy burchakka  $\sim 10^{12}$  neytron/s gacha neytronlar oqimini hosil qilish mumkin. Standart neytron generatorlarda esa bu qiymat  $\sim 10^{10}$  neytron/s ga teng. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi institutida NG-150 neytron generatorida 14 MeV energiyali neytronlar dastasida hosil qili-nadi (5.9-rasm).



**5.9-rasm.** NG-150 neytron generatorining ko'rinishi.

NG-150 neytron generatori – yadro fizikasi va radiatsion fizika sohalarida keng doirada tadqiqotlar olib borish, shuningdek, tez neytronlar oqimidan foydalangan holda modda tarkibidagi yengil elementlarni aniqlashga mo’ljallangan qurilmadir.

NG-150 neytron generatorining assosiy kattaliklari:

- Neytronlarning maksimal oqimi –  $2 \cdot 10^{10}$  n/sek;
- Tezlatilgan ionlarning nominal energiyasi – 150 keV;
- Ionlar energiyasini o’zgartirish chegarasi – 50 – 150 keV;
- Nishonga kelib tushayotgan ionlar dastasining tok kuchi – 3 mA gacha;
- Nominal rejimda nishonga kelib tushayotgan ion dastasining diametri – 10 – 30 mm;
- Ishlash rejimi uzluksiz.

### 5.6-§. Gamma-aktivatsion tahlil

*Monoenergetik va tormozli gamma-nurlanishlar.* Gamma-nurlanishlar manbayi sifatida radioizotop va elektron tezlatkichlar manbalari qo’llaniladi. Yarim yemirilish davri katta bo’lgan radioizotop manbalarning ba’zi birlaridan chiqayotgan gamma-kvantlarning energiyalari 2 MeV dan katta, ammo 3 MeV dan kichik. Tajribalarda keng qo’llaniladigan monoxormatik gamma-nurlanishlar manbalari va ularning xususiyatlari 5.3-jadvalda keltirilgan.


Ushbu reaksiya bilan tabiiy radioaktiv elementlarning gamma-kvantlari ta’sirida yuz beradigan fotoyadro reaksiyalarning ro’yxati cheklanadi. Boshqa hamma yadrolarda nuklonning ajralish energiyasi radioaktiv yadrolar chiqarayotgan gamma-kvantlarining energiyasidan katta bo’lganligi sababli fotoyadro reaksiyasi yuz bermaydi.

### 5.3-jadval.

*Monoxromatik gamma-nurlanishlar manbayi.*

Nuklid	g-kvantlar energiyasi, MeV	g-kvantlar intensivligi, %	$T_{1/2}$
$^{60}\text{Co}$	1173,2	99,90	5,27 yil
	1332,5	99,98	
$^{137}\text{Cs}$	0,662	85,21	30 yil
$^{24}\text{Na}$	2,754	99,94	15,02 soat
$^{46}\text{Sc}$	1,121	99,99	83,81 sut
$^{56}\text{Mn}$	0,847	98,90	2,578 soat
	1,811	27,20	
	2,113	14,30	

Yuqori energiyali gamma-kvantlarni olish imkoniyati faqat yuqori energiyali elektron tezlatkichlarni yaratgandan keyingina paydo bo'ldi. Elektron tezlatkichlarda (betatron, mikrotron va chiziqli elektron tezlatkich) yuqori energiyali gamma-kvantlarni rentgen trubkasida tormozli rentgen nurlar hosil qilishiga o'xshash vaziyatda hosil qilinadi, ya'ni yuqori energiyagacha tezlatilgan monoxromatik elektronlar Z katta bo'lgan elementdan (W, Pb) tayyorlangan nishonga kelib tushadi va unda tormozlanadi. Natijada tormozli gamma-nurlar hosil bo'lib, ularning spektri uzlusizdir. Ushbu spektr **5.10-rasmدا** ko'rsatilgan.




*5.10-rasm. Tormozli nurlar spektri:*

- a) energiyasi  $T_e$  bo'lgan elektronlar hosil qilgan spektr;
- b) energiyalari  $T_{e1}$  va  $T_{e2}$  bo'lgan elektronlar hosil qilgan spektrlar.

Tormozli gamma-nurlanishlarning maksimal energiyasi tormozlanayotgan elektronlarning kinetik energiyasiga teng bo'lib, intensivligi esa energiyaga teskari proporsional ravishda kamayadi. Shunday qilib,

elektronlarning tormozlanishi natijasida olingan maksimal energiyali uzlusiz gamma-kvantlar spektrini olish mumkin bo'ldi.

**5.11-rasmda** qalin nishonda (mikrotron va chiziqli elektron tezlatkichlarda qo'llaniladigan nishon) hosil bo'ladigan tormozli nurlar spektrining hisoblash natijasida olingan shakli keltirilgan. Bu ushbu tezlatkichlarda tormozli nurlar hosil qilish mexanizmi bilan bog'liq.



**5.11-rasm.** Qalin nishonda hosil bo'ladigan tormozli nurlar spektri.


**Chiziqli tezlatkichlar.** Chiziqli tezlatkichlar deb undagi tezlashayotgan zarralar traektoriyasi to'g'ri chiziqqa yaqin bo'lган qurilmalarga aytildi. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, to'g'ri tezlanish deb nomlangan metodga asoslangan yuqori voltli qurilmalarda ham zarralar to'g'ri chiziq bo'ylab harakatlanadilar. Ayrim hollarda bunday tezlatkichlar elektrostatischiziqli tezlatkichlar deb ham aytildi. Bunday tezlatkichlarda zarralarga energiya doimiy potensiallar ayirmasi katta bo'lган oraliqdan bir marta o'tganda beriladi. Bunday potensiallar farqi manbayi sifatida *kaskad generatori*, *Vande-Graaf generatori*, *impuls generatori*, *impulslı transformator* va boshqalar ishlataladi. Biz ayrim chiziqli tezlatkichlarning ishlash prinsipi bilan tanishib chiqamiz.

**Chiziqli rezonans tezlatkichlar.** Ushbu tezlatkichlarda zarralar to'g'ri chiziq bo'yicha o'zgaruvchan elektr maydon ta'sirida tezlatiladi.


Yuqori voltli chiziqli tezlatkichlardan farqli ravishda, rezonans chiziqli tezlatkichlarda katta kuchlanish emas, balki rezonans tezlatish prinsipi qo'llaniladi. Chiziqli rezonans tezlatkichlar tezlatish trubkasida

ionlarni tezlatish yuqori chastotali (YuCh) generatordan berilgan uncha katta bo'lmagan kuchlanish orqali ko'p martalab o'tish orqali amalga oshiriladi (**5.12 va 5.13-rasmlar**). Trubkasimon elektrodlarning uzunligi ionlar harakat yo'naliishi bo'ylab kattalashib boradi. Ionlarning inersial harakatlanish vaqtida hamma trubkalarda bir xil va *YuCh-generator kuchlanish* o'zgarishining yarim davriga teng. Juft trubkasimon elektrodlar *YuCh-generator*ning birinchi klemmasiga, toqlari esa ikkinchi klemmasiga ulanadi.

Musbat zaryadlangan ionlar birinchi va ikkinchi elektrodlar orasidagi tirkishga kirgan bo'lsin. Bu vaqtida toq elektrodlarga musbat, juft elektrodlarga esa manfiy kuchlanish beriladi. Ionlar ikkinchi elektroddan chiqqan momentida esa juft elektrodlarga musbat, toq elektrodlarga manfiy kuchlanish beriladi va h.k. Har bir elektroddan ionlarning o'tish vaqtida o'zgaruvchan kuchlanish davriga teng. Shuning uchun ham ushbu tezlatkichlar rezonans tezlatkichlar deyiladi. Chiziqli rezonans tezlatkichlarning chiqishida zarralar energiyasini bir metr uzunlikda 10ch15 MeV gacha oshirishi mumkin. Ushbu tezlatkichlarda zarralar nishonga impuls bo'lib kelib tushadi va tushish vaqtida *YuCh-generator*ning davriga teng. Chiziqli rezonans tezlatkichlar impulsli tezlatkichlar hisoblanadi. Odatda bu tezlatkichlarning o'rtacha toki bir necha mkA ni (*ba'zan 20ch30 mkA gacha*) tashkil etadi. Impulsdagi tok 50 mA gacha bo'ladi.



**5.12-rasm.** Chiziqli rezonans tezlatkich:  
1) *YuCh-generator*; 2) ionlar manbasi; 3) nishon.



**5.13-rasm.** Chiziqli rezonans tezlatkich.

Chiziqli rezonans tezlatkichlarning ustunligi bu katta tok olish va zarralar injeksiyasi (kiritish) va chiqishining soddaligi hisoblanadi. Bundan tashqari chiziqli tezlatkichlarda zarralar traektoriyasi to‘g‘ri chiziq bo‘lganligi sababli ular elektromagnit nurlanishlar chiqarmaydi. Keyingi hol og‘ir zarralar uchun hech qanday rol o‘ynamaydi, lekin yuqori energiyali (*bir necha yuz MeV va undan ortiq*) elektronlar uchun muhimdir. Elektronlar halqali tezlatkichlarda tezlatilganda ularning energiyasining bir qismi elektromagnit nurlanishlarga sarf bo‘ladi. Shuning uchun ham chiziqli tezlatkichlar asosan elektronlarni tezlatish uchun quriladi.


**Siklik tezlatkichlar.** Siklik tezlatkichlarni shartli ravishda ikkiga bo‘lish mumkin: *rezonans* va *induksion tezlatkichlar*. Siklik rezonans tezlatkichlarda qo‘ylgan boshqaruvchi magnit maydon ta’sirida zarralar traektoriyasi egrilanib, aylana yoki yassi spiral shaklini oladi va shu bilan birga tezlatilayotgan zarralar bitta tezlatuvchi oraliqni ko‘p martalab o‘tadi. Zarralarning tezlatuvchi oraliq orqali keyingi ikki o‘tishlar orasidagi vaqt tezlatuvchi maydon davrining o‘zgarishiga teng yoki karrali bo‘lishi kerak.

Tezlatuvchi elektr maydon va boshqaruvchi magnit maydonlar xususiyatlariga bog‘liq holda siklik rezonansli tezlatkichlar quyidagi turlarga bo‘linadi: siklotron, sinxrotron, sinxrafazotron.

Qo‘llanilayotgan fokusirovkalashning xususiyatiga qarab, siklik rezonans tezlatkichlar kuchli fokusirovkali va kuchiz fokusirovkali tezlatkichlarga bo‘linadi. Bu yerda siklik tezlatkichlardan *mikrotron* va *betatronlar* keltirilgan.

**Mikrotron.** Siklotronda elektronlarni tezlatib bo‘lmaydi, sababi ular tez relyativistik tezlikka erishadilar. Shunga qaramay shunday tezlatkichlar mavjudki, ularda elektronlar bir jinsli magnit maydonda elektr maydon impulsi bilan tezlatiladi. Bunday turdagи tezlatkichlar mikrotron deyiladi (*ba’zan elektron siklotroni deb ham aytildi*). **Mikroronda zarracha** tezlatkich kamerasiga magnit maydonning markaziy qismiga kiritilmasdan balki chetiga kiritiladi. Zarracha chiqish joyiga kovak (*ichi bo‘sh*) tezlatuvchi rezonator joylashtiriladi.

Rezonatorda zarracha har bir aylanishida elektronning tinchlikdagi energiyasiga aniq teng bo‘lgan 0,511 MeV energiya oladi. Elektronning *n*-aylanish davri  $T_n$  birinchi aylanish davriga karrali bo‘ladi:



**5.14-rasm.** Mikrotron  
sxemasi. 1 – rezonator, 2 –  
elektronlar traektoriyasi.

$$T_n = nT_1 = \frac{2\pi nm c}{eH\sqrt{1-v^2/c^2}}. \quad (5.6)$$

Shuning uchun ham elektron har bir aylanishda rezonatorga tezlatish momen-tida tushadi. Mikrotronda elektronlar radiusi oshib boruvchi aylana bo'yicha harakatlanib, hamma aylanalar rezonator ichida bir-biriga tegadi (**5.14-rasm**).

Mikrotronlar impuls rejimida ham, uzluksiz rejimda ham ishlaydi. Ushbu tezlatkichlarda erishilgan chegaraviy

energiya 50-100 MeV lar atrofida baholanadi. Energiyaning keyingi oshishiga magnit maydoniga qo'yiladigan shartlar halqit beradi. Hozirgi kunda mavjud bo'lgan mikrotronlar 4 dan 30 MeV gacha energiya-ga ega. Energiya oshishi bilan mikrotronlarda intensivlik keskin tushadi. Masalan 13 MeV energiyali mikrotron impulsda 100 mA, 30 MeV energiyali mikrotronda esa atig' 0,05 mA tok beradi. Odatda o'rtacha tok impuls qiymatidan uch tartibgacha kamdir. Mikrotronning afzallik-lariga elektronlar dastasi chiqishining soddaligi, dastaning yuqori monoenergetikligi (faqat elektrostatik tezlatkichlarga yon beradi) va past energiyalarda yetarlicha yuqori intensivlilikka ega bo'lishi kiradi. Shuning uchun ham past energiyalarda mikrotron perspektiv turdag'i elektron tezlatkich hisoblanadi. Hozirgi kunda mikrotron Samarqand davlat universitetida mavjud bo'lib, uning parametrlari quyidagicha: maksimal orbitalar soni – 22; birinchi tezlatish rejimida elektronlar maksimal energiyasi – 13 MeV; ikkinchi tezlatish rejimida – 22,5 MeV; birinchi rejimdagi o'rtacha tok 30 mA gacha; ikkinchi rejimda 20 mA gacha; impuls toki – 20 mA; impuls tokining davomiyligi – 2,3 mks; iste'mol qiladigan quvvat – 20 kVt.

**Betatron.** O'rta va past energiyali elektron tezlatkichlardan eng ko'p tarqalgani betatron hisoblanib, u elektronlarning birinchi siklik tezlatkichidir. Uning ilk nusxasi 1940-yilda amerikalik olim D.Krest tomonidan yasalgan. Betatron boshqa tezlatkichlardan shu bilan farq qiladiki, bu turdag'i tezlatkichlarda zarralarni tezlatuvchi elektr maydon tashqaridan berilmaydi, balki zarralarni doiraviy orbitalarda ushlab tu-

ruvchi magnit maydonning vaqt bo'yicha tez o'zgarishi natijasida hosil bo'ladi. Haqiqatan ham agar aksial simmetrik magnit maydon vaqt bo'yicha o'zgarsa, unda Maksvellning quyidagi tenglamasiga asosan


$$rot \vec{E} = -\frac{1}{c} \cdot \frac{\partial \vec{H}}{\partial t} \quad (5.7)$$

kuch chiziqlari konsentrik aylanalardan iborat bo'lgan  $E$  elektr maydon hosil bo'ladi. Ushbu holda elektronlar ultra-relyativistik xususiyati tufayli magnit maydonining  $H(R)$  radial bog'lanishi shunday tanlab olinishi mumkinki, bunda elektron orbitalar radiusi vaqt bo'yicha o'zgarmas bo'ladi.

Betatronning ishlashini ma'lum darajada transformatorning ishlashiga o'xshatish mumkin. Ma'lumki, transformator berk po'lat o'zakdan va unga o'ralgan sim cho'lg'amli ikkita g'altakdan iborat.

Agar birlamchi cho'lg'amdan o'zgaruvchan elektr toki o'tkazilsa, o'zakda o'zgaruvchan magnit maydoni hosil bo'ladi. O'z navbatida ikkilamchi cho'lg'amda induksiya elektr yurituvchi kuch ( $EVuK$ ) hosil bo'ladi.

Agar ikkilamchi cho'lg'amni tutashtirsak unda u orqali elektr toki o'tadi. Betatronda ikkinchi o'zak halqasimon vakuum kamerasiga almashtirilgan. Bu kamera «teshik kulchaga» o'xshaydi. Betatronning ko'ndalang kesimining sxemasi **5.15-rasm**da ko'rsatilgan. Shisha yoki fosfordan yasalgan toroidal kamera magnit qutblari orasiga joylashtiriladi. Kamera ichida  $10^{-6}$  mm Hg ustuni tartibidagi bosim ushlab turiladi. Energiyalari bir necha o'n kiloelektronvolt bo'lgan elektronlar



**5.15-rasm.** Betatronning vertikal kesimi.

- 1) Elektronlarni tezlatish uchun kamera.
- 2) Elektromagnit g'altaklar.

0,001 s vaqt ichida kameraga «elektron to‘p» yordami bilan injeksiyalanadi (kiritiladi). Elektronlar manbayi, elektronlarni chiqaruvchi volfram tolali cho‘lg‘am va elektronlarni dastlabki tezlatuvchi hamda fokuslovchi elektrodlar sistemasiidan iborat.

Kameraga kiritilgan elektronlar uyurmaviy *EYuK* ta’siri ostida aylanadi. Ushbu *EYuKni* o‘zgaruvchan magnit maydon hosil qiladi. Elektronlarni tezlatish vaqtida magnit maydon shunday kattalashadiki, bunda elektronlar trubka ichida turg‘un orbita bo‘ylab harakatlanadi. Elektronlarni tezlatish elektromagnit g‘altaklarida kuchlanishning noldan maksimal qiymatgacha oshish vaqt ichida, ya’ni ta’minot manbayi chorak davri davomida yuz beradi.

Odatga ko‘ra betatron elektronlarni bir necha *MeV* dan 50 *MeV* gacha tezlatish uchun ishlataladi. Bir vaqtlar bundan ham katta energiyali hatto 240 *MeV* gacha bo‘lgan betatronlar ham ishlab chiqilgan. Ammo bunday energiyalarda magnitning katta og‘irlikda (sinxrotronga nisbatan) bo‘lishi, shuningdek, 100 *MeV* dan yuqori energiyalarda betatronda tezlatish rejimi, elektronlarning elektromagnit nurlanishi tufayli buzilish sababli tezlatishning betatron usulining afzalligi yo‘q.

Betatronlarda zarrachalar oqimining intensivlik katta emas. Impulsa  $10^9$ – $10^{10}$  zarra bo‘lganda o‘rtacha tok  $10^2 \text{ mA}$  dan oshmaydi. Ushbu tezlatkichlarning kamchiliklardan yana biri unda elektronlar dastasini chiqarib bo‘lmashigidir. Shuning uchun ham betatronlar faqat tormozli gamma-nurlar manbayi sifatida ishlatiladi.

### **5.7-§. Zaryadlangan zarralar yordamida aktivatsion tahlil**


Fotonlar va neytronlardan tashqari zaryadlangan zarralar bilan ham aktivatsion tahlil amalga oshiriladi. Bunda tekshirilayotgan namunalar zaryadlangan zarralar bilan aktivatsiya qilinadi. Aktivatsiya qiluvchi zarralar sifatida asosan vodorod va geliy izotoplarining yadrolari qo‘llaniladi, ya’ni: *proton p*, *deytron d*, *triton t*, *geliy-3 ( $^3\text{He}$ )* va *b-zarralar*.

Zaryadlangan zarralar bilan aktivatsion tahlil o‘tkazilganda quyidagi ikkita faktorni hisobga olish lozim:


- Kulon to‘sig‘i;
- Zaryadlangan zarralarning kimyoviy element atomlaridagi elektronlar bilan o‘zaro ta’siri.

- Zaryadlangan zarralar atom yadrolari bilan o'zaro ta'sirlashganda Kulon potensialini hisobga olishga to'g'ri keladi. Sababi musbat zaryadlangan zarra, musbat zaryadlangan yadro bilan o'zaro ta'sirlashganda Kulon potensiali ushbu o'zaro ta'sirni amalga oshirishga to'sqinlik qiladi va buning natijasida zaryadlangan zarralar ishtirokidagi yadro reaksiyalari ostona energiyasiga ega bo'ladi. Zaryadlangan zarra yadro bilan o'zaro ta'sirlashishi uchun uning energiyasi potensial to'siq energiyasidan katta bo'lishi lozim. Ma'lumki, energiyasi potensial to'siqning balandligidan kichik bo'lgan zarralar ham tunnel effekti hisobiga yadro ichiga kirishi va yadro reaksiyasini amalga oshirish mumkin. Ammo bunday jarayonlarning ehtimolliklari juda ham kichik bo'lGANI uchun amalda hisobga olinmaydi.

Zaryadlangan zarralar ishtirokidagi yadro reaksiyalar kesimining zarra energiyasiga bog'lanishi, ya'ni uyg'onish funksiyasi umumiyo ko'rinishi **5.16** va **5.17-rasm**da keltirilgan. **5.16-rasm**da misol tariqasida  $^{23}\text{Na}(d,p) ^{24}\text{Na}$  reaksiyaning uyg'onish funksiyasi keltirilgan. Zarralarning kichik energiyalarida Kulon to'sig'i zarraning yadroga tushishiga to'sqinlik qiladi, buning natijasida reaksiya kesimi kichik bo'ladi.




**5.16-rasm.**  $^{23}\text{Na}(d,p) ^{24}\text{Na}$  reaksiyaning uyg'onish funksiyasi



**5.17-rasm.** Reaksiya kesimining zaryadlangan zarra energiyasiga bog'lanishi


Zarralar energiyasi oshishi bilan Kulon to'sig'inинг shaffofligi (zarralarning o'tish ehimolligi) oshadi va bunga mos holda reaksiya kesimi ham oshadi. Reaksiya kesimi maksimum qiymatga, zarra energiyasi-

ning taxminan Kulon to'sig'inining balandligiga teng bo'lganda erishadi. Energiyaning keyingi oshishida reaksiya kesimi kamayadi. Bunga sabab energiya oshishi bilan raqobatlanuvchi reaksiyalar paydo bo'ladi. Umuman olganda, energiya oshishi bilan yadro reaksiyalarning kanallari soni oshadi. Raqobatlanuvchi reaksiya deb bitta radioaktiv yadro ikkita yoki undan ortiq reaksiya natijasida hosil bo'lishiga aytildi. Ekzotermik va endotermik reaksiyalar kesimlarining zaryadlangan zarralarning energiyalariga bog'lanishi **5.18-rasm**da keltirilgan. Bunda 1-egri chiziq ekzotermik reaksiyaga, 2-egri chiziq esa endotermik reaksiyaga tegishlidir. Zaryadlangan zarralar ta'sirida bo'ladigan yadro reaksiylarda Kulon to'sig'i ham ushbu reaksiyalarni ma'lum bir energiyadan boshlashini olib keladi. **5.18-rasm**da  $U_q$  – *Kulon to'sig'inining balandligi*,  $E_{ost}$  – *reaksiya ostona energiyasi* berilgan.



**5.18-rasm.** Ekzotermik va endotermik yadro reaksiyalarining uyg'onish funksiyalari.

Raqobatlanuvchi reaksiyalar aktivatsion tahlilda ko'pchilik hollarda salbiy rol o'ynaydi. Masalan, bitta yadro ikkita har xil element yadrolaridagi reaksiyalar natijasida ham hosil bo'lishi mumkin. Bu esa element miqdorini aniqlashda sistematik xatoliklarni keltirib chiqaradi. O'rta energiyali protonlar ta'sirida quyidagi reaksiyalar ro'y berish ehtimolliklari katta bo'ladi:



Agar bunga tahlil qilinayotgan namuna tarkibida bir necha element va o'z navbatida ushbu elementlarning izotoplari qo'shilsa, yadro reak-

siyalar soni keskin oshib ketadi. Bu esa metodikalar *ishlab chiqishda raqobatlanuvchi reaksiyalarni sifat va miqdoriy jihatdan hisobga olishni talab qiladi.*

Zaryadlangan zarralar bilan aktivatsion tahlil o'tkazganda yana bir muhim omilni hisobga olish lozim, ya'ni zaryadlangan zarralarning kimyoviy element atomlaridagi elektronlar bilan o'zaro ta'siri. Buning natijasida zaryadlangan zarralar o'z energiyasini muhit atomlari ni o'yg'otishga va ionizatsiya qilishga sarflaydilar va energiyasini tez yo'qotadilar. Shu sababli, mazkur tahlil metodida namuna o'lchamini aniqlashda zarralarning yugurish yo'llarini ham hisobga olish zarur.

Zaryadlangan zarralar bilan aktivatsion tahlil o'tkazganda asosan etalon va monitor tahlil metodlari qo'llaniladi. Ayrim hollarda absolut metoddan ham foydalanildi. Bu kamdan kam uchraydigan holdir.

Zaryadlangan zarralar manbayi sifatida asosan siklotron va chiziqli tezlatkichlar qo'llaniladi. Ushbu qurilmalar yordamida katta energiyali va yuqori intensivlikka ega bo'lgan zarralar oqimini olish mumkin.

Siklotron bu norelyativistik og'ir zaryadlangan zarralarni (protonlar, ionlar) tezlatuvchi siklik tezlatkich bo'lib, bunda zarralar doimiy va bir jinsli magnit maydonda harakatlanadilar. Ushbu zarralarni tezlatish uchun esa yuqori chastotali elektr maydon qo'llaniladi. Elektr maydon chastotasi o'zgarmas bo'ladi. Siklotronda protonlar 20 MeV gacha, b-zarralar 40 MeV gacha tezlatiladi.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Yadro fizikasi institutida U-150-II tipidagi siklotron mavjud bo'lib, bu tezlatkichda fundamental yadro fizikasi, radiatsion materialshunoslik, yadroviy radiokimyo, radiobiologiya va tibbiyot sohalarida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu tezlatkichda *protonlar* – 8 – 20 MeV, *deytronlar* – 10 – 20 MeV, *ionlar* – 20 – 40 MeV va *alfa-zarralar* – 20 – 40 MeV energiya diapazonlarida tezlatiladi. Mazkur tezlatkichda ko'p yillar davomida zaryadlangan zarralar ishtirokidagi aktivatsion tahlil ham amalga oshirib keltingan.

Zaryadlangan zarralarda aktivatsion tahlilni, nurlantirish uchun qo'llanilayotgan zaryadlangan zarralarning turiga qarab quyidagi metodlarga bo'lish mumkin:

- protonlar bilan nurlantirish metodi;
- deytronlar bilan nurlantirish metodi;

- tritiy yadrosi bilan nurlantirish metodi;
- $^3\text{He}$  yadrosi bilan nurlantirish metodi;
- alfa-zarralar bilan nurlantirish metodi.

Ushbu nurlantirishlar natijasida quyidagi yadro reaksiya-lari sodir bo'lishi mumkin:  $(p,\gamma)$ ,  $(p,n)$ ,  $(p,\alpha)$ ,  $(d,p)$ ,  $(t,n)$ ,  $(^3\text{He},n)$ ,  $(^3\text{He},p)$ ,  $(^3\text{He},\alpha)$ ,  $(\alpha,n)$ ,  $(\alpha,p)$ ,  $(\alpha,\gamma n)$  va h.k.

Yuqorida keltirilgan metodlarni qo'llab, keng doiradagi elementlar miqdorini turli moddalarda aniqlash bo'yicha metodikalar ishlab chiqilgan. Shunga qaramasdan, zaryadlangan zarralarda o'tkaziladigan aktivatsion tahlil asosan yengil elementlar miqdorini aniqlashga qaratilgan. Keyingi vaqtarda yangi yaratilayotgan materiallar tozaligiga talab oshmoqda. Ayniqsa, har xil toza va o'ta toza materiallar tarkibida uglerod, azot va kislorod miqdorini aniqlash alohida o'rinn egallaydi. Ushbu hollarda aniqlanish chegarasi  $10^{-4} - 10^{-7}\%$  atrofida bo'ladi. Mazkur yo'nalishlarda yuqori sezgirlikka ega bo'lган zaryadlangan zarralarda o'tkaziladigan aktivatsion tahlil qo'l keladi. Uglerod, azot va kislorod miqdorini aniqlash uchun quyidagi yadro reaksiyalari qo'llaniladi:  $^{14}\text{N}(p,n)^{14}\text{O}$ ,  $^{12}\text{C}$  ( $^3\text{He},n$ ) $^{14}\text{O}$ ,  $^{14}\text{N}(d,n)^{14}\text{O}$  va  $^{16}\text{O}(^3\text{He},\alpha)^{15}\text{O}$ . Ushbu reaksiyalarni qo'llab toza metallar molibden, volfram, temir va kremniy karbidi tarkibida uglerod, azot va kislorod miqdorini aniqlash bo'yicha metodikalar ishlab chiqilgan. Bulardan tashqari turli yarim o'tkazgichli materiallar va toza metallar tarkibida tarkibda o'ta muhim bo'lган elementlardan bor, uglerod, azot, kislorod va boshqa yengil elementlar miqdorini aniqlash bo'yicha metodikalar ham ishlab chiqilgan va amalda qo'llanilmoqda.

Zaryadlangan zarralar bilan nurlantirish elementning izotop tarkibini aniqlashga imkon beradi. Izotop tarkibini, yupqa qatlamda yoki uncha ko'p bo'lмаган moddada ham aniqlash mumkin.

## **5.8-§. Instrumental aktivatsion tahlilning spektrometrik metodlari**

Tahlil qilinayotgan namunalarni neytronlar, gamma-kvantlar yoki zaryadlangan zarralar bilan nurlantirish, ikkilamchi (onyi yoki kechikkan) nurlanishlarning murakkab spektrini keltirib chiqaradi. Ushbu ikkilamchi nurlanishlarning xususiyatlarini o'rganish yadro reaksiyalarini yoki radioizotoplarini indentifikasiya qilishga imkon yaratadi. Aktivat-

sion tahlilda ikkilamchi nurlanishlar energetik spektrini tahlil qilish orqali, sifat va miqdoriy natijalar olish mumkin.

Nurlantirilgan elementlarni, ikkilamchi nurlanish bo'yicha diskriminatsiya, identifikatsiya va miqdoriy aniqlash fizikaviy usullarga to'liq asoslangan tahlil metodi umumlashtirilib, instrumental aktivatsion tahlil deb nomlangan. Instrumental aktivatsion tahlil metodi o'z navbatida yana ikkiga bo'linadi, ya'ni spektrometrik instrumental aktivatsion tahlil va aktivatsion tahlilning maxsus metodlari. Aktivatsion tahlilning maxsus metodlari yordamida bir yoki ikki elementni aniqlashda yoki spektrometrik instrumental aktivatsion tahlilga qo'shimcha sifatida qo'llanilishi mumkin. Zamonaviy aktivatsion tahlilda asosan spektrometrik instrumental aktivatsion tahlil keng qo'llaniladi.

Ionlovchi nurlanishlar va birinchi navbatda  $\gamma$ -nurlanishlar spektrometriyasi, instrumental aktivatsion tahlilning eng universal va imkoniyatlari katta bo'lgan metodlaridandir. Spektrometrik metodning imkoniyatlari ionlovchi nurlanishlar xususiyati va qayd qiluvchi qurilmaning ko'rsatkichlari bo'yicha belgilanadi.

Aktivatsion tahlilda ionlovchi nurlanishlar spektrometriyasining juda ko'p turli metodlaridan bittasi, ya'ni tadqiq qilinayotgan nurlanish energiyasini, elektrik impulslar ketma-ketligiga aylantirib, amplitudalar taqisimotini tahlil qilishga asoslangan tamoyil bo'yicha ishlovchi tizim muhim ahamiyat kasb etadi.

Aktivatsion tahlilda asosan quyidagi ionlovchi nurlanishlar spektrometriyasi qo'llaniladi: og'ir zarralar,  $\beta$ -nurlanishlar va  $\gamma$ -nurlanishlar spektrometriyasi. Hozirgi kunda aktivatsion tahlilda birinchi va ikkinchi turdag'i spektrometriya deyarli qo'llanilmaydi (ayrim tadqiqotlarda qo'llanilishi mumkin), amalda asosan  $\gamma$ -nurlanishlar spektrometriyasi keng qo'llaniladi. XX asrning 60-yillarda ssintillatsion  $\gamma$ -spektrometrler, 70- va 80-yillarda asosan  $Ge(Li)$  detektordan iborat bo'lgan  $\gamma$ -spektrometrler qo'llanilgan. 90-yillarning oxiri va XXI asrning boshlaridan boshlab, asosan toza germaniyidan ( $HPGe$ ) iborat bo'lgan va kompyuter tizimiga ulangan zamonaviy dastur ta'minotiga ega bo'lgan  $\gamma$ -spektrometrler qo'llanilmoqda.

## **5.9-§. Gamma spektrometr**

Gamma spektrometri yadrodan chiqayotgan  $\gamma$ -kvantlarni qayd qilishga asoslangan. Noelastik yadro o'zaro ta'sir jarayoni natijasida yadro uyg'onishi, yoki radioaktiv parchalanishlar natijasida hosil bo'lgan yadro uyg'ongan holatda bo'lishi mumkin. Yadro uyg'ongan holatdan asosiy holatga yoki ikkinchi bir quyi energetik holatga o'tganda  $\gamma$ -kvantlar chiqaradi.

Ko'p holatlarda turli zarrachalarni yadrolarga kelib urilishida turli ko'rinishdagagi yadro jarayonlari sodir bo'ladi. Bu jarayonlarda yadrolar uyg'ongan holatga o'tadi. Uyg'ongan holatda uzoq vaqt yashay olmaydi. Bu yadrolar asosiy holatiga o'tishda, uyg'ongan holat energiyalarini gamma nurlari ko'rinishida tashqariga chiqaradi. Gamma kvantlarni qayd etish orqali yadroga tegishli bo'lgan spektroskopik ma'lumotlarni olish mumkin. Gamma nurlarni qayd qilish uchun maxsus detektorlar va spektrometriyalar yaratilgan. Ularga qisqacha qilib gamma spektrometr deb nom berilgan.

Gamma spektrometrlarning asosini quyidagilar:

- 1) gamma nurlini qayd qiluvchi detektorlar;
- 2) kuchaytirgich;
- 3) ko'p kanalli analizator;
- 4) ma'lumotlarni to'plovchi qurilmalar.

Hozirgi paytda gamma spektrometrlar 3D dastur ta'minotiga ega va qisqa vaqtida tahlil qiladi.

Gamma-nurlari aniq bir energiyaga ega bo'ladi. Gamma-nurlanishlarning mazkur xususiyatlari, elementlarni identifikatsiya qilish va elementlarni ajratib aniqlash uchun yaxshi asos bo'ladi. Gamma-nurlanishlarning yuqori o'tuvchanlik qobiliyati yetarlicha qalinlikdagi namunalarni  $\gamma$ -spektrometrik tahlil qilishga imkon beradigan qulay usul-laridan biri hisoblanadi. Bu sanab o'tilgan xususiyatlар va imkoniyatlар  $\gamma$ -spektrometrik metodga instrumental aktivatsion tahlilda yetakchi o'rin egallashga imkon beradi.


Gamma-spektrometrlarning tuzilishi va ishlash tamoyillarini o'rganishdan oldin  $\gamma$ -nurlarning modda bilan o'zaro ta'sirlarini ko'rib chiqamiz.

**Yarimo'tkazgichli gamma-spektrometr.** Ge(Li)-detektorli g-spektrometrlar paydo bo'lishi instrumental aktivatsion tahlil uchun mutlaqo yangi imkoniyatlarni ochdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Bunga asosiy sabab, mazkur detektorlar yuqori energiya bo'yicha ajratish qobiliyatiga ega bo'lganligidir.

Yarimo'tkazgichli Ge(Li)-detektorlar suyuq azot haroratida va chur-qur vakuumda normal ishlaydi. Suyuq azot bilan to'ldirilgan Dyuar idishi ushbu detektorli  $\gamma$ -spektrometrlarning doimiy elementi hisoblana-di. Suyuq azot detektorni past haroratda ushlab turadi. Dyuar idishiga ma'lum bir vaqtidan keyin suyuq azot quyilib turiladi. Bu interval idish sig'imiga qarab 6 kundan 15 kungacha bo'lgan muddatni tashkil qiladi.

Yarimo'tkazgichli detektorlardan chiqayotgan signal amplitudasi juda ham kichik bo'ladi (millivoltlar kattaligida). Shuning uchun detektoring chiqishiga birlamchi kuchaytirgich ulanadi. Bu kuchaytirgichlarga katta talab qo'yilib, u detektoring energiya bo'yicha ajratish qobiliyatini belgilaydi. Birlamchi kuchaytirgichning shovqinini kamaytirish uchun uni past haroratgacha sovitishga to'g'ri keladi. Shovqinni kamaytirish hisobiga detektoring energiya bo'yicha ajratish qobiliyatini yaxshilash mumkin.

Hozirgi kunda asosan toza germaniy HPGe-detektorli g-spektrometrlar qo'llaniladi. Mazkur detektorlar bilan ishlash qulay bo'lib, ular faqat ishlatilgan vaqtida suyuq azotda saqlanadi. Agar detektor uzoq vaqt davomida ishlatilmasa, uni azotda saqlash shart emas. Toza germaniy HPGe-detektorli g-spektrometrning blok sxemasi **5.19-rasm**-da keltirilgan.



**5.19-rasm.** 1) g-nurlanish manbasi; 2) o'ta toza germaniy detektori (HPGe-detektor); 3) yordamchi kuchaytirgich (predusilitel); 4) asosiy kuchaytirgich; 5) ko'p kanallli analizator; 6) kompyuter.

O'ta toza germaniydan iborat bo'lgan detektorlar (HPGe-detektor) yarim o'tkazgichli p-n o'tishli dioddan iborat bo'lib, uning sezgir sohasi hajmini oshirish uchun koaksial (silindrik) geometriyada tayyorlana-

di. Detektoring koaksial geometriyasi g-kvantlarni qayd qilish effektivligini, tekislik geometriyadagi detektorga nisbatan ancha oshiradi.


Detektoring g-kvantlarni qayd qilish effektivligi ishchi soha hajmidan tashqari detektor tayyorlagan materialga ham bog'liq bo'ladi. Hozirgi vaqtda yarim o'tkazgichli detektorlar tayyorlanadigan keng tarqalgan materiallar bu kremniy va germaniy hisoblanadi. Gamma-kvantlarni qayd qilish uchun ko'pincha germaniydan yasalgan detektorlar qo'llaniladi.

Tayyorlash qiyin bo'lishiga qaramasdan, detektorni tayyorlash uchun boshlang'ich material sifatida germaniy tanlab olinadi. Bu g-kvantlarning o'zaro ta'sir kesimi moddaning Z atom nomeriga kuchli bog'langanligidir. Ayniqsa, *fotoeffekt* kesimi Z ga kuchli bog'liq bo'ladi ( $y \sim Z^5$ ), *Kompton effekti* kesimi esa Z ga proporsional bo'ladi. *Elektron-pozitron jufti hosil bo'lish* jarayonining kesimi –  $Z^2$ . Germaniyda Z katta qiymatga ega bo'ladi ( $Z(\text{Ge})=32$ ,  $Z(\text{Si})=14$ ). Shu sababli ushbu material tanlangan bo'lib, u detektoring g-kvantlarni qayd qilish yuqori effektivligini ta'minlaydi.


Gamma-kvantlarning detektor moddasi bilan o'zaro ta'sir qilishi natijasida uning chiqishida elektr zaryadlar hosil bo'lib, uning kattaligi g-kvantning detektorda yo'qotgan energiyasiga proporsional bo'ladi. Hosil bo'lgan zaryad kattaligini proporsional ravishda kuchlanish amplitudasiga aylantirish uchun yuqorida aytib o'tilgan birlamchi kuchaytirgichdan, davomiyligi bo'yicha signallarni shakllantirish va shovqinlarni bostirish uchun esa asosiy kuchaytirgichlardan foydalaniladi.

Gamma spektrometrining assosini toza HP Ge detektori tashkil qildi. Assosiy o'lchanish ishlarining aksariyati shu detektor yordamida amalga oshiriladi. Kuchaytirishga sabab detektordan olingan amlituda juda kichik bo'lib keyingi bloklarga yetib bormaydi. Shuning uchun pastki kichik amplitudani kuchaytirish kerak. Bu kuchaytirgichlar chiziqli bo'lishi kerak.

Amplitudaning tadqiq qilinayotgan diapazoni teng chekli sonli intervallarga bo'linadi va har biriga tartib raqami beriladi. Ushbu intervallarni kanallar deb nomlash qabul qilingan. Assosiy kuchaytirgich chiqishidagi analog signallarni kompyuter ishlay oladigan raqamli kodlarga aylantirish amplituda-raqamli o'zgartirgich yordamida amalga oshiriladi. Amlituda-raqamli o'zgartirgich har bir impuls amplitudasini



**5.20-rasm.** Cs-137 radionuklidning g-spektri.



**5.21-rasm.** Namunaning aktivligini o'lchash sxemasi.

o'lchaydi va unga mos keladigan kanal nomerini aniqlaydi. Keyin mazkur ma'lumotlar kompyuterda qayta ishlanadi va kompyuter monitorida g-spektr hosil bo'ladi (**5.20-rasm**).

HP Ge detektori tashqi tabiiy  $\gamma$ -nurlanishlar va kosmik nurlanishlar foni dan himoya qilish uchun uni qo'rg'oshin devorli uycha ichiga joylashtiriladi. Mazkur himoya radionuklidlarning juda kichik aktiviklarini o'lchash aniqliklarini oshiradi (**5.21-rasm**). O'lchanayotgan natijalar ning aniqlik darajasini oshiradi.


Aktivatsion tahlilda gamma-spektrometrlarni tavsiflovchi quyidagi ikkita asosiy kattalik e'tiborga olinadi:

1. Energiya bo'yicha ajratish qobiliyati;
2. g-kvantlarning effektivligi.

Energetik ajratish qobiliyatini ikki xil ko'rinishda ifodalash mumkin, ya'ni absolut va nisbiy energiya bo'yicha ajratish qobiliyati. Absolut ajratish qobiliyati deb fotochoqqi balandligi yarmining kengligiga ( $\Delta E_{1/2}$ ) aytildi (**5.22-rasm**). Nisbiy ajratish qobiliyati deb quyidagi kattalikka aytildi:

$$D_{1/2} = \Delta E_{1/2} / E_g \quad (5.9)$$

Ssintillatsion g-spektrometrlarni energiya bo'yicha ajratish qobiliyatini tavsiflashda nisbiy ajratish qobiliyati ishlatiladi.



**5.22-rasm.** Gamma-spektr.

Yarim o'tkazgichli g-spektrometrlarda esa absolut ajratish qobiliyati qo'llaniladi.

Yarim o'tkazgichli g-spektrometrlarning energetik ajratish qibiliyatidan tashqari uni tavsiflaydigan yana bir muhim kattalik bu detektoring qayd qilish darajasidir. Gamma-spektrometrlarning effektivligi deb fotocho'qqidagi qayd impulslar sonining g-manbadan  $4\pi$  fazoviy burchakda g-kvantlar soniga nisbatiga aytildi. Tajribada g-spektrometrlarning absolut va nisbiy effektivliklari aniqlanadi. Tanningan o'lchash sharoiti (fazoviy burchak va yutilish filtrlari) uchun absolut effektivlik quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$\varepsilon = \frac{\sum \left( \frac{\mu_{fov}}{\tau} \right)}{A_0 \cdot e^{-\mu} \cdot I_\gamma} \quad (5.10)$$

bu yerda  $S = \mu_{fov}/f$  – berilgan energiyadagi fotocho'qqi yuzasi;  $f$  – g-spektrni o'lchash vaqt;

$1 - 4\pi$  fazoviy burchakda 1s vaqt davomida manba chiqarayotgan berilgan energiyada monoenergetik g-kvantlar soni;

$$\lambda = \ln 2 / T_{1/2} - \text{parchalanish doimiysi, sut}^{-1};$$

$t$  – attestatsiya momentidan o'lchash momentigacha bo'lgan vaqt, sut;

$A_0$  – boshlang'ich aktivlik.


Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, gamma-spektrometrni energiya va effektivlik bo'yicha kalibrovka qilish (darajalash) namunaviy spektrometrik gamma-manbalar to'plami (NSGM yoki rus tilida OSGI) yordamida amalga oshiriladi. Attestatsiya momenti bu namunaviy radio-nuklid ishlab chiqarilgan sana (oy va yil).

O'zbekiston Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi institutining Radioanalitik markazida zamonaviy g-spektrometrlar majmuasi mavjud bo'lib, bu majmuada fundamental va amaliy tadqiqotlar olib boriladi (**5.23-rasm**).

Mazkur markazda namunalarning kiritilgan aktivligini energetik ajratish qobiliyati 1332,5 keV ( $^{60}\text{So}$ ) gamma-chiziq uchun  $\Delta E_{1/2} = 1,8$  keV va nisbiy effektivligi 15 % bo'lgan HPGe detektordan tashkil topgan gamma-spektrometr bilan o'lchanadi (**5.24-rasm**).




**5.23-rasm.** Yarim o'tkazgichli g-spektrometr majmuasi  
(O'zFA Yadro fizikasi instituti).




**5.24-rasm.** Nisbiy effektivlikning gamma-kvantlar energiyasiga bog'lanishi

Gamma-spektrometr DSA-1000 turdag'i ko'p kanalli raqamli analizator va  $\gamma$ -spektrlarni qayta ishlovchi Genie-2000 programmalar dasturiga ega.

Genie-2000 programmalar majmuasi bilan spektrlarni o'lchash va qayta ishlash imkoniyatiga ega va WINDOWS-XP muhitida ishlash uchun mo'ljalangan. Mazkur programmalar paketi yordamida gamma-spektrning asosiy xususiyatlarini, ya'ni gamma-chiziq fotocho'qqilari ning o'rnnini, energiyasini, fotocho'qqi yuzasini va uning statistik xatosini avtomatik ravishda aniqlab beradi.




**5.25-rasm.** O'lichash kompleksining blok-sxemasi: D – Ge-detektor; PU – dastlabki kuchaytirgich; UF – kuchaytirgich-impulslarni shakllatgich (formirovately); VN – yuqori kuchlanish manbayi; NN – past kuchlanish manbayi; ASP – analog-raqamli aylantirgich; EVM – Pentium-4; P – printer HP Laser Jet 1000.



**5.26-rasm.** DSA-1000 turdag'i raqamli ko'p kanalli analizator.

Gamma-spektrometrni energiya va effektivlik bo'yicha sozlash OSGI namunaviy spektrometrik gamma-inanbalar to'plami (NSGM yoki rus tilida OSGI) yordamida amalga oshiriladi. Gamma-spektrometr blok-sxemasi **5.25-rasm**da keltirilgan. **5.26-rasm**da DSA-1000 turdag'i raqamli ko'p kanalli analizator rasmi ilova qilingan.

**Gamma-spektrometr chiziqlarining apparatura shakli.** Monoenergetik gamma-nurlanishlarni registratsiya (qayd) qilganda gamma-spektrometr chiqishidagi signal amplituda taqsimotining shakli murakkab bo'lib, u ko'pgina omillarga bog'liq bo'ladi. Albatta amplituda taqsimotining shaklini birinchi navbatda g-nurlanishlarning detektor moddasi bilan o'zarlo ta'siri belgilaydi. Ikkinchi tomondan amplituda taqsimotining shakliga bir qator omillar ham ta'sir ko'rsatadi, ya'ni detektorda




**5.27-rasm.** g-nurlanisharni qayd qilganda amplituda taqsimotining tipik shakli.

kechadigan ikkilamchi jarayonlar yuzaga keltiradigan, g-spektrometr konstruksiyasining o‘ziga xos xususiyati, o‘lchanayotgan radioizotoplar aralashmasining tarkibi, shuningdek, nurlanishi g-spektrometrda tahlil qilinayotgan namunaning modda tarkibi, massasi va geometrik shakli ham muhim ahamiyatga egadir.

Eksperimental sharoit shunday sozlangan bo‘lsinki, bunda gamma-spektrning shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi hamma qo‘srimcha omillarnig ulushi minimal bo‘lsin. Ushbu holda monoenergetik g-nurlanisharni qayd qilganda amplituda taqsimotining tipik shakli 5.27-rasmdagi ko‘rinishda bo‘ladi. Bu olingan amplituda taqsimotida ikkita soha aniq ajralib turibdi, ya’ni g-kvantlar energiyasi to‘liq yutilishi bilan bog‘liq bo‘lgan cho‘qqi (fotoeffekt va ko‘p karrali sochilish) va hosil bo‘lishiga Kompton sochilishi sababchi bo‘lgan uzlusiz amplituda taqsimoti.

To‘liq yutilish cho‘qqisi g-spektrometrik tahlil uchun fundamental ahamiyatga ega. To‘liq yutilish cho‘qqisi maksimumining o‘rnini (holati), qayd qilingan g-nurlanishlarning energiyasini, uning yuzasi yoki balandligi mazkur energiyali nurlanish intensivligini aniqlashga xizmat qiladi.

To‘liq yutilish cho‘qqisi uzlusiz amplituda taqsimotining chetidan uncha katta bo‘limgan chuqurlik bilan ajralib turadi. Bu energetik bir-



**5.28-rasm.** Ssintillytsion yoki yarim o'tkazgichli detktorli gamma-spektrometrda gamma spektri. 1 –  $E > 1,02 \text{ MeV}$ . 2 –  $\leq 200 \text{ keV}$ .  $TYuCh$  – to'liq yutilish cho'qqisi (fotocho'qqi);  $KCh$  – Kompton cho'qqisi;  $YaChCh$  – yakka(bitta) gamma-kvant chiqib ketish cho'qqisi;  $KUS$  – kompton uzlusiz spektri;  $IChCh$  – ikkitalik chiqib ketish cho'qqisi;  $ANCh$  – annigilyatsiya nurlanish cho'qqisi;  $DXCh$  – detektor xarakteristik nurlanishning chiqib ketish cho'qqisi;  $TSCh$  – teskari sochilish cho'qqisi;  $XNCh$  – himoyaning xarakteristik nurlanishining cho'qqisi.

liklarda 250 keV ni tashkil etadi. Murakkab spektrlerda uzlusiz amplituda taqsimoti xalal beruvchi rolni o'ynaydi. Shu sababli, cho'qqilarni identifikasiya qilganda va spektrlarni miqdoriy qayta ishlaganda uzlusiz amplituda taqsimotini alohida e'tiborga olish zarur. **5.28-rasmda** gipotik gamma spektr ko'rsatilgan. Bu yerda turli jarayonlar hisobiga vujudga keladigan cho'qilar va uzlusiz taqsimotlar keltirilgan.

**5.28-rasmdagi** g-spektr ideallashgan bo'lib, bunda spektr shakliga ta'sir qiluvchi omillar hisobga olinmagan. Amalda bunday ideallashgan spektrni olish juda murakkab masala. Real sharoitda ushbu omillar spektrga sezilarli ta'sir qilib, uning amplituda taqsimotini deformatsiyalashga olib keladi va buning natijasida spektrda qo'shimcha piklar paydo bo'ladi.

Amplituda taqsimotining shaklini o'zgartirishga ichki (detektoring turi, o'lchami va shakli) va tashqi (tahlil qilinayotgan namunanining taribili, o'lchami, massasi, shuningdek, spektrometr konstruksiyasining o'ziga xos xususiyati va h.k.) omillar sababchi bo'ladi.

## **Ikkilamchi jarayonlar va g-spektrometr konstruksiyasining ta'siri.**

• Ikkilamchi zarra va kvantlarning detekordan chiqib ketish effektlari;

- Teskari sochilishlar;
- Murakkab fluoressensiya;
- Geometriyaning ta'siri;
- Tormozlanish nurlanishlari;
- Energiyalar qo'shilishi;
- Pozitron nurlanishlar.

*Ikkilamchi zarra va kvantlarning detektoridan chiqib ketish effektlari.* Yutilgan g-kvant to'liq yutilish cho'qqisiga o'z ulushini qo'shishi uchun u hosil qilgan ikkilamchi zarralar va kvantlarning detektor ishchi hajmida energiyalarini to'liq yo'qotishlari kerak. Ammo ikkilamchi nurlanishlar o'zi bilan energiyaning bir qismini yoki hammasini olib, detektor ishchi hajmini tashlab chiqib ketishi ma'lum bir ehtimollikka ega. Birlamchi g-kvant detektorning sirtiga qanchalik yaqin sohada yutilsa, chiqib ketish ehtimolligi shunchalik katta bo'ladi.

### **5.10-§. Aktivatsion tahlil o'tkazish uchun zarur bo'lgan apparaturalar uyushmasi**

Aktivatsion tahlilni amalga oshirish metodi bo'yicha ikkita katta guruhga ajratish mumkin:

1) instrumental aktivatsion tahlil;

2) kimyoviy qayta ishlash va namunalarni kimyoviy ajratish bilan amalga oshiriladigan tahlil.

**Instrumental aktivatsion tahlil.** Instrumental metod nurlanishni detektorlash bloki va elektron apparaturalar yordamida namuna ni kimyoviy ajratmasdan, aniqlanayotgan elementni identifikatsiya qilish va miqdorini aniqlashga imkon beradi. Alovida eng sodda hollarda faqat umumiyl kiritilgan radioaktivlikni qayd qilish, boshqa hollarda esa nurlanish spektrometriyasini amalga oshirish zarur. Ba'zan, alovida hollarda murakkab tarkibli modda tahlil qilinayotganda qayd qilishning yanada murakkab metodlarini ishlatalish zarur, yadrolarning parchalanish sxemalarining o'ziga xos xususiyatlaridan foydalangan

holda, masalan nurlanishning har xil turlari orasida vaqt bo'yicha mos kelishgi e'tiborga olinadi ( $\gamma$ - $\gamma$ -yoki  $\beta$ - $\gamma$ -mos tushish deb nomlangan). Hosil bo'lgan radioizotoplarning yarim yemirilish davrlari ancha farq qilganda ularni aniqlash, o'lhash vaqtлari orasidagi farqni aniqlash orqali amalga oshiriladi. Ayrim holda instrumental tahlilning selektivligi ma'lum bir nurlanish sharoitini yaratish yo'li bilan ham amalga oshirilishi mumkin, ya'ni har xil energiyali neytron yoki  $\gamma$ -kvantlar bilan aktivatsiya qilish, optimal nurlanish vaqtini tanlash va hokazo.

Instrumental tahlil ko'pchilik hollarda yuqori ekspresslikka ega bo'lib, bu texnologik nazoratlar uchun juda muhimdir. Bunday ekspress tahlilga tipik misol qilib, oltin miqdorini  $\gamma$ -aktivatsion tahlil metodi bilan aniqlashni keltirish mumkin.

Ko'p komponentali instrumental tahlilni o'tkazish, detektorlash bloklarining ajratish qobiliyatini oshirish va o'lchanigan natijalarni tahlil qilish kompyuterlar bilan bog'liqidir.

**Radiokimyoviy usulni qo'llab aktivatsion tahlil o'tkazish.** U yoki bu elementni murakkab kimyoviy tarkibdan iborat bo'lgan namunada instrumental aktivatsion tahlil bilan aniqlash imkonи bo'limganda radiokimyoviy usulni qo'llash orqali aktivatsion tahlil o'tkaziladi. Ushbu metodda nurlantirilgan namunaning kiritilgan aktivligini o'lhashdan oldin unga kimyoviy ajratish va tindirish jarayonlari qo'llaniladi. Oddiy qilib aytganda nurlantirilgan namunadan radiokimyoviy usul bilan kerakli radioizotoplar ajratilib olinadi va instrumental aktivatsion tahlil kabi kiritilgan aktivlik o'lchanadi.

Aktivatsion tahlil metodini o'tkazish uchun kerak bo'lgan asbob va uskunalarga quyidagilar kiradi:

- aktivatsiya qilish uchun nurlanish manbalari;
- nurlantirilgan namunani detektorlash sistemasiga olib boruvchi vosita;
- nurlanishlarni detektorlash bloklari;
- Tahlil va natijalarni qayta ishlash jarayonlarini avtomatlashtiruvchi qurilmalar.

Gamma-aktivatsion tahlil uchun quyidagi yuqori energiyali  $\gamma$ -kvantlar manbalari ishlatalishi mumkin: radioizotop, elektronlar elektrostatik tezlatkichi, chiziqli elektron tezlatkichlar, betatronlar, mikrotronlar. Gamma-aktivatsion tahlil uchun eng qulayi elektron tezlatkich-

lardir. Tezlatkichlarni qo'llaganda, ma'lum bir energiyagacha tezlatilgan elektronlar dastasi og'ir metalldan iborat nishonga yo'naltiriladi. Elektronlarning tormozlanishida hosil bo'lgan yuqori energiyali  $\gamma$ -nurlanishlar yuqori intensivlikka ega va yuqori sezgirlikdagi gamma-aktivatsion tahlil o'tkazishga imkon beradi.

Elektron tezlatkichlar oddiy, kichik o'lchamli bo'lgani bois hozirgi vaqtida gamma-aktivatsion tahlil uchun eng qulayi betatron hisoblanadi.

Betatronning vakuumli tezlatish kamerasida elektronlarni tezlatish uyurmaviy elektr maydon orqali amalga oshiriladi. Betatronlar olinyotgan tormozli  $\gamma$ -nurlanishlar energiyasini 10 MeV dan 30 MeV gacha diapozonida aniq o'zgartirish va doza quvvatini 100 – 200 r/min (nishondan 1 m uzoqlikda) atrofida olishga imkon beradi. Yuqori istiqbolga ega bo'lgan katta intensivlikdagi  $\gamma$ -nurlanishlar manbalaridan biri bu mikrotrondir. Uning o'lchami betatronnikidan kichik bo'lib, ancha katta intensivlikdagi tormozli nurlanish olishga imkon berishi bilan farq qiladi.

Neytron-aktivatsion tahlil metodida nurlanish manbalari sifatida quyidagilar qo'llaniladi: radioizotop manbalar, neytron generatorlar va yadro reaktorlari. Ayrim hollarda neytronlar manbayi sifatida elektron va ion tezlatkichlar ham qo'llaniladi.

Zaryadlangan zarralar yordamida aktivatsion tahlil o'tkazganda nurlanishlar manbalari sifatida asosan siklotronlar qo'llaniladi.

Kuchli aktivatsiya manbalari bilan, shuningdek, nurlangan namunalar bilan ishlaganda xavfsizlikni ta'minlash uchun namunani nurlanish manbayidan detektorga olib boruvchi maxsus sistemalardan (qurilmalardan) foydalilanildi. Bundan tashqari, olib boruvchi sistemalar transportirovkan tezlatadi, aktivatsiya va o'lhash orasidagi vaqt oralig'ini kamaytiradi.

Ko'proq olib boruvchi sistemalarning ikki turi, ya'ni mexanik va pnevmatik turlari qo'llaniladi. Namunani transportirovka qilishni mexanik sistemasi odatda buriladigan poromislo, aylanuvchi disk yoki chiziqli transport mexanizmi (konveyer, borib-kelib turuvchi mexanizm va hokazo) ko'rinishida bo'ladi. Pnevmotransport oddiy changyutgichlar kabi ishlaydi.

SB-50 betatronida namunalarni nurlanish postiga va undan o'lhash xonasiga olib kelish uchun K5-2A turdag'i pnevmotransport qurilmasi-

dan foydalanilgan. Ushbu qurilmada namunalar joylashtirilgan konteyner harakatlanadigan trubalarning (yo‘lning) uzunligi 40 metrga teng. Qurilma quyidagi texnik ko‘rsatkichlarga ega:

- namunalarni bir tomonga, ya’ni nurlanish postigacha yoki undan o‘lchash xonasiga olib borish vaqtı – 4 s;
- konteynerning foydali hajmi – 800 mm<sup>3</sup>;
- nurlanayotgan namunalarning maksimal massasi – 50 g.

Mexanik sistemaning ustunligi, katta massali, ya’ni massasi bir necha kilogrammgacha bo‘lgan namunalarni transportirovka qilish imkoniyatiga ega bo‘lishidadir.

Pnevmotransport sistemalari (yoki ko‘pchilik hollarda «pnevmpochta» deb nomlanadi) kuchli nurlanish manbalari: yadro reaktori, neytronlar generatori va hokazo bilan ishlaganda keng foydalaniladi. Pnevmotransport sistemasi namunalarni tashuvchi (soluvchi) va chiqarib oluvchi maxsus qurilma bilan ta’minlangan, doira yoki to‘rtburchak kesimli trubalar (metalldan yoki polietilendan) sistemasidan iborat. Metall yoki polietilen kapsulalarga solingan namunalar, siqilgan havo yoki inert gaz yordamida nurlanish joyiga yoki detektorning oldiga olib keldi. Ba’zan pnevmotransport sistemalari namunani talab qilingan detektorga, ma’lum vaqt saqlab turuvchi joyga yoki namunani saqlaydigan joyga olib borish uchun strelkalar bilan ta’minlangan, ko‘p sonli tamoqqa egadir. Zamonaviy transport sistemalarida namunani kapsuladan olishni ham o‘z ichiga olgan holda amallarni boshqarish to‘liq avtomatlashgandir.

***Ionlovchi nurlanishlarni o‘lchash.*** Yadro jarayonlarida yoki radioaktiv parchalanishlarda chiqayotgan nurlanishlarni ( $\alpha$ ,  $\beta$  va  $\gamma$ -nurlanishlar) qayd qilish, miqdoriy hisoblashlar va aniqlayotgan elementlarni identifikasiya qilish uchun muhim ma’lumotlar beradi.

Eng muhim va keng qo‘llaniladigan qayd qilish usullari qayd qilinayotgan zarra (kvant) energiyasini elektr impulslariga aylantirishga asoslangan. Ushbu impulslar keyin maxsus elektron qurilmalarga uza tilidi va bu qurilmalarda impulslar qayta ishlanadi. Zarra energiyasini elektr impulsiga aylantiruvchi qurilmalar nurlanish detektorlari deyildi. Nurlanish detektorlarlarining turlari juda ko‘p bo‘lib, ularning ish lash tamoyili ulardan zaryadlangan zarralar o‘tganda modda atomlarini ionizatsiyalashtirish yoki uyg‘ongan holatga o‘tkazishga asoslangan.

Bunda gamma-kvantlar va neytronlar ularning modda bilan o'zaro ta'sirlashishi natijasida hosil bo'lgan zaryadlangan zarralar (ikkilamchi zarralar) ionizatsiyasi bo'yicha qayd qilinadi.

**Proporsional hisoblagich.** Proporsional hisoblagichlarda kuchlanishning ma'lum bir ionizatsion tok birlamchi ionizatsiyaga proporsional, binobarin tushayotgan nurlanish energiyasiga ham. Shuning uchun nurlanish detektori sifatida proporsional hisoblagichni qo'llab,  $\gamma$ -nurlanishlar va  $\beta$ -zarralar energetik taqsimotini olish mumkin.

**Geyger hisoblagichi.** Geyger hisoblagichlarda zaryadlangan zarralar va  $\gamma$ -kvantlar qayd qilish uchun hisoblagich orqali zarrachalar o'tishida hosil bo'ladigan mustaqil gaz razryadidan foydalaniladi. Geyger hisoblagichidan tushayotgan nurlanishning energetik taqsimotini olish uchun foydalanib bo'lmaydi.

Bugungi kunda proporsional va Geyger hisoblagichlari qo'llanilmaydi. Zamonaviy aktivatsion tahlilda boshqalarga nisbatan ko'proq ssintillatsion va yarim o'tkazgichli detektorlar qo'llaniladi.

**Ssintillatsion detektorlar.** Ssintillatsion detektor bloki nurlanish ta'sirida yorug'lik chaqnashlari yuz beradigan ssintillatsiyator va fotoelektron kuchaytirgichlar kombinatsiyasidan iborat bo'ladi. Fotokuchaytirgichda yorug'lik chaqnashlari elektr impulslariga aylantiriladi. Ushbu impulslar amplitudasi qayd qilinayotgan (registratsiya qilinayotgan) nurlanish energiyasiga proporsional bo'ladi.

Ssintillatsiyator sifatida talliy bilan aktivlangan natriy yod kristallari, ya'ni NaJ(Te), talliy bilan aktivlangan seziy yod kristallari, ya'ni CsJ(Te), rux sulfat – ZnS, ssintillatsiyalanuvchi plastmassalar – antratsen, stilben va hokazo qo'llaniladi.

Ssintillatsion detektori yuqori qayd qilish effektivligiga ega bo'lib, ular ancha «o'lik vaqt»ga ega bo'lgan gaz razryadli hisoblagichlardan farq qilib, katta intensivlikdagi nurlanishlarni o'lchash uchun ishlatalishi mumkin. Ssintillatsion detektorlash blokining kamchiliklaridan biri fotokuchaytirgichga berilayotgan yuqori kuchlanishning turg'un bo'lishi keraklidir. Bu hisoblagich harorat tebranishlariga o'ta sezgirdir. Bundan tashqari, mazkur detektorlarning energiya bo'yicha ajratish qobiliyati juda ham past.


**Yarim o'tkazgichli detektorlar.** Yadro zarrasi yarim o'tkazgichli detektorning ishchi hajmiga tushganda u energiyasini elektronteshik

juftini hosil qilishga sarflaydi. Ushbu jarayon natijasida elektr zaryadlar hosil bo'lib, ular elektrodlarga yig'iladi va elektr impulsi hosil qiladi. Bunday impulslar amplitudasi zarra detektoring ishchi hajmidan o'tgan vaqtida sarf qilgan energiyasiga proporsional bo'ladi. Yarim o'tkazgichli detektorlarning asosiy ustunligi ularning yuqori ajratish qobiliyati bo'lib, u ssintillatsion detektornikidan bir tartib yuqoridir. Kamchiliklaridan biri past effektivligi, u bilan ishlaganda va uni saqlashda past haroratli suyuq azotdan foydalanishdadir.

Hozirgi kunda asosan o'ta toza germaniyli yarim o'tkazgichli detektorlar qo'llaniladi. Bu detektorlar yuqori effektivlikka va yuqori energetik ajratish qobiliyatiga egadir.

## MASALALAR YECHISH UCHUN NAMUNALAR

**1-masala.** Ajratish vaqt f = 0,20 ms bo'lgan Geyger-Myuller sanagichi 3,0·10<sup>4</sup> imp./min ni qayd qilgan. Sanagich orqali 1 daqiqada o'tgan o'rtacha zarralar sonini baholang.



**Yechilishi:** Har qanday yadro nurlanishlar sanagichlari zarrani qayd qilgandan keyin o'zining xususiyatini tiklash uchun ma'lum bir f vaqt oralig'ini sarflaydi. Bu f vaqtning yadro zarralar sanagichlarining eng asosiy xarakteristikalaridan biri bo'lib, u tiklanish vaqt deyiladi. Agar ushbu vaqt oralig'ida sanagichga zarra kelib tushgan bo'lsa, uni sanagich qayd qilmaydi. Ushbu hodisa quyidagi rasmda tasvir ettirilgan bo'lib, bunda 1, 2, 4-zarralar qayd qilinadi, 3-zarra esa qayd qilinmaydi. Bunga sabab 3-zarra sanagich o'z xususiyatini tiklash uchun ketgan vaqt intervaliga to'g'ri kelganda kelib tushgan.

Ushbu vaqt ichida sanagich orqali o'tgan zarralarning  $N_0$  o'rtacha sonini aniqlash ifodasini quyidagi ko'rinishda yozamiz:

$$N_0 = N + DN \quad (1)$$

bu yerda  $t \gg f$  vaqt davomida qayd etilgan zarralar soni  $N$  ga teng;  $DN = n_0 \cdot \Delta t$  – quyidagi yig'indi to'liq vaqt ichida qayd qilinmagan zarralar soni:

$$Dt = fN = \tau \dot{n}t \quad (2)$$

bu yerda  $fN$  – yig'indi vaqt bo'lib, bu vaqt davomida sanagich zarralar ni qayd qilmaydi. U holda

$$N_0 = N + \dot{n}_0 \tau \dot{n}t \quad (3)$$

Bu ifodaning chap va o'ng tomonlarini  $t$  ga bo'lamiz va quyidagini olamiz:

$$\dot{n}_0 = \dot{n} + \dot{n}_0 \dot{n} \tau. \quad (4)$$

Bu tenglamadan quyidagini olamiz:

$$\dot{n}_0 = \frac{\dot{n}}{1 - \dot{n}\tau} = \frac{3 \cdot 10^4}{1 - 3 \cdot 10^4 \cdot 2 \cdot 10^{-4} / 60} = 3,3 \cdot 10^4 \text{ imp./min}$$

**Javob:**  $\dot{n}_0 = 3,3 \cdot 10^4 \text{ imp./min.}$

**2-masala.** Ajratish vaqt  $f = 1,0 \text{ mks}$  bo'lgan sanagich orqali o'tayotgan zarralar sonining qancha ulushi sanash tezligi  $\dot{n} = 100$  va  $1,0 \cdot 10^5 \text{ imp./s}$  bo'lganda sanagich tomonidan qayd etilmaydi?

**Yechilishi.** Qayd qilinmagan zarralar sonini yuqoridagi masalada keltirilgan formula bilan aniqlash mumkin. U holda qayd qilinmagan zarralarning ulushi quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$\eta = \frac{\dot{n}_0 - \dot{n}}{\dot{n}_0} = \frac{\dot{n} + \dot{n}_0 \cdot \dot{n}\tau - \dot{n}}{\dot{n}_0} = \dot{n}\tau \quad (1)$$

u holda


$$\eta_1 = 100 \cdot 1,0 \cdot 10^{-6} = 10^{-4} = 0,01\% \quad (2)$$

$$\eta_2 = 10^5 \cdot 1,0 \cdot 10^{-6} = 0,1 = 10\% \quad (3)$$

**Javob:**  $\eta_1 = 0,01\%$ ,  $\eta_2 = 10\%$ .

**3-masala.** Agar  ${}^9\text{Be}(b, n){}^{12}\text{S}$  reaksiyaning chiqishi  $0,8 \cdot 10^{-4}$  ga teng bo'lsa, tarkibida  ${}^{210}\text{Ro}:0,63 \cdot 10^{10}$  Bk ( $0,17 \text{ Ki}$ ) bo'lgan uncha katta bo'lmagan  ${}^{210}\text{Ro}$ -Ve-manbayidan 10 sm uzoqlikdagi masofada neytronlar oqimini toping.

**Yechilishi.** Zarralar oqimi deb yuza birligidan vaqt birligida o'tayotgan zarralar soniga aytildi (rasmga qarang):



$$\Phi = \frac{dN}{dS} \quad (1)$$

Bu yerda  $S$  – zarralar oqimi,  $dN$  – sferaning ichki hajmiga vaqt birligida tushayotgan zarralar soni,  $dS$  – sfera segmentining yuzasi.

$R = 10 \text{ sm}$  masofada manbani nuqtaviy nurlanish manbayi deb hisoblash mumkin. Faraz qilamiz,  $S$  manbadan bir soniyada  $\dot{N}_0$  ta izotrop neytronlar chiqayotgan bo'lsin. U holda cheksiz kichik hajmdagi sfera chegarasida  $F = \text{const}$  deb hisoblash mumkin va  $S$  nuqtaviy manbadan  $R$  masofada joylashgan  $dS$  yuzaga soniyasiga kelib tushayotgan neytronlar soni

$$d\dot{N} = \frac{\dot{N}_0}{4\pi} d\Omega \quad (2)$$

ta'rifiga asosan fazoviy burchak elementi

$$d\Omega = \frac{dS}{R^2}. \quad (3)$$

(3) ni (2) ga qo'yamiz va quyidagi ifodaga ega bo'lamiz:

$$d\dot{N} = \frac{\dot{N}_0}{4\pi} \frac{dS}{R^2} \quad (4)$$

(4) ni (1) ga qo'yamiz va zarralar oqimini topishga imkon beruvchi quyidagi ifodani olamiz:

$$F(R) = \frac{dN}{dS} = \frac{\dot{N}_0}{4\pi R^2} \quad (5)$$

Manbadan soniyasiga chiqayotgan neytronlar soni:

$$\dot{N}_0 = Y \cdot \dot{N}_\alpha = Y \cdot A ({}^{210}\text{Po}) \quad (6)$$


Bitta  ${}^{210}\text{Ro}$  yadrosi b-parchalanganda bitta b-zarra paydo bo'ladi. Ushbu ifodani (5) ga qo'yamiz va manbadan 10 sm uzoqliqdagi masofada neytronlar oqimini topamiz

$$F(R = 10) = \frac{Y \cdot A ({}^{210}\text{Po})}{4\pi R^2} = \frac{0,8 \cdot 10^{-4} \cdot 0,63 \cdot 10^{10}}{4 \cdot 3,14 \cdot 100} = 4 \cdot 10^2 \frac{1}{sm^2 \cdot c} \quad (7)$$

**Javob:**  $F(R = 10) = 4,0 \cdot 10^2$

**4-masala.** Oqim zichligi  $1,0 \cdot 10^{12} \text{ s}^{-1} \cdot \text{sm}^{-2}$  bo'lgan issiq neytronlar oqimi bilan kadmiy-116 dan tashkil topgan yupqa plastinka nurlantirilgan. Agar nurlanishdan olti sutka o'tgandan keyin  ${}^{113}\text{Cd}$  nuklid yadrolari tarkibi 1% kamaygan bo'lsa, (n,g) reaksiya kesimini aniqlang.

**Yechilishi.** Reaksiya sxemasini yozamiz:



Vaqt birligida moddaning hajm birligida sodir bo'layotgan reaksiyalar soni:

$$H = nyF \quad (2)$$

$dt$  vaqt oralig'ida nishon yadrolarning konsentratsiyasining o'zgarishi:

$$dn = -H dt = -nyF dt \quad (3)$$

Ushbu tenglama  $n(t=0) = n_0$  boshlang'ich shart bilan yechilganda quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$n(t) = n_0 \exp(-yFt) \quad (4)$$

bundan

$$\frac{n_0 - n(t)}{n_0} = 0,01 = 1 - \exp(-yFt) \quad (5)$$

Ushbu ifodadan reaksiya kesimini aniqlaymiz:

$$\sigma = -\frac{\ln 0,99}{F \cdot t} = \frac{0,01}{1 \cdot 10^{12} \cdot 6 \cdot 24 \cdot 3600} = 1,9 \cdot 10^{-20} sm^2 = 2 \cdot 10^4 barn \quad (6)$$

**Javob:**  $2 \cdot 10^4$  barn.

**5-masala.** Kinetik energiyasi 1 MeV bo'lган deytronlar bilan og'ir muzdan iborat bo'lган yupqa nishon nurlantirilganda  ${}^2N(d,n) {}^3Ne$  reaksiyaning chiqishi va kesimi mos holda  $0,8 \cdot 10^{-5}$  va  $0,020$  mb ga teng bo'lган. Kinetik energiyasi 2 MeV bo'lган deytronlar uchun mazkur reaksiyaning kesimini aniqlang. Ushbu energiya uchun reaksiya chiqishi  $4,0 \cdot 10^{-5}$  ga teng.

**Yechilishi.** Yupqa nishon uchun  ${}^2N(d,n) {}^3Ne$  reaksiya chiqishi quydagiga teng:

$$Y = \frac{\dot{N}}{F_0} = n \sigma d \quad (1)$$

bu yerda  $\dot{N}$  – vaqt birligida birlik yuzada sodir bo'layotgan reaksiyalar soni. U holda

$$\frac{Y_1}{Y_2} = \frac{\sigma_1}{\sigma_2}, \quad (2)$$

bu yerdan

$$\sigma_2 = \sigma_1 \frac{Y_2}{Y_1} = 0,020 \frac{4,0 \cdot 10^{-5}}{0,8 \cdot 10^{-5}} = 0,10 \text{ b} \quad (3)$$

**Javob:**  $\sigma_2 = \sigma_1 \frac{Y_2}{Y_1} = 0,020 \frac{4,0 \cdot 10^{-5}}{0,8 \cdot 10^{-5}} = 0,10 \text{ b}.$

## MUSTAQIL YECHISH UCHUN MASALALAR

**5.1.** Radioug'lerod metodi bilan qadimgi topilmaning yoshini aniqlash bo'yicha o'tkazilgan tajribada topilmadagi sanash tezligi daqiqasiga  $14$  impuls, fonnii sanash tezligi esa daqiqasiga  $9,5$  impulsni tashkil etgan. Topilma yoshini  $5\%$  aniqlikda topish uchun qancha vaqt o'lhash zarur bo'ladi? (*Javobi: 19 soat*).

**5.2.** Sanagichning ajratish vaqt  $f = 8 \cdot 10^{-6}$  s bo'lsa, sanash tezligi qanday bo'lganda zarralarni sanamaslik holati  $5\%$  dan oshmaydi? (*Javobi:  $2,5 \cdot 10^3$  imp. /s*).

**5.3.** Pluton-berilliylar neytronlar manbayi soniyasiga  $2,8 \cdot 10^7$  neytron chiqaradi. Agar plutoni chiqarayotgan  $\alpha$ -zarra ta'sirida berilliyyda so'dir bo'lgan ( $\alpha, n$ ) turdag'i reaksiya chiqishi  $2,6 \cdot 10^{-5}$  ga teng bo'lsa, plutoni miqdori aniqlansin. Manbada plutoni berilliylar bilan aralashma ko'rinishida bo'ladi. (*Javobi:  $9,0 \cdot 10^{-4}$  g*).

**5.4.** Kinetik energiyasi  $1,0$  MeV bo'lgan proton deytron tomonidan qamrab olinadi. Hosil bo'lgan yadronning uyg'onish energiyasini aniqlang. Bu qanday yadro? (*Javobi:  $6,16$  MeV*).

**5.5.** Kinetik energiyasi  $7,8$  MeV bo'lgan  $\alpha$ -zarra bilan havoda normal sharoitda uyg'otilgan  $^{14}\text{N}(\delta, p)^{17}\text{O}$  reaksiya o'rtacha kesimini aniqlang. Ushbu sharoitda va energiyada o'lchanigan reaksiya chiqishi  $2,0 \cdot 10^{-5}$  ni tashkil etadi. (*Javobi:  $0,14$  b*).

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Aktivatsion analiz sezgirligi, aniqlanish va payqash chegarasi.
2. Aktivatsion analiz umumiy yo 'nalishi qanday jarayondan boshlanadi?
3. Neytron aktivatsion analiz.
4. Neytronlarning manbalarini ko 'rsating.
5. Issiqlik neytronlar aktivatsion analiz metodlari.
6. Neytron aktivatsion analizning analitik imkoniyatlari.
7. Monoenergetik va tormozli gamma-nurlanishlar manbalari.

## TEST SAVOLLARI

1. Aktivatsion tahlilni amalga oshirish bosqichlari qanday?

A) Tahlil uchun moddani tanlash, namunani nurlanishga tayyorlash, nurlanish, aktivlikni o'lchash, natija olish

B) Nurlantirish, nurlanish dozasini o'lchash, energiyani aniqlash

C) Nurlanish dozasini o'lchash, namuna massasini o'lchash, namunani maydalash

D) Namunani kimyoviy tahlil qilish va nurlantirish

2. Aktivatsion tahlil ikkiga bo 'linadi, ya 'ni ... aktivatsion tahlil.

A) Instrumental va kimyoviy

B) Isntrumental va radiokimyoviy

C) Radiokimyoviy va biokimyoviy

D) Kimyoviy va fizikaviy

3. Quyidagi detektorlardan qaysi birining energetik ajratish qobiliyati yuqori?

A) Proporsional hisoblagich

C) Organik ssintillator

B) NaI(Ta)-detektori

D) Ge(Li)-detektori

4. Detektoring effektivligi deb ... aytildi?

A) Detektor registratsiya qilgan impulslar sonining uning ishchi hajmi kelib tushgan zarralar soniga nisbatiga

B) Detektor qayd qilingan impulslar kattaligi va o'lchamiga

C) Detektorga tushgan zarralar sonining u qayd qilgan impulslar soniga nisbatiga

D) Detektorga tushgan zarralar turiga

*5. Detektorlarning asosiy xarakteristikalarini ko'rsating.*

- A) Ajratish qobiliyati, massasi
- B) Zichligi, hajmi, umumiy effektligi
- C) Umumiy effektligi, o'lik vaqtি, energetik ajratish qobiliyati
- D) Umumiy effektligi, o'lik vaqtি, zichligi

*6. Aktivatsion tahlilda miqdoriy natijalar olinadigan metodlarni ko'rsating.*

- A) Absolut metod, etalon metodi, monitor metodi
- B) Absolyut metod, gamma-metodi, energetik metod
- C) Monitor metodi, aktivlash metodi, ostona metodi
- D) Etalon metodi, monitor metodi, energetik metod

*7. Etalon nima?*

- A) Moddani tashkil etgan elementlar soni
- B) Tarkibi noma'lum bo'lgan modda
- C) Elementar modda
- D) Aniqlamoqchi bo'lgan elementlardan tayyorlangan modda

*8. Monitor nima uchun qo'llaniladi?*

- A) Modda tarkibini aniqlash uchun
- B) Nurlanish intensivligini nazorat qilish uchun
- C) Gamma-kvantlar oqimini o'lchash uchun
- D) Moddaning tuzilishini o'rGANISH uchun

*9. Instrumental aktivatsion tahlilda qo'llaniladigan spektrometriya metodlarini ko'rsating.*

- A) b-spektrometriya, v-spektrometriya va g-spektrometriya
- B) Og'ir zaryadlangan zarralar spektrometriyasi,  $\beta$ -nurlanishlar spektormetriyasi va  $\lambda$ -nurlanishlar spektormetriyasi
- C) UK-spektrometriya, SDO-spektrometriya L-spektrometriya
- D) L-spektrometriya,  $\lambda$ -spektrometriya va UK-spektrometriya

*10. Etalon sifatida qanday modda olinadi?*

- A) Kimyoviy toza, tahlil uchun toza va o'ta toza markali moddalar.
- B) Namuna, manitor va o'ta toza.
- C) Tahlil uchun toza markali, namuna va manitor.
- D) Radioaktiv modda, geologik namuna va yarim o'tkazgichli modda.

*11. Detektorlar tashqi radioaktiv fondan qanday himoya qilinadi?*

- A) O‘lhash vaqtini kamaytirish
- B) Betonli uycha ichiga joylashtiriladi
- C) Yog‘ochdan yasalgan uycha ichiga joylashtiriladi.
- D) Qo‘rg‘oshin uycha ichiga joylashtiriladi

*12. Ekspress aktivatsion tahlil o‘tkazish uchun qanday radionuklidlarning gamma-chiziqlaridan va qanday qurilmalardan foydalanish lozim?*

- A) Uzoq yashovchi radioizotoplар, ampermetrlardан
- B) Qisqa yashovchi radioizotoplар, pnevmopochtalardан
- C) O‘ta uzoq yashovchi radioizotoplар, mikroskoplардан
- D) Uzoq yashovchi radioizotoplар, teleskoplардан

*13. Neytron aktivatsion tahlil usulining qanday metodlari mayjud?*

A) Issiqlik neytronlarda aktivatsion tahlil, rezonans neytronlarda aktivatsion tahlil, tez neytronlarda aktivatsion tahlil

B) Issiqlik neytronlarda aktivatsion tahlil, energetik aktivatsion tahlil, gamma-kvantlarda aktivatsion tahlil

C) O‘ta uzoq yashovchi radioizotoplarda aktivatsion tahlil, mikroskoplarda aktivatsion tahlil, fotonlarda aktivatsion tahlil

D) Uzoq yashovchi radioizotoplarda aktivatsion tahlil, teleskoplarda neytron aktivatsion tahlil

*14. Aktivatsion tahlilda interferensiyanuvchi yadro reaksiyasi deb nimaga aytildi?*

- A) Bir necha reaksiya natijasida bir xil radioizotop hosil bo‘lishiga
- B) Radioizotoplар hosil bo‘lishiga
- C) Yadro reaktorida neytronlar hosil bo‘lishiga
- D) Neytron ta’sirida reaksiya yuz berishiga

*15. Gamma-spektrdagi gamma-chiziq va fotocho ‘qqilar qanday jarayon hisobiga hosil bo‘ladi?*

- |                    |                              |
|--------------------|------------------------------|
| A) Kompton effekti | C) Fotoeffekt                |
| B) Ionizatsiya     | D) Gamma-kvantlar sochilishi |

*16. Qanday aktivatsion tahlil usulida katta massali namunalarni tezkor tahlil qilish mumkin?*

- |                              |                            |
|------------------------------|----------------------------|
| A) Spektral tahlil usuli     | C) Gamma-aktivatsion usuli |
| B) Neytron-aktivatsion usuli | D) Gamma-yutilish usuli    |

**17. Analitik gamma-chiziq deb qanday gamma-chiziqqa oytiladi?**

- A) Elementni aniqlash uchun qo'llaniladigan
- B) Gamma-aktivatsion usulida qo'llaniladigan
- C) Energiyani aniqlash uchun qo'llaniladigan
- D) Neytron-aktivatsion usuli qo'llaniladigan

**18. Etalon metodida element miqdori qanday munosabat yordamida aniqlanadi?**

- |                                                            |                                                 |
|------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------|
| A) $\frac{m_x}{m_s} = \frac{A_x}{A_s}$                     | C) $\frac{m_x}{m_s} = \frac{A_x}{A_s} \sqrt{3}$ |
| B) $m_x = \frac{A_x}{A_s} \cdot \frac{A_{mz}}{A_{mx}} m_s$ | D) $\frac{m_x}{m_s} = \frac{A_x}{A_s} \sqrt{N}$ |

**19. Monitor metodida element miqdori qanday munosabat yordamida aniqlanadi?**

- |                                                            |                                                      |
|------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------|
| A) $\frac{m_x}{m_s} = \frac{A_x}{A_s}$                     | C) $\frac{m_x}{m_s} = \frac{A_x}{A_s} \sqrt[3]{150}$ |
| B) $m_x = \frac{A_x}{A_s} \cdot \frac{A_{mz}}{A_{mx}} m_s$ | D) $\frac{m_x}{m_s} \sqrt{N} = \frac{A_x}{A_s}$      |

**20. Gamma spektrdagи 511 keV energiyali gamma-chiziqlar qanday jarayon hisobiga vujudga keladi?**

- A) Kompton effekti
- B) Ionizatsiya
- C) Pozitronlarning annigilyatsiyasi
- D) Gamma-kvantlar sochilish

## **TEST SAVOLLARINING JAVOBLARI**

### **I BOB. Radioaktivlik hodisasi**

- |      |       |       |       |
|------|-------|-------|-------|
| 1) B | 6) D  | 11) A | 16) A |
| 2) A | 7) D  | 12) C | 17) B |
| 3) A | 8) A  | 13) C | 18) A |
| 4) C | 9) B  | 14) A | 19) B |
| 5) A | 10) B | 15) C | 20) D |

### **II BOB. Yadro reaksiyalari**

- |      |       |       |       |
|------|-------|-------|-------|
| 1) A | 6) A  | 11) C | 16) D |
| 2) D | 7) B  | 12) C | 17) A |
| 3) A | 8) D  | 13) A | 18) B |
| 4) B | 9) A  | 14) B | 19) A |
| 5) A | 10) A | 15) A | 20) C |

### **III BOB. Yadro nurlanishlarining modda bilan o‘zaro ta’siri**

- |      |       |       |       |
|------|-------|-------|-------|
| 1) A | 6) D  | 11) B | 16) A |
| 2) A | 7) A  | 12) A | 17) C |
| 3) A | 8) A  | 13) C | 18) B |
| 4) D | 9) C  | 14) A | 19) C |
| 5) B | 10) A | 15) D | 20) A |

### **IV BOB. Yadro nurlanishlarining tibbiyotda qo‘llanilishi**

- |      |       |       |       |
|------|-------|-------|-------|
| 1) D | 6) A  | 11) A | 16) A |
| 2) D | 7) A  | 12) A | 17) D |
| 3) A | 8) A  | 13) B | 18) A |
| 4) B | 9) C  | 14) A | 19) B |
| 5) D | 10) B | 15) A | 20) A |

## **V BOB. Aktivatsion tahlil**

- |      |       |       |       |
|------|-------|-------|-------|
| 1) A | 6) A  | 11) D | 16) D |
| 2) B | 7) D  | 12) B | 17) A |
| 3) D | 8) B  | 13) A | 18) A |
| 4) A | 9) A  | 14) A | 19) B |
| 5) C | 10) A | 15) C | 20) C |

## GLOSSARIY

**Absolut metod** – modda tarkibini bevosita tahlil qilish metodi.

**Aktivatsion tahlil** – modda atom yadrolarini aktivatsiya qilish usulida modda kimiyoviy tarkibini tahlil qilish metodi.

**Atom** – musbat zaryadlangan og‘ir yadro va manfiy zaryadlangan elektronlar qobiqlaridan tashkil topgan mikrozarra.

**Atom yadrosi** – musbat zaryadlangan protonlar va zaryadsiz neytronlardan tashkil topgan mikrozarra.

**Aktivlik** – radioaktiv moddalarning parchalanish tezligini tavsiflovchi kattalik. Birlik vaqt ichidagi parchalanishlar soni.

**Alfa-zarra** – geliy atomining yadrosi bo‘lib, ikkita proton va ikkita neytronlardan tashkil topgan.

**Beta-parchalanish** – yadrolarning o‘z-o‘zidan elektron, antineytrino (neytrino) chiqarib parchalanishi.

**Beta-zarra** – radioaktiv modda yadrolar parchalanishi natijasida chiqayotgan uch xil nurlanishlarning biri, ya’ni elektron.

**Betatron** – elektronlarni yuqori energiyagacha tezlatuvchi qurilma.

**Vodorod atomi** – bitta proton va bitta elektronidan tashkil topgan mikrozarra.

**Gamma-nurlar** – radioaktiv yadrolar parchalanishi natijasida chiqayotgan uch xil nurlanishlarning biri. Gamma-nurlar bu qisqa to‘lqin uzunlikka ega bo‘lgan elektromagnit nurlanishlar.

**Deyteriy** – vodorodning tabiiy turg‘un izotopi bo‘lib, u bitta neytron, bitta proton va bitta elektronidan tashkil topgan. «Og‘ir vodorod» ham deyiladi.

**Deytron** – deyteriy atomining yadrosi bo‘lib, u bitta neytron va bitta protonidan tashkil topgan.

**Ionizatsiya** – elektr neytral atomlarni aktiv ionlarga aylanish jarayoni.

**Ion** – elektronini yo‘qotgan yoki elektron biriktirib olgan atom.

**Izotop** – protonlar soni bir xil bo‘lgan yadrolar. Masalan, vodoroda uchta izotop mavjud.

**Izomer yadrolar** – protonlar va massa sonlari bir xil bo‘lib, radioaktivlik xususiyatlari har xil bo‘lgan yadrolar.

**Kvant sonlar** – kvant sistemalarning (atom, yadro, molekula va h.k.) tavsiflovchi fizik kattaliklarning qabul qiluvchi qiymatlarini aniqlovchi butun yoki kasr sonlar.

**Leptonlar** – kuchsiz o‘zaro ta’sirda ishtirok etuvchi zarralar bo‘lib, bularga elektron, myuon, taulepton va neytrinolar kiradi.

**Massa soni** – atom yadrosini tashkil etgan nuklonlar (proton va neytronlar) soni.

**Nuklon** – proton va neytronlarning umumiy noimlanishi. Yadro zarrasi degan ma’noni anglatadi.

**Mikrozarralar** – elementar zarralar, yadro, atom, molekulalar.

**Mikrotron** – elektronlarni yuqori energiyagacha tezlatuvchi qurilma.

**Molekula** – atomlardan tashkil topgan zarracha bo‘lib, u moddanning kimyoiy xususiyatlarini belgilaydi.

**Pauli prinsipi** – bitta atomda 4 ta kvant soni bir xil bo‘lgan elektron mavjud bo‘lmaslik prinsipi.

**Protiy** – yadrosi bitta protondan iborat bo‘lgan yengil vodorod atomi.

**Radioaktivlik** – yadroning o‘z-o‘zidan bir yoki bir nechta zarralar chiqarib parchalanish (yemirilish) hodisasi.

**Radioaktiv oilalar** – bir-biridan radioaktiv parchalanish natijasida hosil bo‘ladigan elementlar zanjiri. Tabiatda to‘rtta radioaktiv oila mavjud.

**Tritiy** – vodorodning tabiiy izotopi bo‘lib, u ikkita neytron, bitta proton va bitta elektrondan tashkil topgan «O‘ta og‘ir vodorod» ham deyiladi.

**Triton** – tritiy atomining yadrosi bo‘lib, ikkita neytron va bitta protondan iborat.

**Rentgen nurlanishlari** – juda qisqa to‘lqin uzunlikka ega bo‘lgan elektromagnit nurlanishlar ( $0,06 \text{ E} \leq 1 \leq 20 \text{ E}$ ).

**Fermionlar** – spin kvant sonlari butun yarim qiymatlar qabul qiladigan zarralar.

**Foton** – elementar zarra, elektromagnit nurlanishlarning kvanti.

**Yadro reaksiyasi** – yuqori energiyali mikrozarralar yoki yengil yadrolarning yadro bilan o‘zaro ta’sirlashishi natijasida yadro ichki holatining o‘zgarishi yoki yangi yadro hosil bo‘lish jarayoni.

**Yadro reaksiya kesimi** – reaksiya yuz berish ehtimolligi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. T.M. Muminov, A.B. Xoliquov. Sh.X. Xolmurodov. Atom yadrosi va zarralar fizikasi. T.: O'zbekiston faylasuflar jamiyati, 2009.
2. Kadilin V.V., Miloserdin V.Yu., Samosadniy V.T. Prikladnaya yadernaya fizika. Uchebnoe posobiye. M.: MIFI, 2007.
3. Muxin, K.N. Eksperimentalnaya yadernaya fizika / K.N. Muxin. – SPb.–M.–Krasnodar: Lan, 2009. – T. 1. – S. 297–363.
4. Polvonov S.R., Kanokov Z., Karaxodjayev A., Ruzimov Sh.M. Yadro fizikasidan masalalar to'plami. O'quv qo'llanma. Toshkent, O'zMU, 2006.
5. Kayumov M.A. Dozimetriya asoslari va ionlashtiruvchi nurlanishlardan himoyalanish. T.: Davr, 2013.
6. Fizicheskiye velichini. Spravochnik. – M.: Energoatomizdat, 1991.
7. Shirokov Yu.M., Yudin N.P. Yadernaya fizika, M.: Nauka, 1980.
8. Bekjonov R.B. Atom yadrosi va zarralar fizikasi. Toshkent, O'qituvchi, 1994.
9. Irodov I. Ye. Sbornik zadach po atomnoy i yadernoy fizike. uch. pos. Atomizdat. M. 1971.
10. Teshaboyev Q.T. Yadro va elementar zarralar fizikasi. O'qituvchi, Toshkent, 1992.
11. Irodov, I. Ye. Zadachi po kvantovoy fizike. – M.: Vissnaya shkola, 1991.
12. Xoll E.Dj. – Radiatsiya i jizn – M., Meditsina, 1989.
13. Yarmonenko S.P. – Radiobiologiya cheloveka iivotnih. M., Vissnaya shkola, 1988.
14. Praktikum po yadernoy fizike – M., Izd-vo MGU, 1980. Shirokov Yu.M., Yudin N.P. – Yadernaya fizika – M., NAUKA, 1980.
15. Morey A.N., Barxudarov R.M., Novikov N.Ya. Globalniye vipadeniya tseziya-137 i chelovek. M.: Atomizdat, 1974.
16. Mosieyev A.A. Seziy-137. Okrujayushaya sreda. Chelovek. M., Energoatomizdat, 1985.
17. Shukolyukov Yu.A. Delekiye yader urana v prirode. M.: Atomizdat, 1970.

18. Vasilenko I.Ya. – Radiatsionniye porajeniya produktami yadernogo deleniya – Zdravooxraneniye Belorussii. 1986, N12.
19. Informatsiya ob avari na Chernobilskoy AES i yevo posledstviyax, podgotovlennaya dlya MAGATE – Atomnaya energiya, 1986. t. 61, vip. 5., s. 301-320.
20. Normi radiatsionnoy bezopasnosti (nrb-2006) i osnovnye sanitarniyе pravila obespecheniya radiatsionnoy bezopasnosti (os-porb-2006). [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
21. Biologicheskoye deystviye produktov yadernogo deleniya. Metabolizm i ostriye porajeniya – Radiobiologiya, 1992, t.32, v.1, s.69-78.
22. Biologicheskoye deystviye produktov yadernogo deleniya. Otdalenniyе posledstviya porajeniya – Radiobiologiya, 1993, t.ZZ, v.Z, s. 442-452.
23. Ivanov, V. I. Kurs dozimetrii / V. I. Ivanov. – M.: Atomizdat, 1978. – S. 12–36.
24. Shultis, J. K. Radiation shielding / J. K. Shultis, R. E. Faw. – Illinois:
25. American Nuclear Society, Inc., 2000. – P. 28-72.
26. Vasilenko O.I. – «Radiatsionnaya ekologiya» – M.: Meditsina, 2004.
27. Rose, H. J. and Jones, G. A. (1984-01-19). «A new kind of natural radioactivity». *Nature* 307: 245–247. DOI: 10.1038/307245a.
28. Baum, E. M. et al. (2002). Nuclides and Isotopes: Chart of the nuclides 16th ed.. Knolls Atomic Power Laboratory (Lockheed Martin).
29. Aleksandrov D.V. i dr. Pisma v JETF. 1984 t.40 s152
30. Kuklin S.N., Adamian G.G., Antonenko N.V. Spectroscopic factors and cluster decay half-lives of heavy nuclei.//Phys. Rev. C.71, 014301(2005).
31. Kuklin S.N., Shneidman T.M., Adamian G.G., Antonenko N.V. Alpha-decay fine structures of U isotopes and systematics for isotopes chains of Po and Rn.//Eur. Phys. J. 2012, A48, p.112-120.
32. <http://www.nndc.bnl.gov>
33. <http://www.oecd-nea.org>
34. <http://www-nds.iaea.org>
35. G. Audi, O. Bersillon, J. Blachot and A. H. Wapstra (2003).

«The NUBASE evaluation of nuclear and decay properties». *Nuclear Physics A* 729: 3–128. DOI:10.1016/j.nuclphysa.2003.11.001.

36. List of Adopted Double Beta (BB) Decay Values. National Nuclear Data Center. Brookhaven National Laboratory, 2010. Brookhaven National Laboratory Report BNL-91299-2010.

37. Ajabov A.K., Muxamedov A.K., Poteshkin G.V., Mamatqulov O.B., Muminov I.T., Rashidova D.Sh. «Vertikalnaya migratsiya  $^{137}\text{Cs}$  v nekotorix pochvax Uzbekistana». Atomnaya energiya, t.87, vip.4, 1999, s. 311-314.

38. Alimov G.R., Rashidova D.Sh., Xolbayev I., Mamatqulov O.B., Muminov I.T., Xudayberdiyev A.T., Begimkulov X.X., Muxamedov A.K., Poteshkin G.V., Xazratov T. Gamma-spektrometricheskoye opredeleniye soderjaniya radionuklidov v pochvax. Uzbekskiy fizicheskiy журнал, №5-6, 2000, s.447-455.

39. <http://www.phys.msu.ru>

40. <http://nuclphys.sinp.msu.ru>

41. <http://cdfe.sinp.msu.ru/index.ru.html>

42. <http://cdfe.sinp.msu.ru>

# MUNDARIJA

SO'ZBOSHI .....	3
KIRISH .....	5

## I BOB. RADIOAKTIVLIK HODISASI

1.1-§. Radioaktivlik hodisasining umumiy tavsifi .....	6
1.2-§. Radioaktiv parchalanishning asosiy qonunlari .....	9
1.3-§. Alfa-parchalanish .....	14
1.4-§. Beta-parchalanish .....	18
1.5-§. Gamma-nurlanish .....	23
1.6-§. Ichki konversiya hodisasi .....	27
1.7-§. Myossbauer effekti va uning qo'llanilishi .....	30
1.8-§. Klaster radioaktivlik .....	37
1.9-§. Qo'shaloq beta-parchalanishlar .....	47
1.10-§. Neytron radioaktivlik .....	48
1.11-§. Radioaktiv parchalanish jarayonlarining sinflarga bo'linishi .....	53
1.12-§. Radioaktiv fon .....	54
1.13-§. Tabiiy radioaktiv aerozollar .....	60
1.14-§. Sun'iy radioaktiv fon .....	63
1.15-§. Seziy-137 radionuklidining tuproqdagi migratsiyasi .....	66
1.16-§. Radiatsion ekologiya .....	67
Masalalar yechish uchun namunalar .....	70
Mustaqil yechish uchun masalalar .....	75
Nazorat savollari .....	76
Test savollari .....	76

## II BOB YADRO REAKSIYALARI

2.1-§. Yadro reaksiyalarining ta'rifi. Asosiy tushunchalar .....	79
2.2-§. Yadro reaksiyalarining kesimi va chiqishi .....	81
2.3-§. Yadro reaksiyalarning yuz berish mexanizmlari .....	84
2.4-§. Fotoyadro reaksiyalar .....	87
2.5-§. Neytronlar ishtirokidagi yadro reaksiyalar .....	88
2.6-§. Aktivatsiya tenglamasi .....	92
2.7-§. Yadro xususiyati va yadro reaksiyalar bo'yicha ma'lumotlar markazlari .....	94
Masalalar yechish uchun namunalar .....	96
Mustaqil yechish uchun masalalar .....	101
Nazorat savollari .....	102
Test savollari .....	102

### **III BOB. YADRO URLANISHLARINING MODDA BILAN O'ZARO TA'SIRI**

3.1-§. Zaryadlangan og'ir zarralarning modda orqali o'tishi.....	108
3.2-§. Zaryadlangan yengil zarralarning modda orqali o'tishi .....	112
3.3-§. Vavilov-Cherenkov nurlanishi .....	115
3.4-§. Sinxrotron nurlanishlar .....	117
3.5-§. Zaryadlangan zarralarning kanallahishi. Kanallahish sharti. Lindxard burchagi.....	121
3.6-§. Gamma-nurlarning modda bilan o'zaro ta'siri .....	125
Masalalar yechish uchun namunalar .....	135
Mustaqil yechish uchun masalalar .....	139
Nazorat savollari .....	140
Test savollari .....	140

### **IV BOB. YADRO URLANISHLARINING TIBBIYOTDA QO'LLANILISHI**

4.1-§. Dozimetriya asoslari .....	144
4.2-§. Ionlashtiruvchi radiatsiyaning biologik ta'sir mexanizmi .....	150
4.3-§. Tashxis qo'yishda qo'llaniladigan radionuklidlar .....	154
4.4-§. Radioizotoplarni olish va ularning tibbiyotda qo'llanilishi .....	157
4.5-§. Yadro tibbiyotida qo'llanilayotgan radionuklidlarning sinflarga bo'linishi .....	158
4.6-§. Yod-123 radioizotopining tibbiyotda qo'llanilishi .....	160
4.7-§. Yadro reaktorlarida olinadigan radionuklidlar .....	165
4.8-§. Siklotronda radionuklidlar ishlab chiqarish.....	167
4.9-§. Elektron tezlatkichlarda radionuklidlar chiqishlarini aniqlash .....	171
4.10-§. Pozitron emission tomografiya .....	173
4.11-§. Pozitron emission tomografiyaning ishlash tamoyili .....	176
Masalalar yechish uchun namunalar .....	182
Mustaqil yechish uchun masalalar .....	186
Nazorat savollari .....	187
Test savollari .....	187

### **V BOB. AKTIVATSION TAHLIL**

5.1-§. Aktivatsion tahlil metodi .....	191
5.2-§. Miqdoriy natijalarni olish usullari .....	194
5.3-§. Aktivatsion tahlil sezgirligi. Aniqlanish va sezgirlik chegarasi .....	196
5.4-§. Aktivatsion tahlilning umumiy yo'nalishi.....	197

5.5-§. Neytron-aktivatsion tahlil .....	201
5.6-§. Gamma-aktivatsion tahlil .....	207
5.7-§. Zaryadlangan zarralar yordamida aktivatsion tahlil .....	214
5.8-§. Instrumental aktivatsion tahlilning spektrometrik metodlari.....	218
5.9-§. Gamma spektrometr .....	220
5.10-§. Aktivatsion tahlil o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan apparaturalar uyushmasi .....	229
Masalalar yechish uchun namunalar.....	235
Mustaqil yechish uchun masalalar .....	240
Nazorat savollari .....	241
Test savollari .....	241
<b>TEST SAVOLLARINING JAVOBLARI.....</b>	245
<b>GLOSSARIY .....</b>	247
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....</b>	249

B.S. YULDASHEV,  
S.R. POLVONOV, E.X. BOZOROV

## **AMALIY YADRO FIZIKASI**

*darslik*

Mas'ul muharrir: O'zR FA akademigi **B.S. Yuldashev**

Muharrir *J. Matyoqubov*  
Texnik muharrir *R. Ahmedov*  
Badiiy muharrir *D. Mulla-Oxunov*  
Kompyuterda sahifalovchi *F. Hasanova*

Nash.lits. № AA 0049. 18.03.2020.  
Bosishga 21.12.2020-yilda ruxsat etildi. Bichimi:  $60 \times 84 \frac{1}{16}$ .  
Offset bosma. «Times New Roman» garniturasi.  
Bosma tabog'i 16 b.t. Shartli b.t. 14,88.  
Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 8.

«Donishmand ziyyosi» nashriyoti.  
100011, Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy.

«Kamalak-PRESS» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
100011, Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Telefon: (71) 244-40-91.

**Amaliy yadro fizikasi [Matn]: darslik / Yuldashev B.,  
Yu 31 Polvonov S., Bozorov E. – Toshkent, «Donishmand ziyosi»  
MChJ, 2020. – 256 bet.**

**ISBN 978-9943-6445-8-8**

**UO·K 530(075)  
KBK 22.3**

**«DONISHMAND ZIYOSI»**

ISBN 978-9943-6445-8-8



A standard linear barcode representing the ISBN number 978-9943-6445-8-8.

9 7 8 9 9 4 3 6 4 4 5 8 8